

HAMIDULLA DADABOYEV,
SHOIRA USMANOVA

XORIJIY SOTSIOLINGVISTIKA







**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

HAMIDULLA DADABOYEV, SHOIRA USMANOVA

XORIJIY SOTSIOLINGVISTIKA

O'quv qo'llanma

**Toshkent
"Universitet"
2014**

O'zbek tilshunosligida ilk bor tayyorlangan mazkur qo'llanmada o'nta xorijiy davlatdagi bugungi til siyosati, tillar vaziyati, standart tillarning maqomi, ijtimoiy vazifasi, tillararo munosabat, o'zaro ta'sir, tillarning qo'llanish holati kabi masalalar yoritilgan.

Qo'llanma magistrantlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil izlanuvchilar hamda keng kitobxonlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir filol. fan. dokt. Z.Xolmanova

Taqrizchilar: filol. fan. dokt., prof. S.Muhamedova
filol. fan. dokt., prof. Q.Sodiqov

5A120102 – Lingvistika (o'zbek tili) magistratura
ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2013-yil 20-dekabrda 484-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU kengashining 2013-yil 24-aprelda 12-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN-978-9943-4306-2-4

KIRISH

“Xorijiy sotsiolingvistika”da rivojlangan oʻnta davlatdagi til siyosati, tillar vaziyati tasvirlanib, tavsiflanadi. Ushbu kurs magistratura mutaxassisligi “Oʻquv rejasi”dan oʻrin olgan “Nazariy tilshunoslik masalalari”, “Lingvokulturologiya”, “Psixolingvistika”, “Matn tilshunosligi”, “Pragmalingvistika” kabi fanlar bilan chambarchas aloqadorligi bilan tavsifnadi.

“Xorijiy sotsiolingvistika” magistrantlarni nafaqat AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Turkiya, Rossiya, Koreya, Xitoy, Yaponiya mamlakalaridagi tillar vaziyatini obyektiv tasvirlash va tavsiflash, shuningdek, qayd etilgan mamlakatlar davlat tillari, ularning maqomlari, ijtimoiy vazifasi, standart (davlat) va nostandart (nodavlat) tillar ijtimoiy xizmat doiralari, bilingvizm, diglossiya hodisalari, tillararo munosabat, oʻzaro taʼsir, til jamoalarida tillarning qoʻllanish holati, sotsium (jamoʻa aʼzolari)ning davlat tillariga munosabati, ularni amalda ishlatish darajasi va h.k. haqida bilim berishga moʻljallangan.

Predmeti asosan til amal qilishi va taraqqiyotining ijtimoiy shartlangan umumiy qonuniyati, jamiyatning tilga, tilning jamiyatga taʼsirini oʻrganishdan iborat hisoblangan sotsiolingvistika oraliq fanlar sirasiga kirib, tilshunoslik va jamiyatshunoslik (sotsiologiya) fanlaridan farqlangani sababli oʻziga xos tushunchalar, terminlar tizimiga ega.

XIX asrning oxiri – XX asr boshida jahon xaritasida yirik davlatlarning vujudga kelishi, dunyoning qudratli imperiyalar tomonidan taqsimlanishi, kichik, zaif yurtlarning mustamlakaga aylanishi, ularning buyuk davlatlar tarkibiga zoʻrma-zoʻraki kiritilishi, paydo boʻlgan imperiyalarda turfa millat, elat va xalqlarning hayot kechirishi, tabiiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy-madaniy muammolar bilan yonma-yon lisoniy masalalarning ham yuzaga chiqishiga olib keldi.

Muayyan mamlakatda hayot kechirayotgan har xil elat va millatlarning bir-biriga taʼsiri, tillararo munosabat, tillarning ijtimoiy hayotdagi vazifa va xizmatlarida avvalgi davrlarda mutlaqo koʻzga tashlanmagan jihatlar voqealana boshladi. Ushbu holat pirovard natijada sotsiolingvistikaga oid izlanishlar, gʻoyalalar, dunyoqarashlarning roʻyobga chiqishiga turtki boʻldi.

Ijtimoiy tilshunoslik o'tgan asrning 60-yillaridan jahon tilshunosligining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan bo'lsa, 80-yillarga kelib ilg'or sohalaridan biri sifatida fan sahnasiga dadil chiqdi. Zamonaviy sotsiolingvistika til(lar)ning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, roli, vazifasi va vaziyatining darajasini barometr yanglig' ko'rsatuvchi fan sohasi tarzida shiddat bilan taraqqiy etmoqda.

Shubhasiz, mavjud mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlar maqomi va mavqeyi rang-barang bo'lganidek, tillarning yoyilish, qo'llanish doirasi ham o'zgacha. Shu nuqtayi nazardan tillar vaziyati xususida haqiqatga mos xuloslarga kelish, tillarning jamiyat hayotidagi rolini belgilash, ertangi holatini bashorat qilish sotsiolingvistika, chunonchi, "Xorijiy sotsiolingvistika" kursining dolzarb masalalari hisoblanadi.

O'z o'rganish obyekti, nazariy poydevori, metodikasi, usul hamda metodlariga ega sotsiolingvistika A.D.Shveytser ta'kidlaganidek, tilshunoslik va sotsiologiya fanlarining shu sohaga muvofiq keluvchi bo'limlarining mexanik qo'shilmasidan iborat bo'lmay, balki ularning yagona ta'limot, izlanish maqsadlari va obyektining mushtarakligi, tadqiqot jarayonlari yig'indisi va ilmiy tushunchalari muvofiqligi negizida birlashgan mustaqil soha ekanligi bilan ajralib turadi.

O'zbek tilshunosligida ijtimoiy tilshunoslikning shakllanishi, rivojlanishini qamrovli va tizimli ravishda tasvirlaydigan ishlarning deyarli yo'qligi tufayli mazkur qo'llanma mavjud kemptiklikni muayyan darajada bartaraf etishga xizmat qiladi.

Qo'llanmani tayyorlashda Социоллингвистические исследования. М., 1976; Социоллингвистика. Киев, 1987; Проблемы зарубежной социоллингвистики. М., 1976; Крючков Т.Б., Наумов Б.П. Зарубежная социоллингвистика: Германия, Испания. М., 1991; Швейцер А.Д. Современная социоллингвистика. Теория, проблемы, методы. М., 1977: Языковая ситуация и социальная среда. Воронеж, 2000; Алпатов В.М. Япония: язык и общество. М., 2003; Клиновский В.А. Языковая политика КНР в Син-цзяне и ее роль в китайско-уйгурском конфликте // Вестник Томского ГУ. 2012. № 2(18) kabi asarlardan, ingliz, nemis, fransuz, turk, xitoy, koreys, yapon tillaridagi ilmiy adabiyotlardan, shuningdek, internet ma'lumotlaridan istifoda etildi.

1-MA'RUZA

AQSh SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. AQSh sotsiolingvistikasining vujudga kelishi
2. AQSh sotsiolingvistlarining qarashlari
3. Arealning sotsiolingvistik tarixi
4. AQSh tillari
5. Til variantlari va ularga munosabatlar
6. Siyosiy, ijtimoiy va etnik muammolar

Tayanch soʻzlar: til variantlari, farqlilik, mikrodaraja, makrodaraja, lisoniy jamoa, stratifikatsiya, kod, subkod, muloqot akti, verbal muomala, til differentsiatsiyasi, mahalliy tillar, hududiy dialektlar, ijtimoiy dialektlar.

1.1. AQSh sotsiolingvistikasining vujudga kelishi

“Sotsiolingvistika” termini AQShda 1952-yili fanga kiritildi. 1963-yildan boshlab tadqiqot yoʻnalishlari shakllana boshladi. AQSh sotsiolingvistikasining asosiy muammolari D.Xaymsning “Nutq etnografiyasi” nomli asarida tadqiq qilinib, “muloqot vaziyati”, “muloqot akti”, “lisoniy jamoa”, “muloqot salohiyati” kabi tushunchalar yoritildi¹.

AQSh sotsiolingvistikasi tamoman oʻzgacha metodologik tamoyillarda deskriptiv tilshunoslik (“tasviriy tilshunoslik”, yaʼni til hodisalarining maʼlum bir bosqichdagi holatini tasviriy oʻrganish)ga qarshi maydonga keldi. Deskriptiv tilshunoslikka xos boʻlgan mavhum lingvistik tahlillar va tadqiqotning formal metodlari baʼzi AQSh sotsiolingvistlarining til oʻrganishga ijtimoiy muomala shakllari sifatida qarashlarini inkor etar edi. Mashhur amerikalik sotsiolingvistlardan U. Labov, oʻzining “Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikatsiyasi” (lot.stratum-‘qatlam’ + facere-‘qilmoq’) (1966) nomli asarida erkin variatsiyalanishni distributiv (boʻlish, ajratish) munosabatlar bilan tushuntirib boʻlmaydigan, ekspressiv-stilistik, ijtimoiy va boshqa turli til variantlarining oʻziga xos lingvistik uyumi sifatida izohlagan. U. Labov “Til oʻzgarishlarini tushuntirishda nafaqat til ichki tizimlari munosabati, balki tashqi sotsiolingvistik munosabatlar taʼsirini ham eʼtiborga olish lozim”, - degan xulosaga keladi.

Sotsiolingvistlar deskriptivistlardan farqli oʻlaroq, lisoniy variativlikni til ichki tizimidagi oʻzaro munosabatlar nuqtayi nazaridan emas, aksincha, tilni ijtimoiy, oʻzaro bogʻlangan turli variantlarga ajralishi jihatidan oʻrgana

¹ Hymes D.H. The ethnography of speaking. "Anthropology and Human Behavior", ed. by Thomas Gladwin and W.C. Sturtevant. - Washington, D.C., 1962. -P. 15-53.

boshladilar. Amerika sotsiolingvistlari tilga yaxlit va bir turdagi tizim sifatida emas, balki jamiyatning mikroijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan o'zaro aloqadagi ost tizimlar (kodlar va subkodlar) tarzida munosabatda bo'lishadi.

Amerika sotsiolingvistikasining vazifalaridan biri variantlarning lingvistik va ijtimoiy funksional jihatdan o'rganishdir. Til sotsiologiyasi variantlarning xususiyatlari, jamiyatdagi funksiyalari, o'zaro munosabatlari, ularda so'zlashuvchilarning o'ziga xosliklari, shuningdek, variantlarning jamiyatdagi rivojlanishi va o'zgarishini o'rganadi. Amerika olimlari zamonaviy taraqqiy etgan jamiyat uchun bir til jamoasida bir qancha lisoniy variantlarni qo'llash xos, deb hisoblashadi.

Shu bilan birga, Amerika sotsiolingvistikasi til sotsiologiyasi tahlilining ikki darajasini, ya'ni mikrodaraja va makrodarajasini taklif qiladi. Mikrodarajadagi tadqiqotda asosiy e'tibor muloqot vaziyatining xususiyatini hisobga olgan holda, nutq hodisasining lisoniy tahliliga qaratiladi. Til sotsiologiyasi mikrotahlilining unsuri "muloqot akti" hisoblanadi. Til sotsiologiyasining mikrodarajasi nutq va shaxslararo muomalaning xususiyatlari bilan qiziqadi. Til sotsiologiyasining makrodarajasi esa ijtimoiy muhitda qo'llaniladigan lisoniy variantlarning ijtimoiy va psixologik tomonlariga tayanadi.

Turli nazariy qarashlarga ega bo'lgan Amerika sotsiolingvistikasi pozitiv falsafaning tamoyillari, chunonchi, semantik pozitivizm g'oyalari kuchli ta'sirida bo'lib, ular "ijtimoiy antropologiya"da mujassamlashgan. Mazkur oqimga ko'ra, barcha til shakllari umumiy toifa ost sinflari – madaniy shakllar toifasini tarkib toptiradi. Til ijtimoiy munosabatlar tuzilishini o'z ichiga olgan madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tasavvur qilinadi.

1.2. AQSh sotsiolingvistlarining qarashlari

AQShda "Sotsiolingvistika" fani predmetini aniqlashda qat'iy bir qarashning yo'qligi bois, amerikalik olimlarning bu sohadagi tadqiqotlari obyektida umumiy va xususiy ko'rinishdagi turli muammolarni vujudga keltirib, mazkur termini keng tushunilishiga olib keldi.

X. P. Ronaning fikricha, sotsiolingvistikaning kamchiligi uning fan sifatida haligacha aniq yo'nalishining belgilanmaganligidir. Sotsiolingvistikaning faqat tilning sotsial jihatlarini tadqiq qilishigina ma'lum. Juda kam holatlarda (asosan, mikrosotsiolingvistika sohasida) mazkur fanning muayyan vazifalari va nazariyalari ishlab chiqilganini ko'rish mumkin.

U.Labov sotsiolingvistikani aniq chegaralangan fan sifatida boshqa fanlardan ustun turishini yozgan. A.D. Grimsho sotsiolingvistikani lingvistik ma'lumotlarni jamiyat hodisalari bilan bog'lab o'rganish natijasida yuzaga kelgan gibrid fan sifatida baholagan.

J.O. Gerslarning "Til sotsiologiyasi" ("A Sociology of Language", 1965) asaridan boshlab e'lon qilingan qator nashrlarda sotsiolingvistikaning muammolari va ularning yechimi uchun turli usullar taklif qilingan bo'lsa-da, ularning hech birida biron bir metodologiya mavjud, deb bo'lmaydi.

AQSh sotsiolingvistikasining konglomerat (turli-tumanlik) darajasini J.A. Fishmanning "Til jamiyatidagi ma'ruzalar" ("Readings in the Society of Language") nomli to'planiga kirgan 50-yillarning lingvistlari, sotsiologlari, madaniyat antropologlari, dialektologlari va kommunikatsiya sohasi turli mutaxassislarining maqolalaridan ham ko'rish mumkin. Kitobning "So'zboshi"da J.A.Fishman "til sotsiologiyasi" va "sotsiolingvistika" terminlarining sinonim sifatida qo'llanishiga e'tibor qaratadi.

A. Keypel sotsiolingvistik muammolar tadqiqini, asosan, terminologik jihatdan chegaralaydi. Uning fikricha: "Etnolingvistika" termini "sotsiolingvistika" terminiga ko'ra umumiyroq xarakterga ega bo'lsa-da, "sotsiolingvistika" termini ma'quldir, chunki bu nomning o'zi o'zini aniqlab keladi". Bu bilan olim lingvistika fanining terminologiyasi o'zining soddaligi bilan ajralib turishi lozimligini ta'kidlaydi.

U. Labov: "Sotsiolingvistikaning yolg'iz o'zi birdan-bir maqsad emas. Shuning uchun ham tilshunoslar sotsiolingvistikaga nisbatan ko'proq evolyusiyaga muammolariga, xususan, jamiyat, til, jamiyat strukturasi hamda til strukturasi kabilarga e'tibor qaratishlari lozim", - deb hisoblaydi¹.

S. M. Ervin-Tripp kommunikatsiya jarayonidagi muloqot ishtirokchilarning verbal muomalasiga sotsiolingvistikaning asosiy predmeti sifatida qaraydi: "Sotsiolingvistika ishtirokchilarning holatga, mavzuga, o'zaro ta'sir vazifalariga, shakl va baholarga ko'ra verbal muomalasi bilan ish ko'radi. Mazkur ta'rifning markazi verbal muomala (so'zlashuv va uning muqobillari) hisoblanadi. Bu o'rinda tizimni to'liq tavsiflash uchun lingvistik belgilarning funksional muqobillari sanalgan imo-ishoralari va tasvirlarni ham kiritish lozim bo'ladi. Biroq verbal muomala yuqori darajadagi to'liq tizim sifatida o'zini har joyda namoyon qiladi. Shunga ko'ra, uni qulay boshlang'ich nuqta deyish mumkin"².

S.M.Ervin-Trippning metodlarida ikkita kamchilik ko'zga tashlanadi:

¹ Labov W. Phonological correlates of social stratification. AA, 66 (6), part 2, 1964. - P. 170.

² Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социоллингвистика. - М., 1975. - С. 336.

1) o'zining o'ta sinxron tavsifi bilan ko'p narsa tushunarsiz qolib, strukturalistik nuqtayi nazarlarni to'la yenga olmaganligi, 2) tadqiqotning mikrosotsiologik yo'nalishi va materialini faqatgina chegaralangan ko'lamda umumlashtirishga imkon berilgani.

U. Braytga ko'ra, sotsiolingvistika – bu ajoyib tarzda o'sayotgan bola, biroq uning voyaga yetishi hali tugallanmagan. Sotsiolingvistik tadqiqotlar til va jamiyat munosabatlari bilan bog'liq bo'ladi. Biroq bunday qarash ham noaniqlikni keltirib chiqaradi. Agar biz bunga aniqlik kiritadigan bo'lsak, unda til va jamiyat shunchaki qandaydir birliklarning majmuyi emas, balki ular struktura hisoblanadi. Mazkur holatda sotsiolingvistning vazifasi til strukturasi va ijtimoiy strukturadagi o'zaro munosabatlar tizimini ochib berish bo'ladi. Ya'ni sotsiolingvistlarning vazifasi lingvistik strukturaning sistematik qo'shma variatsiyalashuvini ko'rsatib berish, hatto, u yoki bu yo'nalishning tasodifiy aloqasini ochib berishdan iboratdir. Sotsiolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri mazkur variatsiyalarning haqiqatan ham "erkin" emasligi, ularni sistematik, sotsial farqlar bilan o'zaro aloqada ekanligini ko'rsatib berishdir. Til farqlarini ana shunday keng planda tushunish sotsiolingvistikaning asosiy obyekti sanaladi¹.

U. Braytning fikricha, bunday ta'rif ham, o'z navbatida, sotsiolingvistik tadqiqotlarning barcha turli-tumanligini qamrab ololmaydi. Shunga ko'ra, u sotsiolingvistikaning yetti o'lchovini (dimensions) ko'rsatib o'tadi. Agar ushbu sohaning asosiy tushunchasini aynan farqlilik, deb izohlanadigan bo'lsa, u holda, tadqiqotning muhim yo'nalishlari til farqlarining *shartlanganligi* bilan bog'liq bo'lishini taxmin qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu termin aynan til farqlari bilan o'zaro munosabatdagi rang-barang ijtimoiy shartlangan omillarni o'z ichiga oladi. Bu omillarning soni vaziyatga ko'ra o'zgarishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, ko'pchilik o'rganilgan holatlarda (muloqot jarayonida) uch muhim oqim: *adresant* (sender), *adresat* (receiver) va *vaziyat, sharoit* (setting) mavjud bo'ladi.

1. *Adresant* (yoki so'zlashuvchi)ning ijtimoiy mansubligi. Bu nutqdagi farqlar ijtimoiy stratifikatsiya farqlari bilan mos kelganda, "sinfiy dialektlar" holatida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunonchi, Hindistondagi tabaqaviy dialektlarni, shuningdek, "erkak" va "ayol"lar nutqidagi farqlarni² misol tariqasida keltirish mumkin.

2. *Adresat* (yoki tinglovchin)ning ijtimoiy mansubligi. Bu jihat Sharq tillarida o'zidan kattalarga murojaat qilganda, maqomiga ko'ra alohida

¹ Брайт У. Введение: параметры социолингвистики //Новос в лингвистике. Вып. VII. -М., 1975. -С. 34-41.

² Furfey P.H. Men's and women's language. "American Catholic Sociological Review".-Vol. 5, 1944. -P. 218-223.

hurmatni ifodalovchi leksika qo'llanilgan hollarda¹ kuzatiladi. Ayni omil bilan bog'liq bo'lgan nutqning yana bir alohida uslubi - bolalar nutqi (ingliz va boshqa qator tillar doirasida mavjud)dir. Unda bolalarning emas, aksincha, ular bilan so'zlashadigan kattalarning nutq uslubi nazarda tutiladi². Shuningdek, adresat maqomi bilan shartlangan nutqning boshqa turlariga nutkalar (nutka yoki nuu-cha-nult - asosan, Kanadada yashaydigan hindular qabilasi) tarafidan bukri, bir ko'zi ko'r, pakana va sunnat qilinmagan erkaklarga nisbatan qo'llaniladigan maxsus nutq uslubini kiritish mumkin³.

3. Kommunikatsiya uchun muhim (relevant) bo'lgan kontekst. Mazkur o'lchov vaziyat bo'lib, u individlar tavsifiga aloqador bo'lmagan muloqot kontekstidagi barcha aloqador, muhim unsurlarni qamrab oladi. Ular, masalan, apachalar tilida maxsus qo'llanilgan "harbiy metaforalarda"⁴ yoki deyarli barcha tillarda ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'langan turli rasmiy va norasmiy uslublarda namoyon bo'ladi. Rasmiy va norasmiy uslublar shakli va vazifasiga ko'ra keskin farqlangan bunday holatlarga arab tilida so'zlashuvchi davlatlar, Gretsiya va Gaiti oroli, Shveysariyaning nemis tilida so'zlashuvchi qismi hamda Janubiy Hindistonning katta qismida mavjud bo'lgan *diglossiya* vaziyatini ko'rsatish mumkin⁵.

Tabiiyki, yuqorida qayd qilingan uch o'lchov aslo bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular ijtimoiy muomalaning alohida turini shart qilgan holda, bir-biri bilan kesishib, biri boshqasini to'ldiradi. Masalan, Yava hindularining erkak va ayollar nutqi adresant va adresat ko'rsatkichiga ega. Chunonchi, "erkaklar nutqi" adresant yoki adresat erkak bo'lsa, "ayollar nutqi" esa faqat ayollarning o'zaro suhbatida qo'llangan⁶. Yavaliklarning to'liq nutq etiketi *adresant*, *adresat* va albatta, *vaziyat* omillarini o'z ichiga olgan. Shuningdek, bu uch omildan har biri alohida holatlarda bir qancha mayda parchalarga ajralib ketishi ham mumkin. Jumladan, adresant yoki adresat turiga xoslangan til qo'llanishi yosh, ijtimoiy mavqe, yaqin qarindoshlik munosabatlari singari omillar majmuyining o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lishi mumkin.

4. Nutqiy muomalaga emas, balki tadqiqot maqsadiga bog'liq holda tanlanadigan sinxron va diaxron metodlar. Sotsiolingvistikaning boshqa

¹ Martin S. Speech levels in Japan and Corea. "Language in Culture and Society", ed. by Dell Hymes. - New York, 1964. -P. 407-412.

² Ferguson Ch. A. Baby talk in six languages. in Gumperz and Hymes, 1964. -P. 103-114.

³ Sapir E. Abnormal types of speech in Nootka, 1915. Reprinted in "Selected Writings of Edward Sapir", ed. by David G. Mandelbaum. - Berkeley, 1949. -P. 179-196.

⁴ Opler M.E. and Hoijer H. The raid and war-patch language of the Chiricahua Apache // American Anthropologist. -Vol. 42, 1940. -P. 617-634.

⁵ Ferguson Ch. A. Baby talk in six languages. in Gumperz and Hymes, 1964. P. 103-114.

⁶ Sapir E. Male and female forms of speech in Jana, 1929. Reprinted in "Selected Writings of Edward Sapir", ed. by David G. Mandelbaum. - Berkeley, 1949. -P. 206-212.

o'lovchilari nutqiy muomala farqlariga emas, balki tadqiqot vazifasi va hajmiga asoslanadi. Sotsiolingvistikada boshqa sohalarida bo'lgani kabi *sinxron* va *diaxron* tadqiqotlar bir-biridan farq qiladi. Masalan, Hindistondagi tabaqaviy dialektlarni o'rganish borasida har ikkala turdagi ishlarni ko'rsatish mumkin: J.Gampers¹ bir qishloqdagi tabaqaviy dialekt bilan hind tilining zamonaviy farqlari va funksiyalariga diqqat-e'tiborini qaratgan bo'lsa, U.Brayt va A.Ramanujanlar² Janubiy Hindistonning tabaqaviy dialektlaridagi lahjaviy tafovutlarni tarixiy nuqtayi nazardan izohlashga harakat qilishgan.

5. So'zlashuvchi tomonidan nutqiy muomalani baholash. Muammoning yana bir jihati - kishilarning tilni qanday *qo'llashlari*, o'zlari va boshqalarning nutqiy muomalasi haqida qanday *o'ylashlari* bo'lib, mazkur masala X. Xoenigsvald tomonidan UCLA (University of California, Los Angeles) anjumanining kun tartibiga qo'yilgan edi³. Binobarin, aksariyat mamlakatlarda xalq muhitida "yuqori // quyi nutq" tushunchasini "rasmii // norasmii" ma'nosi bilan aralashtirish, "yuqori // quyi nutq"ni adresantning ijtimoiy mavqeyi natijasi, deb tushunish an'anasini kuzatish mumkin. Bunday holatlarda tadqiqotchi "xalq zakovatining domiga ilinmasligi", xalq nuqtayi nazarini real til muomalasining aksi, deb qabul qiymasligi kerak. Ayni chog'da, xalq nuqtayi nazarining o'zi sotsiolingvistik vaziyatning bir bo'lagi va uni alohida ko'rib chiqish lozimdir.

6. Til differentsiatsiyasining darajasi: a) ko'p dialektlilik, b) ko'p tillilik, d) ko'p jamoalilik.

a) ko'p dialektlilik (multidialectal) holatida *bir* tilning ijtimoiy shartlangan variantlari bir jamiyat yoki bir xalq doirasida qo'llaniladi. Bunga Buyuk Britaniyadagi *U* (Upper class "yuqori sinf") nutqining *no-U* nutqiga qarama-qarshi qo'yilishini yoki Janubiy Hindistondagi tamillarning rasmii va norasmii nutqidagi farqlarni misol qilish mumkin.

b) ko'p tillilik (multilingualism) holatida bir jamiyat yoki bir xalqning ichida turli tillarning qo'llanishi nazarda tutiladi. Mazkur hodisani Belgiya, Gana, Hindiston, Kanada, Paragvay (misollarni barcha mintaqalardan olinganini ko'rish mumkin) singari ko'p tilli millatlar yashagan davlatlarda kuzatish mumkin.

d) ko'p jamoalilik (multisocial) holatida turli jamoalarda har xil tillarda so'zlashiladi. Bunda tadqiqotchining vazifasi – Uorfning gipotezasiga

¹ Gumperz. J.J. Dialect differences and social stratification in a North Indian village // American Anthropologist -Vol. 60, 1958. -P. 668-682.

² Bright W. and Ramanujan A.K. Sociolinguistic variation and language change // Proceedings of the 9th International Congress of Linguistics. - The Hague, 1964. -P. 1107-1113.

³ Hoenigswald H.M. A proposal for the study of the folk-linguistics // Sociolinguistics. -The Hague - Paris. 1966 -P. 16-20.

suyangan holda, til strukturasi va madaniyatning mazkur tilga aloqador o'zaro munosabatini, ya'ni til farqlari va ijtimoiy farqlar o'rtasidagi mosliklarni topishdan iborat bo'ladi. Uorf xopilar tili grammatikasi va xopilarning ijtimoiy birlashmalari o'rtasidagi muayyan aloqani faraz qilgani holda (garchi buni qilmagan bo'lsa ham), mazkur ma'lumotlarni ingliz tili grammatikasi yoki SAE (Standart American English "Amerika inglizchasi standarti") bilan SAEnging ijtimoiy birlashmalari orasidagi mosliklarni qiyoslashi mumkin edi. Bunga o'xshash tadqiqotni J.Fisher truklarning ijtimoiy hamda til strukturalarini va Ponape aholisini tahlil qilish orqali amalga oshirgan¹.

7. Sotsiolingvistikaning qo'llanish doirasi: a) sotsial (ijtimoiy) diaqnoz, b) til tarixi, d) til siyosati;

a) sotsial diaqnoz sotsiologning qiziqishlarini aks ettiradi. Sotsiolog uchun sotsiolingvistik ma'lumotlar birinchi navbatda – ijtimoiy strukturani to'raligicha yoki ijtimoiy hodisalarning qandaydir qismini ochib beruvchi diagnostik ko'rsatkichlar hisoblanadi. Masalan, Janubiy Hindistondagi rasmiylik darajasiga ko'ra ikki hadli farqlar kombinatsiyasida kuzatilgan tabaqaviy dialektlarning uch qismga bo'linishini boshqa ma'lumotlarga qiyoslash mumkin. Ana shunda Janubiy Hindiston aholisiga xos bo'lgan ijtimoiy farqlar, shuningdek, vaziyatning ijtimoiy shartlangan farqlari to'raligicha namoyon bo'ladi. Shuningdek, bunday usul bilan kishilar va vaziyatning ijtimoiy aloqada bo'lishini aniqlash mumkin. Shuning uchun tadqiqotchi lisoniy mezonlarni kishilarga va vaziyatga tegishli bo'lgan xususiy farqlar tasnifini belgilashda qo'llashi mumkin;

b) til tarixi tilshunos-tarixchi qiziqishlarini aks ettiradi. Unda quyidagi muammolarning yechimi ko'zda tutiladi: Turli ijtimoiy sharoitlarda til o'zgarishlari turlicha kechadimi? Ular bir tilning har xil ijtimoiy dialektlari doirasida bir maromda va bir xil tezlikda kechadimi? Til tarixi ijtimoiy dialektlarning o'zaro ta'sirini qanday aks ettiradi? Ko'rsatilgan muammolarning tadqiqi yo mavjud tarixiy hujjatlarni tahlil qilish yo'li bilan yo U.Labov amalga oshirganidek, til o'zgarishlarining zamonaviy jarayonlarini o'rganish² orqali ro'yogga chiqarish mumkin;

d) til siyosati tilni planlashtirish bilan shug'ullanayotganlarga tegishli bo'lib, ular rasmiy til siyosati shakllanishiga bevosita aloqador bo'lgan tilshunoslar, ta'lim xodimlari, huquqshunoslar va rahbarlardir. Ular bir qancha tillar va dialektlar mavjud bo'lgan muayyan jamiyatni o'rganish jarayonida quyidagi savollar bilan to'qnashadi: Tilning qaysi variantlari

¹ Fisher J.L. Syntax and Social Structure: Truk and Ponape // Sociolinguistics. -The Hague - Paris, 1966.-P. 168-183.

² Labov W. The social motivation of a sound change // Word. -Vol. 19, 1963. -P. 273-309; Labov W. Phonological correlates of social stratification. In Gumperz and Hymes, 1964. -P. 164-176.

“rasmiy” yoki “milliy” tillar, deb tan olinishi kerak? Mazkur variantlardan qay birini rasmiy matbuot, badiiy adabiyot, ta’lim muassasalari va sud jarayonlarida qo‘llash mumkin? Tasdiqlanmay qolgan boshqa til variantlariga nisbatan rasmiy munosabat qanday bo‘lishi lozim? Millatning siyosiy stratifikatsiyasi tilning bo‘linishiga qay tarzda mos kelishi kerak? Bunda yozuv tizimlarining rivoji va me’yorlashuvi qanday bo‘ladi?

Qayd qilingan o‘lchovlarda Amerika sotsiolingvistikasining geterogen xususiyati uning turli maxsus sohalari bilan aniq ko‘rsatib berilgan. Mazkur o‘lchovlar keyingi yillarda amalga oshirilgan sotsiolingvistik tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, izlanishlarning ko‘pgina yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish lozim bo‘ladi, chunki vujudga kelgan yangi muammolar yangi ma’lumotlarni talab qiladi.

1.3. Arealning sotsiolingvistik tarixi

1990-yilgi aholini ro‘yxatdan o‘tkazish hisobotida AQShda 329 ta tilda gaplashadigan turli lingvistik farqlilik qayd qilingan. Bular 175 ta tilni o‘z ichiga oladigan 55 ta sof mahalliy Amerika til oilalaridir¹.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar dastlabki mahalliy amerikaliklarning taxminan 12 ming yil oldin Bering bo‘g‘ozi (Bering Strait)dan kechib kelganliklariga ishonishadi. Gavay polinezey tili (Avstroneziya til oilasiga kiradi) Gavayga eramizning 500 yillarida kirib kelgan. Birinchi yevropaliklar bu yerga kamida 500 yil muqaddam kelib, ingliz tilini yetakchi tilga aylantirishgan. Mustamlakachilik davridan to hozirgacha yashayotgan fransuz, nemis, ispan tillari esa “cho‘ntak”da qolib ketgan. Keyingi muhojirlar dunyoning barcha mintaqalaridan boshqa tillarni olib kelganlar. Sotsiolingvistik adabiyotlarda yaxshi tanilgan, hududiy dialektlarga ega bo‘lgan Amerika inglizchasi bilan birga, Afrika-Amerika dialekti inglizchasi (Black English) e’tibor qaratilgan.

1.4. AQSh tillari

1.4.1. AQShdagi mahalliy tillar va til oilalari

Amerika mahalliy tillarining katta qismini navajo (80.000), shuningdek, alyaska-yupik (20.000), sioks (20.000), yunon (18.900), papago (15.000) va choktav (11.000) tillari tashkil qiladi. AQShning barcha mahalliy tillari hozir yo‘qolish tahlikasi ostidadir. Hatto, navajo tili ham o‘quvchilarning juda oz qismi tomonidan o‘rganiladi. Qayd qilingan tillarda, asosan, keksa yoshdagi mahalliy aholi so‘zlashadi.

AQShning mahalliy til oilalari quyidagi ro‘yxatda keltirilgan. Mazkur ro‘yxatda “o‘lik” (extinct) tillarning nomi oldidan † belgisi qo‘yilgan. Qayd

¹ Campbell L. Sociolinguistics in the USA. - New Zealand: University of Canterbury, 2000. -P. 107.

qilingan til oilalarining aksariyati Kanada va Meksikada ham mavjud, biroq bu yerda faqat AQSHdagi tillargina o'z ifodasini topgan¹:

1. Eskimos-aleut (Aleut oroli, Alyaska, Sibir, Kanada)
2. Iyak-Atabaskan (Alyaska, Kanada, Oregon, Arizona, Kaliforniya, Oklaxoma)
3. Tlingit (Alyaska, Kanada)
4. Xayda (Alyaska, Buyuk Kolumbiya)
5. Simshi (Alyaska, Buyuk Kolumbiya)
6. Vakasha (Vashington)
7. Chimakum (Vashington)
8. Solish (Vashington, Buyuk Kolumbiya, Aydaxo)
9. Kutenay (Aydaxo, Montana, Buyuk Kolumbiya)
10. Chinuk (Oregon, Vashington)
11. † Alsea (Oregon)
12. † Sayslov (Oregon)
13. Kusa (Oregon)
14. † Kalapuya (Oregon)
15. † Takelma (Oregon)
16. Saxapti (Oregon, Aydaxo, Vashington)
17. Klamat-Modok (Oregon, Kaliforniya)
18. † Kayus (Oregon)
19. † Molale (Oregon)
20. † Shasta (Kaliforniya)
21. Karok (Shimoliy-g'arbiy Kaliforniya)
22. † Chimariko (Shimoliy-g'arbiy Kaliforniya)
23. Palayni (Shimoliy-sharqiy Kaliforniya)
24. † Yana (Shimoliy-markaziy Kaliforniya)
25. Pomo (Shimoliy-markaziy Kaliforniya)
26. Vasho (Sharqiy-markaziy Kaliforniya, G'arbiy Nevada)
27. † Essele (Kaliforniya)
28. Solina (Kaliforniya)
29. † Chumash (Janubiy Kaliforniya)
30. Yuma (Kaliforniya, Arizona)
31. Vintu (Shimoliy-markaziy Kaliforniya)
32. Meydu (Janubiy-markaziy Kaliforniya)
33. Mivok-Kostano (Markaziy Kaliforniya, Shimoliy-g'arbiy Kaliforniya, Janubiy-g'arbiy Kaliforniya, Monterrey)
34. Yokuts (Janubiy-markaziy Kaliforniya)

¹ Campbell L. American Indian languages: the historical linguistics of Native America. - New York: Oxford University Press, 1997. -P. 107-155.

35. Yuki (Shimoliy-markaziy Kaliforniya)
36. Yuto-Atstek (Oregon, Aydaxo, Nevado, Kaliforniya, Yuta, Arizona, Kolarado, Meksika)
37. Keres (Nyu-Meksika)
38. Kiyova-Tano (Oklaxoma, Nyu-Meksika)
39. Syuni (Nyu-Meksika)
40. Siu (Shimoliy va Janubiy Karolina, Missisipi, Ayova, Shimoliy Dakota)
41. Kaddo (Oklaxoma, Shimoliy Dakota)
42. † Aday (Luizina)
43. † Tonkava (Texas)
44. † Karankava (Texas)
45. Koauylteko (Texas, Meksika)
46. † Aranama-Tamikve (Texas)
47. † Atakapa (Luiziana, Texas, G'arbiy Atakapa, Sharqiy Atakapa)
48. † Chitimacha (Luiziana)
49. † Tunika (Luiziana)
50. † Nechets (Luiziana, Missisipi)
51. Maskogi (G'arbiy Maskogi, Missisipi, Oklaxoma, Luiziana, Texas, Florida)
52. † Timukua (Florida)
53. Yuchi (Djordjiya, Oklaxoma)
54. Ayokvuyan (Oklaxoma, Shimoliy Karolina)
55. Algik (Kaliforniya, Montana, Oklaxoma, Viskonsin, Michigan, Kansaz, Ontario, Texas, Nyu-Angliya, Massachusetts)

1.4.2. Yevropa tillari

So'nggi yillardagi immigratsiya AQShga butun dunyo tillaridan so'zlashuvchilar olib keldi. AQShning 1990-yilgi aholini ro'yxatga olish hisobotlariga ko'ra, 31.844.979 kishi (5 yosh yoki undan katta), ya'ni AQShda tug'ilgan 60 foiz aholining taxminan 13 foizi uyda ingliz tilidan boshqa tilda so'zlashadi. Ozchilik til (minority-language)da so'zlashuvchilarning 2/3 qismi 8 ta shtatda to'plangan. Ular quyidagilardir:

Ispan - 17.345.064, fransuz - 1.930.404, nemis - 1.547.987, xitoy - 1.319.462, italyan - 1.308.648, tagalog - 843.251, polyak - 723.483, koreys - 626.478, vetnam - 507.069, portugal - 430.610, yapon - 427.657, grek - 388.150, arab - 355.150, rus - 241.798, yahudiy - 213.064, venger - 147.902, shuningdek, rasmiy jihatdan qayd qilinmagan til guruhlarida so'zlashuvchilar, jumladan, hindu - 555.126, Shimoliy Amerika mahalliy tillari - 331.758, slavyan tillari - 270.863, skandinaviya tillari- 198.904, hind-yevropa tillari - 578.076 va ayrim noaniq tillar - 1.023.614.

Gavay, xakka, yapon, koreys, ilokkano, sebuano, portugal, ispan va samoan til jamoalarida ingliz tili bilan birga, gavay va gavay-kreol inglizchasi ham qo'llaniladi.

1.4.3. Fransuz tili

1755-yilda Buyuk Britaniya Fransiyadan Kanadaning dengiz shaharlarini tortib olganda, kelib chiqishi akadiyalik (Acadian) bo'lgan 6 mingga yaqin quvib chiqarilgan Kadjan fransuzlari (xususan, Yangi Shotlandiyadan kelganlar)ning deyarli yarmi Luizianaga qarab yo'l olgan.

Luizianadagi fransuz manzarasi hududiy va ijtimoiy variantlar bilan murakkablashib, fransuz tili ingliz tilining tahdidi ostida tanazzulga yuz tutgan. 1968-yilda Luiziana Fransuz tilini rivojlantirish konsulligi (CODOFIL)ning tilni qayta tiklash dasturi asosida maktablarda standart (xalqaro) fransuz tili o'qitila boshlangan. Biroq standart fransuz tiliga salbiy munosabatda bo'lingani bois, dastur muvaffaqiyat qozonmagan va uning o'rniga Kadjan fransuzchasi ma'qul ko'rilgan.

Kadjan (yoki Akadiya) fransuzchasida 1970-yilda 572000 kishi (aholining 16.2 foizi) so'zlashgan bo'lsa, 1990-yilga kelib ushbu tilda so'zlashuvchilar sonining 262000 ga (aholining 6.7 foizi) tushib qolgani kuzatiladi. So'zlashuvchilar "Akadiya", deb nomlangan Janubi-g'arbiy Luiziana va uning qo'shnilari Texas hamda Missisippi hududlarida zich joylashgan. Kadjan fransuzchasi standart fransuz tiliga fonologik va grammatik jihatdan o'xshash bo'lishi bilan birga, o'ziga xos xususiyatlarga ham ega¹.

Shuningdek, Nyu-Angliya va Kvebek (Kanadada) bilan chegaradosh shtatlarda istiqomat qiluvchi fransuz tili so'zlashuvchilarini ham ta'kidlash joiz. Kanadalik fransuzlar bu hududlarga 1900-yillardan kirib kelib o'rtnasha boshlagan. Mazkur tadrijiy ko'chishlar 1960-yillargacha davom etgan. Natijada fransuz-amerikaliklar uchinchi naslining juda ozchiligi fransuzchada zo'rg' gaplasha oladigan holatga kelgan².

1.4.4. Nemis tili

Nemislarni hozirgi AQShda yashab qolishining muhim omili "diniy-ijtimoiy ihotalanish"³ bo'lib, uni quyidagilarda kuzatish mumkin:

1. Pensilvaniya nemis dialekti ("Pennsylvania Dutch") Inqilobiy urush (1775-1783)dan oldin nemis muhojirlarining kirib kelishi bilan shakllana boshlagan. 1726-1755-yillarda 40000ga yaqin nemis millati vakillari Filadelfiyaga ko'chib kelgan. Pensilvaniya nemislari kelib chiqishi jihatdan

¹ Valdman A. (ed.) French and Creole in Louisiana. - New York : Plenum Press, 1997.

² Russo M. and Roberts J. Linguistic change in endangered dialects: the case of alternation between *avoir* and *être* in Vermont French // Language Variation and Change, 1999. - № 11. -P. 67-85.

³ Kloss H. German-American language maintenance efforts. Language loyalty in the US, ed. by Joshua Fishman et al. -The Hague: Mouton, 1966. -P. 206-252.

shveysariyalik anabaptistlarga ergashgan. Ular XVI-XVIII asrlarda Elzas, Belford, Palatinat (Germaniya knyazligi) va undan keyin Amerikaga keng miqyosda ko'chib o'tgan. Ularning aksariyati Yuqori Elzas va Reyn-Frankoniya dialektlarining janubi-g'arbiy nemis tilida so'zlashuvchi hududlaridan ko'chib kelgan. 1800-yilda alohida Pensilvaniya german dialektining shakllanish jarayonida Palatinat (Germaniya knyazligi) dialekti ustunlik qilgan. Janubi-sharqiy Pensilvaniyadan kelib chiqqan mazkur dialekt Merilend, Indiana-Illinoys hududlari, Virdjiniya, G'arbiy Virdjiniya, Viskonsin, Ontario, shuningdek, Markaziy Amerika va Janubiy Amerika kabi 23 ta shtatda tarqalgan. Ushbu dialekt bugungi kunda 200000 so'zlashuvchi tomonidan qo'llaniladi. So'zlashuvchilarning aksariyati tugab borayotgan konservativ anabaptist diniy (qadimgi Amish va qadimgi Mennonitlar) guruhining vakillaridir.

2. Shimoliy va Janubiy Dakota, Montana, Manitoba, Alberta va Saskachevanda joylashgan Janubiy bavariyaliklar. Ushbu dialekt XVI asrda dastlab Moraviya (Chexiya), Vengriya, Ruminiyaga ko'chib o'tgan anabaptistlar va ularga Bavariyadan kelib qo'shilgan yangi ko'chmanchi oqim asosida vujudga kelgan, keyinchalik Rossiya va nihoyat, XX asrda Amerikaga kirib kelgan.

3. Indiana shtatidagi qadimgi Amish (Yakob Amman tarafidan asos solingan mennonitlar sektasi) kichik guruhining Yuqori Elzas dialekti. Ushbu dialekt Bernes anabaptistlarining dastlab Shveysariya va Fransiyaning Yura hududiga, Belfordga, XIX asrda Ogayo va Indianaga ko'chib kelishi oqibatida shakllangan.

4. Ayova shtatidagi Amana koloniyasining yangi standart nemis tili (Gessen dialektining xususiyati bilan). Yuqori Gessendagi Pietist (protestantlikdagi tasavvuf oqimi) "Haqiqiy ilhom uyushmasi" (Gemeinschaft der Wahren Inspiration)dan boshlangan mazkur tur 1840-yillarda Buffaloga, 1850-yillarda esa Ayovaga ko'chishlar oqibatida maydonga kelgan.

Ayrim turlar nemis bo'lmagan diniy guruhlar bilan aloqador bo'lib, ular: Markaziy Kansasdagi rus mennonit muhojirlarining Volga bo'yi nemislari; Nebraskadagi plattnemislar; Ridley, Kaliforniyadagi plattnemislar hisoblanadi.

Yuqorida qayd qilingan turlardan tashqari Texasdagi nemislarni (1960-yillarda 70000 nafarni tashkil qilgan, biroq ingliz tiliga o'zgargan) ham ta'kidlash lozim. Qolgan salmoqli qismni siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan integratsiyalashgan nemis muhojirlari tashkil qilib, uchchala nasl ham ingliz monolingvizmini qabul qilgan.

1.4.5. Ispan tili

AQSh dunyoda ispan tili aholi yashaydigan to'rtinchi katta davlatdir. 1993- yildagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bu mamlakatda 22.8 million doimiy yashovchi ispanlar qayd qilingan. Bu jami aholining 8.9 foizini tashkil qiladi. Biroq buning ortida yirik etnik va lingvistik turlar yashiringan bo'lib, ularning 64%ini meksikaliklar, 11%ini puertorikanlar va 5%ini kubaliklar (hamda 20%ni boshqalar) tashkil qiladi¹. Bu muhojirlarning aksariyat vakillari ispan tilining meksika, puertorikan va kuba variantlarini olib kelgan. Kaliforniya, Florida, Luiziana, Nyu-Meksika va Texasning original ispan tili koloniyalari juda kam qolgan.

Mustamlakachilarning avlodi bo'lgan islandlar (Isleños) Kanari orollaridan Luizianaga 1778-1783-yillarda olib kelingan. Ispan tilining boshqa ihotalangan variantlari orasida island (Isleño) ispanchasi saqlanib qolgan. U hozirda madaniy qayta tiklanish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Ispan tilining yana bir varianti bir tomondan, yo'qolib borayotgan, boshqa tomondan, saqlanib qolinayotgan Shimoliy Luiziananing Sabin okrugida so'zlashiladigan ispan tilining boshqa variantlari bilan aloqada bo'lmagan turidir. AQShning 1980-yildagi aholini ro'yxatdan o'tkazish hisobotida ushbu okrugdagi 202 kishining ispan tilini bilishi qayd qilingan, chunonchi, ulardan 17 kishining 70 yoshdan yuqori ekanligi ta'kidlangan. Bu variant ispan koloniyalari (Nyu-Ispaniya, Meksika)dan kelib chiqqan bo'lib, aslida fransuz tiliga qarshi zaxira sifatida maydonga kelgan.

AQShdagi ispan tiliga oid qolgan variantlarning ko'pchiligi yo ingliz tili bilan almashtirilgan, yo so'nggi muhojirlar tomonidan qo'llaniladigan variantlar bilan ostin-ustun qilingan.

1.5. Til variantlari va ularga munosabatlar

1.5.1. Hududiy dialektlar

Dialektlar hududiy va ijtimoiy turlarga bo'linadi. Masalan, Angliyada ijtimoiy dialekt muhim bo'lib, u hududiy dialektdan ustuvorligi bilan ajralib turadi. AQShda esa aksincha, hududiy dialekt ijtimoiy dialektga nisbatan salmoqli o'ringa ega.

Amerika inglizchasining aksariyat hududiy dialektlari Inqilobiy urush (1775-1783)dan oldin yuzaga kelgan bo'lib, dastlabki koloniyalarning modelini aks ettiradi. Ular uchta katta: Shimoliy, Markaziy va Janubiy dialekt hududlariga ajraladi. Asosiy dialektlar 1930-1940-yillarda tuzilgan dialektlar atlasida quyilgicha qayd qilingan:

¹ Lippi-Green R. English with an accent: language, ideology, and discrimination in the United States, -London: Routledge, 1997. -P. 229.

- 1) Nyu-Angliya (Sharqiy Nyu-Angliya va G'arbiy Nyu-Angliya);
- 2) Nyu-York (Shimoliy Nyu-York va Nyu-York shahri);
- 3) Janubiy (Atlantika -Janub va Delta -Janub);
- 4) Markaziy (Pensilvaniyaning bir qismi, Nyu-Djersi, Merilend, Ogayo, Indiana va Illinoys);
- 5) xavfsizligi kam ta'minlangan Janubiy tog'lik hudud (Virdjiniyaning g'arbiy qismi, Shimoliy Karolina, G'arbiy Virdjiniya, Kentukki, Tennessi va Shimoliy Arkanzas).

So'nggi yillardagi tadqiqotlarning aksariyatida qayd qilinishicha, asosiy dialekt farqlari saqlanishi bilan birga, ulardan ba'zilar o'zining farqliligini yo'qotib boradi. Biroq muhim jihat shundaki, ayrim dialekt farqlarining kamayishga nisbatan kuchayganligi ko'proq kuzatiladi.

U. Labovning ta'kidlashicha, unlilar tizimidagi katta o'zgarishlar ham eng muhim uch dialekt hududida uchraydi: Shimoliy ("Shimoliy shaharlar" hududi, deb nomlanadi), Markaziy (/ç/ bilan /a/ning yutilishi bilan tavsiflanadigan: *caught* "ushlab oldi, tutib oldi" va *cot*) va Janubiy¹. Bunga to'rtinchi G'arbiy (bu dialektida ham Markaziy bilan ayni hodisa, ya'ni /ç/-/a/ ning yutilishi kuzatiladi) dialekt ham ilova qilingan².

U. Labov tomonidan "Shimoliy shaharlar unlilarining o'zgarishi", deb nomlangan o'zgarishlar modelida cho'ziq unlilar yuqoriga va oldinga, qisqa unlilar esa orqaga va pastga harakatlanadi: /ç/ (*coffee*) oldingi /a/ (of *father*) tomonga harakatlanadi; /a/ (*lock, pop*) /Q/ (of *bat*) tomonga harakatlanadi; /Q/ (*bat*) yuqori /E/ (of *bet*) tomonga harakatlanadi; /E/ (*bet*) orqa /V/ tomonga harakatlanadi; va /V/ (*but*) orqaga qaytadi. Shimoliy shaharlar hududi Nyu-Angliyaning g'arbi, Pensilvaniyaning shimoli, Shimoliy Ogayo, Indiana, Illinoys, Michigan, Viskonsin, shuniagdek, Chikago, Buffalo va Detroytlarni o'z ichiga oladi.

"Janubiy unlilarining o'zgarishi", deb nomlangan unlilar o'zgarishi modeli (U. Labov) ko'proq qishloq joylariga xos bo'lib, unda qisqa old qator unlilar (*bed* va *bid* dagi kabi) yuqoriga harakatlanib, sirg'alib chiqadi (masalan, *bed* so'zi [bEId]ga o'xshash talaffuz qilinadi); cho'ziq old qator unlilar (*beet* va *late* dagi kabi) orqaga va pastga harakatlanadi; orqa qator unlilar esa oldinga harakatlanadi.

¹ Labov W. The three dialects of English. New ways of analyzing sound change. Ed. by Penelope Eckert. -New York: Academic Press, 1991. -P. 1-44.

² Wolfram W. and Schilling-Estes N. American English: dialects and variation. - Oxford: Blackwell, 1998. -P.1.

1.5.2. Etnik variantlar

1.5.2.1. Afrika-amerika mahalliy inglizchasi (AAMI) (Black English)

AQShning 1990-yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, afrika-amerikaliklar 39,930,524 kishini, ya'ni butun aholining taxminan 12 foizini tashkil qiladi va ulardan 80-90 foizi afrika-amerika mahalliy inglizchasi (AAMI)da so'zlashadi¹.

AAMIning kelib chiqishi tarixi ancha munozarali. Kreolistik farazlarga ko'ra, AAMI shimoliy plantatsiyalardagi afrikaliklarning avlodlari orasida keng tarqalgan kreolga asoslangan inglizchadan rivojlangan. "Inglizshunos" (yoki dialektolog)larning faraziga muvofiq, AAMI o'zining xususiyati jihatidan janubda so'zlashiladigan ingliz dialektlaridan kelib chiqqan. Uchinchi bir qarashga ko'ra, AAMI har ikkala farazning birlashuvi asosida yuzaga kelgan.

AAMIning qator xususiyatlari Janubiy dialektlarning jihatlari, xususan, talaffuz nuqtayi nazaridan mos kelishiga qaramay, uning ba'zi grammatik o'ziga xosliklarini tushuntirish qiyinchilik tug'diradi. Shunga ko'ra, uni kreol asosida kelib chiqqanligini taxmin qilish mumkin.

AAMI o'ta gomogen bo'lishiga qaramay, hududlarda ayrim variantlarning mavjudligi kuzatiladi. Shimoliy shaharlardagi AAMI janubiy qishloq joylardagi variantlardan, Janubiy Atlantika sohil bo'yi variantlari Ko'rfaz hududlaridan farq qiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin afrika-amerikaliklarning aksariyati shimol bo'ylab ikki yo'nalishda ko'chib borgan. Shimoliy va Janubiy Karolinadagilar sohil bo'ylab Vashington, Filadelfiya va Nyu-Yorkka, Chuqur janubdagilar Markaziy g'arb orqali St.Luis, Chikago va Detroytga ko'chgan. Mazkur yo'nalishlarda kichik dialekt farqlari ko'zga tashlanadi. Masalan, Filadelfiya va Nyu-Yorkda *brother* va *smooth* so'zlarining talaffuzida /v/ ishlatilgani holda, markaziy-g'arbiy shaharlardagi AAMIda so'zlashuvchilar nutqida u qo'llanilmaydi².

Afrika-amerika yoshlari g'arbiy yoki sharqiy variant bo'lishidan qat'iy nazar, o'zlariga maqbul bo'lgan grammatik, leksik va fonologik variantlarni tanlab olib, urbanizatsiyalashgan madaniyat tomon birlashish yo'lini tutmoqdalar³. Fonologik va grammatik variantlar bilan bir qatorda, uslubiy turli-tumanlik ham muhim sanaladi. Afrika-amerikaliklarning ayrim yuqori-o'rta sinflari har doim ham AAMIning grammatik farqlarini qo'llay

¹ Lippi-Green R. English with an accent: language, ideology, and discrimination in the United States. -London: Routledge, 1997. -P. 176.

² Wolfram W. and Schilling-Estes N. American English: dialects and variation. - Oxford: Blackwell, 1998. -P. 115, 174.

³ Lippi-Green R. English with an accent: language, ideology, and discrimination in the United States. -London: Routledge, 1997. -P. 176.

olmagani holda, ularning verbal an'analari sanalgan murojaat shakllari, intonatsiya va ritorik farqlarini doimo qo'llab keladilar.

Bugungi kunda AAMI borasidagi tadqiqotlarning yo'nalishi o'zgarib bormoqda. Ularda AAMIning standart ingliz tilidan o'sib chiqqan, "White" (oq tanlilar inglizchasi)ning mahalliy varianti degan taxmin ilgari surilmoqda.

1.5.2.2. Lotin Amerika inglizchasi

Ushbu til vakillarining aksariyati ispan tilidan ta'sirlangan ingliz tili variantida so'zlashadi. Lotin Amerika inglizchasining variantlari ona tili ispan tili bo'lmaganlar tomonidan ham ishlatiladi. Chunonchi, Amerika inglizchasi dialektlarida /ei/ diftongi va uning variantlari /i/ va /I/ (*sit* va *seat* dagi kabi) hamda "ch" va "sh" (*chew* va *shoedagi* kabi ikkalasi ham /c&/) diftongi mavjud bo'lgani holda, monotong /e/ni (*bait* va *casedagi* kabi) qo'llaydilar¹.

1.5.2.3. Amerika hindulari inglizchasi

V.Lipning qayd qilishicha, Amerikaning tub mahalliy guruhlari orasida ingliz tilining fonologik, sintaktik va diskurs jihatdan farqli variantlarini qo'llash hollari uchraydi. Masalan, hindular inglizchasi Shimoliy Yutedan aniq pozitsiyalarda unilarning tovushsizlanishi bilan farqlanadi²; Shimoliy Karolinaning Lambiy hindulari tomonidan qo'llaniladigan lambiy mahalliy inglizchasida *be* fe'li AAMIdagi "odatdagi *be*"dan farqli o'laroq, *These girls in the picture be(s) my sisters* jumlasidagi kabi tuslanadi; *be* ning qadimgi shakllari *I'm been to the store* (for *I've been to the store*) singari konstruksiyalarda *havega* ko'ra ma'qul ko'riladi.

1.5.3. Til variantlariga turli munosabatlar

Amerika inglizchasining variantlari xususida radioeshittirishlar tomonidan e'lon qilingan ilk qaror hududiy variantlarning obro'si, "to'g'riligi" va ularni hurmat qilishning nihoyatda muhimligini ko'pchilik tomonidan anglab yetilishiga olib keldi. "Milliy radioeshittirishlar kompaniyasi" NBC (National Broadcasting Company) Amerika inglizchasining quyidagi uch variantini belgiladi: 1) Nyu-Angliya yoki Sharqiy, 2) Janubiy va 3) G'arbiy, Markazi-g'arbiy yoki "Asosiy Amerika

¹ Wolfram W. and Schilling-Estes N. American English: dialects and variation. -Oxford: Blackwell, 1998. -P. 114.

² William L. American Indian English. Teaching American Indian students. Ed. by J. Reylner. - Normal: University of Oklahoma press, 1992. -P. 144.

inglizchasi”¹. Radioeshittirishlar nuqtayi nazariga ko‘ra, har qanday til ham “Asosiy Amerika inglizchasi”, deb nomlana olmaydi. Faqat Markaziy va G‘arbiy hududning o‘rta sinfi manfaatlarini ifodalagan munosib tilgina “Asosiy Amerika inglizchasi”, deb ataladi. Nyu-York va Janubdagi biznes sohalari va o‘quv yurtlarida bu variantda so‘zlashmaydiganlar lingvistik xavfdan kelib chiqqan holda, ushbu qarorni yumshatish va unga tuzatish kiritishni taklif qilganlar. Mazkur variantni dunyodagi boshqa ingliz tillaridan farqlash uchun “Standart Amerika inglizchasi” (Standard American English SAE) termini ko‘p qo‘llaniladi. “Tarmoq standart” (Network Standard) SAE (Standart Amerika inglizchasi)ning bir turi bo‘lib, u Milliy teleradiokompaniyaning maqsadlariga xizmat qiladigan, hududiy va ijtimoiy qoralash xususiyatlaridan holi bo‘lgan tildir.

D. Prestonning talabalar o‘rtasida o‘tkazgan anketa-so‘rovnomalariida Janubdagi juda yomon ahvolga qiyosan “eng to‘g‘ri” inglizcha qo‘llaniladigan hududlar sifatida Nyu-Angliya, Kolorado, Kaliforniya va Vashington kabi Shimoliy shtatlar ko‘rsatilgan².

Afrika-amerikaliklar orasida AAMiGa turlicha munosabatlar mavjud: Nima uchun umumiyatda qora tanli bolalarning standart ingliz tilini o‘rganishi kerakligi qabul qilinganiga qaramay, rasmiyatchi amaldorlarning bunga rozi bo‘lishdan qoni qaynaydi? Yoki AAMiGning asosiy ingliz tili predmeti singari har qanday boshlang‘ich maktablarning o‘quv dasturidan joy olishiga erishish lozim.

1.6. Siyosiy, ijtimoiy va etnik muammolar

Amerikadagi rasmiy til siyosati borasidagi munozaralarga chek qo‘yilgan. Amerika inqilobidan oldin ingliz tili norasmiy tarzda rasmiy til sifatida belgilangan bo‘lsa-da, biroq ingliz tili qonunan AQShning rasmiy tili maqomini olmagan. Turli federal qonunlar havo yo‘llari nazorati, mahsulot qadoqlari, ogohlantirishlar, rasmiy yozuvlar, federal xizmatlar hay‘ati va fuqarolikka qabul qilish kabi sohalardan ingliz tilida ish yuritishni maxsus talab qilmoqda.

1980-yildan e‘tiboran ingliz tiliga rasmiy til maqomini berish qonuni loyihasi borasidagi urinishlar qizg‘in bahsga aylanib ketdi. Munozaralarga qaramasdan, tashkilotlar ma‘qullagan bunday qonun loyihasi ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Masalan, *US English* vebsahifasi 1.3 million a‘zoni e‘lon qilgan bo‘lsa, *English First* vebsahifasi atigi 140,000 a‘zosini e‘lon qildi. “English Only”, “English First”, “The English

¹ Ehrlich E. (ed.) *NBC handbook of pronunciation*. - New York: Harper & Row, 1951; Lippi-Green R. *English with an accent: language, ideology, and discrimination in the United States*. - London: Routledge, 1997. - P. 138.

² Preston D. *Perceptual dialectology: nonlinguists' views of areal linguistics*. - Dordrecht: Foris Publications, 1989. - P. 54.

Language Amendment”, “US English” kabi vebsahifalarning ayrim tarafdorlari mavzuga pragmatik yoki vatanparvarlik nuqtayi nazaridan yondashib, “inglizcha haqiqatan ham rasmiy til bo’lgani holda, nima uchun unga rasmiy til maqomi berilmaydi?”; “Amerika inglizchasi amerikanizm bilan belgilanadi”; “bu etnik farqliliklarni keltirib chiqaradi”; “bu irqchilik” kabi fikrlarni bildirishdi. Ba’zilar: “ozchilik tilda so’zlashuvchilar o’zlarining vatanparvarliklarini va asosiy iqtisodiy jarayonlarda qatnashishlarini ko’rsatish uchun monolingvial inglizcha me’yorlariga moslashishlari lozim”, - degan qarashlarni ilgari surishdi.

English First’s veb sahifasining bosh sarlavhasida “1974-yildan beri 3.5 million AQSh dollari bilingvizm ta’limiga sarflangan”i e’lon qilindi. Bunday munosabatlar natijasida butun bilingvizm ta’limotining dasturlari inglizcha tarjimaga qaratilgan bo’lsa-da, Kaliforniyaning bilingvizm ta’limiga qarshi harakatining “Bolalar uchun ingliz tili”, deb nomlangan 227 ta taklifi 1998-yilda ovoz berish orqali qonunga kiritildi.

Qizig’i shundaki, lingvistik moslashuv ozchilik uchun majburiy bo’lib bormoqda, bir tillilik tendensiyasi mamlakat iqtisodiy raqobati va harbiy mudofaasini mustahkamlashga yordam berish uchun chet tillarni o’rganishni qo’llab-quvvatlamoqda. Ingliz tili qanday bo’lmasin o’z o’rmini ispan yoki boshqa tillarlarga bo’shatib berishi hamda yangi muhojirlarning ingliz tilini o’rganishdan bosh tortishi borasidagi qo’rquvlar asossizdir. Ma’lumotlarda qayd qilinishicha, hatto, uyda ingliz tilidan boshqa tilda so’zlashadiganlarning 82% ingliz tilini yaxshi yoki juda yaxshi biladi. Muhojirlar ingliz tilini o’rganishda davom etmoqda, AQSh bir tilli mamlakat bo’lib, aholisining deyarli 90% ingliz tilida so’zlashmoqda¹. Boshqa tomondan, bu harakatlar 1990-yildagi “Amerika mahalliy tillari haqidagi” lingvistik huquqlar qonun tasdiqlangan paytda bo’lib o’tmoqda. Xalqaro qonunlar til erkinligi va kundalik turmushda biron tilni qo’llash huquqining diskriminatsiyadan himoyalashni qo’llab-quvvatlamoqda.

1986-yilda Kaliforniya shtatida ingliz tiliga rasmiy maqom berish haqidagi referendumda ovoz berildi. Aynan shu yili 24 ta shtatda ham bunday qonunga ovoz berildi. Shuningdek, Michigan, Nyu-Meksika, Oregon, Rod-Aylend va Vashington “Ingliz tili-plyus” (“English-plus” – ingliz tili plyus boshqa tillar) qonuni qabul qilindi². 1981-yilda ilk bor “AQSh inglizchasi” mashhur darsligining muallifi, senator S.A.Xayakava tomonidan AQSh Konstitutsiyasiga haligacha muvaffaqiyatsiz bo’lib

¹ Baron D. *The English-only question: an official language for Americans?* - New Haven: Yale University Press, 1990. -P. 177.

² Baron D. *The English-only question: an official language for Americans?* - New Haven: Yale University Press, 1990. -P. 201.

kelayotgan "Ingliz tili haqidagi tuzatishlar" taklif qilindi. Hozirgi kunda AQSh Kongressiga muhokama uchun taqdim etilgan rasmiy ingliz tili haqidagi qonun loyihalari quyidagilardan iborat:

- "Ingliz tili vakolati" Qonuni;
- "Rasmiy til Qonuni" Deklaratsiyasi;
- "Milliy til" Qonuni;
- "Ingliz tiliga tuzatishlar".

Qayd etilgan tillar bilan birga, shtatlardagi boshqa tillar ham rasmiy til maqomini olishga muvaffaq bo'lmoqda. Masalan, Gavayida gavay tili, Luizianada fransuz tili, Nyu-Meksikada ispan tili shular jumlasidandir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. AQShda "sotsiolingvistika" termini qachon fanga kiritildi?
2. AQSh sotsiolingvistikasining asosiy muammolari ilk bor qaysi asarda tadqiq etildi?
3. AQSh sotsiolingvistikasi qaysi tilshunoslikka qarshi maydonga chiqdi?
4. AQSh sotsiolingvistlaridan kimlarni bilasiz?
5. AQSh sotsiolingvistlari lisoniy variativlikni qaysi jihatdan o'rgana boshladilar?
6. Nima uchun AQSh sotsiolingvistikasining tadqiqot obyektida umumiy va xususiy tavsifdagi muammolar vujudga keldi?
7. Ervin-Trippning metodlarida qanday kamchiliklar ko'zga tashlanadi?
8. U.Brayt sotsiolingvistikaning qaysi o'lchovlarini ko'rsatib berdi?
9. Kommunikatsiya jarayonidagi uch muhim omilni tushuntirib bering.
10. Qaysi holatga ko'p dialektlilik deyiladi?
11. AQShda qaysi dialekt ustuvor sanaladi?
12. Pensilvaniya german dialektining shakllanish jarayonida qaysi dialekt ustunlik qilgan?
13. Kadjan fransuzchasi qaysi shtatda tarqalgan?
14. AQShda ispan tilining qaysi variantlari qo'llaniladi?
15. Dialektlarning qanday turlari mavjud?
16. AQSh dialektlari nechta hududga ajraladi?
17. AAMIning kelib chiqishi haqida qanday farazlar mavjud?
18. AQSh Kongressiga muhokama uchun taqdim etilgan ingliz tili haqidagi qonun loyihalarini ayting.

Adabiyotlar

1. Брайт У. Введение: параметры социолингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. - М., 1975. - С. 34-41.
2. Лабов У. Социолингвистическая обстановка в США с 1975-1985 г. В кн. Социолингвистические исследования. -М., 1976.

3. Проблемы зарубежной социолингвистики //Рефератив. –М., 1976.
4. Швейцер А.Д. Вопросы социологии языка в современной американской социолингвистике. –Л., 1971.
- 5.Швейцер А.Д. Методологические основы американской социолингвистики. В кн. Теория и история языкознания. –М., 1976.
6. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. - М., 1975. - С. 336-362.
- 7.Эрвин-Трипп С.М. Социолингвистика в США. В кн. Социолингвистические исследования. –М., 1976.
8. Юсселер М. Социолингвистика США. В кн. Социолингвистика. – Киев: Вища школа, 1987. – С. 93-102.
9. Baron D. The English-only question: an official language for Americans? -New Haven: Yale University Press, 1990.
10. Bright W.and Ramanujan A.K. Sociolinguistic variation and language change // Proceedings of the 9th International Congress of Linguistics. - The Hague, 1964. –P. 1107-1113.
11. Campbell L. American Indian languages: the historical linguistics of Native America. –New York: Oxford University Press, 1997.
12. Campbell L. Sociolinguistics in the USA. –New Zealand: University of Canterbury, 2000.
13. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
14. Ehrlich E. (ed.) NBC handbook of pronunciation. –New York: Harper & Row, 1951.
15. Ferguson Ch. A. Baby talk in six languages. in Gumperz and Hymes, 1964. –P. 103-114.
16. Furfey P.H. Men's and women's language // American Catholic Sociological Review. -Vol. 5, 1944. –P. 218-223.
17. Gumperz. J.J. Dialect differences and social stratification in a North Indian village // American Anthropologist. –Vol. 60, 1958. –P. 668-682.
18. Hoenigswald H.M. A proposal for the study of the folk-linguistics // Sociolinguistics. –The Hague - Paris, 1966. –P. 16-20.
19. Hymes D.H. The ethnography of speaking // Anthropology and Human Behavior, ed. by Thomas Gladwin and W.C. Sturtevant. – Washington, D.C., 1962. –P. 15-53.
20. Kloss H. German-American language maintenance efforts. Language loyalty in the US, ed. by Joshua Fishman et al. –The Hague: Mouton, 1966.

21. Labov W. Phonological correlates of social stratification // AA. -- Vol. 66 / 6, part 2, 1964. --P. 164-176.
22. Labov W. The logic of nonstandard English. Language in the inner city: studies in the Black English vernacular. --Philadelphia: University of Philadelphia Press, 1972.
23. Labov W. The three dialects of English. New ways of analyzing sound change. Ed. by Penelope Eckert. --New York: Academic Press, 1991.
24. Lippi-Green R. English with an accent: language, ideology, and discrimination in the United States. --London: Routledge, 1997.
25. Martin S. Speech levels in Japan and Korea // Language in Culture and Society, ed. by Dell Hymes. --New York, 1964. --P. 407-412.
26. Opler M.E. and Hoijer H. The raid and war-patch language of the Chiricahua Apache // American Anthropologist. --Vol. 42, 1940. --P. 617-634.
27. Prator C.H. The British Heresy in TESL // Fishmann J. et al. (eds.) Language Loyalty in the US: the Maintenance and Perpetuation of Non-English Mother Tongues by American Ethnic and Religious Groups. --The Hague: Mouton Co., 1968. --P. 459-476.
28. Preston D. Perceptual dialectology: nonlinguists' views of areal linguistics. --Dordrecht: Foris Publications, 1989.
29. Russo M. and Roberts J. Linguistic change in endangered dialects: the case of alternation between *avoir* and *être* in Vermont French // Language Variation and Change, 1999. --Vol. 11. --P. 67-85.
30. Sapir E. Abnormal types of speech in Nootka, 1915. Reprinted in "Selected Writings of Edward Sapir", ed. by David G. Mandelbaum. -- Berkeley, 1949. --P. 179-196.
31. Sapir E. Male and female forms of speech in Jana, 1929. Reprinted in "Selected Writings of Edward Sapir", ed. by David G. Mandelbaum. -- Berkeley, 1949. --P. 206-212.
32. Silva-Corvalán C. Language contact and change: Spanish in Los Angeles. --New York: Oxford University Press, 1994.
33. Valdman A. (ed.) French and Creole in Louisiana. --New York : Plenum Press, 1997.
34. William L. American Indian English. Teaching American Indian students. Ed. by J. Reyhner. --Normal: University of Oklahoma press, 1992.
35. Wolfram W. and N. Schilling-Estes. American English: dialects and variation. --Oxford: Blackwell, 1998.

2-MA'RUZA

GERMANIYA SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Germaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishi
2. Sotsiolingvistikaning umumiy nazariyasi
3. Tilning ijtimoiy variantlari
4. Til va siyosat

Tayanch soʻzlar: adabiy til, soʻzlashuv tili, meʼyor, ijtimoiy, individual, mahalliy, kod, gipoteza, nazariya, yoʻnalish, farqlilik, oʻzaro aloqa, til sotsiologiyasi, nutq akti, ayollar nutqi, erkaklar nutqi, yoshlar nutqi, kommunikatsiya, vaziyat, rol, mavzu, muomala, muloqot, qatlam, guruh.

2.1. Germaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishi

Nemis tilshunosligi tarixiga nazar tashlanganda sotsiolingvistikaning rivojlanishiga asos sifatida xizmat qiladigan ikki yoʻnalishni koʻrish mumkin. Birinchi yoʻnalish nemis tilining shakllanishidagi tarixiy xususiyatlardan kelib chiqqan. Maʼlumki, XIX asrning ikkinchi yarmigacha davom etgan Germaniyaning koʻp asrlik feodal tarqoqligi birinchidan, nemis tilida bir-biridan farq qiladigan koʻp sonli dialektlarning mavjudligida, ikkinchidan, nemis adabiy-milliy tilining favqulodda sekin shakllanganligida, uchinchidan, talaffuz va grammatika meʼyorlarida mahalliy ikkilanishlarning uzoq davom etganligi hamda hozirgi nemis soʻzlashuv tilida mahalliy talaffuz va lugʻaviy farqliliklarning sezilarli darajada saqlanib qolganligida namoyon boʻlgan. Ana shu xususiyatlarni nazarda tutgan holda, nemis tilshunosligi asosiy diqqat-eʼtiborini anʼanaviy tarzda dialektlar, meʼyor muammosi, shuningdek, adabiy til, soʻzlashuv tili va dialektlarning oʻzaro munosabatini oʻrganishga qaratdi¹. Y.Grimm, I.A. Shmeller, G.Venker, F.Vredlarning tadqiqotlari bunga misol boʻla oladi.

Nemis tili dialektlarini har tomonlama chuqur va jadal oʻrganish ikkinchi jahon urushigacha davom etdi. Bu tadqiqotlarga dialektologiya uchun anʼanaviy vazifalarni belgilash xos boʻlib, birinchi galda lingvistik geografiya metodlari yordamida dialektlarning hududiy tarqalishi aniqlandi, soʻngra ularning tarqalishidagi tarixiy davomiylik belgilandi. Dialektning ijtimoiy tomoniga nisbatan boʻlgan dastlabki davrlardagi qiziqish maʼlum darajada yoʻqolgan edi. Holbuki, birinchi (makon) va ikkinchi (zamon)

¹ Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социоллингвистика. Германия. Испания -М Наука 1991 - С.7.

bilan bir qatorda aynan “uchinchi o‘lchov” (dritte dimension)ning, ya’ni dialektning ijtimoiy variantligini tahlilga tortilishi sof dialektologik tadqiqotlardan ijtimoiy-dialektologik tadqiqotlarga, xuddi sobiq GDRda yuz bergandek, asosiy sotsiolingvistik tadqiqotlardan biriga qonuniy o‘tish yuz bergan bo‘lardi¹. Biroq GFRda sotsiolingvistikaning rivojlanishi dastlab boshqa yo‘ldan bordi, dialektlarning vazifalari va qo‘llanishi kabi sotsiolingvistik jihatlarga nisbatan qiziqish keyinroq paydo bo‘ldi.

Nemis tilshunosligidagi ikkinchi yo‘nalish sotsiolingvistik muammolarga ma’lum ma’noda tegishli bo‘lgan, tilga “xalq ruhi”, milliy tafakkur ifodasining mahsuli sifatida qaraydigan V. Gumboldt va uning izdoshlarining nazariy fikrlaridir. Ammo V. Gumboldtning g‘oyalari GFR tilshunoslarining emas, balki faylasuflarining asosiy tadqiqotlarida o‘z rivojini topib, ularning idealistik tomoni haddan tashqari bo‘rttirildi. Til va jamiyat, til va madaniyatning aloqasi kabi muhim masalalar o‘sha davrdagi va undan keyingi tilshunoslarning e’tiborini tortmadi.

Ayrim g‘arbiy yevropalik sotsiolingvistlarning fikricha, 60-yillarda GFRda sotsiolingvistikaning rivojlanishi umumgerman an’analaridan butkul uzilgan, birinchi navbatda mamlakatdagi siyosiy va ta’lim sohasidagi ahvoldan kelib chiqqan holda yuz bergan².

O‘tgan asrning 50-60-yillarida nemis tilshunosligi og‘ir ahvolni boshidan kechirdi va nazariy tilshunoslikning yangi ta’limotlari doirasida o‘z o‘mini topishga harakat qildi. Bu bir tomondan, transformatsion grammatika, ikkinchi tomondan, B. Bernstaynning sotsiolingvistik ta’limotining tanqidsiz qabul qilinishiga olib keldi³. Shu bilan birga, GFRda sotsiolingvistikaning rivojlanishi uzoq vaqt mobaynida bo‘lta yuzaki nazariyaning ham lingvistik, ham ijtimoiy jihatlari singari tor doiralari bilan chegaralanib qoldi.

GFRning AQSh bilan iqtisodiy, siyosiy va ilmiy jihatdan o‘ta mustahkam aloqalariga qaramasdan, sotsiolingvistika o‘zining dastlabki bosqichlarida nazariy teranligi va empirik asosining kengligi nuqtayi nazaridan B. Bernstaynikidan afzal bo‘lgan Amerika ta’limotini deyarli qabul qilmadi⁴.

B. Bernstayn gipotezasining o‘ziga tortadigan asosiy tomonlaridan biri uning amaliy yo‘nalishi edi. U “ijtimoiy hayotni yaxshilash haqida muayyan tavsivalarni bergandek”, ijtimoiy ziddiyatlarni mutlaqo og‘riqsiz

¹ Крючкова Т.Б. Социolingvистика в ГДР // Проблемы зарубежной социolingvистики. - М., 1976.

² Schlieben-Liange B. Soziolingvistik. Eine Einführung / 2-e Aufl. Stuttgart u.a., 1978. -P 52; Löffler H. Germanistische Soziolingvistik. - Berlin, 1985.

³ Weber H. Studentensprache. Über den Zusammenhang von Sprache und Leben. - Weinheim: Basel, 1980; Hartig M. Soziolingvistik. - Frankfurt: Main, 1985.

⁴ Schlieben-Liange B. Soziolingvistik. Eine Einführung // 2-e Aufl. Stuttgart u.a., 1978. -P 53.

yoʻl bilan yumshatishga uringandek koʻrinar edi. Tabiiyki, mazkur gipoteza nafaqat tilshunoslarni, balki siyosatshunoslar, sotsiologlar va taʼlim sohasidagi mutaxassislarni ham qiziqtirgandi. A.I. Domashnev bu haqida shunday yozgan: “B. Bernsteyn kodlar nazariyasining qizgʻin muhokama qilinishiga sabab, avvalo, uning ilmiy ahamiyati emas, koʻproq taʼlim ehtiyojlari uchun jozibador boʻlgan uning pragmatik jihati edi. Bu davrda aksariyat kapitalistik davlatlardagi qashshoqlik shu darajaga yetgan ediki, endi bu haqida sukut saqlash, bu sohada hech boʻlmaganda oʻzgina oʻzgarishlar qilishga urinmaslik mumkin boʻlmay qolgan edi”. Shuningdek, I. Radtkening qayd qilishicha, GFRda turli siyosiy partiyalar “ijtimoiy islohotlar” oʻtkazish talabini ilgari surdilar. Taʼlim boshqaruvidagi rasmiy idoralar sotsiolingvistikaning maktabdagi “quyi tabaqa” bolalarining lisoniy tengsizliklar tufayli boshqa bolalarga nisbatan “teng imkoniyatlar”dan mahrumligi haqidagi xulosasiga tezda munosabat bildirishdi¹. Bunday sharoitda quyi ijtimoiy tabaqaga mansub bolalarning til salohiyatlarini kengaytiradigan “til oʻqitishning kompensator” dasturlari ishlab chiqildi. Mualliflarning fikricha, mazkur dasturlar bunday bolalarning ijtimoiy imkoniyatlarini oʻrta ijtimoiy qatlamga mansub bolalar bilan tenglashishiga, yaʼni ularning ham taʼlim olish va xizmat pogʻonalaridan koʻtarilish imkoniyatlariga ega boʻlishiga olib keladi².

Nima uchun kodlar nazariyasi aynan GFRda bunchalik katta qiziqish uygʻotgan degan savolga B. Shlieben-Lange ikki jihat bilan javob beradi. Birinchidan, B. Bernsteyn gipotezasining tashviqoti 1967-1969-yillardagi talabalar harakatiga mos kelgan: bu gipoteza filologiyaning jamiyat amaliyoti bilan aloqasini namoyish qilganligi bilan talabalarni oʻziga jalb qilgan.

Ikkinchidan, 60-yillarning oxirida GFRda yuqorida qayd qilingan siyosiy va ijtimoiy sabablarga koʻra, pedagogika eng asosiy fanlardan biriga aylangan. Pedagogika fani tomonidan tarbiya jarayonidagi natijalarning, asosan, til vositasida amalga oshiriladigan muhim ijtimoiylashuv shakllariga bogʻliq boʻlishi belgilangan edi. Shunga koʻra, pedagogika uchun til toʻsiqlari muammosi markaziy masalalardan biri hisoblanar edi. Shunday qilib, GFRda sotsiolingvistik muammolar majmuyi vujudga kelgan paytdanoq pedagogik nazariyalar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, uning rivojlanishida muhim oʻrin egalladi³.

¹ Домашнев А.И. Теория кодов Б. Бернштейна. Цели и результаты // ВЯ, 1982. - N 1. -С. 7; Radtke J. Soziologische Untersuchungen sprachlicher Variation und ihre Folgerungen für den Sprachunterricht // Beiträge zu den Sommerkursen, 1975. Goethe-Institut München. - München, 1976. -P. 203.

² Shuni taʼkidlash joizki, GFRda 70-yillardayoq kompensatsiyalangan taʼlimning kutilgan natijalar bera olmaganini va Bernsteyn nazariyasi umidlarni oqlay olmasligini koʻrsatadigan tadqiqotlar yuzaga kelgan edi (Gutt, Salfner 1971, Hartig 1977 tadqiqotlari bunga misol boʻladi).

³ Schlieben-Lange B. Soziolinguistik. Eine Einführung // 2-e Aufl. Stuttgart u.a., 1978. -P 54-56.

70-yillardagi G'arbiy Germaniya sotsiolingvistikasida B.Bernstajn farazining asosiy mazmunini empirik tekshirish va tanqid qilish salmoqli o'rin tutdi. Biroq mazkur muammolar bilan birga, tadqiqotchilar boshqa mamlakatlarning sotsiolingvistlari an'anaviy shug'ullangan masalalar bilan ham qiziqqa boshladilar. Ayniqsa, AQSh sotsiolingvistlarining, xususan, U.Labov, D. Xayms, J. Gampers, M. Kultard va h.k.ning tadqiqotlariga qiziqish ortdi, ular nemis tiliga tarjima qilindi¹.

Bu davrga kelib, umumnazariy masalalar muhokama qilina boshlandi, ya'ni sotsiolingvistika fan sifatida o'z mavqeyini belgilashga boshladi. B. Shliben-Langening ta'kidlashicha, bir tomondan, til jamoalari va ijtimoiy guruhlar hayotidagi sotsiolingvistik muammolarni, ikkinchi tomondan, sotsiolingvistikaning fan sifatidagi muammolarini farqlab olish lozim edi. U sotsiolingvistikaning predmeti, tadqiqot metodlari, nazariyaning tizimi, shuningdek, sotsiolingvistikaning boshqa fanlarga munosabatini ikkinchi turdagi muammolar qatoriga kiritdi².

70-yillarda GFR sotsiolingvistlari tomonidan qizg'in bahslarga sabab bo'lgan umumnazariy masalalar orasida lingvistik materialni tasvirlash usullari muammosi ham bor edi. Til jamoalari hayotidagi sotsiolingvistik muammolar orasida ijtimoiy vaziyat va rollarga ko'ra variantlilik ko'proq e'tiborni jalb qilardi. Bu o'rinda tadqiqotlar, asosan, GFRning nemis tilidagi materiallari negizida amalga oshirildi.

Ushbu davrda qator keng qamrovli sotsiolingvistik tadqiqotlar dunyo yuzini ko'rdi. Maktab o'quvchilari so'zlashuv tilini o'rganish maqsadida yozilgan "Maktabda til", fan va texnikaning rivojlanishi ta'sirida texnikasbiy tilning paydo bo'lish xususiyatlarini yoritishga qaratilgan "Kasbiy va maxsus tillar", nemis tili struktur xususiyatlarining tahlili hamda til muomalasining ijtimoiy strukturalar bilan aloqasini belgilash maqsadida yozilgan "Quy Germaniya so'zlashuv tilining tadqiqi" kabi asarlar shular jumlasidandir.

Xullas, GFRda sotsiolingvistik muammolarga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Mazkur fikrni monografiyalar, to'plamlar hamda lingvistik va sotsiologiyaga doir jurnallardagi maqolalar sonining ko'payib borishi bilan quvvatlash mumkin. 1987-yilda GFRda U. Ammon, K. Mattxayer va P. Neldning tahriri ostida "Sociolinguistica. Internationales Jahrbuch fur Europeische Soziolinguistik" jurnali nashr qilina boshlandi. Unda muntazam ravishda G'arbiy Germaniya va xorijlik mualliflarning

¹ Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социоллингвистика. Германия. Испания. -М.: Наука, 1991.- С.10.

² Schlieben-Liang B. Soziolinguistik. Eine Einführung // 2-te Aufl. Stuttgart u.a., 1978. -P.58.

maqolalari, ko'pchilik mamlakatlarda amalga oshirilgan sotsiolingvistik tadqiqotlarning bibliografiyasi e'lon qilinib boradi.

2.2. Sotsiolingvistikaning umumiy nazariyasi

GFR tilshunoslari til va jamiyat o'zaro munosabatlarining turli jihatlarini tasvirlaydigan fanni nomlash uchun "sotsiolingvistika" va "til sotsiologiyasi" terminlaridan foydalanishdi. X.Gipper sotsiolingvistika doirasiga jamiyat turli qatlamlarining o'ziga xos nutqiy muomalasi bilan bog'liq masalalarni, til sotsiologiyasi doirasiga esa til va jamiyatning o'zaro ta'siri bilan bog'liq masalalar majmuyini kiritishni taklif qildi¹. B. Shlieben-Lange tomonidan boshqa bir qarash sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi, avvalo, masalani qo'yish mohiyatiga ko'ra bir-biridan farq qilshi ilgari surildi. Ya'ni har ikkala fan ham lisoniy va nolisoniy ta'sirlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni tadqiq qiladi². GFR sotsiolingvistlarining aksariyati mazkur tushunchalarni yo umuman farqlashmagan, yo ularni sinonim sifatida qo'llab, ular orasidagi farqni aniq ko'rsatishmagan.

Sotsiolingvistikaning predmeti. 70-yillarning boshlarida sotsiolingvistika sohasining qiziqishlari, asosan, til variantlari bilan cheklangan edi. Binobarin, X. Shteger sotsiolingvistikani tilshunoslikning "tillarning" lingvistik variantlilik va matnlarning turlarini, shuningdek, til egalari tomonidan muntazam qo'llaniladigan variantlarni tadqiq etuvchi sohasi sifatida belgilagandi³. A.N. Dittmar sotsiolingvistikaning predmetini shunday izohlagan: "Sotsiolingvistika predmetini tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning metodlaridan foydalanib: "Kim kim bilan qaysi tilda, qanday ijtimoiy muhitda va qanday maqsadda gaplashyapti? Nutq aktining oqibati qanday bo'ladi?" – degan qator savollarga javob beruvchi tarzida tushuntirish mumkin"⁴.

Ijtimoiy, vaziyat va rollarning variantlilik muammolarini ishlab chiqish GFR sotsiolingvistlari oldiga til variantlari qaysi grammatik tushunchalar doirasida tasvirlanishi kerak, degan savolni qo'ydi. Ko'pchilik tilshunoslar nazariy-lingvistik asos sifatida bu davrda hukmron bo'lgan transformatsion grammatikani qabul qilish mumkin, deb hisoblashdi. Holbuki, transformatsion grammatikani har doim ham aniq materialni tasvirlashda qo'llab bo'lmas edi. Shunday qilib, til variantlarini tasvirlashda

¹ Gipper ff. Soziolinguistik oder Sprachsoziologie? // Soziolinguistik / Hrsg. von A. Scharb. - Wien, 1976. -P. 100.

² Schlieben-Ljange B. Soziolinguistik. Eine Einführung // 2-e Aufl. Stuttgart u.a., 1978. -P. 111.

³ Steger H. Soziolinguistik // Lexikon der Germanistischen Linguistik / 1 Aufl. -Tübingen, 1973. -P. 245.

⁴ Dittmar N. Soziolinguistik. Exemplarische und kritische Darstellung ihrer Theorie, Empirie und Anwendung. - Frankfurt: Main, 1973. -P. 389.

grammatikalardan qanday foydalanish mumkin, degan savol ochiq qolib ketdi.

D.Vunderlix sotsiolingvistik tadqiqotlarda bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar masalasi borasida to'rt xil yondashuvni ko'rsatib o'tadi:

1. Sotsiolingvistikani keng tushunish kommunikatsiyaning ijtimoiy va individual jihatlarining o'zaro aloqasini o'rganishga asoslanadi. Sotsiolingvistika jamiyat nazariyasi va unga asoslangan til nazariyasini kichik guruhlarining kommunikativ nazariyasi bilan bog'lashga va ulardan alohida individlar fikrlarining lingvistik tasvirini izohlash uchun foydalanishga harakat qiladi.

2. Keng ma'nodagi sotsiolingvistika birinchi navbatda, alohida kommunikativ jarayonlarning ichida bevosita kuzatiladigan turli omillarning o'zaro aloqasini tadqiq etadi. Bunda sotsiolingvistika jamiyatning ijtimoiy differentsiatsiyasini qandaydir asos sifatida o'rganadi va uni nutqiy muomalaning rol, vaziyat va mavzu turlariga ajraladigan sotsiologik o'lchovlari bilan bog'laydi.

3. Tor ma'nodagi sotsiolingvistika nutqiy muomalaga bog'liq boshqa omillarni hisobga olmasdan, til kodlari turlarini sotsiologik o'lchovlar bilan bog'laydi.

4. Yana bir tor ma'nodagi sotsiolingvistikada til muomalasi va sotsiologik o'lchovlar (vaziyat, rol, ijtimoiy muhit) o'rtasidagi munosabat o'rganiladi. Bunday yondashuv keng tarqalgan, lekin u yuzaki bo'lib, nima uchun so'zlashuvchi muayyan vaziyatda o'zini boshqacha emas, aynan shunday tutishini tushuntirib bera olmaydi¹.

D. Vunderlix qayd qilingan ikkinchi va uchinchi yondashuvlarni ko'proq istiqbolli, birinchisini esa qo'yilgan masalalarning globalligi jihatidan aniq emas, deb hisoblaydi.

X. Yaxnov GFR sotsiolingvistlari shug'ullanadigan asosiy muammolarni quyidagicha tasavvur qiladi:

I. Nemis tili ost tizimlarining jihatleri va ularning ijtimoiy strukturalarga ta'siri: 1) hozirgi nemis tili ost tizimlari qanday va ular GFRning qaysi ijtimoiy strukturalari bilan tushuntiriladi; 2) hozirgi nemis tili ost tizimlarining lisoniy va funksional xususiyatlari qanday; 3) muayyan ost tizimlarga egalik guruhlar va individlarning ijtimoiy mavjudligiga qanday ta'sir ko'rsatadi; 4) tilni qayta ijtimoiylashtirish (birinchi galda maktabda) guruhlar va individlarning ijtimoiy mavjudligini qay darajada o'zgartirishi mumkin? 5) bugungi kunda nemis adabiy tili bilan nemis tilining ijtimoiy va mahalliy dialektlari o'rtasidagi xolis munosabat qanday holatda? 6) nemis tili ost tizimlarining rivojlanish tendensiyalari jamoa

¹ Wunderlich D. Zum Status der Soziolinguistik // Aspekte der Soziolinguistik. - Frankfurt, 1971. - P. 316-317.

sohalarining rivojlanish tendensiyalari bilan aloqada bo'la oladi, deb aytish mumkinmi? 7) nemis adabiy tilini kodifikatsiya qilishda qanday lisoniy va ijtimoiy omillarni e'tiborga olish kerak? 8) muayyan ost tizimlarga egalik ijtimoiy-madaniy sohalaridagi anglash jarayonini qiyinlashtirishi mumkinmi?

II. Ijtimoiy determinizatsiyalangan til muomalasi va ijtimoiy muomala jihatlari tilga ta'sir sifatida: 1) qaysi kommunikativ vaziyatlar, qanday til muomalasi munosabatda bo'ladi? 2) turli ijtimoiy guruhlarning til muomalasi qanday farqlanadi? 3) turli ijtimoiy guruhlarning maxsus "ommaviy" matn turlari (masalan, reklama, siyosiy partiyalar tashviqoti va h.k.)ga munosabati qanday bo'ladi?

III. Ko'p tillilik jihatlari: 1) nemis tilida so'zlashish // so'zlashmaslik GFRdagi chet ellik ishchilarning ijtimoiy mavjudligiga qanday ta'sir ko'rsatadi? 2) til ta'limi xususida (birinchi navbatda chet ellik ishchilarning bolalari) qanday xulosalar chiqarilishi kerak? 3) til aloqalari nemis tili va xorijlik ishchilarning tili uchun qanday natijalarga ega?¹

Qayd qilingan muammolar sotsiolingvistik jihatlardan biriga, ichki struktur jihatlarga ham ega. Masalan, fanning u yoki bu sohasidagi terminologiyani ishlab chiqishda ko'proq sarmahsul bo'lgan so'z yasovchi, so'z o'zgartuvchi modellarni tanlash masalasi ichki struktur jihatlarga tegishli bo'ladi, shu bilan birga, sotsiolingvistik muammolar ham favqulodda muhim sanaladi. Bu birinchi navbatda, mazkur bilimlar sohasi uchun aniq bir tilda terminologiya yaratish kerakmi, tildagi o'zlashmalar, ularning manbai muammosi haqidagi masalalardir. Tabiiyki, amaliy sotsiolingvistika bunday muammolarning faqat sotsiolingvistik jihatidagina qamrab oladi.

2. 3. Tilning ijtimoiy variantlari

Til variantlari – sotsiolingvistikaning an'anaviy tarzda ko'p o'rganiladigan muammolardan biri. U G'arbiy Germaniya tilshunoslarining ishlarida salmoqli o'rinni egallagan. Nemis tilshunoslari variantlilik deganda, odatda, individual nutqiy aktlarni emas, balki so'zlashuvchilarning muayyan guruhiga xos bo'lgan, ijtimoiy o'zaro bog'langan til qo'llanishining shakllari va usullarini tushunishadi².

K. Naringzning ta'kidlashicha, til variantlari mavjudligining manbalari va sabablari haqidagi masala, albatta, til va jamiyatning o'zaro munosabatlarini aniqlashga olib keladi. Har qanday til jamoasida ijtimoiy

¹ Яхнов Х. Развитие и проблемы социолингвистики в ФРГ // Социальнолингвистические исследования. - М., 1976. -С. 227.

² Nahrings K. Sprachliche Varietaten. -Tübingen, 1981. -P.70.

xususiyatlar bilan bir qatorda, til xususiyatlari jihatidan ham bir-biridan farqlanadigan turli guruhlar mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, turli kommunikativ vaziyatlarda kommunikativ akt qatnashchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarga bog'liq turfa til variantlari ham qo'llaniladi.

E'tirof etish joizki, barcha til jamoalari va tillar uchun universal bo'lgan vaziyatlar va shakllarning to'plami mavjud emas. Tilning ichki differentsiatsiyasi jamiyat ijtimoiy strukturasi qibati va ifodasi hisoblanadi.

GFR sotsiologvistlarining til variantlarini o'rganishga bag'ishlangan aniq tadqiqotlari, asosan, uch sohaga, ya'ni birinchi navbatda, turli dialektlarni ularning ijtimoiy o'lchovini hisobga olgan holda o'rganish, shuningdek, tilning mavjud bo'lishidagi turli shakllarning o'zaro munosabatini tahlil qilish; ayrim maxsus tillarning jins va yosh farqliliklarini tadqiq qilishga qaratildi. Kasbiy tillar singari til variantlari ham kamroq tahlil qilindi.

2.3.1. Nemis tilining mavjud bo'lishidagi shakllar va til me'yori muammosi

Kuchli dialekt differentsiatsiyasi kuzatiladigan nemis tilini, uning so'zlashuv tili (Umgangssprache) va me'yoriy adabiy tili (Hochsprache, Literatursprache, Standardtsprache) o'rtasidagi jiddiy farqlarni o'rganish masalasi barcha tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Nemis tilshunoslari tomonidan mazkur muammolarga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirildi.

K. Naringzning fikricha, standartlashgan adabiy tilning mavjudligi har qanday rivojlangan jamiyat uchun xosdir. Til uchta asosiy vazifani bajaradi: 1) birlashtiruvchi – mazkur til dialektlarida so'zlashuvchilar orasidagi tushunmovchilikni oldini oladi; 2) chegaralovchi – tilni boshqa tillardan chegaralash imkoniyatini beradi; 3) nufuz - tilning hamma variantlaridan ustun turadi.

Ayrim tilshunoslarning qayd qilishicha, standartlashgan adabiy til sotsiologvistika uchun alohida qiziqish uyg'otmaydi, chunonchi, ushbu fan, avvalo, til variantlarini tahlil etishni maqsad qiladi¹. Shuning uchun so'zlashuv tilini o'rganish ko'proq samarali bo'ladi. GFR sotsiologvistlarining fikricha, tilning ushbu turi shahar aholisining o'rta va oliy qatlamiga tegishli bo'ladi².

¹ Loffler H. Germanistische Soziolinguistik. - Berlin, 1985. -P. 113.

² Bichel U. Problem und Begriff der Umgangssprache in der germanistischen Forschung. -Tübingen, 1973. -P. 209; Nahrings K. Sprachliche Varietaten. -Tübingen, 1981. -P. 73.

Demak, soʻzlashuv tili – bu ijtimoiy qoliplashgan variant. U kundalik muomala tili boʻlib, qoʻllanish vaziyatlari jihatidan cheklangandir¹. Til tizimi nuqtayi nazaridan soʻzlashuv tili nutqiy muomala jarayonida adabiy tilning baʼzi oʻzgarishlarga uchragan koʻrinishidir. Soʻzlashuv tilidan foydalanuvchilarning doirasi nihoyatda keng boʻlgani uchun u jiddiy ichki differentsiatsiyaga uchragan. Bundan tashqari, u mamlakatning turli hududlarida tarqalgan dialektlarning taʼsirida anchayin variantlashadi².

Adabiy til va soʻzlashuv tili kabi meʼyorlashgan til variantlarini oʻrganish jarayonida til meʼyori haqidagi masalaning yuzaga kelishi tabiiydir.

P. fon Polens meʼyor deganda, metatil kommunikatsiyasi natijasida “meʼyoriy”, “toʻgʻri” deb baholanadigan, til tizimi imkoniyatlarining bir qismini tushunadi³. Biroq real turmushda til meʼyori tilni qoʻllash bilan toʻldiriladi, yaʼni til egasi nutqida qoʻllanmaydigan, meʼyorga va meʼyoriy shakllarga mos kelmaydigan tilni qoʻllash hodisalari ham kuzatiladi. Bundan turli til shakllarining toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini qanday baholash mumkin, degan savol kelib chiqadi. Agar ular faqat kodlashtirilgan meʼyor bilan bogʻlanadigan boʻlsa, unda bu jihat har qanday til rivojiga toʻsqinlik qiladi. S. Yegerning fikricha, masalan, neologizmlarni baholashda, quyidagi mezonlarga amal qilish lozim: 1) aniqlik va bir xil maʼnolilik; 2) tarqalish va qoʻllanish darajasi; 3) til tejamkorligi⁴.

Nemis adabiy tili shakllangan oʻtgan asrlarda meʼyorlash muammosi hududiy meʼyorlarni bartaraf qilishdan iborat boʻldi. Hozirgi kunga kelib, nemis adabiy tilining birligi bilan himoyalangan, bir-biri bilan hech qanday aloqada boʻlmagan raqobatdagi koʻpgina ijtimoiy meʼyorlar mavjud. Meʼyorlashtirish muammosining hozirgi bosqichida ijtimoiy meʼyorlar oʻrtasida shunday oʻzaro nisbatga erishish kerakki, bunda ularning barchasi mustaqil boʻlish bilan birga, muayyan yoʻnalishda til meʼyori darajasini yuksaltirishga yordam bera olsun.

Bugungi kunda GFRda aholining aksariyat qatlami oʻrtasida adabiy tilni egallash tendensiyasi kuzatilmoqda. Ilgari bu hodisa avval shahar aholisining oʻrta qatlami, keyinroq qishloq aholisining eng koʻp taʼminlangan qatlamiga xos boʻlgan. Mazkur jarayon mamlakat shimolidan janubiga tomon siljib bormoqda. Boshqa tomondan, qarama-qarshi boʻlgan jarayonni koʻrish mumkin: til egalarining oʻqimishli qismi orasida

¹ Löffler H. Germanistische Soziolinguistik. - Berlin, 1985. - P. 111.

² Eichhoff I. Wortatlas der deutschen Umgangssprache. 2 Bde. - Bern: München. 1977---1978.

³ Polenz P. von. Sprachnorm, sprachnormierung und Sprachnormkritik //Bd. 1. Soziolinguistik. Ansätze zur soziolinguistischen Theoriebildung; Bd. 2. Anwendungsbereiche der Soziolinguistik. - Darmstadt, 1982.

⁴ Jäger S. Die Sprachnorm als Aufgabe der Sprachwissenschaft und Sprachpflege // Bd. 1. Soziolinguistik. Ansätze zur soziolinguistischen Theoriebildung; Bd. 2. Anwendungsbereiche der Soziolinguistik. -Darmstadt, 1982.

shaxsning o'zligini anglash, uning ma'lum hududiy jamoaga tegishlilik belgisi, milliy an'analar bilan munosabatda bo'lish va h.k. vositasi sifatida yana dialektlarga bo'lgan qiziqish borgan sari kuchaymoqda. Dialektlarning muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarishi tendetsiyasini ham kuzatish mumkin: dialektlar nafaqat kundalik muomala va folklor dastalarida, balki ba'zi radioeshittirishlar hamda teatr sahnalarida ham qo'llanilmoqda.

2. 3.2. Nutqiy muomalaning xususiyati

So'nggi yillarda nemis sotsiologvistlari so'zlashuvchilarning jinsiga ko'ra til differentsiatsiyasini o'rganishga katta qiziqish bilan qarashmoqda. Ayniqsa, ayollar nutqi qoliplashgan variant bo'lgani uchun ham uning o'ziga xos xususiyatlari alohida tadqiq qilinmoqda. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor ayollar nutqining artikulyator xususiyatlariga emas, balki ayollar lisoniy salohiyatining o'ziga xosligiga qaratiladi. Uzoq vaqt davomida dialektologik materiallarni to'plash jarayonida ayollar eng maqbul informantlar hisoblanib kelingan. Chunonchi, ayollar ko'proq konservativ bo'lib, ularning muloqot doirasi oila masalalari bilan cheklangandir. Bu esa, o'z navbatida, dialektning sof ko'rinishda saqlab qolinishini ta'minlagan. Hozirda ahvol o'zgargan: ijtimoiy faoliyat sohasiga jalb qilish, ommaviy kommunikatsiya vositalarining ta'siri, ta'lim darajasining o'sishi ayollarning ayrim holatlarda, hatto, ko'proq holatlarda erkaklarga nisbatan adabiy til shakllarini qo'llashlariga olib keldi¹. Bola tarbiyasining zarurati adabiy tilni egallash va undan foydalanishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Modomiki adabiy til, odatda, dialektga nisbatan ko'proq ijtimoiy nufuzga ega ekan, ayollar bolalarni aynan adabiy tilga o'rgatishni zarurat, deb hisoblashadi, shuning uchun ham bu tilda gaplashishga (ayniqsa, bolalar bilan muloqotda) harakat qilishadi².

Ayollar nutqining o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida, odatda, emotsional bo'yoqdor leksika, ortiqcha so'zlarning ko'p ishlatilishi ko'rsatiladi. K. Naringz bu hodisalarni aynan nemis tilining ayol variantiga xos emas, ular butun Yevropa tillarining universalialari, deb hisoblaydi³.

Tilning yosh differentsiatsiyasini o'rganishda asosiy e'tibor yoshlarning turli guruhlariga xos tillarga qaratilgan. Yoshlar tili (jargon) deb, butun yoshlarning tili emas, balki yoshlarning ayrim guruhlari tomonidan qo'llaniladigan turli sabablar ta'sirida vujudga kelgan maxsus shakllarga aytiladi. X. Lo'fflarning ta'biricha, bu til makon va zamonda

¹ Mattheier K.J. Pragmatik und Soziologie der Dialekte. Einführung in die kommunikative Dialektologie des Deutschen. - Heidelberg, 1980. -P. 34; Nahrings K. Sprachliche Varietäten. -Tübingen, 1981. -P. 118.

² Stellmacher D. Geschlechts spezifische Differenzen im Sprachverhalten niederdeutscher Sprecher // Niederdeutsches Jahrbuch. 1975/1976. 98/99.

³ Nahrings K. Sprachliche Varietäten. -Tübingen, 1981. -P. 120.

chegara bilmaydi. Har bir avlod o'zining yoshligida u yoki bu xarakterdagi shakldan foydalangan¹. Shuni ta'kidlash joizki, yoshlar tilini o'rganish an'anaviy tarzda olimlar diqqatini jalb qilib kelgan. Yoshlar tilining dastlabki lug'ati XVIII asrdayoq maydonga kelgan edi: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida gimnazistlar va talabalar tilining tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan edi.

B.David nemis yoshlari tilining yoyilishini uch asosiy davrga ajratish mumkin, deb hisoblaydi: 1) XVII asrdan 1930-yilgacha bo'lgan davr, uning asosiy egalari talabalar bo'lishiga qaramasdan, aholining boshqa qatlamlari, xususan, universitet shaharchalarida yashovchilarning nutqiga ham muayyan ta'sir ko'rsatgan; 2) 1955-yildan 1972-yilgacha bo'lgan davr, yoshlar tilida so'zlashuvchilarning tarkibi sezilarli darajada kengaygan; 3) 80-yillarda mazkur til egalari soni ortgan. Bu birinchi navbatda yoshlarning yosh chegaralarini uzaytirishi hisobiga bo'lgan².

Yoshlar jargonining lug'at tarkibi mazkur jamoa guruhining ijtimoiy mavjudligining o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol aks ettiradi. Buni 60-yillarning oxirida GFRda ko'tarilgan talabalar harakatida ham ko'rish mumkin. O'sha davrda maishiy doira bilan cheklangan talabalar jargonining mavzusi birdan o'zgardi. U ijtimoiy-siyosiy leksika bilan to'ldirilib, "norozilik tili"ning shakllanishiga olib keldi.

Talabalar jargoni, avvalo, lug'at tarkibining o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Lug'atning mavzuiy guruhlari tarixiy rivojlanish jarayonida ma'lum ma'noda o'zgarib borgan. Yoshlar tili lug'ati unsurlarini shakllantiruvchi asosiy usullar metafora, metonimiya hamda boshqa tropalar sanaladi.

2.4. Til va siyosat

GFRda til va siyosat muammolariga qiziqish 50-yillarning oxirida divergent jarayonlar bilan bog'liq holda vujudga keldi. Bu o'rinda birinchi navbatda X. Moser, L. Makensen va V. Betslarning ishlarini³ qayd qilish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ishlarda GFR va GDR nemischasi o'rtasidagi quyidagi farqlar qayd qilingan: 1) GDR nemischasida GFR nemischasiga nisbatan neologizmlar, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy leksika sohasida (taxminan 10 baravar) ko'p uchraydi; 2) GFR nemischasiga, asosan, Angliya-Amerika asosli o'zlashmalar, GDR nemischasiga esa ruscha so'z va ifodalardan olingan kalkalar xos; 3) Kayzerlar Germaniyasi uchunchi reyxonining ijtimoiy-siyosiy lug'atiga kirgan ko'p so'zlar va ifodalar

¹ Löffler H. Gennanistische Soziolinguistik. - Berlin, 1985. -P. 133.

² David B. Yungendsprache zwischen Tradition und Fortschritt. Ein aktuelles Phänomen im historischen Vergleich. - Frankfurt, 1987.

³ Betz W. Zwei Sprachen in Deutschland? // Merkur, 1962, 16/9. Mackensen L. Die deutsche Sprache unserer Zeit (Zur Sprachgeschichte des 20. Jh.). - Heidelberg, 1956; Moser H. Entwicklungstendenzen des heutigen Deutsch. - Moderna sprog, 1956; Moser H. Zur Situation der deutschen Gegenwartssprache // Studium Generale. 1962i. H. 1; Moser H. Sprachliche Folgen der politischen. Teilung Deutschlands // Wirkendes Wort. -Dusseldorf, 1962.

GDR nemischasida o'z aksini topmagan; 4) GDR nemischasi va GFR nemischasidagi ijtimoiy-siyosiy so'zlarning ayrim tarkibiy qismlari turlicha ma'no kasb etgan.

G'arbiy germaniyalik tadqiqotchi V. Dikmann GFRda 1965-yilgacha siyosat tili yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni tanqidiy baholab, ulardagi kamchiliklarni quyidagicha ko'rsatadi: 1) asosiy e'tibor natsional-sotsializm va GDRdagi nemis tili xususiyatlarining rivojlanishiga qaratilgani, GFR tiliga esa o'ziga xos etalon sifatida qaralgani; 2) estetik, shakliy-mantiqiy va axloqiy baholarning aralashtirib yuborilgani; 3) baholash mezonlarini belgilashda ideologiyaning mazmuni, shuningdek, tahlilga tortilgan til ost tizimlari maxsus vazifalarining hisobga olinmagani; 4) til hodisalarining tanqidi aslida ijtimoiy-siyosiy hayot voqeiklarining niqoblangan tanqidi ekanligi¹.

GFR olimlarining 1965-yildan keyingi ishlarida mazkur muammolar bu davr tilshunosligida yetakchi mavqega ega bo'lgan strukturalizm g'oyalari o'zida yaqqol namoyon etdi. Biroq bu davrga kelib ijtimoiy-siyosiy leksikaning xususiyatlarini kengroq ijtimoiy kontekstda o'rganigan tadqiqotlar ham yuzaga keldi. Zero, GDR va GFR tillari o'rganib bo'lingani bois, ushbu mavzu o'z ahamiyatini yo'qotgan edi. 70-80-yillarda ijtimoiy-siyosiy muloqot tilining farqli jihatlari tahlil qilina boshlandi. Mazkur muammoga nafaqat tilshunoslar, balki faylasuflar, siyosatshunoslar, ommaviy axborot vositalari sohasi mutaxassisleri ham katta e'tibor qaratib boshladilar.

G'arb tilshunoslari ijtimoiy-siyosiy hayot tilini o'rganar ekan, uni nomlashda bir to'xtamga kelishmagan edi. U "ijtimoiy til", "fikrlar tili", "jamoat arboblari tili", "siyosat tili" va "rahbariyat tili" tarzida nomlanar edi. Ayrim tilshunoslar aksincha, "siyosat tili"ni juda keng ma'noda tushunishgan. Masalan, V. Bergsdorf "siyosat tili"ga quyidagi ost tizimlarni kiritgan: 1) qonun chiqarish va sud qarorlari tili; 2) rahbariyat tili bo'lib, uning vazifasi turli qarorlar, buyruqlar va h.k. chiqarishdir; 3) muzokaralar tili (mamlakatda mavjud siyosiy partiyalar va diplomatik muzokaralar tili); siyosiy tarbiya tili (maktablarda, ommaviy axborot vositalarida qo'llaniladi); siyosiy tashviqot tili².

V. Bergsdorfnin qayd qilishicha, siyosiy faoliyatda tildan foydalanishdan asosiy maqsad til vositalari yordamida odamlarning xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishdir. Til siyosatning quroli – har qanday til jamoasining mafkurasidan qat'iy nazar, uning ajralmas qismi sanaladi, u

¹ Dieckmann W. Politische Sprache, politische Kommunikation. Vorträge, Aufsätze, Entwürfe. - Heidelberg, 1981.

² Bergsdorf W. Herrschaft und Sprache. Studie zur politischen Terminologie der Bundesrepublik Deutschland. - Neske-Verlag, 1983. - P. 34.

hukmron sinflarning faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Hukmron sinf qanchalik kuchli bo'lsa, uning tilga ta'siri ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Siyosat tilini tahlil qilishda tadqiqotchilar asosiy e'tiborlarini tayanch so'zlar (Schlüsselwörter, Affektiva) va shior so'zlar (Schlagwörter)ga qaratadilar. Bunda ayrim tadqiqotchilar tayanch so'zlar va shior so'zlarni sinonim sifatida qo'llaydilar.

Shior so'zlar noaniqlik, umumlashtirish, ma'nodagi kuchli emotsionallik kabi umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Shior so'zlarda siyosiy dasturlar to'plangan bo'lib, ular nisbiyni mutlaqqa (absolyutga) olib chiqadi, murakkabni aniq ko'zga ko'rinadigan qiladi. Ular birinchi navbatda, tinglovchilarning emotsiyasiga qaratilgan bo'ladi.

Siyosiy nutqda shior so'zlardan tashqari evfemizmlar ham keng qo'llaniladi. Ular, odatda, qandaydir hodisa yoki voqealarga ijobiy bo'yoq berish, tinglovchi/o'quvchining emotsional qarshiligini yengish uchun qo'llaniladi. Masalan, iqtisodiy ahvolda *Nullwachstum* "o'sish nolga teng" bo'lganda, *Wachstum* "o'sish" so'zi baribir ko'pchilikda ijobiy baho tasavvurini hosil qiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan siyosat tili tadqiqotlariga xos bo'lgan, o'zaro chambarchas bog'langan ikki muhim jihatni ta'kidlash joiz bo'ladi. Birinchidan, ularda siyosatga sinflar, ijtimoiy guruhlarning qiziqishlarini aks ettirgan mafkura shakllaridan biri sifatida emas, balki hokimiyatni egallab, uni ushlab turadigan faoliyat sifatida qaraldi. Ikkinchidan, siyosiy leksika va siyosiy terminologiya orasiga chegara qo'yilmadi¹.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Nemis sotsiolingvistikasining rivojlanishida qaysi yo'nalishlar asos bo'lgan?
2. Nemis tilshunosligi asosiy diqqat-e'tiborini nimalarni o'rganishga qaratdi?
3. GFR sotsiolingvistlarining til variantlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari, asosan, nechta sohaga qaratildi?
4. 50-60-yillardagi nemis tilshunosligining ahvoli qanday edi?
5. B. Bernstayn gipotezasining asosiy tomonlari nimalardan iborat edi?
6. Kodlar nazariyasining GFRda katta qiziqish uyg'otishi sababini B. Shliben-Lange qanday izohlagan?
7. 70-yillarda GFR sotsiolingvistlari tomonidan qanday tadqiqotlar amalga oshirildi?
8. A.N. Dittmar sotsiolingvistikaning predmetini qanday izohlagan?

¹ Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социоллингвистика. Германия. Испания. –М. Наука, 1991 – С.65.

9. D. Vunderlix sotsiolingvistik tadqiqotlar muammolaridagi qanday yondashuvlarni ko'rsatib berdi?

10. X. Yaxnov GFR sotsiolingvistlari shug'ullanadigan asosiy muammolarni qanday tasavvur qildi?

11. "Til o'qitishning kompensator" dasturlari qaynday maqsadda ishlab chiqildi?

12. GFR sotsiolingvistlarining fikricha, so'zlashuv tilining egalari shahar aholisining qaysi qatlamini tashkil qiladi?

13. GFR olimlarining 1965-yildan keyingi ishlari qaysi yo'nalishning g'oyalarni aks ettirdi?

14. G'arbiy Germaniya tilshunoslari "variantlilik" deganda nimani tushunishadi?

15. G'arb tilshunoslari ijtimoiy-siyosiy hayot tilini qaysi nomlar bilan ataganlar?

16. Siyosat tilini tahlil qilishda tadqiqotchilar asosiy e'tiborlarini qanday so'zlarga qaratdilar?

Adabiyotlar

1. Домашнев А.И. Теория кодов Б. Бернштейна. Цели и результаты // ВЯ, 1982. - N 1.

2. Крючкова Т.Б. Социоллингвистика в ГДР // Проблемы зарубежной социоллингвистики. -М., 1976.

3. Крючкова Т.Б. К вопросу о методах социоллингвистических исследований. Теоретические проблемы социальной лингвистики. -М: Наука, 1981.

4. Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социоллингвистика. Германия. Испания. -М.: Наука, 1991.

5. Яхнов Х. Развитие и проблемы социоллингвистики в ФРГ // Социальнолингвистические исследования. -М., 1976.

6. Bergsdorf W. Herrschaft und Sprache. Studie zur politischen Terminologie der Bundesrepublik Deutschland. -Neske-Verlag, 1983.

7. Betz W. Zwei Sprachen in Deutschland? // Merkur, 1962, 16/9. Mackensen L. Die Deutsche Sprache unserer Zeit (Zur Sprachgeschichte des 20. Joh.). - Heidelberg, 1956.

8. Bichel U. Problem und Begriff der Umgangssprache in der germanistischen Forschung. -Tübingen, 1973.

9. David B. Jugendsprache zwischen Tradition und Fortschritt. Ein aktuelles Phänomen im historischen Vergleich. -Frankfurt, 1987.

10. Dieckmann W. Politische Sprache, politische Kommunikation. Vorträge, Aufsätze, Entwürfe. -Heidelberg, 1981.

11. Dittmar N. Soziolinguistik. Exemplarische und kritische Darstellung ihrer Theorie, Empirie und Anwendung. –Frankfurt: Main, 1973.
12. Eichhoff I. Wortatlas der deutschen Umgangssprache. 2 Bde. – Bern: München, 1977—1978.
13. Gipper ff. Soziolinguistik oder Sprachsoziologie? // Soziolinguistik / Hrsg. von A. Scharb. –Wien, 1976.
14. Hartig M. Soziolinguistik. –Frankfurt: Main, 1985.
15. Jäger S. Die Sprachnorm als Aufgabe der Sprachwissenschaft und Sprachpflege // Bd.I. Soziolinguistik. Ansätze zur soziolinguistischen Theoriebildung; Bd. II. Anwendungsbereiche der Soziolinguistik. – Darmstadt, 1982.
16. Löffler H. Germanistische Soziolinguistik. –Berlin, 1985.
17. Mattheier K.J. Pragmatik und Soziologie der Dialekte. Einführung in die kommunikative Dialektologie des Deutschen. –Heidelberg, 1980.
18. Moser H. Entwicklungstendenzen des heutigen Deutsch. –Moderna sprov, 1956.
19. Moser H. Zur Situation der deutschen Gegenwartssprache // Studium Generale. H. 1. 1962.
20. Moser H. Sprachliche Folgen der politischen. Teilung Deutschlands // Wirkendes Wort. –Düsseldorf, 1962.
21. Nahrings K. Sprachliche Varietäten. –Tübingen, 1981.
22. Polenz P. von. Sprachnorm, Sprachnormierung und Sprachnormkritik // Bd.I. Soziolinguistik. Ansätze zur soziolinguistischen Theoriebildung; Bd.II. Anwendungsbereiche der Soziolinguistik. – Darmstadt, 1982.
23. Radtke J. Soziologische Untersuchungen sprachlicher Variation und ihre Folgerungen für den Sprachunterricht // Beiträge zu den Sommerkursen, 1975. Goethe-Institut München. - München, 1976.
24. Schlieben-Liange B. Soziolinguistik. Eine Einführung // 2-e Aufl. Stuttgart u.a., 1978.
25. Steger H. Soziolinguistik // Lexikon der Germanistischen Linguistik / 1 Aufl. –Tübingen, 1973.
26. Stellmacher D. Geschlechts spezifische Differenzen im Sprachverhalten niederdeutscher Sprecher // Niederdeutsches Jahrbuch. 1975/1976. 98/99.
27. Weber H. Studentensprache. Über den Zusammenhang von Sprache und Leben. – Weinheim: Basel, 1980.
28. Wunderlich D. Zum Status der Soziolinguistik // Aspecte der Soziolinguistik. - Frankfurt, 1971.

3-MA'RUZA

ISPANIYA SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Ispaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishidagi ijtimoiy va ilmiy shart-sharoitlar
2. Ispaniya tillari
3. Ispan tilining bugungi kundagi ahamiyati

Tayanch soʻzlar: ispan, kastil, bask, katalon, galisiy tillari, milliy til, muxtor til, rasmiy til, millat, romanistika, dialektologiya, struktura, sistema, belgi, g'oya, tuzum, konstitutsiya, ko'p tilli, rasmiy hujjat.

3. 1. Ispaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishidagi ijtimoiy va ilmiy shart-sharoitlar

Tilning ijtimoiy jihatiga qiziqish har doim ham ispan tilshunosligiga xos xususiyatlardan biri bo'lib kelgan. XVII asrning boshlaridayoq Ispaniyaning Salaman universiteti professori Gonsalo de Korreas tilning ijtimoiy farqliliklarini ko'rsatib bergan edi: "Til turli dialektlardan tashqari kishilarning yoshi, mavqeyi va egalik qilayotgan mulkiga ko'ra ba'zi farqliliklarga ham ega: qishloq aholisi, oddiy xalq, mashhur kishilar, saroy a'yonlari, olimlar, qariyalar, ayollar, erkaklar va hatto, bolalarning tili mavjud"¹.

Tilning ijtimoiy variantlari M. Alvar, G. Salvador² va h.k. dialektologlarning ishlarida atroflicha o'rganildi. Biroq yangi metodologik asosdagi, AQSh sotsiolingvistlarining ishlariga tayangan sotsiolingvistik tadqiqotlar 1960-1970-yillarda rivojlandi. Mazkur tadqiqotlarga rag'bat bo'lgan ikki asosiy omilni ko'rsatish mumkin. Birinchisi, ispan jamoatchiligining frankist tuzumining milliy til masalasiga bo'lgan munosabatiga nisbatan katta noroziligi edi. Bir tilli (ispan, ya'ni kastil tilli) ispan millatining konsepsiyasi Ispaniyadagi bugungi kungacha o'zining tili va madaniyatini saqlab kelayotgan uchta millat – bask, katalon va galisiyni nazar-pisand qilmadi. Frankist tuzumi qulab, konstitutsion monarxiya o'rnatilgandan keyin Ispaniya uchta muxtor viloyatga ajraldi va bask, katalon va galisiy tillari kastil tili bilan bir qatorda mazkur viloyatlarning rasmiy tili maqomini oldi. Ammo ushbu siyosiy-rahbariyat choralari milliy til masalasining ijobiy hal bo'lishini ma'lum darajadagina ilgari siljita oldi.

¹ Степанов Г.В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи - М., 1976. -С. 22.

² Alvar M. Niveles socio-culturales en el habla de las Palmas de Gran Canaria. - Las Palmas de Gran Canaria, 1972; Estructuralismo, geografia linguistica y dialectologia actual. - Madrid, 1973; Lengua y sociedad. - Barcelona, 1976;

Ayrim hududlarda kastil tili va mahalliy til to'qashuvlarini ko'rsatuvchi til vaziyati hali ham keskinligicha qolmoqda, uni me'yorlashtirishga bo'lgan urinishlar o'zining chala-chulpaligi bilan noroziliklarga sabab bo'lmoqda; rasmiy hujjatlardagi, xususan, Ispaniya konstitutsiyasidagi milliy til masalasining talqini ham qoniqarsiz, deb topilmoqda. Konstitutsiyaning 3-moddasida: "Konstitutsiya barcha ispanlarning umumiy va bo'linmaydigan vatanidagi ispan millatining yengilmas birligiga asoslanadi, *millatlar* (aniqrog'i, mayda millatlar) va *hududlarning* (nacionalidades & regiones) muxtorlik huquqini tan oladi va kafolatlaydi". Ispan tilida *nación* so'zi "millat" va "davlat" ma'nolarini ifodalaydi. Basklar, katalonlar, galisiyaliklar – alohida millat bo'lishiga qaramasdan, ular konstitutsiyada *nacionalidades* (millatlar), deb nomlangan; oxirgi termin ispan sotsiologiyasida aniqlik kasb etmaydi. Bundan tashqari, konstitutsiyada *hududlar* qayd qilingan bo'lib, ularning farqlari keltirilmagan. Ispaniyadagi til, millat/ mayda millat va mintaqaga tegishli masala o'ta murakkab va ko'p qirralidir.

Konstitutsiyaning 3-moddasi tillar maqomiga bag'ishlangan:

1) "Kastil tili Ispaniya davlatining rasmiy tilidir. Uni bilish barcha ispanlar uchun majburiydir va ular bu tildan foydalanish huquqiga ega.

2) Ispaniyaning boshqa tillari esa muxtor viloyatlarning qonunlariga muvofiq ularning rasmiy tili hisoblanadi.

3) Ispaniyaning turli til farqliliklarga boyligi alohida hurmat va himoya manbai bo'lishi lozim hisoblangan madaniy boylik sanaladi".

Agar Lotin Amerikasi respublikalarining konstitutsiyalarida davlat tili ispan tili, deb ta'kidlangan bo'lsa, ispan millatining tili kastil tili, deb nomlanadi! Ispan tili tarzida nomlash imperialistik til siyosati yurgazish hisoblanadi. Vaziyatni yumshatish uchun Ispaniyaning umumdavlat tili dialekt asosdan kelib chiqqan holda nomlanadi. Konstitutsiyaning 3-bandidagi "turli til farqliliklari" haqidagi hurmat va ularni himoya qilish ispan tilshunolarini qattiq g'azablantiradi. Chunki bunday noaniq fikrlash asosida til vaziyatini me'yorlashtirish maqsadidagi aniq til siyosatini amalga oshirish juda qiyin kechadi¹.

Ispaniya konstitutsiyasida ayrim davlatlarning konstitutsiyalarida qayd qilingan "ozchilik" so'zi ishlatilmaydi. Chunki Ispaniyaning bir qancha million aholisi katalon, galisiy va bask tillarida gaplashadi. Shunga ko'ra, "ozchilik" terminini qo'llash mintaqadagi tillar va madaniyatlarning ahamiyatini kamsitish hisoblanadi.

¹ Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социолнгвистика. Германия. Испания. –М.: Наука, 1991. –С.74-75.

Ispaniyada sotsiolingvistik tadqiqotlarni rivojlantirishga rag'bat bo'lgan ikkinchi omil sof ilmiy, lingvistik xususiyatga ega; u romanistikaning tarkibiy qismi bo'lgan ibero-romanistikani, avvalo, (iber)roman dialektologiyasini rivojlantirish mantig'iga asoslangan.

D. Katalan "Ibero-roman lingvistika Retrospektiv tanqid" asarida roman tilshunosligining o'ziga xos belgisi – til rivojlanishi va jamiyat rivojlanishi o'rtasidagi chambarchas o'zaro aloqani tan olish, deb ko'rsatadi¹.

Ispan lingvistikasi maktabining tadqiqotlarida til strukturasi o'zgarishlar va bir vaqtning o'zida ularning jamiyat turli qatlamlari nutqida asta-sekin tarqalishi atroflicha o'rganildi: bunday yondashuv tilning har qanday holatida uning strukturasi gomogen va statik bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatdi. Biroq ispan tilshunosligining qat'iy metodikasi ishlab chiqilmagan edi, bunga yetarli darajada sotsiologik baza yo'q edi. Bunday sharoitda Shimoliy Amerika tilshunosligining g'oyalari va metodlariga murojaat qilishdan o'zga chora qolmadi. Ispan tilshunosligi uchun yangi "sotsiolingvistik erasi" 1953-yilda U. Vaynrayxning mashhur monografiyasi² chop etilgandan so'ng boshlandi.

Til ijtimoiy stratifikatsiyasining tavsifi atoqli ispan dialektologi M. Alvarning qator ishlarida o'z aksini topdi. M. Alvar "Strukturalizm, lingvogeografiya va zamonaviy dialektologiya"³ nomli monografiyasida zamonaviy dialektologiyadagi tilga sotsiologik yondashuvning bir necha muammolarini ko'rsatib beradi: Lotin Amerikasi davlatlaridagi ijtimoiy rivojlanish va uning lisoniy oqibatlari; katta shaharlardagi ijtimoiy qatlamlar nutqidagi farqlar; yosh va jins farqlari shular jumlasidandir.

1966-yilda M. Alvar A. Kilis bilan birgalikda Madrid shahri aholisi nutqini ijtimoiy qatlamlarga ko'ra o'rganish loyihasini ishlab chiqadi. M. Alvarning fikricha, faqat bir me'yorni o'rganish barcha til tizimini uning dinamikasida butunligicha ko'rish imkonini bermaydi; barcha qatlamlar nutqini butun ikir-chikirigacha qiyosiy o'rganish zarur. Zero, aynan turli aholi yashaydigan katta shaharlar misolida alohida ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi til almashinuv jarayonlarini kuzatish mumkin. Shuningdek, M. Alvar shahar va qishloq nutqining o'zaro aloqasi yuz beradigan tog'li, chekka hududlar aholisining nutqini ham o'rganishga alohida e'tibor qaratadi.

F. Markosa Marinning tadqiqotida ham tilni belgilar tizimi sifatida aniqlash chetga suriladi va har bir tarixiy tilning ichidagi ko'plik tizimlari

¹ Catalan D. *Lingüística ibero-románica. Crítica retrospectiva.* - Madrid, 1974.

² Weinreich U. *Languages in contact.* -New York, 1953.

³ Alvar M. *Estructuralismo, geografía lingüística y dialectología actual.* -Madrid, 1973.

haqida xulosa chiqariladi. Mazkur tizimlar aniq differensatsiyalangan emas, ular har bir soʻzlovchi/ tinglovchining lisoniy salohiyati doirasida bir-birini toʻldiradi¹.

Umuman, Ispaniyada til-jamiyat yoʻnalishidagi sotsiolingvistik tadqiqotlar endigina rivojlanishga qadam qoʻygan, aksincha, til sotsiologiyasi borasida esa talaygina ishlar amalga oshirilgan.

3. 2. Ispaniya tillari

Ispaniyada ispan (kastil), katalon, galisiy va bask tillari rasmiy tillar hisoblanadi. Ispan tili (*español o castellano*) oʻrta asrlarda Kastiliya qirolligida vujudga kelgan. Ispaniya va Lotin Amerikasida ispan tilini Kastiliyada shakllangani bois va uni Ispaniyadagi boshqa tillardan ajratish maqsadida, kastil tili ham deyiladi. Ispanlar, odatda, oʻz tillarini xorijiy tillar bilan birga qoʻllaganda, ispan tili, Ispaniyaning boshqa tillari bilan birga qoʻllaganda esa kastil tili deyishadi.

Ispan tili hind-yevropa tillari oilasiga mansub boʻlib, roman guruhining ibero-roman tarmogʻiga kiradi. Yozuvi lotin alifbosiga asoslangan. 358 million kishi uchun ona tili hisoblanadi. Agar ispan tilidan ikkinchi til sifatida foydalanadigan kishilarni ham hisoblaganda, bu koʻrsatkich 430-450 millionga koʻtariladi. Ispan tili Ispaniya, Meksika, Kolumbiya, Argentina va h.k. davlatlarning rasmiy tili hisoblanadi. Ispan tilida AQSh va Puerto-Rikoda 34,5 million kishi gaplashadi va u ingliz tili bilan birga davlat tili sifatida tan olingan. Ispan tili BMT, EI va ADTning rasmiy tilidir.

Ispaniya hududlarining oʻziga xos madaniyati uzoq vaqt davomida Franko boshqargan markazlashgan tuzumning bosimi ostida boʻlib keldi. Yagona rasmiy til kastil tili edi. Biroq Kataloniya, Valensiya va Balear orolida 6 million kishi roman guruhiga kiruvchi va Janubiy Fransiya shevalari bilan yaqin boʻlgan katalon tilida soʻzlashadi. Ispaniyaning shimolida 2,5 million galisiylar portugal tiliga yaqin boʻlgan galisiy tilida gaplashishadi. Ispaniya va Fransiya davlatlari chegarasining ikkala tomonida yashovchi 1 million basklar Yevropa tillarining birontasi bilan ham aloqasi boʻlmagan bask tilida soʻzlashishadi. Olimlar mazkur tilning kavkaz dialektlari bilan aloqasi borligini taxmin qilishadi.

Ispaniya butunicha koʻp tili davlat hisoblanmaydi, chunki markaziy muassasalar ikki tillilikni rasman tan olmaydi. 1992-yilning 26-noyabrida qabul qilingan Qonunning 36-moddasi toʻlaligicha maʼmuriy ish yuritishda tildan foydalanish masalasiga qaratilgan. Mazkur moddaga koʻra, davlat maʼmuriyati tomonidan boshqa tillarda ishlab chiqilgan rasmiy hujjatlar mintaqadan tashqarida qoʻllaniladigan boʻlsa, ularning barchasi kastil tiliga

¹ Marcos Marin F. Reforma y modernización del español. Ensayo de sociolingüística histórica. -Madrid, 1979.

tarjima qilmishi shart. Masalan, Barselonada katalon tilida chiqarilgan hujjat katalon tili rasmiy til hisoblangan Palma de Mayorkaga jo'natiladigan bo'lsa ham u yuborayotgan davlat organlari tomonidan kastil tiliga tarjima qilinishi kerak. Bunday jihat "Ispaniyadagi boshqa tillar"ning mintaqalararo tarqalishini e'tiborga olmaydi.

3. 2. 1. Kataloniya

Kataloniya va Bask o'lkalari – hududiy tillar haqida ko'plab nizomlar chiqargan ikki muxtor viloyat hisoblanadi. Mazkur ikki hudud orasidagi farq mahalliy tillarda so'zlashuvchi aholining sonida kuzatiladi. Bask o'lkasida bask tilida aholining 25% so'zlashadi. Kataloniya aholisining yarmidan ko'pi katalon tilidan asosiy til sifatida foydalanadi. Shuningdek, aholining 90% bu tilda gaplashishi va undan ko'prog'i tushunishi mumkin.

Frankoning o'limidan keyin Ispaniyada boshlangan demokratik jarayonlar natijasida 1983-yili "Kataloniyada lingvistik me'yorlashuv haqida"gi Qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra, Kataloniya muxtor viloyatida katalon tili ikkinchi davlat tili maqomiga ega bo'ldi. Shuningdek, undan o'rta va oliy ta'lim tizimida, mahalliy ma'muriyatning ish yuritish va ommaviy axborot vositalarida katalon tilining qo'llanilishi masalalari o'rin oldi.

1998-yilda imzolangan "Til siyosati haqida"gi Qonun katalonizmining ba'zi tarixiy xususiyatlarini – o'tgan asr oxirida boshlangan harakatlar ko'p milliy belgilarni namoyon qilgani, biroq Ispaniyadan mustaqil bo'la olmaganini aks ettirgan.

3. 2. 2. Basklar va Navarra o'lkasi

Bask tili Euskadi (basklar o'lkasi) va Navarra muxtor viloyatlarining rasmiy tilidir. Bask tilida so'zlashuvchilarning ozchilikni tashkil qilishi va ETA (Euskadi va ozodlik)ning terroristik harakatlari e'tiborga olingan bo'lsa, Euskadi va Navarradagi til siyosati Kataloniyaga nisbatan ancha murakkabdir. Euskadining hududiy hukumati o'zining bor kuchini davlat ma'muriy faoliyatini "basklashtirish"ga sarflamoqda. Mintaqadagi qonunlar davlat xizmatchisidan bask tilini bilishni taqozo qiladi.

1998-yili ba'zi davlat xizmatlari sohasida bask tilini "standarlashtirish" haqida qaror qabul qilindi. Undagi eng muhim talablardan biri mintaqa politsiyasi – Ersaynsda euskerni standartlashtirish jarayonini tartibga solish edi. Keyingi yillarda Ersaynsning faoliyati, ayniqsa, uning terrorizmgga qarshi kurashi ancha faollashdi. Bunday murakkab ish faoliyati xodimlardan ham bask, ham kastil tillarini bilishni talab qilardi. Qabul qilingan qonunga muvofiq til egallashning ikki darajasi ajratildi: birinchi darajaga ko'ra, barcha xodimlarning bask so'zlashuv tilini o'rganishi majburiy qilib belgilandi, ikkinchi darajada esa agentlarning yozuv tilini yaxshi egallashi,

hujjatlarni tayyorlashi va ularni chiqarishi qayd qilindi. Ushbu maqsadga erishish uchun bask tilini o'qitish bo'yicha bepul kurslar tashkil etildi.

3. 2. 3. Galisiya

Keyingi yillarda Galisiyada lingvistika nuqtayi nazardan deyarli o'zgarishlar yuz bermadi. Tilni standartlashtirish hali ham davom etmoqda, biroq katta shaharlarda kastil tili afzal ko'riladi. Galisiyada "diglossiya" hodisasi odatiy hol sanaladi. Bu holatni davlat tillarining o'xshashligi va kastil tilining galiy tiliga nisbatan tarixan afzal ko'rilishi bilan izohlash mumkin.

3. 3. Ispan tilining bugungi kundagi ahamiyati

Ispan tili Akademiyasining qayd qilishicha, ispan tilining eng muhim xususiyatlaridan biri uning bir butunligidir. Masalan, ingliz tilli jamoada uning turli davlatlardagi so'zlashuvchilari har doim ham bir-birlarini tushuna olishmaydi, lekin ispan tilli jamoada bunday holat ko'zga tashlanmaydi. Ispan tili nufuzi jihatidan dunyo aloqa tillari orasida ingliz tilidan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Uning xalqaro anjumanlardagi roli ham muttasil ortib bormoqda.

AQSh aholisining 13% ispan tilini ona tili hisoblaydi. 1999-yildan AQShning ispan tilli aholisi 35%ga o'sgan bo'lsa, ispan bo'lmagan aholisi esa 3%gagina o'sgan. Ular, asosan, AQShning Kaliforniya, Texas, Nyu-York, Florida, Illinoys va boshqa shtatlarida yashashadi. 2000-2020-yillarda AQSh aholisining 44%ni, 2020-2050 yillarda esa 62%ni ispan (yoki lotin) tilli aholi tashkil qilishi kutilmoqda.

Hozirda amerikalik talabalarning 90% universitetlarda ispan tilini chet tili sifatida o'rganmoqda. Yozgi til amaliyotlarining Lotin Amerikasi davlatlarida o'tkazilishi qo'llab-quvvatlanadi. Yosh mutaxassislarni ishga qabul qilishda ham ularning ispan tilini bilishi yuksak baholanadi.

Ispan tili o'qituvchilari Yevropa Assotsiatsiyasi (AEPE)ning ma'lumotlariga ko'ra, ispan tili hozir dunyoda o'rganilayotgan xorijiy tillar orasida birinchi o'rinni egallaydi (ingliz tili chet tili sifatida emas, balki bir "koyne" sifatida qabul qilinadi). AEPEning ta'kidlashicha, Yevropadagi davlat maktablarida o'quvchilarning 62% ispan tili (fransuz tili 25,8%, nemis tili 6,6%)ni o'rganishadi.

Mus'ahkamlash uchun savollar:

1. Tilning ijtimoiy variantlari qaysi dialektologlarning ishlarida atroflicha o'rganildi?
2. Sotsiolingvistik tadqiqotlarning rivojlanishiga rag'bat bo'lgan asosiy omillar nimalar edi?
3. Ispaniyada qaysi til asosiy rasmiy til hisoblanadi?
4. Ispaniya konstitutsiyasida qaysi so'z ishlatilmaydi?

5. Ispan tilshunosligi uchun yangi "sotsiolingvistika erasi" qachon boshlandi?

6. M. Alvarning "Strukturalizm, lingvogeografiya va zamonaviy dialektologiya" asarida qaysi muammolar ko'rsatib berildi?

7. Ispan tili qaysi til oilasiga kiradi?

8. Ispan tili qaysi davlatlarning rasmiy tili hisoblanadi?

9. Ispan tilining eng muhim xususiyati nima?

10. Ispan tili dunyo aloqa tillari orasida qanday mavqega ega?

Adabiyotlar

1. Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социоллингвистика. Германия. Испания. –М.: Наука, 1991.

2. Степанов Г.В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. –М., 1976.

3. Alvar M. Niveles socio-culturales en el habla de las Palmas de Gran Canaria. –Las Palmas de Gran Canaria, 1972.

4. Alvar M. Estructuralismo, geografía lingüística y dialectología actual. –Madrid, 1973.

5. Alvar M. Lengua y sociedad. –Barcelona, 1976.

6. Catalán D. Lingüística ibero-románica. Crítica retrospectiva. –Madrid, 1974.

7. Marcos Marín F. Reforma y modernización del español. Ensayo de sociolingüística histórica. –Madrid, 1979.

8. Luis Martín-Estudillo, Francisco Ocampo and Nicholas Spadaccini. Debating Hispanic Studies: Reflection on Our Disciplines // Hispanic Issues On Line. 2006. Vol. 1.1.–P. 127-131.

9. Weinreich U. Languages in contact. –New York, 1953.

4-MA'RUZA

BUYUK BRITANIYA SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Buyuk Britaniya sotsiologvistikasining vujudga kelishi
2. Lisoniy vaziyat
3. Buyuk Britaniya tillari

Tayanch soʻzlar: ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy maqom, korrelatsiya, yoyiq va yigʻiq kod, til toʻsiqlari, oliy sinf, oʻrta sinf, quyi sinf, ishchilar sinfi, iyerarxik sinf, intellectual salohiyat, lisoniy salohiyat, struktur-funksional, monarxiya, sotsiolekt.

4.1. Buyuk Britaniya sotsiologvistikasining vujudga kelishi

Buyuk Britaniya sotsiologvistikasining shakllanishida London universiteti professorlari D. Glass (1911-1978), uning rafiqasi Rut Glass (1912- 1990), B.Bernstayn (1924-1990), Kembridj universiteti professori M. Fortes (1906-1983) va Manchester universiteti professori M. Glakmen (1911-1975) kabi olimlarning hissasi katta boʻldi. Xususan, ijtimoiy tabaqalanish, otalar va bolalar ijtimoiy maqomi oʻrtasidagi korrelatsiya D. Glass, shahar sotsiologiyasi R. Glass, taʼlim sotsiologiyasi (“yoyiq va yigʻiq kod”, “kompensatsiyali taʼlimot”) B.Bernstayn, sotsiologiyaga struktur-funksional yondashish (Shimoliy Gana qabilalaridagi qarindoshlik, oilaviy va siyosiy munosabatlarning murakkab chatishuvi tadqiqi misolida) M. Fortes, funksional nazariya doirasida ixtiloflarning umumiy sotsiologik modeli (qator afrika qabilalarining urf-odatları, siyosiy munosabatlari va ixtilofiy vaziyatlarini tadqiq qilish jarayonida olingan empirik material asosida) M. Glakmenlar tomonidan ishlab chiqildi.

AQShda “sotsiologvistika” (“til sotsiologiyasi”) tushunchasi keng maʼnoda tushunilsa, Buyuk Britaniyada mazkur tushuncha unchalik keng maʼnoda qabul qilinmaydi, sotsiologvistikaning predmeti, asosan, turli qatlamlar va sinflarning til qoʻllashini oʻrganish bilan cheklanadi. Binobarin, “til toʻsiqlari”, “yoyiq va yigʻiq kod”, “kompensatsiyali taʼlim” kabi masalalar keng tadqiq etiladi. Buyuk Britaniya sotsiologvistikasining bunday muammolarga qiziqishi muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammolar sotsiologvistik xususiyatga ega boʻlsa-da, hodisalarning asl mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bogʻliq.

Buyuk Britaniya sotsiologvistikasining oʻziga xos xususiyatlaridan biri kommunikatsiya jarayonlarining sinflarga ajralishi hisoblanadi. Ular quyidagilardir:

- oliy zodagonlar sinfi;
- oʻrta (oliy, oʻrta, quyi) sinf;

- ishchilar (oliy, o'rta, quyi) sinfi;
- quyi, past (avom xalq) sinf.

Angliyada sinflarni aniqlashda irsiy xususiyatlar hisobga olinadi. XVIII asrdan boshlab standart til uchun kurash olib borilgan. Chunki amallarastlik va mavqe sotsiolektga bog'liq bo'lgan.

Buyuk Britaniya sotsiologvistlarining 50-yillardagi til va tafakkurdagi to'siqlarni olib tashlash va bu bilan ta'limdagi ijtimoiy adolatsizlikni bartaraf qilishga bo'lgan urinishlari kapitalistik mamlakatlar ta'limiy-iqtisodiy xususiyatining ehtiyoji bilan bog'liq edi.

Buni yaxshi tushungan ingliz olimi B. Bernstayn pedagogning oldida turgan va bugungi kunda tezlikda hal qilinishi kerak bo'lgan eng qizg'in muammolardan biri aholi intellektual salohiyatini optimal qo'llash imkoniyatidir, deb ta'kidlagan. Shunga ko'ra, B. Bernstayn aholi ijtimoiy qatlamlari va sinflari xususiyatlarini hisobga olgan chuqur empirik tamoyillarga asoslangan nazariyani ishlab chiqdi va birinchi navbatda o'rta va quyi qatlamlarning til qo'llashini tadqiq etdi.

B. Bernstayn turli til qoliplaridan foydalangan holda, lisoniy kodlashni ikki: yoyiq kod va yig'iq kodga ajratdi.

Yoyiq (*elaborated*) kod o'rta sinf vakillari tomonidan qo'llaniladi. Unga murakkab sintaksis, ya'ni boy sintaktik struktura va leksemalarning rang-barangligi xosdir.

Yig'iq (*restricted*) kod ishchilar sinfining vakillari tomonidan qo'llaniladi. Mazkur kod til vositalarini tanlashda variantlilikning cheklanganligi, ifodalarning aniq va qisqaligi, sodda gap tuzilishi, ko'pincha sintaktik jihatdan tugallanmagan gap qoliplaridan iboratligi bilan tavsiflanadi.

Yig'iq kod vaziyatida tildan foydalanish kontekstga bog'liq, yoyiq kod sharoitida tildan foydalanish erkinroq yoki umuman nolingvistik kontekstga bog'liq bo'lmaydi. Yig'iq kod paydo bo'lishining asosiy sharti identifikatsiyasi bir-biriga yaqin bo'lganlarning to'planishi, muloqot jarayonida qatnashchilarning hamfikrliligi va aloqalarning bevositaligi hisoblanadi. Yoyiq kod esa aksincha, individumning roli yuksak bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga asoslanadi. Ya'ni kod so'zlovchining individual mas'uliyat quroliga aylanadi. Yoyiq kodda so'zlashuvchilar til vositalaridan keng foydalanish ixtiyoriga ega bo'lib, vaziyatga qarab yoyiq koddan yig'iq kodga o'tishlari mumkin. Yig'iq kodning egalari esa bunday imkoniyatdan mahrumdirlar¹.

¹ Bernstein B. Elaborated and restricted codes: Their social origins and some consequences// The Ethnography of Communication.// American Anthropologist. Special Publication. 1964, Vol. 66(8).

B.Bernstayn nazariyasini sotsiologik tavsiflash tamoyillarini lingvistik kodlarning qurilishiga tatbiq etishga harakat qilish sifatida qarash mumkin. Lingvistik kodlarning paydo bo'lishi uning maxsus ijtimoiy hususiyatdagi omillarga bog'liqligi bilan izohlanadi. B.Bernstayn nutq turlari tizimi (Sprechweisen)ga ijtimoiy aloqalar yoki ijtimoiy strukturalarning paydo bo'lishi, deb qaradi.

B.Bernstayn nazariyasi metodik tamoyillari jihatidan to'g'ri bo'lishiga qaramay, muvaffaqiyatsiz chiqqan edi. Zotan, B.Bernstayn nazariyasi lingvistik qarashlari muammoli bo'lgan E.Dyurkgeymning pozitiv sotsiologiyasiga tayangan edi. Ana shunday qarashlardan biri, ishchilar sinfi oilalaridagi bolalar tilining "kompensatsiyali kengaytirilishi" hisoblanadi.

4. 2. Lisoniy vaziyat

Buyuk Britaniya uchun oxirgi yuz yillik muhim o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Mamlakatning xalqaro miqyosda tutgan o'rnini hamda jamiyatning ichki strukturasi: uning demokratlashuvi, sinflar tushunchasining parchalanishi kabi o'zgarishlar tilda ham o'z aksini topmasdan qolmadi. Buyuk Britaniyada asta-sekin iyerarxik sinf tizimining qulashi Estuary English (EE) (Londondagi past ijtimoiy qatlam vakillarining so'zlashuv tili) va Received Pronunciation (RP) (Londondagi oliy ijtimoiy tabaqa vakillarining tili) inglizchasini vujudga keltirdi. Buni ishchilar va o'rta sinf orasida turmush darajasidagi tafovutning kamayishi, shu bilan birga, jamiyatning o'rta sinfi bilan yuqori qatlamlarining integratsiyalashuvi bilan izohlash mumkin. Moliyaviy ahvolning yaxshilanishi oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatlarini ko'paytiradi va o'rta sinflar uchun ilgari erishish mumkin bo'lmagan, masalan, menejmentlik va moliya sohasidagi lavozimlarni egallashga imkoniyat yaratadi. Bu, o'z navbatida, turli ijtimoiy qatlamlarning yaqindan aloqada bo'lishiga zamin yaratadi.

Mazkur guruhlar farqi nihoyatda katta bo'lgan turli til variantlari Kokni (Cockney – ma'lumoti kam bo'lganlar tomonidan norasmiy doiralarda qo'llanuvchi London dialektining varianti) va RP so'zlashuvchilari hisoblanadi. Ba'zan RP so'zlashuvchisi o'zining ijtimoiy holatini oshkor qilishdan qochib, o'z nutqida Kokniga xos bo'lgan quyidagi fonetik xususiyatlarni ishlatadi¹:

"t" tushiraladi

wha(?)	what	nima
li(?)le	little	kichkina
bu(?)er	butter	yog'

¹ http://en.wikipedia.org/wiki/Received_Pronunciation

"l" vokallashadi

hi(w)	hill	tepalik
mi(w)k	milk	sut
bi(w)	bill	hisob

so'z boshidagi "h" talaffuz qilinmaydi

(,)airdo	hardo	pricheska
(,)airpiece	hairpiece	parik
(,)amster	hamster	og'maxon

Boshqa tomondan, Kokni so'zlashuvchisi o'z nutqini RP vakilining nutqiga yaqinlashtirishga harakat qiladi.

EE London tashqarisida ham keng tarqalgan. Buni Eening poytaxt dialekti sifatida yuqori mavqega egaligi, uning radio va televideniya ishlatilishi, shuningdek, Londonda ishlab, shahar chegarasida yashaydigan aholi sonining ortishi bilan izohlash mumkin.

4.3. Buyuk Britaniya tili

Buyuk Britaniya birlashgan qirollik bo'lib, u ma'muriy-siyosiy jihatdan Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyani o'z ichiga oladi. Buyuk Britaniyaning rasmiy tili yo'q. Ingliz tili muloqotning asosiy vositasi sanaladi. Buyuk Britaniyada ingliz tilidan tashqari valli, korn, shotland va shotland-gel tillari ham faol qo'llaniladi.

4.3.1. Ingliz tili

Ingliz tili Angliyaning rasmiy tili va butun Buyuk Britaniyaning defaktosi (lot. "amalda", "aslida") hisoblanadi. Shuningdek, AQShning, jumladan, uning 31 ta shtatining rasmiy tilidir. Mazkur til Irlandiya, Kanada va Maltadagi ikki rasmiy tildan biri hisoblanadi, Avstraliya va Yangi Zelandiyada esa rasmiy til maqomiga ega. Ba'zi Osiyo davlatlari (Hindiston, Pokiston) va Afrika mamlakatlarida ham rasmiy til sifatida qo'llaniladi.

Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german tillari guruhiga kiradi. 2000-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, unda 510 million kishi gaplashadi. Ingliz tili BMT ish yuritadigan olti rasmiy tildan biridir.

Ingliz tilida so'z tartibi asosan turg'unlikka ega. Leksik qatlamining 70%ini o'zlashmalar tashkil qiladi. Ingliz yozuvi lotin alifbosiga asoslangan bo'lib, VII asrdan e'tiboran ishlatiladi.

4. 3. 2. Valliy tili

Valliy tili Buyuk Britaniyaning g'arbiy qismi – Uelsning milliy tili. Shuningdek, Patagoniya va Argentinadagi valliy-muhojirlarning tili sanaladi. Valliy tili hind-yevropa tillari oilasidagi kelt tillari tarmog'ining britt guruhiga kiradi. Unda 700 mingdan ortiq kishi so'zlashadi. Yozuvi lotin alifbosiga asoslangan. Valliy tili 1967-yilda qabul qilingan qonunga muvofiq ingliz tili bilan teng huquqqa ega. Uelsda barcha yozuvlar oldin valliy tilida beriladi, keyin esa ingliz tiliga o'giriladi.

4. 3. 3. Korn tili

Korn tili hind-yevropa tillari oilasidagi kelt tillari tarmog'ining britt guruhiga oid. XIX asrgacha ingliz grafligi Kornuoll aholisining bir qismi shu tilda so'zlashgan. Hozirda mazkur tilni qayta tiklashga harakat qilinmoqda.

4. 3. 4. Shotland (ingliz-shotland) tili

Shotland tili Shotlandiyaning milliy tilidir. Shotland tili german tillaridan biri bo'lib, ingliz tiliga yaqin qarindosh hisoblanadi. Ba'zan ingliz tilining dialekti yoki mintaqaviy varianti sanaladi. 1603-yilda Angliya va Shotlandiyaning yagona qirolikka birlashuvi natijasida ingliz tili shotland tilini iste'moldan siqib chiqardi.

4. 3. 5. Shotland-gel tili

Shotland, gel yoki gael tili kelt tillarining goydel tarmog'iga mansubdir. Ushbu til egalari gellar bo'lib, ular tog'li Shotlandiyada va Gebrid orollarida yashashgan. Shotlandiyada bu tilda 58.625 kishi (2001), Kanadada esa atigi 500-1000 kishi so'zlashadi. Mazkur tilni ingliz-shotland tili bilan aralashtirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasining shakllanishida qaysi olimlarning hissasi katta bo'ldi?
2. Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasida qaysi masalalar keng tadqiq etiladi?
3. Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasi kommunikatsiya jarayonlarini qanday sinflarga ajratib o'rganadi?
4. Buyuk Britaniya sotsiolingvistlarining 50-yillardagi til va tafakkurdagi to'siqlarni olib tashlash va bu bilan ta'limdagi ijtimoiy adolatsizlikni bartaraf qilishga bo'lgan urinishlari nima bilan bog'liq edi?
5. B. Bernsteynning nazariyasi qanday tamoyillarga asoslangan edi?
6. Yoyiq (*elaborated*) kod qaysi sinf vakillari tomonidan qo'llaniladi?
7. Yig'iq (*restricted*) kod qaysi sinf vakillari tomonidan ishlatiladi?
8. Lingvistik kodlarning paydo bo'lishi qanday omillarga bog'liq, deb izohlanadi?

9. Nima uchun B. Bernsteyn nazariyasi muvaffaqiyat qozonmadi?
10. Buyuk Britaniyada iyerarxik sinf tizimining qulashi qaysi ijtimoiy qatlamlar tilini vujudga keltirdi?
11. Buyuk Britaniyada ingliz tilidan tashqari qaysi tillar faol qo'llaniladi?
12. Ingliz tili qaysi davlatlarning rasmiy tili hisoblanadi?
13. Ingliz tili qaysi til oilasiga kiradi?
14. Ingliz tili leksik qatlamining qancha foizini o'zlashmalar tashkil qiladi?
15. Buyuk Britaniya g'arbiy qismining aholisi qaysi tilda so'zlashadi?

Adabiyotlar

1. Домашнев А.И. Теория кодов Б. Бернстайна. Цели и результаты // ВЯ, 1982. – N. 1.
2. Юсселер М. Социолингвистика. – Киев: Вища школа, 1987.
3. Bernstein B. Elaborated and restricted codes: Their social origins and some consequences// The Ethnography of Communication.// American Anthropologist. Special Publication. 1964, Vol. 66(8).
4. Burchfield R. English Language. –Oxford: Oxford University Press, 1986.
5. Cooper R.L. Language Planning and Social Change. –New York: Cambridge University Press, 1989.
6. Fishman J.A. English in the context of international societal bilingualism. In J.A. 1977.
7. Garcia O. and Otheguy R. English Across Cultures – Cultures Across English. –Berlin/New York: Mouton de Gruyter, 1989.
8. <http://sociolingvistika.narod.ru/materialy.htm>.

5- MA'RUZA

FRANSIYA SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Fransiya sotsiolingvistikasining shakllanishi
2. Fransiya tillari
3. Fransiya til siyosati

Tayanch soʻzlar: ratsionallik, sinfiy qatlam, tilning ijtimoiyligi, sotsiologik yoʻnalish, nutqiy faoliyat, til jamoasi, ichki lingvistika, tashqi lingvistika, differentsiatsiya, unifikatsiya, lingvistik sotsiologiya, ijtimoiy institut, jargon, bilingvizm, diglossiya, diskurs, alloglott tillar, minoritar tillar, hududiy tillar, Yevropa Xartiyasi, nohududiy tillar, Frankofoniya, Tubon.

5. 1. Fransiya sotsiolingvistikasining shakllanishi

Qator xorijiy sotsiolingvistik adabiyotlarda sotsiolingvistikaning shakllanishi amerikalik tilshunoslarning tadqiqotlari bilan bogʻlanadi. Aslida lingvistika va sotsiologiyaning aloqa manbalarini Yevropa anʼanalaridan, aniqrogʻi, Fransiya dan izlash maqsadga muvofiqdir. Aynan Fransiya da til ijtimoiy hodisa sifatida belgilangan, bunga fransuz sotsiologlari E. Dyurkgeym, J.I.Levi-Bryul va G.Tardning tadqiqotlari asos boʻlgan. XIX asrda sotsiologiya alohida fan sifatida ajralib chiqqan va olimlar uning doirasiga til faktlarini oʻrganishni kiritishgan. Biroq Fransiya da tilning ijtimoiy tabiatiga nisbatan boʻlgan qiziqish anchayin ilgari, xususan, 1549-yilda Ioxim Dyu Bellening “Fransuz tilini himoyalash va uni tanitish” (“La Deffence, et illustration de la langue françoysse”) asari chiqqandan keyin boshlangan. Unda hayotning ijtimoiy shartlariga javob beruvchi til – inson ongining ijodi gʻoyasi ilgari surilgandi¹.

Har bir davlatning sotsiolingvistikasi oʻziga xos ravishda shakllanadi. Fransiya sotsiolingvistikasini lingvistika va falsafa fanlari kesishgan nuqtada paydo boʻlgan deyish mumkin. XVII asrda Fransiya da falsafa, xususan, Rene Dekartning ratsional (mantiqlik gʻoyasi rivojlandi. Ratsional falsafaga koʻra, tilni muloqot ehtiyojiga javob sifatida irod qilgan va uni boshqaradigan inson ongi hisoblanadi. 1660-yilda Parijda K.Lanslo va A.Arnoning “Umumiy va ratsional grammatika” (“Grammaire Générale et Raisonnée”)si bosilib chiqdi. Asarda oʻsha davrda hukmron boʻlgan til Yaratganning inʼomi tasavvuridan chekinilib, til inson ongining ijodi, degan nuqta nazar ilgari surildi². Aynan shu qarash mazkur grammatikani mashhur qilib yuborgan edi.

¹ Du Bellay Joachim. La Deffence, et illustration de la langue françoysse. Ed. Francis Goyet et Olivier Millet. - Paris: Champion, 2003. -P 12.

² Port-Royal. Grammaire générale et raisonnée de. - Paris: Bossange et Masson, 1810.

M. Fegening "Til" nomli maqolasida til insonlarning muloqot ehtiyoji tufayli shakllangani, shuningdek, til va nutqning farqlanishi belgilangan edi¹. N. Bozening tilshunoslikka oid maqolalarida til va dialektlarning o'zaro munosabatini tasvirlash bilan birga, tilga inson fikrlari va ongini, inson jamiyatiga xos bo'lgan hislarni ifodalovchi vosita, deb qaraldi (Beauzee 1757a, Beauzee 17576).

1894-yilda P. Lafarg (Paul Lafargue) tomonidan "Til va inqilob" asari nashr qilindi. Unda 1789-1791-yillardagi fransuz inqilobidan keyin tilda yuz bergan jarayonlar tadqiq etildi. P. Lafarg mazkur asarida fransuz jamiyatining sinfiy qatlamlarining tilda aks etishini, shuningdek, yangi g'oya va tushunchalarni ifodalash ehtiyoji bilan tilda paydo bo'lgan yangi so'zlar hamda yangi ma'no kasb etgan eski so'zlar yoritib berildi. P. Lafarg til haqida shunday yozadi: "O'simlik o'ziga xos iqlimdan uzoqda o'solmaganidek, til ham o'zining ijtimoiy muhitidan uzoqda bo'lolmaydi"².

Fransuz tilshunosligidagi sotsiologik yo'nalishning keyingi rivoji fransuz tilshunoslik maktabining shakllanishida kuzatiladi. Mazkur maktab til ijtimoiy hodisa va uning taraqqiyoti bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq, degan o'zining nazariy nizomiga ega edi. Maktabning asoschilari sifatida Ferdinand de Sossyur va uning shogirdlari Antuan Meye, Marsel Koenlarni ko'rsatish mumkin.

XIX asrning mashhur tilshunosi F. de Sossyurning tilshunoslik oldidagi katta xizmati shundaki, u tilni alohida hodisalar yig'indisi emas, balki o'zaro aloqa va o'zaro munosabatdagi butun bir tizim sifatida o'rganishni taklif etdi. U nutqiy faoliyat (langage)ni ikki qarama-qarshi mohiyat: til (langue) va nutq (parole)qa ajratish bilan tilning ijtimoiy xususiyatini belgilab berdi. F. de Sossyurga ko'ra, til - ijtimoiy hodisa. U til jamoasi (sotsium)ning barcha a'zolari uchun majburiy belgilar tizimidir. Til kishilik jamiyatida aloqa qur'oli, fikrni ifodalaydigan vositadir. Nutq esa individual hodisadir. Til ma'lum ma'noda til jamoasi a'zolari tomonidan tuzilgan bitim sifatida mavjud. Til jamoasining bironta a'zosi o'zicha til ham yarata olmaydi, uni o'zgartira ham olmaydi. Tilning haqiqiy tasviri lug'at va grammatikadir. Til - leksik-grammatik tizim, birliklar va qoidalar majmuasi bo'lib, uning yordamida har bir kishi individual nutq asarlari yarata oladi. Shuningdek, F. de Sossyur ichki va tashqi lingvistikani ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi ichki - tilning ichki qurilishi (strukturasini) o'rganadigan lingvistika, tashqi lingvistika esa tilning xalq madaniyati tarixi bilan

¹ Encyclopedie de Diderot and d'Alembert in an article by M. Faiguët. - Paris, 1765. - P. 249-250.

² Лафарг П. Язык и революция: Французский язык до и после революции (La langue française avant et après la révolution 1894). Перевод с французского Т. Фалькович и Е. Шишмаревой под редакцией и со вступительной статьей В. Гоффеншера: «Лафарг и проблемы языка». - М., -Л.: «Academia», 1930. - С. 22.

aloqasini o'rganadigan lingvistika bo'lib, tilshunoslik fani uchun ikkinchi darajali hodisadir¹.

F. de Sossyurning shogirdlari ham tilning ijtimoiy xususiyatiga katta ahamiyat berishdi. Jumladan, A. Meye, Sossyur singari tilga tizim sifatida qaradi va uni tilshunoslik fanining obyekt, deb hisobladi. A. Meyening fikricha, til – jamiyat hayoti bilan bevosita aloqada bo'lgan ijtimoiy hodisa. Shundan kelib chiqqan holda, u til rivojlanishida kuzatiladigan ikki jarayon: differentsiatsiya va unifikatsiyani ko'rsatib berdi. Differentsiatsiya biror dialekt so'zlashuvchilarining turli hududlarda joylashuvi yoki biror jamiyat ichidagi tafovutlar natijasida yuz beradi. Unifikatsiya xalqlarni bosib olish oqibatida g'oliblar tilning mag'lublar tilini siqib chiqarishi tufayli umumiy bir tilning shakllanishidir².

Tilning ijtimoiy roliga e'tibor qaratgan fransuz tilshunoslaridan yana biri Moris Grammon edi. U o'zining tadqiqotlarida fransuz talaffuzining to'g'riligini aholining ijtimoiy guruhlari bilan bog'laydi. Yaxshi talaffuz – qadimgi burjuaziya oilalarining vakillaridan tarkib topgan Parijning oliy tabaqasining talaffuzi. Talaffuzda xatolarning ko'p kuzatilishi esa viloyatlarda yashovchilarning nutqiga xosdir (Grammont 1950, 13).

Keyinchalik lingvistik sotsiologiya, deb nomlangan yo'nalish Ferdinand Bruno (Brunot 1905-1939), Alber Doza (Dauzat 1930, Dauzat 1939, Dauzat 1940), Jozef Vandries (Vandries 1937) va XX asrning birinchi yarmidagi boshqa qator tilshunoslarning ishiarida rivojlantirilib, til va jamiyat hodisalari orasidagi o'zaro aloqa ta'kidlandi.

Olimlar Fransiyada sotsial lingvistikaning haqiqiy asoschisi A. Meyening shogirdi M. Koen, deb hisoblashadi. M. Koen marksizm falsafasini o'zining nazariyasiga asos qilib oladi va dialektika qonunlarining ta'sirini til hodisalari misolida ko'rsatib berishga harakat qiladi. Shuningdek, u til hodisalarining ijtimoiy omillariga bog'liq ekanligini isbotlashga urinadi. M. Koenning fikricha, aloqa quroli bo'lgan til lingvistik vositalar bilan tasvirlanishi kerak, biroq u g'oya va xohish-istaklarning tashuvchisi bo'lgani uchun insonning ruhiy qobiliyati va ayni paytda jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarni e'tiborga olmasdan, unga faqat mexanizm sifatida qaramaslik kerak. M. Koen tilga "jamiyatdagi insonlar orasidagi o'zaro muloqot vositasi" sifatida qaragan³.

XX asrning ikkinchi yarmidagi fransuz tilshunosligining sotsiologik yo'nalishiga salmoqli hissa qo'shgan tilshunoslardan biri Andre Martinedir. U tilning ijtimoiy mohiyatini alohida qayd qilgan. Tilni har bir jamiyat

¹ Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. - М., 1977.

² Meillet Antoine. Linguistique historique et linguistique generale. -Paris, 1921. - P. 110-129.

³ Cohen M. Pour une sociologie du langage. - Paris, 1956. -P. 30.

uchun xos bo'lgan muloqot ehtiyojidan kelib chiqqan ijtimoiy institut va muloqot ehtiyoji tufayli o'zgaradigan aloqa vositasi sifatida ta'riflagan. A. Martine har qanday tilning: jargon, bilingvizm, shevalar, dialektlar va h.k. paydo bo'lishini ijtimoiy sabablarini tushuntirib bergan. Shuningdek, A. Martinening sotsial lingvistikaning rivojlanishidagi eng katta hissasi hozirgi dunyo tillarining funksional tasnifini berishi bo'lgan¹.

Yuqorida ko'rib chiqilgan lingvistik sotsiologizm sohasidagi tadqiqotlardagi qarashlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1) tilga bir butun tizim sifatida qarash; 2) til ijtimoiy mahsulot sanaladi; 3) til hodisalari va ijtimoiy omillar orasidagi o'zaro aloqani belgilash.

Fransiyada bevosita sotsiolingvistikaga kelganda, J. Sumf o'zining "Lingvistika va sotsiologiya" deb nomlangan maqolasida Amerikadan farqli ravishda Fransiyada sotsiolingvistika yo'q, ya'ni mazkur muammo hali ko'tarilmagan, degan xulosaga kelgan. Muallifning fikricha, til hodisalarining ijtimoiy hodisalar bilan aloqasi faqat bevosita kuzatishlar darajasidagina o'rganilmoqda, buni ayni paytda ham amaliy va mavhum, ham global va xususiy darajaga olib chiqish lozim (Sumf 1968, 16).

1978-yilda Fransiya (Parij)da birinchi marta sotsiolingvistika muammolariga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi. Anjuman ishtirokchilari tomonidan mazkur fanning obyekti belgilandi. Unda diskurs tahlili, til me'yori va variantlilik muammolarini o'rganish lozimligi qayd qilindi. Anjuman qatnashchilari Fransiya tashqarisidagi sotsiolingvistika, ko'p tillilik va diglossiya, diskurs tahlili, so'zlashuvchilarning ijtimoiy mavqeyiga ko'ra qo'llaydigan grammatik kategoriyalar va nutq bo'laklari orasidagi o'zaro aloqa, tillarni o'qitish, dialektlarni va sotsiolingvistik epistemologiya kabi masalalarni muhokama qildilar.

Bugungi kunda fransuz tadqiqotchilarini hozirgi jamiyatdagi fransuz tilining vazifalari bilan bog'liq masalalar, xususan, til maqomi, turli hududlardagi fransuz tilining ijtimoiy funksiyalari, lisoniy aloqa shakli bo'lgan bilingvizm, lisoniy to'qnashuvlar va ularning hal qilish yo'llari, til siyosati, tilni rejalashtirish va h.k. muammolar qiziqtiradi.

5. 2. Fransiya tillari

5. 2.1. Lingvodemografik ma'lumotlar

Fransiyada fransuz tili alloglott tillarga (turli tillarning bir hududda birga mavjudligi) nisbatan asosiy til hisoblanadi. Fransuz tili 82% fransuzlar uchun ona tili, shuningdek, minoritar (ingl. minority - ozchilik) til egalari uchun yozuv tili hisoblanadi. Biroq Fransiyada milliy ozchilik va

¹ Мартине А. Основы общей лингвистики (Elements de linguistique générale). — В кн.: Новое в лингвистике. Вып. 3. — М., 1963. — С. 12.

ozchilik tili haqida gapirish siyosiy jihatdan noo'rin hisoblanib, bugungi kunda "mahalliy tillar" va "muhojirlar tili" ifodasi qo'llaniladi. Rasmiy jihatdan fransuz tili boshqalardan ajralib turadigan muayyan guruhlarning tili emas, balki Fransiyada yashayotgan barcha guruhlar majmuyining tilidir. Boshqacha aytganda, Fransiyada ozchilik mavjud emas, barcha fuqarolar fransuz hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish joizki, ozchilik tilining miqdori jihatidan G'arbiy Yevropa davlatlari orasida Fransiya Italiyadan keyingi o'rinda turadi. 1999-yilda Fransiyada aholini ro'yxatga olish jarayonida Fransuz statistika va iqtisodiy tadqiqotlar milliy instituti (Insee) tomonidan Fransiyaning sharqiy qismida yashovchi 380 000 katta yoshli kishilarning oilaviy ahvoli xususida so'rovnoma o'tkazilgan. So'rovnomada anketa ishtirokchilari besh yoshga to'lgunga qadar otanalari bilan qaysi tilda gaplashishgan degan savol ham bo'lgan. Quyidagi jadvalda mazkur so'rovnoma natijalari keltirilgan:

1-jadval. Fransiya tillarida so'zlashuvchilar soni

O'rin	Til	Ona tili (katta yoshlilar)	Katta yoshli kishilarining foizi
1	fransuz	39 360	86 %
2	nemis, elzas lotar, fransiy va h.k.	970 (bulardan elzas: 660; nemis: 210; lotaring, frank: 100)	2,12% (bulardan elzas: 1,44%; nemis: 0,46%; lotaring, frank: 0,22%)
3	arab (xususan, mag'rib dialekti)	940	2,05%
4	oksitani tili (langedok, gaskon, provansal va boshqalar)	610 (yana 1060 kishi muayyan darajada til bilan tanish bo'lgan)	1.33% (yana 2,32 % muayyan darajada tanish)
5	portugal	580	1.27%
6	oyl tillari (pikard, gallo, puatevin-sentoj va boshqalar)	570 (850ga yaqin kishi muayyan darajada tanish)	1,25% (1,86%ga yaqin muayyan darajada tanish)
7	italyan tili (va uning dialektlari)	540	1,19%
8	ispan	485	1,06%
9	breton	280 (405ga yaqin kishi muayyan darajada tanish)	0,61% (0,87% ga yaqin muayyan darajada tanish)
10	400ga yaqin boshqa tillar (polyak, berber tillari, sharqiy-osiyo tillari, katalan, franko-provansal, korsikan, bask)	2350 (ulardan 115 ingliz tili)	5,12% (katta yoshli aholining 0,25% ingliz)
	Jami	45 762 (ikki ona tiliga ega bo'lganlar 46680)	102 % (aholining 2 % ikki ona tiliga ega bo'lganlar)

5.2.2. Minoritar tillar

Fransiyada fransuz tilining hududiy variantlariga an'anaviy tarzda dialektlar sifatida qaralgan. Biroq dialektlarning yo'qolishi munosabati bilan bu variantlilik hududiy turlar (français régionaux) tizimi sifatida tasavvur qilina boshlandi¹. Biroq "hududiy fransuz tili" termini nafaqat Fransiyadagi fransuz tilining turlariga, balki Fransiya bilan chegaradosh bo'lgan davlatlarning fransuzcha nutqiga nisbatan ham qo'llanilgan. Mazkur termin sekim-asta Yevropadan tashqarida, jumladan, Amerikada, hatto, Afrikadagi fransuz tilining variantlariga ham tatbiq qilina boshlandi. "Hududiy fransuz tili" terminining juda keng talqin qilinishi, uning qo'llanilishida ham qator qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, "minoritar tillar" termini iste'molga kiritildi.

1998-yilning iyul va 1999-yilning aprel oylarida fransuz hukumatiga mamlakatdagi lisoniy vaziyat haqida ikkita ma'ruza taqdim etildi. Birinchi ma'ruza "Hududiy tillar va madaniyatlar" mavzusida bo'lib, Kamper hokimi Bernar Puanyan tomonidan tayyorlangan edi. Unda hududiy tillarda qo'zlashuvchilarning soni qayd qilinmagan bo'lsa-da, Fransiyaning barcha Yevropa qismidagi hududiy tillarning ro'yxati berilgan edi. Ma'ruzada ushbu tillarning ta'lim va ommaviy axborot vositalaridagi roli alohida ta'kidlangan. Ikkinchi ma'ruza Fransuz tili davlat instituti direktori Bernar Cherkvilini tomonidan tayyorlanib, unda hududiy yoki minoritar tillar haqida Yevropa Xartiyasi (rasmii hujjati) tasdiqlangan taqdirda rasmii, deb tan olinishi mumkin bo'lgan 75 ta til qayd qilindi.

Xartiya matnida hududiy va minoritar tillar orasiga chegara qo'yilmagan. Uning birinchi bandida "hududiy yoki minoritar tillar" terminiga izoh berilgan: 1) "hududiy yoki minoritar tillar" termini: a) mamlakatning mazkur hududida yashovchi va mamlakatning boshqa aholisiga nisbatan ozchilikni tashkil qiladigan guruhlar tomonidan an'anaviy qo'llaniladigan tillarni; b) bu mamlakatning rasmii tilidan farq qiladigan tillarni (ular shu davlatning hech bir dialektini, hech bir muhojirlar tilini o'z ichiga olmaydi) ifodalaydi².

B. Cherkvilini o'zining ma'ruzasida Xartiya nizomiga asoslangan holda, Fransiyaning minoritar tillari ro'yxatini qaysi mezonlar asosida tuzganligini izohlaydi. B. Cherkvilini oyl tillarini fransuz tilidan va boshqa tillardan uzoqligiga ko'ra fransuz tilini dialekti deb emas, balki hududiy tillar qatoriga kiritadi. Shunday qilib, B.Cherkvilining fikricha, katalan,

¹ Desirat Cl., Horde H. La langue française au XX-e siècle. - Paris, 1976. - P. 17-18.

² Европейская Хартия региональных или миноритарных языков. University of Minnesota. Human Rights Library. - <http://www1.umn.edu/humanrts/euro/Rets148.html>.

korsikan, oksitan, franko-provansal, oyl tillari, breton, flamand, elzas, mozel-fransiy va bask tillarini Fransiyaning hududiy tillari deyish mumkin.

Fransiyaning Afrikadagi sobiq mustamlakalaridagi arab hamda berber dialektlarida so'zlashuvchi ko'pchilik aholisi hozirgi paytda Fransiyada yashaydi va uning fuqarosi hisoblanadi. B. Cherkviliniga ko'ra, bunday holat Xartiyaning nizomiga mos keladi, shuning uchun arab va berber dialektlari uning ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, B. Cherkvilinining ma'ruzasida 1915-yilning aprelidagi ommaviy qatag'ondan keyin Fransiyaga ko'chib kelgan armanlarning tili ham qayd qilingan.

Fransiyadagi fransuz tili boshqarmasi B. Cherkvilinining ma'ruzasida qayd qilingan tillar bilan birga, ivrit-ispán va fransuz imo-ishoralari tili ham kirgan minoritar tillar ro'yxatini tuzdi. Shunday qilib, Fransiyaning minoritar tillarini ikki kategoriyaga ajratish mumkin: hududiy tillar va nohududiy tillar (mamlakatda yerlashib olgan muhojirlarning tili).

Xullas, Fransiyada juda ko'p hududiy tillar mavjud bo'lib, ularni kelib chiqishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin: Roman tillariga katalan, korsikan, oksitan, franko-provansal va oyl tillari; kelt tillariga Bretanning g'arbidagi breton tili kiradi. German tillari orasida flamand, elzas va mozel-fransiy tillari tarqalgan. Alohida mavjud bo'lgan bask tili ham Fransiyaning minoritar tillaridan biri sanaladi. B. Cherkvilini Fransiyaning boshqa tillarini dialektlar yoki ihtotalangan tillar, deb izohlagan.

V.G. Gak fransuz dialektlarini quyidagicha tasniflagan: fransiy (tarixan fransuz tiliga asoslangan Il-de-Frais dialekti), shimoliy (normand, pikard, vallon), g'arbiy (anjuy, gallo va h.k.), janubi-g'arbiy (puatev va h.k.), markaziy, janubi-sharqiy (burgund, fransh-kontiy), sharqiy (lotaring, shampán), fransuz va oksitan tillari orasidag. frank-provansal tili (LES 1990: 563).

Shunday qilib, sotsiolingvistika nuqtay. nazaridan qaralganda, Fransiya tub aholisining minoritar tillari til maqom. ga egadir.

5.3. Fransiyadagi til siyosati

3.1. Fransuz tilining milliy til sifatidashakllanishi

Fransuz tili hind-yevropa tillari oilasidagi roman tillari guruhining gall-roman kichik guruhiga kiradi. Fransuz tili Galliya hududida og'zaki lotin tili asosida kelt va german tillari negizida rivojlangan, degan qarashlar mavjud. Fransuz tili rivojlanishini bir necha davrlarga ajratish mumkin: gall-roman tili (V-VIII asrlar), eski fransuz tili (IX-XIII asrlar), o'rta fransuz tili (XIV-XV asrlar), erta fransuz tili (XVI asr), yangi fransuz tili (XVII-XVIII asrlar) va hozirgi zamon fransuz tili (XIX asrdan e'tiboran).

Galliyada fransuz feodal davlatining paydo bo'lishi va rivojlanishi davrida u yoki bu shaklda umumiy til me'yorlarini ishlab chiqish va yozma

adabiy tilni rivojlantirishga urinishlar boshlangan. Eski fransuz tilining qadimiy yodgorligi 842-yilda qirol Buyuk Karlning nabiralari tomonidan imzolangan Strasburg qasamlari sanaladi. 843-yilda Verden shartnomasiga muvofiq Buyuk Karlning imperiyasida bo'linish yuz berdi; mazkur imperiya 877-yilga kelib uch davlat, ya'ni Fransiya, Germaniya va Italiyaga parchalanib ketdi.

Siyosiy va iqtisodiy omillar ta'sirida XII asrdan Parij tili (fransiy tili) muhim rol o'ynay boshladi, bundan tashqari u qolgan eski fransuz dialektlarining har biri bilan umumiy xususiyatlarga ham ega edi.

XIII asrdan boshlab janubiy Normandiya, sharqiy Men, Quyi Luar shaharlari, Berr shimolida va Burgundiyaning shimoli-g'arbida umumfransuz standarti hududiy turlarining tarqalish, aralashi va shakllanish jarayoni yuz berdi. Markaziy viloyat kengayib til jihatdan Il-de-Fransdan mustaqil bo'ldi. 1206-yilda Filipp-Avgust Normandiya ustidan g'alaba qozongandan keyin markaziy viloyat saroy so'zlashuv udumlarini shakllantira boshladi.

Fransiyaning davlat tili ilm, falsafa, oliy maktab va xalqaro aloqalarda hukmron bo'lgan lotin tili edi. XIII asrdan boshlab fransuz tili lotin tili bilan ish yuritish tili sifatida (huquqiy bo'lmasa ham) raqobatlasha boshladi.

XIV-XV asrlarda umumfransuz yozma-adabiy tilining shakllanish jarayoni kuchaydi, uning qo'llanish doirasi kengaydi. Bunga lotin tilidagi asarlarning fransuz tiliga tarjima qilinishi yordam berdi. Rasmiy-ish yuritish sohasida ikki tillilik mavjud edi. Lotin tili rasmiy hujjatlar tili sifatida saqlanib qolgan edi, biroq fransuz yozma-adabiy tili ham bu vazifani bajara boshladi. Bu davrda fransuz yozma-adabiy tilining qo'llanish doirasini kengaytirish uchun muayyan tarixiy shart-sharoitlar vujudga kelgan edi.

Lyudovik XI hukmronligida (1461-1483) Fransiyaning hududiy va siyosiy jihatdan birlashtirish deyarli tugallangan bo'lib, qirol hukumati mustahkamlanishda davom etdi. Burgund gersogligi bo'ysundirilgandan keyin qirol hukumati siyosati markazidagi feodallar qarshiligi bostirildi. Fransuz halqining millat sifatida rivojlanishi, milliy davlatni tashkil qilish, shuningdek, fransuz milliy yozma-adabiy tilini shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Asta-sekin fransuz tili milliy davrdagi yozma-adabiy tilga xos bo'lgan ko'p funkcionallik va umumtarqalish xususiyatlariga ega bo'la boshladi. Talaffuz, grammatika, leksika sohalarida muayyan me'yorlarni ishlab chiqish an'anasi paydo bo'ldi.

XVI asrni fransuz milliy tili shakllanishining boshlang'ich davri, deb hisoblash mumkin. Fransuz milliy tilining shakllanishi lisoniy o'z-o'zini anglashning rivojlanishi bilan hamkorlikda davom etdi. Bu davrda gumanistlar, grammatikachilar va yozuvchilar fransuz tilining rivojlanishi,

mustahkamlanishi va tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan turli muammolar bilan qiziq boshladilar. XVI asrning 30-yillariga kelib adabiy doiralarda Dyu Bellening 1549-yilda nashr qilingan "La Deffence, et illustration de la langue françoise" manifesti nomi bilan "fransuz tilini himoya qilish va uni mashhur qilish" harakati boshlandi.

Fransuz yozma-adabiy tilini me'yorlashtirish muammosi XVII asrning nazariyotchilari Fransua Malerb (1555 - 1628) va Klod Vojla (1595 - 1650)lar tomonidan hal qilindi. 1635-yilda Rishelening tashabbusi bilan Fransuz Akademiyasi tashkil qilindi. Akademiyaning aksariyat a'zolari F.Malerbning izdoshlari bo'lgan zodagon ziyolilar edi. Ular tilni me'yorlashtirish borasida samarali ishlarni amalga oshirishdi.

XVIII asrda lotin tili hali ham universitetlarda o'qitilishiga qaramay, fransuz adabiy tilining tarqalish doirasi kengaydi. Fransuz adabiy tili Fransiyaning tashqarisida ham yoyila boshladi. Bu Fransiyaning madaniy va iqtisodiy jihatdan boshqa Yevropa davlatlariga ta'siri, shuningdek, mazkur davlatlardagi Ma'rifat davrida fransuz falsafasi va adabiyotining mashhurligi bilan bog'liq edi. Fransuz adabiy tili xalqaro diplomatiya va tijorat tiliga aylandi. So'zlashuv adabiy tili turli mamlakatlarning yuqori qatlamlaridan o'rin oldi; fransuz tilini bilish madaniyatlilik ko'rsatkichiga aylandi.

Mamlakat ichida adabiy tilning me'yorlashgan ta'siri fransuz inqilobidan (1848) keyin ancha kuchaydi. Fransuz inqilobining tilga ta'siri lug'at tarkibidagi o'zgarishlarda va uning fransuz millatining yagona tili sifatida tasdiqlanishida namoyon bo'ldi. Inqilobdan keyin burjuaziya ideologiyasi milliy til siyosatida darrov o'z aksini topdi, bu, o'z navbatida, nafaqat mahalliy shevalar, balki milliy o'zchilik tillarining ham yo'q qilinishiga olib keldi.

Yagona milliy tilning me'yorlari XIX asrning oxirida, ya'ni 1896-yili Fransiya majburiy umumboshlang'ich ta'limning joriy qilinishi bilan uzil-kesil tasdiqlandi. XX asrning birinchi yarmida fransuz hukumati ta'lim, matbuot, boshqaruv organlari va orfografiya (imlo)ga tegishli qirqdan ortiq qonun qabul qildi. Bu davrda franklashtirish jarayoni sekin o'tayotgani uchun hokimiyat dialektlar va mahalliy shevalarni bilmaydigan o'qituvchilarni tayinlashni taklif qilgan edi. Dialektlarga nisbatan salbiy munosabat har doim ko'pchilik fransuz siyosatchilarining qat'iy ishonchi bo'lib kelgan. Jumladan, 1972-yili Fransiya prezidenti Jorj Pompidu Yevropada "o'zining alohida mavqeyi bo'lishi lozim bo'lgan Fransiya hududiy tillarga va madaniyatlarga o'rin berilmasligi kerak", deb ta'kidlagandi. Biroq vaqt o'tishi bilan bu nozik masalaga munosabat o'zgardi. Binobarin, sobiq prezident Fransua Mitteran 1981-yilda shunday

degan edi: "Fransiyadagi tillarning va madaniyatlarning haqiqatan mavjudligini tan olish, ularni maktablar, radio, televideniya va ijtimoiy hayotga olib kirish payti keldi"¹.

5. 3.2. Fransuz tiliga nisbatan til siyosati

Fransiyaning ichki til siyosati birinchi galda fransuz tilini unifikatsiya qilish, uni yoyish va mashhur qilishga qaratildi. 1992-yilgacha fransuz tili amaldagi Fransuz Respublikasining rasmiy tili bo'lgan, uning na 1958-yildagi Konstitutsiyada, na boshqa bir qonunda maqomi e'lon qilinmagan. Ammo 1992-yil 25-iyunda 1958-yildagi Konstitutsiyaning 2-moddasiga fransuz tili Respublika tili hisoblanadi, degan tuzatish kiritilgan². Dastlab mazkur qaror 1992-yil 7-fevralda Fransiya Maastrixt shartnomasini tuzgani uchun o'sha davrda fransuz tilini ingliz tilining favqulodda ta'siridan himoyalash maqsadida qabul qilingan bo'lsa, keyinchalik Konstitutsiya Kengashi uni minoritar tillarga qarshi qabul qilingan qaror sifatida talqin qildi.

Fransuz hukumatining 1989-yil 2-iyundagi dekreti bilan Fransuz tili boshqarmasi (DGLF) tashkil qilindi. Mazkur tashkilotning vazifasi fransuz tilini to'g'ri qo'llash va uni yoyishga ko'maklashadigan boshqarmalar, davlat va nodavlat tashkilotlarini nazorat qilish, til masalalari bilan shug'ullanishdan iborat edi. 1993-yilda Fransuz tili boshqarmasi Madaniyat vazirligi va Frankofoniya (*La Francophonie*)ga qo'shildi. Shunday qilib, Fransuz tili boshqarmasi davlat til siyosatini uch tamoyil asosida hayotga tatbiq qilish vakolatini oldi:

- 1) Respublika tili bo'lgan fransuz tili obro'yini oshirish;
- 2) fransuz tilining xalqaro muloqotdagi rolini mustahkamlash;
- 3) turli til va madaniyatlarni hurmat qilish hamda plyurilingvizmni qo'llab-quvvatlash.

Minoritar yoki hududiy tillar haqidagi Yevropa Xartiyasining imzolanishi (ratifikatsiyalash emas – Sh.Usmanova) bilan Fransiya tillarining majmuyi milliy-madaniy boylik, deb tan olindi. Madaniyat vazirligining zimmasiga yana bir vazifa – mavjud meros haqida g'amxo'rlik qilish vazifasi yuklatildi. Shuning uchun ham 2001-yili Fransuz tili boshqarmasining nomi Fransuz tili va Fransiya tillari boshqarmasi (DGLFLF), deb o'zgartirildi.

1994-yilning 4-avgustida "Fransuz tilini qo'llash haqida" Tubon qonuni kuchga kirdi. Tubon qonunining asosiy maqsadi tilning softligini himoya qilish bo'lib, u fransuz tilida muqobili bo'lishiga qaramay, leksikaga asossiz ravishda inglizcha so'zlarni kiritishga qarshi qaratilgan

¹ http://www.tlfiq.ulaval.ca/axl/europe/france-3politik_minorites.htm.

² La Constitution de la France - <http://www.legifrance.gouv.fr/html/constitution/constitution2.htm#vide>.

edi. Ya'ni xizmatchilar va mahsulot iste'molchilari hamda xizmatlarni (xususan, audio va video sohasidagi xizmatlarni) chet (ingliz) tillardagi terminlarni qo'llashdan himoyalash edi. Shunga ko'ra, kelib chiqishi inglizcha bo'lgan 3,5 mingdan ortiq so'z rasmiy so'zlashuvdan chiqarib tashlandi. Shuningdek, ta'qiqlangan inglizcha terminlar va ifodalarning ro'yxati tuzildi. Fransiya fuqarosi har qanday jamoat joyida barcha kerakli ma'lumotlarni fransuz tilida olishi mumkin edi¹. Qonunga ko'ra, fransuz tili:

- iste'molchilar uchun ma'lumot tili;
- shartnomalar va boshqa hujjatlarning ish yuritish tili;
- barcha o'quv yurtlarining majburiy tili, diplomlar, dissertatsiyalar fransuz tilida yoziladi;
- kino mahsulotlari, radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar va reklamalarning tili; efirodagi qo'shiqlarning 40% fransuz tilida bo'lishi kerak;
- Fransiya fuqarolari uchun anjumanlar, seminarlar tili, shuning uchun barcha rezyumelar fransuz tilida yozilishi kerak².

Fransiyaning tashqi til siyosati ham fransuz tilini keng miqyosda yoyishga qaratildi. Fransuz tili dunyoda eng ko'p o'rganiladigan chet tillardan biri bo'lib, tarqalishi jihatidan dunyo tillari orasida 11-o'rinda turadi. 53 ta davlatning va 29 ta hududning rasmiy yoki hamrasmiy tili hisoblanadi. Fransiya aholining 82%, Monakoda 58%, Belgiyada 41%, Kanadada 23,2%, Shveysariyada 18,4% fransuz tilida so'zlashadi. Fransuz Akademiyasining ma'lumotlariga ko'ra, 270 million kishi fransuz tilida o'z fikrlarini ifodalay oladi³.

Fransuz tili xalqaro hamjamiyatda alohida o'rin egallaydi, u qator xalqaro tashkilotlarning rasmiy tili hisoblanadi. Jumladan, BMTning 6 ta ish yuritadigan tillaridan biri sanaladi, Frankofoniya (*La Francophonie*) harakatini boshqaradi. Frankofoniya 1970-yilda fransuz tilida so'zlashuvchi davlatlarning xalqaro lingvistik tashkiloti sifatida tashkil topgan. Frankofoniya fransuz tilini dunyo miqyosida rivojlantirish va tarqalishini qo'llab-quvvatlovchi kuchli xalqaro harakat bo'lib, uning rahbarligida xalqaro miqyosdagi turli tadbirlar o'tkaziladi. 20-mart Xalqaro Frankofoniya kuni sifatida keng nishonlanadi. Dunyoda turli oliy o'quv yurtlari o'rtasida fransuz tilini o'qitish va o'rganish yuzasidan tajriba almashish maqsadida Frankofoniyaning universitet agentligi tashkil qilingan. Universitet agentligi doirasida o'qituvchilar va talabalar almashinadi. Qator mamlakatlarda Frankofoniya telekanali "TV-5"ning

¹ <http://www.znz.ru/st/st2/fr86.html>.

² Жангазы Р. Специфика языковой политики Франции: основные измерения // <http://svvision.kz/post/116224>.

³ <http://www.tifq.ulaval.ca/axl/francophonie/francophonie.htm>.

ko'rsatuvilari namoyish etiladi. Bugungi kunda Frankofoniya turli davlatlardan 56 ta a'zoni va 14 ta kuzatuvchini o'zida birlashtiradi. Hatto, Fransiya hukumatida hamkorlik va frankofoniya bo'yicha maxsus lavozim joriy qilingan.

Fransiya Oliy til kengashi fransuz tilida so'zlashuvchi barcha davlatlardagi fransuz tilining ahvolini kuzatib boradi, uning rivojlanish istiqbollari belgilaydi. Fransiya Respublikasining fransuz tili va madaniyatini yoyoshdagi ulkan yutuqlari uchun "Akademik Palmalari" maxsus ordeni ta'xis qilingan bo'lib, fransuz tilini o'rganish va tapg'ib qilishda o'zining salmoqlihissasini qo'shgan olimlar va ijtimoiy fan arboblari beriladi.

5.3.3. Minoritar tillarga nisbatan til siyosati

Zamonaviy Fransiyaning til siyosatini birinchi navbatda Dekson qonuni, Abi qonuni va Tubon qonunlariga muvofiq ko'rib chiqish o'rindir. Dekson qonuni (parlament hay'atining milliy ta'lim masalalari bo'yicha referentining nomi bilan atalgan) 1951-yil 11-yanvarda qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, maktablarda mahalliy tillarni tanlov fan sifatida o'qitishga ruxsat berildi. Biroq mazkur qonun faqat to'rt tilga, ya'ni breton, bask, akvitan va katalan tillariga taalluqli edi. Ta'kidlash joizki, ushbu tillarning kundalik maishiy hayotdagi ijtimoiy vazifalari chegaralanganicha qoldi. Asta-sekin maktablarda, chunonchi, 1974-yildan korsikan tili, 2006-yildan esa gallo tilini o'qitish yo'lga qo'yildi.

Keyinchalik Fransiyaning ta'lim tizimiga 1975-yil 11-iyulda qabul qilingan Abi qonuni (milliy ta'lim vazirining nomi bilan atalgan) o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu qonun maktablarda hududiy tillar va madaniyatlarning majburiy fan sifatida o'qitilishiga rasman ruxsat berdi.

1994-yil 4-avgustda qabul qilingan Tubon qonuni esa aksincha, fransuz tilini himoya qilishga qaratilgan edi. Garchi qonunda hududiy tillarni ta'lim sohasida qo'llash tan olingan bo'lsa-da, u asosan, fransuz fuqarolarining barcha kerakli ma'lumotlarni fransuz tilida olishini ta'minlashga yo'naltirilgan edi.

1997-yildagi norasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 10 millionga yaqin o'quvchidan faqat 110000 nafari bask, breton, katalan, korsikan, oksitan, elzas, oyl va boshqa tillarda qisman ta'lim olgan. Milliy ta'lim vazirligining 1997-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, 335000 ga yaqin o'quvchi umumiy va xususiy maktablarda hududiy tillarni o'rgangan (*Le Monde*, 20-iyul 1999-yil).

Madaniyat va aloqa vazirining 2002-yildagi ma'ruzasida umumiy va xususiy maktablar, kollejlari va litseylarda qariyb 250258 o'quvchining hududiy tillar va madaniyatlarni o'rganganini qayd etilgan. Maktab ta'limi

boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, 2005-2006-o'quv yilida 404000 ga yaqin o'quvchi hududiy tillarda ta'lim olgan. Bu ko'rsatkich 12 million o'quvchidan 3,3% hududiy tillarda ta'lim olganligini bildiradi.

2001-yilning aprel oyida Fransiya ta'lim vaziri Jak Lang Fransiyadagi hududiy tillarning qariyb 200 yil mobaynida kamsitilib kelingani va fransuz maktablarida ikki tilli ta'limga ruxsat berilganini e'lon qildi. Hududiy tillarda ikki tilli ta'lim islohoti o'tkazildi. 2001-yil 30-iyulda Fransiya hukumati hududiy tillar Akademik Kengashini tashkil qilish to'g'risida dekret qabul qildi. 2002- yilning 4-aprelida "Hududiy tillar maktablari, kollejlari va litseylarida hududiy tillarni o'rganishga yo'naltirilgan ikki tilli ta'limni kiritish" qonuni qabul qilindi. Biroq Davlat Kengashi bunday qonunni qabul qilish hududiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshirib yuboradi, bu esa fransuz tilidan ta'lim tili sifatida majburiy foydalanishdan og'ib ketishga olib kelishini ro'kach qilib, mazkur dekretni bekor qildi.

2004-yilda Fransiya Respublikasi hukumati o'rta maktabda ba'zi bitiruv imtihonlarini topshirish mumkin bo'lgan tillar ro'yxatini tasdiqladi. Ro'yxatga chet tillari bilan birga, minoritar tillar, xususan, bask, breton, katalan, korsikan, taityan, malaziy, oksitan-overn, oksitan-gaskon, oksitan-langedok, oksitan-limuzin, oksitan-nissart, oksitan-provansal, oksitan-vivaro-alpiy tillari ham kiritildi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ioxim Dyu Bellening "Fransuz tilini himoyalash va uni tanitish" asarida qaysi g'oya ilgari surilgan?
2. Fransiya sotsiolingvistikasi qaysi fanlar kesishgan nuqtada paydo bo'lgan?
3. Fransiyada qaysi falsafa g'oyasi rivojlandi?
4. P. Lafargning "Til va inqilob" asarida qaysi masalalar tadqiq etildi?
5. Fransuz tilshunoslik maktabining asoschisi kim?
6. F. de Sossyurning tilshunoslik oldidagi xizmatlari nimalardan iborat?
7. A. Meye til rivojlanishidagi qaysi jarayonlarni ko'rsatib berdi?
8. Olimlar Fransiyada sotsial lingvistikaning haqiqiy asoschisini kim, deb hisoblashadi?
9. A. Martinening sotsial lingvistikaning rivojlanishidagi eng katta hissasi nima bo'lgan?
10. J. Syumf Fransiya sotsiolingvistikasi haqida qanday xulosaga kelgan?
11. Fransiyada 1978-yildagi sotsiolingvistika muammolariga bag'ishlangan anjumanda qanday masalalar muhokama qilindi?
12. Xartiya matnida "hududiy yoki minoritar tillar" terminiga qanday izoh berilgan?
13. Fransiyaning minoritar tillarini nechta kategoriyaga ajratish mumkin?

14. Fransiyadagi hududiy tillar kelib chiqishiga ko'ra qanday tasniflanadi?

15. V.G. Gak fransuz dialektlarini qanday tasniflagan?

16. Fransuz tilining rivojlanishini qaysi davrlarga ajratish mumkin?

17. Fransiyada XIII asrgacha qaysi til hukmron bo'lgan?

18. Fransuz Akademiyasi qachon va kimning tashabbusi bilan tashkil qilindi?

19. Fransuz inqilobining tilga ta'siri nimalarda namoyon bo'ldi?

20. Fransiyaning ichki til siyosati birinchi galda nimalarga qaratilgan?

21. Fransuz tili boshqarmasi (DGLF)ning vazifalari nimalardan iborat?

22. Tubon qonunining asosiy maqsadi nimalardan iborat edi?

23. Fransiyaning tashqi til siyosati nimalarga qaratilgan?

24. Frankofoniya (*La Francophonie*) qanday tashkilot?

25. Fransiyaning minoritar tillarga nisbatan til siyosati qanday?

Adabiyotlar

1. Википедия. Языки Франции - <http://ru.wikipedia.org>.

2. Жангазы Р. Специфика языковой политики Франции: основные измерения - <http://yvision.kz/post/116224>.

3. Европейская Хартия региональных или миноритарных языков - <http://www1.umn.edu/humanrts/euro/Rets148.html>

4. Лафарг П. Язык и революция: Французский язык до и после революции (*La langue française avant et après la révolution*). Перевод с французского Т.Фалькович и Е.Шишмаревой под редакцией и со вступительной статьей В.Гоффеншефера: "Лафарг и проблемы языка". - М.,-Л.: "Academia", 1930.

5. Мартине А. Основы общей лингвистики (*Éléments de linguistique générale*). - В кн.: Новое в лингвистике. Вып. III. -М., 1963.

6. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. -М., 1977.

7. Désirat Cl., Hordé H. La langue française au XX-e siècle. -Paris, 1976.

8. Du Bellay Joachim. La Deffence, et illustration de la langue françoise. Ed. Francis Goyet et Olivier Millet. -Paris: Champion, 2003.

9. Encyclope'die of Diderot and d'Alembert in an article by M. Faiguet. - Paris, 1765.

10. La Constitution de la France - <http://www.legifrance.gouv.fr/html/constitution/constitution2.htm#vide>.

11. Meillet Antoine. Linguistique historique et linguistique générale. -Paris, 1921.

12. Port-Royal. Grammaire générale et raisonnée de. -Paris: Bossange et Masson, 1810.

13. http://www.tlfg.ulaval.ca/ax1/europe/france-3politik_minorites.htm.

6-MA'RUZA

ROSSIYA SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Rossiyadagi sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlar
2. Til siyosati
3. Rossiya Federatsiyasining til islohoti
4. Rossiyada ingliz tilining o'ri
5. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning chegaralangan leksikaga ta'siri

Tayanch so'zlar: ekstralingvistik omillar, biologik funksiya, empirik tadqiqot, multilingvizm, tipologiya, pinyin, majoritar tillar, siyosiy makon, "kasal tillar", markazlashtirish siyosati, stilistik-funksional qatlam, umumxalq jargoni, interjargon, sleng, argo, diskurs, transformator, chegaralangan leksika, umumiste'mol leksika.

6. 1. Rossiyadagi sotsiolingvistik tadqiqotlar

G'arb davlatlaridagi sof tarixiy yoki rasmiyatchilik xususiyatiga ega tadqiqotlardan farqli o'laroq, sobiq SSSRda I. A. Boduen de Kurtenening til hodisalarining ijtimoiy shartlanganligi, shuningdek, tilning qo'llanishi va rivojlanishiga ekstralingvistik ijtimoiy omillar ta'siri borasidagi tadqiqotlari katta rol o'ynagan. 1974-yilda "Русский язык за рубежом" jurnalida e'lon qilingan maqolada N. G. Mixaylovskaya I.A. Boduen de Kurteneni "rus va sovet tilshunosligidagi sotsio-etnolingvistik tadqiqotlarning asoschisi", deb atagan.

XX asrning 20-30-yillaridagi sotsiolingvistik yo'nalishdagi dastlabki empirik tadqiqotlar A. M. Selishev, L.P. Yakubinskiy, L. I. Barannikova, U. Uspenskiy, V.M. Jirmunskiy, Y.D. Polivanov, V.V. Vinogradov, B.A. Larin, K. N. Derjavin va G. O. Vinokurlarning nomi bilan bog'liq. R.O.Shorning "Til va jamiyat" nomli kitobi (1926) til sotsiologiyasiga doir birinchi ilmiy asar edi. Unda til inson organizmning tabiiy biologik funksiyasi sifatida emas, balki ijtimoiy shartlangan jamiyat mahsuli sifatida tushuniladi.

20-yillardagi izlanishlar sinxron sotsiolingvistik ruhda bo'lib, ular inqilobdan keyin tilda yuz bergan o'zgarishlar va til guruhlari masalasiga bag'ishlangan edi. Ularda til ijtimoiy hodisa sifatida marksistik ta'limot nuqtayi nazaridan o'rganildi. Sobiq ittifoqda ishlab chiqilgan sotsiolingvistika tarixiy materializm va marksistik sotsiologiya nazariyasi – jamiyatning ijtimoiy struktura nazariyasiga, ijtimoiy tizimlar, shaxs sotsiologiyasi nazariyasiga asoslangan edi.

Y.D.Polivanovning 20-yillardagi tadqiqotlarida birinchi marta jamiyatning tilga ta'siri to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasligi, jamiyatdagi

o'zgarishlarning til evolyusiyasini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkinligi, biroq uning xosiyat va yo'nalishiga (tilning ichki qonuniyatlari bilan aniqlanadigan) ta'sir qila olmasligi qayd qilingan edi.

Oktabr to'ntarishidan keyin Rossiyada sotsiologik va sotsiolingvistik yo'nalishdagi empirik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelishi g'oyat tabiiy edi. Ilgari aholining ozchilik qismini tashkil qilgan ziyolilar tili bo'lgan rus adabiy tili endilikda butun xalqning muloqot vositasi sifatida keng funksiyalarni zimmasiga olishi lozim edi. Shunday qilib, rus adabiy tili sohiblari sonining tarkibi tubdan o'zgardi. Biroq barcha til darajalarida dialekt va jargonlarning kuchayishi oqibatida adabiy til me'yoriga tahdid solindi. Oktabrgacha va undan keyin rus milliy tilining ichida ma'lum darajada ijtimoiy dialektlar vazifasini ham bajaruvchi hududiy dialektlar katta rol o'ynadi. Shunga ko'ra, sotsiolingvistik muammolar yoritilgan (til va uning qo'llanishida ijtimoiy omillar ta'sirini hisobga olgan) aksariyat izlanishlarning markazida ijtimoiy dialektologiya masalalari ham muhim o'rin tutdi.

Bu davrda tilshunoslikdan ijtimoiy munosabatdagi guruhlar tilini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va til hodisalari aloqasini tushuntirib beradigan metodlar ishlab chiqish talab etildi. Sotsiolingvistika oqilona til siyosati yurgizish uchun shart-sharoitlar yaratishi zarur edi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlardagi mazkur yo'nalishining keyingi rivoji N. Y. Marr va uning maktabi tomonidan to'xtatib qo'yildi. N. Marr tilga o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning bevosita ifodasi sifatida qaradi. U uchun til ideologik ustqurmaning bir qismi edi. N. Marr til stratifikatsiyasining ijtimoiy shartlarini va sotsiolingvisik muammolarning qo'yilishini tadqiq etishda hech qanday zaruratni ko'rmadi. Shunday qilib, 30-yillarning oxiri va 40-yillarda sobiq ittifoqda ko'zga ko'rinarli sotsiolingvistik tadqiqotlar deyarli olib borilmadi. 1950-yilda I. Stalin N. Marrning ta'limoti va uning maktabini g'ayrimarksistik va vulgar-materialistik oqim sifatida rad etdi.

60-yillarning boshlarida zamonaviy jamiyatning talabi bilan sotsiolingvistikada yangicha yo'nalish maydonga keladi. Bu davrdagi tadqiqotlarning markazidan ko'p millatli ittifoqqa xos bo'lgan ikki tillilik va ko'p tillilik jarayonlari o'rin oldi. Xususan, katta ijtimoiy jamoaga xizmat qiladigan bir yoki bir necha tillarni o'rganadigan makrosotsiolingvistika vujudga keldi. Mikrojamoadagi (oila, ishlab chiqarish guruhi va h.k.) lisoniy va kommunikativ jarayonlar deyarli o'rganilmadi. Rus tili millatlararo muloqot vositasi sifatida tadqiq qilingan bo'lsa-da, biroq qator masalalar ochiq qoldi.

Rus tilining azaliy tarqalgan hududlarda, til egalarining turli qatlamlari va guruhlarida qo'llanilishi nafaqat tilning ichki qonuniyatlarini, balki qaysidir darajada tashqi omillarni ham shart qilib qo'yadi. Bunday omillarni, ularning til jarayonlari va munosabatlariga ta'sirini o'rganish rus sotsiolingvistikasining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

1966-yil 24-26-mayda Moskvada bo'lib o'tgan yetakchi tilshunoslarning yig'ilishi sotsiolingvistikaning rivojlanishida muhim turtki vazifasini o'tadi. Unda, asosan, til va jamiyat munosabatlari tadqiqotlarining nazariy masalalariga e'tibor qaratildi. Bunday tadqiqotlarning hajmi va yo'nalishi qanday bo'ladi, degan savol atrofida qizg'in munozaralar olib borildi. SSSR FA qoshida Sovet Ittifoqi millatlari tillarining rivojlanishi bilan bog'liq muammolar yuzasidan Y. D. Desheriev raisligidagi ilmiy kengash tashkil qilindi.

Keyingi davrlarda sotsiolingvistika faniga Y.D.Desheriev, A.D.Shveytser, V.A.Avrarin, A.A.Leontev, L.B. Nikolskiy, T.B.Kryuchkova, L.P.Krisin, V.M. Alpatov, N.B Mechkovskaya va V.I.Belikov kabi olimlar katta hissa qo'shdilar.

Y. D. Desherievning "Проблема функционального развития языков и задачи социолингвистики" nomli asari dastur vazifasini o'tovchi xususiyatga ega bo'lib, unda ichki lisoniy va tashqi lisoniy omillarning o'zaro munosabati, shuningdek, tilning ijtimoiy funksiyalari masalalari markaziy o'rinni egallaydi. Muallif mazkur ishida qator muhim sotsiolingvistik vazifalarni, jumladan, tillarning funksional, sotsiolingvistik tasnifini, multilingvizmning tadqiqi, ilmiy-texnik terminologiyani ishlab chiqish, ijtimoiy omillar va ularning til, til va jamiyat, til va madaniyatning rivojlanishidagi ahamiyatini ko'rsatib beradi. Y.Desheriev adabiy tillarning amaldagi vazifalariga xos tadqiqni sotsiolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri, deb hisoblaydi.

A.D. Shveytser o'zining dastur ahamiyatiga molik "Некоторые актуальные проблемы социолингвистики"¹ nomli maqolasida zamonaviy sotsiolingvistikaning vazifalari va metodlarini izohlab beradi. U sotsiolingvistik tipologiya (tillar va til guruhlarini ularning vazifa doirasiga ko'ra miqdor va sifat jihatdan tasniflash)ni yaratish zarurati, shuningdek, til siyosati amaliyotida sotsiolingvistikaning qanchalik katta rol o'ynashi to'g'risida yozadi. Muallif "К проблеме социолингвистической типологии" nomli maqolasida o'z funksiyasiga ko'ra farqlanadigan til variantlarini qiyoslash uchun umumiy tamoyillar va mezonlarni ishlab chiqish talabini ilgari suradi.

¹ Швейцер А.Д. Некоторые актуальные проблемы социолингвистики // Иностранные языки в школе. -№ 3, 1969.

Hozirgi kunga kelib, Rossiyada sotsiolingvistika fan sifatida to'la shakllangan va o'z mavqeyini qat'iy belgilab olgan. Sotsiolingvistika sohasida talaygina keng qamrovli ishlar amalga oshirilgan. Masalan, V. I. Belikov, L. P. Krisinlarning "Социалингвистика" (2001), V. I. Belikovning "Русские пиджины" (1997), N.B. Mechkovskayaning "Социальная лингвистика" (1996), T. G. Vinokurning "Говорящий и слушающий: Варианты речевого поведения" (1993), V. M. Alpatovning "150 языков и политика" (1997), M. V. Dyachkovning "Социальная роль языков в межэтнических обществах" (1993), "Мажоритарные языки в полиэтнических (многонациональных) государствах" (1996), T. B. Kryuchkovaning "Типология языковых конфликтов" (1994), X. Yaxnovning "Социалингвистика в России (90-е годы)" (1998) tadqiqotlari shular jumlasidandir.

6. 2. Til siyosati

Markaziy partiyaviy-davlat organlarining 30-yillardagi til siyosati sobiq ittifoqning butun siyosiy makonini ruslashtirish tendensiyasi bilan chambarchas bog'liq edi. Mazkur tendensiya nuqtayi nazaridan yozuvni yoyish harakatlari rus alifbosini boshqa millatlarga majburlab kiritish va rus tilini o'zga tillardan ustun qo'yishdek salbiy oqibatlariga olib keldi.

Ichki siyosatning etnik mustaqilligini yo'qotib, soxta birlik kasb etgan "sovet xalqi"ni shakllantirishga qaratilgan behuda harakat mamlakatning til hayoti uchun ikki salbiy oqibatga olib keldi.

Birinchidan, bunday siyosat ko'pgina mayda xalqlar tillarining tanazzulga yuz tutishini tezlashtirdi. Sotsiolingvistikada "kasal tillar", ya'ni muloqot vositasi sifatida o'z ahamiyatni yo'qotgan tillar tushunchasi mavjud. Bunday tillar faqat katta yoshdagi kishilarning muloqotida saqlanib qolgan va ular asta-sekin yo'qolib borayotgan tillar kategoriyasiga kiradi. Masalan, 1991-yilda kerek tili (Chukotka muxtor okrugi)da faqat 3 kishining so'zlashishi qayd qilingan, xolos.

Ikkinchidan, markazlashtirish siyosati ittifoqdosh respublikalar bilan markazning katta milliy-madaniy to'qnashuvini keltirib chiqardi va bunday jarayon qayta qurish yillarida ittifoq respublikalarining konstitutsiyasini, xususan, davlat tiliga taalluqli bandlarini yangidan ko'rib chiqishga olib keldi. 1988-yilda Litvada boshlangan bunday jarayon 1989-1990-yillarga kelib butun ittifoqni qamrab oldi. SSSRning qulashi bilan Rossiya Federatsiyasida yangi to'liq – milliy subyektlarning konstitutsiyalariga rus tili bilan birga milliy tillarga ham davlat tili maqomini berish bandini kiritish masalasi kun tartibidan o'rin oldi.

6. 3. Rossiya Federatsiyasining til islohoti

Rossiya ko'pmillatli federativ davlat hisoblanadi. 1989-yildagi aholini ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyada 128 ta millat vakillari yashaydi. Keyingi ma'lumotlarda esa bu ko'rsatkichning 176 taga chiqqanligi qayd qilingan. Rossiya Federatsiyasining tarkibida 32 ta milliy subyekt (respublikalar, muxtor viloyatlar va muxtor okruglar) mavjud. Ular Rossiya Federatsiyasi hududining 53%ni egallaydi. RF Konstitutsiyasiga ko'ra, barcha subyektlar teng huquqlidir, shuningdek, mazkur respublikalar alohida davlat hisoblanib, o'z konstitutsiyalariga egadirlar. Ular o'zlarining davlat tillari va fuqaroliklarini belgilash huquqiga ega¹.

Rossiya uchun til siyosati xalqlararo munosabatlarning eng muhim muammosi hisoblanadi. Til – butun bashariyatning va har bir shaxs madaniyatining ko'zgusi, katta- kichik, barcha xalqlarning azaliy qadriyati hisoblanadi.

RSFSRning “RSFSR xalqlarining tillari haqida”gi (1991) Qonuniga muvofiq rus tili davlat tili maqomiga ega. Shuningdek, Rossiyada o'z milliy tilini yo'qotgan xalqlar rus tilini ona tili sifatida tan olish tendensiyasi ham mavjud. Jumladan, karellarning yarmi, boshqird, komi, mordva, udmurlarning uchdan biri, mariy va chuvashlarning 20-25% rus tilini ona tili hisoblashadi. Keyingi yillarda bolalarni milliy maktablarda o'qitishning nufuzi ham tushib borganligi kuzatiladi. 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiyada rus bo'lmagan aholi bolalarining 9% gina milliy maktablarda o'qigan. Bunday vaziyatni zudlik bilan tuzatish uchun 1991-yilning 25-oktabrida RF Parlamenti tomonidan “RSFSR xalqlarining tili haqida”gi Qarori qabul qilindi. Unga binoan har bir fuqaro o'z ona tilidan foydalanish, ta'lim va tarbiyani o'z ona tilida olib borish huquqiga egadir.

1990-yilning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya Federatsiyasidagi barcha respublikalarda rus tili bilan bir qatorda boshqa milliy tillarga ham davlat tili maqomi berildi. Hozirda RFda 21 ta til davlat tili maqomiga ega.

6. 4. Rossiyada ingliz tilining o'rni

1985-yilgacha Rossiyada ingliz tilini o'rganish imkoniyati cheklangan edi. Til o'rganishda rag'batlantiruvchi omil ekstralingvistik jihatdan mustahkamlanmagan edi. O'quvchilar ham, o'qituvchilar ham sobiq ittifoq davrida ishlab chiqilgan kodning kommunikatsiya samaradorligi bilan qoniqishardi. Buning natijasida ingliz tilining sun'iy bir turi, ya'ni zamonaviy ingliz tili egalarining ta'biri bilan aytganda, “*Ruslish*” vujudga keldi. Ko'pchilik ingliz tili o'qituvchilari ifoda fe'llarini slengning bir turi, shuning uchun ham ularni talabalar tomonidan o'rganilishini zararli, deb

¹ Ромашкин В. В. Языковая реформа в Российской Федерации. Алтай и Центральная Азия: культурно-историческая преемственность. – Горно-Алтайск, 1999. – С. 29.

hisoblashardi. Umuman, ingliz tilini amaliy o'rganish yo'lga qo'yilmagan edi.

Biroq 1985-yilga kelib (qayta qurish siyosati bois), ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish birdan kuchaydi. Bu holat talaygina ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog'liq edi. Chunonchi, "temir parda"ning olib tashlanishi, turistik sayohatlar va gidlarsiz chet elliklar bilan muloqot qilish uchun imkoniyatlarning tug'ilishi, qo'shma korxonalar sonining jadal suratlar bilan oshishi, sobiq sovet respublikalarida rus tiliga ustunlik berilishining bekor qilinishi, mamlakatni qisqa vaqt ichida kompyuterlashtirish, internetning rivojlanishi va h.k. shular jumlasidan edi. Bularning barchasi Rossiyada ingliz tilidan foydalanishning yangi sharoitlarini vujudga keltirdi. Rossiyada ingliz tilini egallash uchun yangi vositalarning vujudga kelishi "so'zlashuv inglizchasi"ning yoyilishini maqsad qilib olgan lingvistik maktablar, kurslar, firmalar va ingliz tilini qisqa muddatda o'rgatish markazlarining rivojlanishiga asos bo'ldi.

Shuningdek, Rossiyada pijinning paydo bo'lishi ingliz tili leksikasining ma'lum suhbat doiralari ommaviylashuviga va ularning ommaviy axborot vositalariga kirib borishiga ko'maklashdi. Quyida kundalik matbuotdan olingan ba'zi namunalar keltirildi:

"У нас не какие-нибудь там "А ну-ка парни!" У нас суперэкил".

"Она девушка с характером,... возможно, она посылает ему *мессидж*".

"Ну дал он ей *'лифт'*, или, по-нашему, подкинул". "Московский комсомолец", 20.04.2000, № 17.-С. 25, 28.

"Семеро *тинејджерс*" "Комсомольская правда", 2000. № 16.-С. 7.

Ingliz tilining rus tiliga ta'siri pijin egalari tomonidan faol iste'mol qilinadigan so'zlar qatlamida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, bozordagi savdogarlar nutqida "*Такой прайс только за лейбл что ли?*" tarzidagi inglizcha leksik interferensiya asosida qurilgan ruscha jumlani ko'rish mumkin. Mazkur matnda ruscha *цена* leksemasining o'miga inglizcha *прайс* so'zi individual qo'llanilgan bo'lib, unda yosh (yosh-молодой), mavzu (tjorat), holat (bozor) va maqom ("челнок") singari sotsial omillar ishtirok etgan.

Inglizcha so'zlardan firmalar va ularning reklamalarida ham keng foydalanilmoqda: "Best" do'koni (*best* "лучший"), "Okey" reklama-axborot agentligi, *сайдинг* (*облицовка* so'zi o'miga), *сайнмейкинг* (tashqi reklama buyurtmasi) va h.k.

Ruscha va lotincha harflarning qorishmasidan maydonga kelgan gbridlar ham ko'zga tashlanadi: *VIPовский рейс, аэроtrade/аэропейд*.

"Ruslish"da kalkalangan quyidagi hosilalar kuzatiladi: Xalqaro telefon punktining kiraverishida *Interurban calls (long-distance callsning o'miga)*, kimyoviy tozalash muassasining peshtoqida *Chemical cleaning (Dry-cleaner 'sning o'miga)* yozuvlarini o'qish mumkin.

Savdo sohasidagi bunday "ikki tillilik" belgilarini chet ellik sayyohlarni jalb qilish uchun emas (chunki Rossiyada turizm unchalik rivojlanmagan), balki ingliz tilini bilish bilan o'zini "yuksak saviyali" qilib ko'rsatishga urinish, deb izohlash mumkin.

Umuman, Rossiyada ingliz tilining o'mini ham ijobiy, ham salbiy baholash mumkin. Ikkala holatda ham u lingvistik emas, aksincha, siyosiy tusga ega.

6. 5. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning chegaralangan leksikaga ta'siri

XX asrning oxiriga kelib rus tilida chegaralangan so'zlar va iboralar intensiv ravishda keng qo'llanila boshladi. Rossiyada 80-yillarning o'rtalariga kelib hukmron diskursiv tiplar agressiv, ritorik yangi diskursni qayta shakllantirdi. Bir tomondan, tilda faol bo'lgan eski ma'nolar uchun yangi shakllar tanlash, ikkinchi tomondan, esa tildagi mavjud leksemalarga yangi ma'nolar berish, ularning oldingi ma'nolarini yangi ma'nolar bilan almashtirish kun tartibiga qo'yildi.

Hozirgi zamon rus tili leksik tizimini qayta qurishda ko'zga ko'ringan tendensiya jargon leksemalarning umumiste'mol leksika sohasiga o'tishi hisoblanib, u ommaviy tus olmoqda. Ilgari chegaralangan, kinoyali sanalgan, ijtimoiy, kasb-kor va ma'lum guruhlarga xos bo'lgan qator jargonlar faollashib, ochiqdan-ochiq kodlangan adabiy til va so'zlashuv tiliga kirib borib, rus tili leksikasida o'ziga xos stilistik-funksional qatlam – umumxalq jargoni, interjargon yoki umumxalq slengining shakllanishiga olib kelmoqda.

Jumladan, jonli so'zlashuv tilida jinoyatchilikka xos bo'lgan *бездельничать* so'zi bilan bir qatorda, unga ekspressiv jihatdan o'xshash bo'lgan *дурковать* argo iste'molga kirgan. Tibbiyot bilim yurti talabalari orasida o'tkazilgan so'rovnomada kasalxona xizmatchilarining nutqida bir necha yillardan beri *жмурик* (murda) so'zi ishlatilayotganligi aniqlangan. Shuningdek, *децил* (biroz), *канать* ketmoq), *кемарить* (uxlamoq, dam olmoq), *лажа* (haqiqatga to'g'ri kelmaydigan), *облажаться* (o'zini nochor qilib ko'rsatmoq), *мазы* (ahvol) (masalan: *Какие мазы?* - Как дела?), *менжа* (qo'rquv, beqarorlik; beqaror odam), *менжоваться* (qo'rqmoq) va shunga o'xshash qator shakllar ham tilda keng qo'llaniladi.

Rus tilidagi mavjud leksemalarning ham turli ijtimoiy guruh (yoshlar, tijoratchilar, jinoyatchilar va h.k.) jargonlari ta'sirida yangi ma'no kasb etganini ko'rish mumkin: *базар* (suhbat), *баян* (shprints), *гасить* (hushidan ketguncha do'pposlamq), *знать* (yolg'on gapirmq), *грузить* (ongiga singdirmq), *доход* (zaif odam), *завалит* (o'ldirmq), *кинуть* (aldamq), *мысор* (militsoner), *наезжать* (talab qilmoq), *плетка* (to'pponcha), *приход* (giyohvand moddaning ta'sir qila boshlashi), *стрелка* (uchrashuv).

Hozirgi zamon rus tili leksikasida umumiste'mol so'zlardan farqlanadigan, so'z yasash qoidalaridan tashqarida shakllangan, kamsitish alomlarini ifodalaydigan qisqartna so'zlar ham keng tarqalgan: *азер* (ozarbayjon), *алик* (aroqxo'r), *Афган* (Afg'oniston), *глюк* (gallyusinatiya), *диссер* (dissertatsiya), *дистроф* (distrofik), *мент* (militsoner), *преп* (prepodavatel, o'qituvchi), *хрон* (surunkali kasal odam) va b.q.

Muxtasar qilib aytganda, ekstralingvistik omillar hozirgi zamon rus diskursining asosiy transformatorlari hisoblanadi. Rus jamiyatida inson omili o'ziga xos xususiyat kasb etdi. Ijtimoiy-siyosiy ta'qiqqlarning va OAVdagi senzuraning olib tashlanishi hamda jamiyatda vujudga kelgan sinflar orasidagi raqobat tilga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Turli ijtimoiy guruhlar tomonidan faol qo'llaniladigan chegaralangan leksika o'z doirasidan chiqib, umumiste'mol leksikaga singib ketdi. Natijada til ma'lum ma'noda jamoadagi subyektning o'z o'rnini belgilab olish vositasiga aylandi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Rus va sobiq sovet tilshunosligidagi sotsio-etnolingvistik tadqiqotlarning asoschisi kim bo'lgan?

2. XX asrning 20-30-yillaridagi sotsiolingvistik yo'nalishdagi dastlabki empirik tadqiqotlar kimlar tomonidan amalga oshirildi?

3. Til sotsiologiyasiga mansub birinchi ilmiy ish kim tomonidan yozildi va u qanday nomlandi?

4. 20-yillardagi izlanishlar qanday masalalarning tahliliga bag'ishlangan edi?

5. Sobiq ittifoqda ishlab chiqilgan sotsiolingvistika qaysi nazariyaga asoslangan edi?

6. Oktabr to'ntarishidan keyin rus adabiy tilining funksiyasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

7. N. Y. Marr va uning maktabi tilga qanday yondashdi?

8. 60-yillarning boshlarida sotsiolingvistikada qaysi yo'nalish maydonga keldi?

9. 1966-yil 24-26-mayda Moskvada bo'lib o'tgan yetakchi tilshunoslarning yig'ilishida qanday masalalarga e'tibor qaratildi?

10. Y. D. Desherievning “Проблема функционального развития языков и задачи социолингвистики” asarida qaysi masalalar markaziy o‘rinni egalladi?

11. Hozirgi Rossiyada qanday sotsiolingvistik tadqiqotlar amalga oshirilgan?

12. Markaziy partiyaviy-davlat organlarining 30-yillardagi til siyosati qaysi tendensiya bilan bog‘langan edi va u qanday salbiy oqibatlarga olib keldi?

13. Rossiya Federatsiyasidagi milliy tillarga nechanchi yildan davlat tili maqomi berildi?

14. RFda nechta til davlat tili maqomini olgan?

15. 1985-yilga kelib, Rossiyada ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga qaysi omillar sabab bo‘ldi?

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М, 2001.
2. Белл Р. Социолингвистика. –М.: Межд. отношения, 1980.
3. Береговская Э. М. Молодежный сленг: формирование и функционирование // ВЯ. 1996. - №3. - С.32-41.
4. Грачев М.А. Третья волна // Русская речь. 1992. - №4. - С.61-64.
5. Дешериев Ю.Д. Закономерности развития и взаимодействия языков в советском обществе. –М., 1966.
6. Исаев М.И. Языковое строительство в СССР. –М., 1969.
7. Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. –М., 1977.
8. Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика. –М.: Аспект пресс, 1996.
9. Поливанов Е.Д. Избранные работы по общему языкознанию. – М., 1968.
10. Ромашкин В. В. Языковая реформа в Российской Федерации. Алтай и Центральная Азия: культурно-историческая преемственность. –Горно-Алтайск, 1999. – С. 29 – 38.
11. Швейцер А.Д. Некоторые актуальные проблемы социолингвистики// Иностраные языки в школе. - № 3, 1969.
12. Швейцер А.Д. Современная социолингвистика. Теория, проблемы, методы. –М., 1977.
13. Юсселер М. Социолингвистика. – Киев: Вища школа, 1987.
14. Язык в развитом социолингвистическом обществе. –М., 1989.
15. Языковая структура и социальная среда. Межвузовский сборник научных трудов студентов. –Воронеж, 2000.

7- MA'RUZA

TURKIYA SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Turkiyadagi til islohotlari
2. Turkiyadagi sotsiolingvistik tadqiqotlar
3. Turk tili va uning dunyo tillari orasidagi o'zgarishlar
4. Chet tillarining ta'siri

Tayanch so'zlar: til islohoti, Tanzimot davri, alifbo, yozuv, usmonli turkchasi, qurultoy, jamiyat, milliy madaniyat, tilni soddalashtirish, Quyosh til nazariyasi, Turkiya Majlisi, murojaat shakllari, Muallimlar uyushmasi, inlo qoidalari, o'zlashmalar, til o'zgarishlari, til turlari, tilni soflashtirish, tilni rejalashtirish, jins tafovutlari, dixotomiya.

7.1. Turkiyadagi til islohotlari

Turkiyadagi til islohotlarini ikki davrga ajratish mumkin: 1) Jumhuriyatdan oldingi til islohotlari; 2) Jumhuriyat davridagi til islohotlari.

7.1.1. Jumhuriyatdan oldingi til islohotlari

XIX asrda usmonli turkchasi Tanzimot davri adabiyoti vakillarining sa'y-harakatlari bilan yangi fikrlarni xalqqa yetkaza oladigan tilga aylantirishga urindi. Xususan, Nomiq Kamol, Ali Suaviy, Ziyo Poshsha, Ahmet Mithat Efendi va Shamsiddin Somiyalar tilni soddalashtirish muammosini ko'tarib chiqishdi.

Gazeta, jurnal va davriy nashrlarning soni ortdi, adabiy til yot unsurlardan tozalanib, xalq tiliga yaqinlashtirildi. Shuningdek, bu davrda fransuz tilining ayrim so'z va ifoda xususiyatlari ham turkchaga kirib keldi.

Tanzimotdan keyingi XX asrning boshlarida Istanbul shevasiga asoslangan yangi turk tili oldingi davrlardagi turk tilidan qator xususiyatlariga ko'ra farqlanar edi. Ayniqsa, turk tilining fonetikasi, ya'ni tovush tizimida katta o'zgarishlar vujudga keldi. Bu farqlar quyidagilarda ifodalandi :

1) Tor va keng unililardan keyin kelgan lablangan unililarning torayishi: *kırık* > *kırık*, *bilür* > *bilir*, *alsun* > *alsın*, *evüm* > *evim*, *benüm* > *benim*, *demür* > *demir*, *kapu* > *kapı*.

2) Lablangan unililardan keyin kelgan tor unililarning lablanishi: *bulun-* > *bulun-*, *görüŝ-* > *görüş*, *gümiŝ-* > *gümüş*, *gözi* > *gözü*.

3) *n̄* nazal undoshining *n* ga aylanishi: *deñiz* > *deniz*, *buñal-* > *buna-*, *soñ* > *son*, *öñ* > *ön*.

4) *ur-* fe'lining boshida *v* tovushining ortirilishi: *-ur-* > *vur-*.

5) Ayrim soʻzlarda *e* > *i* va *a* > *ı* torayishi: *eyü* > *iyi*, *gey-* > *giy-*, *daş* > *dış*.

6) *g* > *v* almashinuvi: *göger-* > *göver-*, *gögercin* > *güvercin*.

7) oʻzakdagi keng lablangan unilarning torayishi: *böyük* > *büyük*, *gözel* > *güzel*, *oyan-* > *uyan-*.

8) *ğ* tovushining talaffuzdan tushishi.

7.1.2. Jumhuriyat davridagi til islohotlari

Jumhuriyat davrida Mustafó Kamol Otaturk boshchiligida keng miqyosda til islohoti olib borildi. Bu harakat, avvalo, alifbo va imlo islohotlari edi.

7.1.2.1. Alifbo va imlo

Maʼlumki, eski Onadoʻli va usmonli turkchasining yozuvida arab alifbosi qoʻllanib kelingan. Boshqa alifbolarda yozilgan asarlar hech qachon eʼtibor qozona olmagan. Standart adabiy tilning rivojlanishida uygʻur yozuvi va arab-fors yozuvi anʼanalari muhim rol oʻynagan. Ular quyidagi imlo xususiyatlariga ega edi:

Uygʻur yozuvi anʼanasining taʼsirlari

- 1) unilarning yozuvda aks etishi;
- 2) *n̄* tovushini berish uchun *ng* (nun va kof) guruhining qoʻllanilishi; 3) orqa qator unilar ishtirok etgan soʻzlarda *sin* harfining qoʻllanilishi;
- 4) *ch* (chim) uchun *j* (jim) va *p* uchun *b* ning qoʻllanilishi;
- 5) qoʻshimchalarning oʻzak va negizdan ayri yozilishi.

Arab-fors yozuvi anʼanasining taʼsirlari

- 1) unilarning yozuvda aks etmasligi;
- 2) *n̄* nazal tovushini berish uchun *kof* harfining qoʻllanilishi;
- 3) orqa qator unilar ishtirok etgan soʻzlarda *sad* harfining qoʻllanilishi;
- 4) *ch* uchun *chim* va *p* uchun *pe* harflarining qoʻllanilishi;
- 5) tanvin qoʻllanilishi.

1928-yilning 3-noyabrida arab harflarining oʻrniga lotin alifbosi qabul qilindi. Mazkur qaror savodsizlikning tugatilishida katta rol oʻynadi. Arab harflari tizilganda 612 ta belgi kerak boʻlgani holda, lotin alifbosida katta va kichik harflar, belgilar hamda raqamlar bilan birga 70 ta belgi yetarli boʻldi.

Turk sotsiolingvisti K.Imerning qayd qilishicha, arab harflari tizimining oʻrniga lotin alifbosining qabul qilinishi Turkiya Respublikasi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Birinchidan, turk tilidagi tovushlar va tovush birliklari orasida aksariyat holatlarda paralellik taʼminlandi, turkchada arab yozuvi qoʻllanilganda koʻp holatlarda aks etmagan unilarni lotin yozuvida aks ettirish imkoniyati paydo boʻldi.

Ikkinchidan, lotin yozuvining qabul qilinishi til grammatikasining yaratilishiga asos boʻldi. Turk tilining grammatikaga doir asarlariga

unlilarning qattiq-yumshoqlik uyg'unlashuviga ilova sifatida unlilarning lablangan-lablanmaganlikka ko'ra uyg'unligi ham kiritildi.

Uchinchidan, turkchada arab yozuvi qo'llanilganda aksariyat hollarda ko'rsatilmagan allomorflar lotin yozuvida aniq ko'rsatildi¹.

7.1.2.2. Turk tili jamiyati (Türk Dil Kurumu)

Mustafo Kamol Otaturkning tashabbusi bilan 1932-yilning 12-iyulida Turk tili jamiyati (Türk Dil Kurumu) tashkil topdi. Bu jamiyat turk tilining go'zalligi va boyligini yuzaga chiqarish, uning dunyo tillari orasidagi o'rnini belgilash, ilmiy yo'llar bilan tadqiq qilish, uning imkoniyatlari, salohiyatini ochib berish maqsadida tashkil qilingan edi. 1934-yildagi qurultoyda jamiyatning nomi Turk tili tadqiqot jamiyati (Türk Dili Araştırma Kurumu) deb, 1934-yildagi qurultoyda esa Turk tili jamiyati (Türk Dil Kurumu), deb o'zgartirildi². Turk tili jamiyatining tashkil qilinishi til islohotida markaziy rol o'ynagan tarixiy hodisalardan biri edi.

Mustafo Kamol Otaturkning eng buyuk xizmatlaridan biri milliy madaniyatning asosi bo'lgan tilni soddalashtirish edi. Biroq afsuski, qisqa davr ichida ko'zlangan maqsaddan chetlashildi, soxta, sun'iy bir til o'rta qo'yildi. 1935-yilda Otaturk Turk tili jamiyatining noto'g'ri yo'lda ekanligini tushunib, uni bu yo'ldan qaytardi. Chunonchi, turk tilini soddalashtirishda tabiiy yo'ldan chekinmasdan, aksincha, tilni o'z holiga, o'z oqimiga tashlash uchun "Quyosh til nazariyasi" (*Güneş Dil Teorisi*) taklif qilindi. Jamiyat 60-yillargacha ana shu nazariyaning ta'sirida faoliyat olib borgan. 1960-1980-yillarda qattiq tanqidlarga uchragan Turk tili jamiyati (TDK) 1982 yilga kelib, o'z strukturasi muayyan o'zgartishlarni amalga oshirdi. Jumladan, Turk tili jamiyatining sa'y-harakatlari natijasida "Derleme Sözlüğü"; "Tarama Sözlüğü"; "Türkçe Sözlük"; "İmla Kılavuzu" singari ko'p jildli lug'atlar nashr qilindi.

7.1.2.3. Quyosh til nazariyasi

"Quyosh til nazariyasi"ga ko'ra, barcha qadimgi tillar Quyosh qarshisidagi dastlabki insonlarning fikr, tuyg'u va hayajonlaridan paydo bo'lgan. Odamlar eng qadimgi davrlarda Quyoshga topinganlar. Shu yo'sinda dastlabki so'zlar ham quyoshni anglatgan. Turk tilida ham quyosh bilan bog'liq so'zlarning ko'pligini e'tibordan qochirmagan holda, unga eng qadimgi bir til sifatida qarashni isbotlash lozim edi. Shunga ko'ra, "Turk tili qadimiy til bo'lib, u tarixning ilk davrlarida boshqa tillarga juda ko'p so'zlarni bergan. Endi ana shu so'zlar yana turkchaga qaytadan kirib kelmoqda (tilshunoslikda bunday so'zlarga "leksik bumerang" deyiladi – Sh.Usmanova). Demak, ularni qo'llashda noqulaylik bo'lmaydi", degan

¹ mer K. Dil planlamasi sürecinde yazım sorunları // Lefke Türküsü. –N 3, 2002. –S.40.

² Demir N., Yılmaz E. Türk Dili. El kitabı. –Ankara: Grafiker Yayıncılık, 2003. –S. 127.

faraz ilgari surilib, qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu asnoda turk tiliga kirgan o'zlashmalar turkchalashtirilib, milliy g'urumi kamsitmaslikka harakat qilindi.

“Quyosh til nazariyasi”ni Otaturk venalik tilshunos F.Kvergijning unga yuborgan, ammo nashr qilinmagan risolasi asosida rivojlantirgan edi. Bu asarda mo'g'ul, tungus-manjur tillari bilan fin, venger va yapon tillarining yaqinligi, shuningdek, O'rta yer dengizi bo'yidagi tillarning shakllanishida turk tilining ta'siri xususida so'z yuritilgan edi¹.

Otaturk turk tilini soddalashtirishda “Quyosh til nazariyasi”ning buyuk vositachi bo'lishiga ishongan edi. Otaturkning vafotidan keyin “Quyosh o'lgandan keyin nazariyasi qoladimi?”, - degan TDK mutasaddilari yana eski qarashlariga qaytib, turk tilini tanib bo'lmas holga keltirdilar. Quyida TDK ishlatadigan ba'zi so'zlardan misollar keltirilmoqda:

<i>Eski shakli</i>	<i>TDK ishlatadigan shakli</i>
maddi	maddesel
tehlukeli	ölmöcül
tasavvur	tasarım
katliam	kiyım
makam	orun
karakter	ıra
cahil	bilisiz

Turkiyada 1934-yilning 21-iyun da turkcha majburiy familiya olish qonuni qabul qilindi. Mazkur yilning 24-noyabrda Turkiya Majlisi shukrona va minnatdorchilik ramzi sifatida Mustafo Kamolga *Otaturk* familiyasini berdi.

1934-yil 26-noyabrda *bey, paşa, ağa, fendi* singari murojaat shakllari o'rniga *bay, bayan* kabi so'zlar bilan xitob qilish qarorlashtirildi. Hozirgi turk tilida *bey, ağa* shakllari saqlanib qolimga bo'lib, ular erkak ismlariga qo'shilib hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Alibey, Mustafağa*².

1948-yilda Muallimlar uyushmasining Birinchi til qurultoyi chaqirilib, turk tilining istiqbolini belgilab beradigan qator qarorlar qabul qilindi.

¹ Demir N., Yılmaz E. Türk Dili. El Kitabı. –Ankara: Grafiker Yayıncılık 2003. –S. 128-131; Tankut R. Güncel Dil Teorisine Göre Toponomik Tetkikler. –İstanbul: Devlet Basımevi, 1936. –S. 8-10.

² Усмонова Ш. Корейс ва туркий тилларда ундалмалар //Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Тошкент. “Университет”, 2004. –с.75.

7.2. Turkiyadagi sotsiolingvistik tadqiqotlar

Turkiyada sotsiolingvistikaning vujudga kelishi Jumhuriyat davrida Mustafa Kamol Otaturk boshchiligida keng miqyosda o'tkazilgan til islohotlari bilan bog'liq, desak yangilishmagan bo'lamiz. 1928-yilning 3-royabrida lotin alifbosining qabul qilinishi munosabati bilan shu yilning o'zida N.K. Ajikel, A. Azmiy, F.R. Atay, B. Avni, D. Yarkukulu, I.N. Dilmen, Y.N. Abalio¹ kabi ziyolilar tomonidan turkum maqolalar e'lon qilindi. Mazkur maqolalarda yangi alifbo va imlo masalalari qizg'in muhokama qilindi.

Turk tilining ilk "Imlo lug'ati" turk tilini kodlashda muhim rol o'ynagan Til anjumani tomonidan 1928-yili nashr qilindi. Unda mushtarak yozuv shakliga oid dastlabki qoidalar belgilandi. Mazkur lug'at 1981-yilgacha "Yangi yozuv ma'lumotnomasi" (Yeni Yazım Kılavuzu) nomi bilan jami 18 marta millionlab nusxada bosilib, butun ta'lim muassasalarining dasturulamal kitobi sifatida qabul qilindi.

1928-yildan 80-yilning o'talarigacha imlo qoidalari bilan bog'liq turli tuzatishlar qilindi. Ushbu o'ta og'ir va mas'uliyatli jarayon 1983-yilgacha nufuzli til islohoti tashkiloti sanalgan Turk tili jamiyati (TDK) tomonidan amalga oshirildi².

Bu davrlarda Turkiyadagi yozuv va til bilan bog'liq harakatlar, yozuv islohoti, yangi yozuv qoidalari, o'zlashmalarning imlosi, tildagi o'zgarishlar va tilning rivojlanishi masalalari O.A. Aksoy, A. Dilachar, H. Eren, M. Ergin, T. Erer, Z. Qo'rqmas va K. Imer³ kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida atroflicha yoritildi.

1980-1983 yillarda turk tili yozuvida, hatto, yozuv tizimi o'zgargandan keyin ham kuzatilmagan ostin-ustunlik o'rta qo'ldan chiqdi. Mazkur ostin-ustunlikning asosiy sababi – til islohotida eng muhim rol o'ynagan Turk tili

¹ Acikel N.K. Turk alfabesinin fslzhr. Turk dili ve turk dili diksiyoneri. -Istanbul, 1928; Azmi A. Eski ve yeni harfler hakkında bazı mitalialar. -Istanbul, 1928; Atay F.R. "Harfler meselesi" // Hakimiyet-i milliye gazetesi, 1.7. 1928; Avni B. "Yeni harfler hakkında" // Hayat 91, 23.8.1928. -S.246. Yarkukulu D. Yeni turk alfabesi, fihri ve tasfir jekilleri. -Istanbul: devlet matb. 1928; Harf dersahanelerine mahsus turk alfabesi, devlet matb. Ist.; Dilmen I.N. Muallimlere mahsus yeni harflerle turkçe okuma yazma dersleri. -Istanbul, 1928; Halk krciati halk kitabkendii kendine krlitat. -Istanbul, 1928; "Latin harfleriyle turkçe elifba" // Milliyet 7, 16, 23, 34, 28.5.1928, 9.16.24.27. 29.6.1928; Abalio N. Y. "Yeni yazı" // Cwnhuriyet, 1 kanunuevvel 1928.

² mer K. Dil planlaması surecinde yazım sorunları // Lefke Türküsti. -N 3, 2002. -S.40-41.

³ Aksoy O. A. "Soyleyiş bozukluğu ve alfabemiz" // Turk Dili VII/84, 1958. -S. 598-600; "Yeni imla kılavuzu" // Turk Dili XIV/160, 1965. -S. 309-318; Ataturk ve Dil Devrimi. Dil Alanındaki Çalışmalara Genel Bir Bakış, M.E.B. Atacırk Serisi 3,1968; Dilaçar A. "Cumhuriyet Devrinde Harf Devrimi hakkında yayımlanan eserlerden görebildiklerimiz" // Turk Dili 11/23, 1953. -S. 736-737; Yeni Turk Harfleri. Turk Diline En Uygun Harflerden. Okul Arşivi, Yeni Turk Harfleri Devrimi Levhalar. -No. 1, Hinbul, 1956; Eren H. "Dilde birlik" // I. Turk Dili Bilimsel Kurultayına Sunulan Bildiriler, Bilimsel Bildiriler, TDK yayımları. -No. 413, 1972; Erer T. Turkiye'de Yazı ve Dil Hareketleri. Cumhuriyetin Kuruluşundan Bugüne Kadar. I. - Istanbul: Kartal, İktbal Kitabevi, 1973; Ergin M. "Türkçe'ye en uygun alfabe" // Turk Dili 11/130, 1954. -S. 309-311; Korkmaz Z. Turk Dilinin Tarihi Akışı İçinde Ataturk ve Dil Devrimi. - Ankara, A.Ü.D.T.C.F. Yay., 1963; Korkmaz Z. "Dilde Dogal Gelişme ve Devrim Açısından Turk Dil Devrimi" // A.Ü. D.T.C.F. Turk Dili ve Ed. Araş. Ens. Türkoloji Dergisi, cilt:IV, 1 sayı, 1972. -S.97-114; Imer K. Turk Dil Devrimi, Ankara: Turk Dil Kurumu Yayınları, 1976.

jamiyati (TDK) faoliyatini o'zgartirgandan keyin imlo lug'atlarida bu paytgacha amal qilingan yozuv mosliklarining yo'q qilinishiga, xususan, qo'shma so'zlar va o'zlashmalarning yozilishi hamda (^) belgisining qo'llanishi masalasiga "ko'z yumishi" edi. Shuningdek, bu davrga kelib dunyodagi siyosiy va iqtisodiy strukturaning o'zgarishi natijasida ingliz tilining xalqaro til sifatida turk tili va turk yozuviga har tomonlama ta'sir ko'rsatishi ham turk yozuvining ostin-ustun bo'lib ketishiga sabab bo'lgan edi. Biroq TDK tomonidan kiritilgan o'zgarishlar davlat tashkilotlari, muassasalari tomonidan qabul qilinmadi va har bir tashkilot, muassasa o'z yo'lidan ketdi.

Turkiya Respublikasida haqiqiy keng qamrovli sotsiolingvistik tadqiqotlar o'tgan asrning 70-80-yillarida yuzaga kela boshladi. Bunday izlanishlar turk sotsiolingvisti K.Imerning tomonidan boshlab berildi. Olimaning "Sotsiolekt sifatida bir kasb guruhining (yozma) til qo'llashi va transportlardagi yozuvlar" ("Sosyolekt olarak bir meslek grubunun (yazılı) dil kullanımı ve kara taşıtlarındaki yazılar" 1979), "Sotsiolingvistika" ("Toplumsal Dilbilim" 1980), "Sotsiolingvistikaning ayrim tushunchalariga nazariy qarash va til turlari" ("Toplum Dil Bilimin Kimi Kavramlarına Kuramsal Bir Bakış ve Dil Türleri"), "Sotsiologik tushunchalar nuqtayi nazaridan turk tili islohotlarining tahlili" ("Toplumbilim Kavramları Işığında Türk Dil Devriminin Değerlendirilmesi" 1994), "Til o'zgarishlarida ijtimoiy va madaniy omillarning ahamiyati" ("Dil Değişmesinde Toplumsal ve Kültürel Etkenlerin Önemi") kabi tadqiqotlarida sotsiolingvistikaning nazariy masalalari, unga oid tushuncha va terminlar batafsil yoritildi.

Turk sotsiolingvistlari eng ko'p qiziqqan muammo til islohoti masalasi edi. Xususan, K.Imerning "Turk adabiy tilida til islohotlari davridan 1965-yilning oxirigacha bo'lgan soflashtirish miqdori haqida tadqiqot" ("Türk Yazı Dilinde Dil Devriminin Başlangıcından 1965 Yılı Sonuna Kadar Özleşme Üzerine Sayıma Dayanan Bir Araştırma" 1973), "Turk tili islohoti" ("Türk Dil Devrimi" 1976), "Turkiyada tilni planlashtirish va turk tili islohoti" ("Türkiye'de Dil planlaması ve Türk Dil Devrimi" 2001), "Tilni planlashtirish jarayonidagi yozuv muammolari" ("Dil planlaması sürecinde yazım sorunları" 2002); Z.Qo'rqmasning "Turk tili tarixida Otaturk va til islohoti" ("Türk Dilinin Tarihi Akışı İçinde Atatürk ve Dil Devrimi" 1963), "Tilda tabiiy rivojlanish va islohot nuqtayi nazaridan turk tili islohoti" ("Dilde Doğal Gelişme ve Devrim Açısından Türk Dil Devrimi" 1972); A. Dog'anning "Turk tili islohotining o'ziga xos yo'nalishlari" ("Türk Dil Devriminin Kendine Özgü Yönleri" 1994); O'.Mehmetning "Til islohotidan keyin ism-shariflarimiz" ("Dil Devrimi

Sonrası Ad ve Soyadlarımız” 2000) singari izlanishlari aynan til islohoti masalasiga bag’ishlangan edi.

S. So’nmasning “So’zlashuv tili va adabiy til” (“Sözlü Dil /Yazılı Dil”1990) va G.Ko’nigning “Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan til va uning turlari” (“Toplumdilbilim Açısından Dil ve Dil Türleri” 1991), deb nomlangan tadqiqotlarida til va uning turlari tahlil etildi.

Sotsiolingvistikaning gender masalari, ya’ni jins tafovutlari G. Ko’nigning “Til va jins. ayollar va erkaklar nutqi” (“Dil ve Cins: Kadın ve Erkeklerin Dil Kullanımı” 1992), “Jinslar o’rtasidagi munosabatlarda tushuncha” (“Cinslerarası İlişkilerde Algılama” 1992); N. Buyukkantarjio’g’luning “Ko’rgazmali matbuotda til qo’llash yo’li bilan ayol shaxsining yaratilishi” (“Görsel Basında Dil Kullanımı Yoluyla Kadın Kimliği Oluşturulması” 2000); S. Kojaerning “Argo va ijtimoiy jins” (“Argo ve Toplumsal Cinsiyet” 2006) singari ishlarida o’rganildi.

7. 3. Turk tili va uning dunyo tillari orasidagi o’rni

Turklar bugungi Kichik Osiyo yerlarida yashaydigan, juda qadim tarixga ega bo’lgan bir xalqdir. Saljuqiylar, Onado’li beklklari va Usmonli davlatining vorisi bo’lgan Turkiya Jumhuriyati rasman 1923-yilda tashkil qilinganiga qaramay, G’arb manbalarida XI asrdan e’tiboran Onado’lining sharqiga *Turchia* nomi berilar edi.

Turkiya turklarining asosiy qismini o’g’uz urug’idan chiqqanlar tashkil qilsa-da, turli ko’chish va tarixiy hodisalar sababli bugungi kunda Turkiya geografiyasi butun turk qavmlari istiqomat qiladigan makon hisoblanadi. 1771-1989-yillar orasida jumhuriyatdan oldin 5.898.000 kishi, jumhuriyatdan keyin esa 2.245.950 kishi, jami 8.143.950 kishi Bolgariya, sobiq Yugoslaviya, Gretsiya, Ruminiya, Kipr, Ozarbayjon, Shimoliy Kavkaz, Qirim, Sobiq Sovet Ittifoqi, Sharqiy Turkiston va Afg’onistondan Turkiyaga ko’chib o’tgan. Shu bilan birga, Iroq chegaralari ichida qolgan Kerkuk va Mo’sul hamda Janubiy Ozarbayjondan kelgan talaygina turkiy xalqlar ham Turkiyada qo’nim topgan. Turkiy xalqlar bilan birga, o’zlarini turk madaniyati doirasida ko’rgan cherkez, gruzin, boshnoq va arnavutli ayrim musulmonlar ham Turkiyaga ko’chib o’tishgan. Shunday qilib, Onado’li abadiy turklashdi. 1935-yildagi aholini ro’yxatdan o’tkazishda ona tili turkcha bo’lganlar aholining 86%, 1965-yilda 90%, 1995-yilga kelib esa 94% tashkil qilgan¹.

Turk tili dunyoda eng keng tarqalgan tillardan biri bo’lib, Xitoy va Oltoy tog’laridan to G’arbiy Yevropagacha bo’lgan hududlarni qamrab olgan. Turk tili qariyb 7000ga yaqin dunyo tillari orasida o’zining keng

¹ Özkan N. Türk Dünyası. Nüfus Sosyal Yapı Dil Edebiyat. –Kayseri: Geçit Yayınları, 1997. –S. 224-225.

tarqalishi jihatidan yettinchi o'ringa turadi. Turk tilida 200 milliondan ortiq kishi gaplashadi.

Turk tili oltoy tillari oilasiga mansub bo'lib, mo'g'ul, tungus-manjur, koreys va yapon tillari bilan qarindosh hisoblanadi. Turkiyada, asosan, o'g'uz-turkman lahjasida gaplashiladi.

7. 3.1. O'g'uz tilining rivojlanishi

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, VII asrning boshlarida Yenisey, VII asrning o'rtalarida Tula va O'tukenda yashagan o'g'uzlar VIII-XI asrlarda Orol ko'lining shimoliga va Sirdaryo bo'ylariga kelib joylashdilar. XI-XIII asrlarda Xorazm va Xurosondan tortib Ozarbayjon, Onado'li hamda Mesopotamiyagacha bo'lgan hududlarda G'aznaviylar va Saljuqiylar saltanati hukmronlik qildi. XI asrning 40-yillarida hukmdor Tug'ul Nishopur shahrini poytaxt, deb e'lon qildi. O'g'uzlar XI asrdan boshlab g'arbga ko'cha boshladilar. O'g'uzlarning bir qismi Movarounnahrda qolib, mahalliy aholi bilan aralashar ekan, qolgan katta qismi Jayhun daryosidan kechib, Xorazmning turklashishida katta rol o'ynadi. Keyinroq o'g'uzlar Xurosonga yo'l olib, 1040-yilda Mahmud G'aznaviyni yengib, Buyuk Saljuqiylar davlatini qurdilar. O'g'uzlarning g'arbga ko'chishi Onado'liga tomon davom etdi va 1071-yilda Alp Arslon Malazgirt urushi bilan Sharqiy Onado'li eshiklarini o'g'uzlarga ochib berdi.

XI asrdan e'tiboran Onado'li turklashasha boshladi. Bu davrdagi til *Eski Onado'li turkchasi*, deb nomlanib, uch davrni o'z ichiga oladi:

1. Saljuqiylar davri (XI-XIII asrlar)
2. Bekliklar davri (XIV asr)
3. Usmonlilar davri (XV asrning o'rtalarigacha)

XI asrda Saljuqiylar saltanat boshqaruvida fors tili, din va ilmida esa arab tili qo'llanilar edi. Xalqning so'zlashuv tili bo'lgan turkcha "qo'pol" bir til sifatida kamsitilib kelindi. Mo'g'ul istilosi tufayli Onado'liga qochgan fors tilli jamoalar ham fors tili nufuzining yana-da oshishiga sezilarli ta'sir o'tgazgan. Bu davrdagi turk tili arab va fors tillaridan ayrim yangi unsurlarni o'zlashtirgan bo'lsa-da, tashqi ta'sirlarga deyarli uchramaganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, mazkur davrda XIII asrdagi uyg'ur alifbosining imlo xususiyatlari va Sharqiy turkchanning tovush va tuzilish xususiyatlari keng tarqalganligi kuzatiladi.

Saljuqiylar saltanati o'rminga usmoniy sultonlar kelgandan so'ng (XIV asr) turk tili rivojlana boshladi. Saljuqiylardan so'ngra Onado'lida shakllangan Bekliklar boshqaruvida bir tillilik hukmron edi. Bekliklar davrida turk tili saroy tili sifatida adabiy til maqomiga ko'tarildi. Bu davrda qo'llanilgan til o'g'uz shevalarining aralashuvi natijasida yuzaga kelgan

bo'lib, u fonetik, leksik, sintaktik va imlo nuqtayi nazaridan kodlangan, standart bir til emas edi.

Eski Onado'li turkchasi sharqiy o'rta turkchani, ya'ni O'rta Osiyodagi uyg'ur adabiy tilining kuchli ta'siri ostida bo'lgan. XV asrga kelib Usmonli davlatining ilk davrlarida turk tili sof o'g'uzcha unsurlar bilan maydonga chiqa boshladi. Usmonli turkchasi mahalliy bir til holatidan turli shevalarda so'zlashadiganlar orasida aloqa vositasi darajasiga ko'tarildi. Standart til darajasiga chiqa olmagan bo'lsa-da, har holda, ilmiy va boshqaruvda bu tildan istifoda etildi.

XVI-XVII asrlarda imperiya tili holiga kelgan turk tili, ya'ni *klassik usmonli turkchasi* arab va fors tillarining kuchli ta'siri ostida qoldi. Saroy adabiyotida arab va fors tillari tovush tizimi hamda sintaktik qurilishi ustuvorlik qila boshladi. Bu xalq og'zaki ijodiga ham ta'sir ko'rsatdi. Til ikkiga – aslzodalar va avom xalq so'zlashadigan turkchaga ajraldi.

7. 4. Chet tillarining ta'siri

Turk tilining tarixiy rivojlanishida boshqa tillarning ta'siri ham salmoqli bo'lgan. Qadimgi davrlarda turk tiliga arab va fors tillaridan qator so'zlar o'zlashgan bo'lsa, keyingi davrlarda yunon, italyan, nemis, ingliz va fransuz tillaridan so'z o'zlashishi faol bo'lgan. Bugungi kunga kelib *iskele, iskelet, masa, dosya, gapka, rol, sol* va h.k. o'zlashmalar tilga o'z so'zlardek singib ketgan. Turkiyada chet tillarning yoyilishini quyidagi davriy chizmada ko'rish mumkin:

1773-yilgacha	1773-1923	1923-1950	1950-1980	1980-yildan keyin
Arab	Arab	Fransuz	Ingliz	Ingliz
Fors	Fors	Ingliz	Fransuz	Nemis
Turk	Fransuz	Nemis	Nemis	Fransuz
	Ingliz	Arab	Arab	Arab
	Nemis		Fors	Fors

7. 4. 1. Ingliz tilining Turkiyada tarqalishi

Turklarning inglizlar bilan aloqasi 1530-yillarda Usmoniylar saltanatining Angliya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yishi vositasida boshlangan. O'sha davrda Istanbul va Izmirda yunonlar, yahudiylar va armanilar tarjimonlik qilishgan. Shuning uchun ham savdo sohasidagi hamkorlar bir-birlarining tillarini o'rganishmagan.

XVIII asrga kelib turk musulmonlari xorijiy tillarni o'rganish va egallashga kirishgan. Bu davrda fransuz tilidan tijorat va diplomatiya tili sifatida foydalanila boshlangan. Hatto, Angliya elchisi ham ingliz tilida malakali tarjimon bo'lmaganligi sababli Usmoniylar davlati bilan bitimni fransuz tilida tuzgan.

Usmoniylar davlatining AQSh bilan savdo aloqalari 1830-yildan boshlangan. Bu davrda AQSh missionerlariga mamlakatda maktablarni ochish huquqi berilgan. 1908-yildan boshlab davlat maktablarida ingliz tilini o'qitish yo'lga qo'yilgan. Xalqning asosiy qismi savodsiz bo'lganligi tufayli ingliz tilini faqat etnik jihatdan ozchilikni tashkil qilgan zodagonlarning bolalariga o'rgana olar edi.

Usmoniylar saltanatining inqirozga yuz tutishi va 1923-yilda jumhuriyatning qurilishi bilan bu vaziyat keskin o'zgardi. Aholining 6% savodli bo'lgan bu davrda hukumat asosiy e'tiborini ta'lim sohasiga qaratdi.

1924-yildan boshlab g'arb tillari majburiy ta'lim predmetiga aylantirildi. 30-40-yillardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat oliy ta'limda ham o'z aksini topgan bo'lib, bu davrlarda fransuz va nemis tillarining ingliz tilidan ustunligi sezilib turar edi.

50-yillarga kelib turk tilidagi savodxonlik darajasi ancha oshdi. Shu bilan birga, AQShning yordami bilan Turkiyada qator maxsus ingliz o'rta maktablari yuzaga keldi. Turkiya Jumhuriyatining tashkil topishi (1923)dan keyin modernizatsiya va g'arblashtirish harakatlari mamlakatning Yevropa davlatlari bilan aloqalarini kuchaytirgan bo'lsa, 50-yillarga kelib bu aloqalar susaydi, aksincha, AQShning ta'siri har tomonlama kuchaydi. Bu, o'z navbatida, ingliz tilini xalqaro til sifatida maydonga chiqardi. Ingliz tilida so'zlashuvchilarning iqtisodiy va harbiy jihatdan hukmronligi mazkur tilning jahon miqyosida globallashtirishga olib keldi.

XX asrning 80-yillaridan keyin xalqaro aloqalarning jadal rivojlanishi Turkiyada ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yana-da orttirdi. Ba'zi salohiyatli universitetlarning yo'riqnomalari, e'lonlari ingliz tilida berila boshladi. Bu tildagi matnlarni o'qiy olmaganlar, tabiiyki, unda inuloqotga kirisha olmas edilar. Barcha sohalarida biron muvaffaqiyatga erishish ingliz tilini mukammal egallashni taqozo qilar edi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1987-1988-o'quv yilida Turkiyada 193 ta ingliz, 15 ta nemis, 11 ta fransuz va 2 ta italyan o'rta maktabi mavjud bo'lgan.

7.4.2. Ingliz tilining Turkiyadagi roli va vazifasi

Bugungi kunda ingliz tilining Turkiyadagi roli va vazifasi haqidagi so'zni ingliz tili dixotomiyasi bo'lgan "ingliz tili ikkinchi til sifatida" *English as a Second Language* (ESL) va "ingliz tili chet tili sifatida" *English as a Foreign Language* (EFL) iboralari bilan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Turkiya "ingliz tili chet tili sifatida" (EFL) iborasiga yaxshi misol bo'la oladi. Ayrim mamlakatlardan farqli o'laroq, Turkiyada ingliz tili rasmiy til yoki ikkinchi til hisoblanmaydi. Shuningdek, ingliz tili mustamlakachilar tili yoki missionerlar tili ham emas. Ingliz tili oliy o'quv yurtlarida keng o'qitilsa-da, u institutlashtirilmagan, ya'ni oliy ta'limning

birlamchi tili funksiyasini olmagan. Ingliz tili ta'limning xususiy sektori (xalqaro biznes, turizm sanoati)da hukmronlikka ega.

Zamonaviy texnologiya, kompyuter va internet tizimining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi turk tili leksikasiga qator inglizcha terminlarning kirib kelishiga olib keldi. Xususan, *disk, disket, modem, script, webcam, scanner, printer, camera, server, website* kabi o'zlashmalar shular jumlasidandir. Shunga qaramay, Turk tili jamiyatining sa'y-harakatlari bilan inglizcha so'zlarning turkcha muqobillari iste'molga kiritilmoqda. Masalan: *computer-bilgisayar, internet-genel aq, digital-sayisal, download-yuklemek, webpage-web sayfa, save-kaydetmek, mouse-fare, speaker-hoparlör* va h.k.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Turkiyadagi til islohotlari qanday davrlarga ajratiladi?
2. Jumhuriytdan oldingi til islohotlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat edi?
3. Eski Onado'li va usmonli turkchasining yozuvida qaysi alifbo qo'llanilgan?
4. Eski Onado'li va usmoniylar davridagi adabiy tilning rivojlanishida qaysi yozuv an'analari muhim rol o'ynagan?
5. Turkiyada lotin alifbosi qachon va kim tomonidan qabul qilingan?
6. Lotin alifbosining qabul qilinishi bilan turk tili qanday afzalliklarga ega bo'ldi?
7. Turk tili jamiyati (TDK) nechanchi yilda va kimning tashabbusi bilan tashkil topdi?
8. Turk tili jamiyati qaysi maqsadlarda tashkil qilindi?
9. Tilni rivojlantirishda Otaturkning xizmatlari qanday bo'ldi?
10. "Quyosh til nazariyasi" kim tomonidan taklif qilindi?
11. "Quyosh til nazariyasi" qanday ta'limot edi?
12. Turkcha majburiy familiya olish qonuni qachon qabul qilindi?
13. Muallimlar uyushmasining Birinchi til qurultoyi qachon chaqirildi?
14. Turkiyada sotsiolingvistikaning vujudga kelishining asosiy omili nima edi?
15. 1980-1983-yillarda turk tili yozuvida sodir bo'lgan ostin-ustunlikning sababi nima edi?
16. Turkiyada tom ma'nodagi sotsiolingvistik tadqiqotlar nechanchi yillarda yuzaga kela boshladi?
17. K.Imerning sotsiolingvistik tadqiqotlarida qaysi masalalar o'rganildi?
18. Turk sotsiolingvistlari eng ko'p qiziqqan muammo nima edi?

Adabiyotlar

1. Basxkan Ö. Turkish language reform. In G. Renda and C.M. Kortepeter // The Transformation of the Turkish Culture-The Atatürk Legacy Princeton, NJ: Kingston Press, 1986. - P. 95-111.
2. Demircan Ö. Dünden Bugüne Türkiye’de Yabancı Dil. -İstanbul: Remzi Kitabevi, 1988.
3. Demir N., Yılmaz E. Türk Dili. -Ankara. Grafiker Yayıncılık, 2003.
4. Doğançay-Aktuna S. An evaluation of the Turkish Language Reform after 60 years // Language Problems & Language Planning. 1995. Vol. 19 – P. 221-249.
5. Doğançay-Aktuna S. English in Turkey: Impact on language teaching and on Turkish. Paper presented in the 29th International Annual Conference of Teachers of English as a Foreign Language (IATEFL), 9-12 April 1995, -York, England.
6. Gallagher C.F. Language reform and social modernisation in Turkey. In J. Rubin and B.H. Jernudd (eds). Can Language be Planned? -Honolulu: University of Hawaii Press, 1971. -P 159-178.
7. Heyd U. Language Reform in Modern Turkey. -Jerusalem: Israel Oriental Society, 1954.
8. İmer K. Türk Dil Devrimi. -Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1976.
9. İmer K. Toplumsal dilbilim: Dilbilim ve Dilbilgisi Konuşmaları. I. -Ankara, 1980. - S. 157-166.
10. İmer K. Dil planlaması sürecinde yazım sorunları // Lefke Türküsü. -N 3, 2002. -S.39-43.
11. Korkmaz Z. Sosyolinguistik Değişim Açısından Günümüz Türkiye Türkçesi Üzerine (Das Türkei Türkische im Hinblick aue Seinen Sozilinguistischen Wandel). BAL-TAM Türklük Bilgisi № 5, 2004.
12. Özkan N. Türk Dünyası. Nüfus Sosyal Yapı Dil Edebiyat. -Kayseri: Geçit Yayınları, 1997.
13. Sebüktekin H. Yüksek Öğretim Kurumlarımızda Yabancı Dil İzlenceleri. -İstanbul: Boğaziçi University Publications, 1981.
14. Tankut R. Güneş-Dil Teorisine Göre Toponomik Tetkikler. -İstanbul: Devlet Basımevi, 1936.
15. Türk ve Türklük. -Ankara: Türk Standardları Enstitüsü, 1994.
16. Усмонова Ш. Корейс ва туркий тилларда ундалмалар// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. -Тошкент: “Университет”, 2004.
17. http://www.sonsayfa.com/author_article_detail.php?id=2873.

8-MA'RUZA

YAPONIYA SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Yaponiyadagi til siyosati
2. Yapon alifbosi (iyerogliflar va kana)
3. Yapon tilining hurmat shakllari
4. Yapon tilining gender xususiyatlari
5. Yaponiyada sotsiolingvistika

Tayanch soʻzlar: bungo tili, kogo tili, qurama dialekt, guruh, muloqot shakllari, “oʻziniki”, “begona”, urgʻu, ozchilik tili, milliy gʻurur, iyeroglif, kana, xiragana, katakana, furigana, keygo hurmat shakllari, murojaat shakllari, gonorativ, tengsizlik, samuray.

8.1. Yaponiyadagi til siyosati

8.1.1. Adabiy tilning shakllanishidagi omillar

Maʼlumki, 1867-1868-yillardagi burjuaziya inqilobi Yaponiya tarixida keskin burilish yasadi. Bundan keyingi davr yapon kapitalizmining shakllanishi va rivojlanishi, yapon milliy madaniyatining faol yevropalashtirilishi bilan tavsiflanadi. Tabiiyki, feodal tuzumiga xos baʼzi eski jihatlar yangi rivojlanish bosqichiga dadil qadam qoʻygan jamiyat munosabatlariga mos kelmas edi. Zudlikda hal qilinishi kerak boʻlgan ana shunday muammolardan bir yapon tili masalasi edi.

Feodal Yaponiya uchun ayni tuzumga oid davlatlarga xos boʻlgan xususiyat, yaʼni jonli soʻzlashuv tili va adabiy til oʻrtasida jarlikning mavjudligi edi. Yaponiya aholisi bir-biridan farqlanadigan koʻp sonly qishloq va shahar dialektlarida soʻzlashar edi. Chekka hududlardagi dialektlarning egalari bir-birlarini tushunmas edilar, zero, u paytda umumtil tizimi mavjud emas edi¹.

Yaponiyada XIX asrning ikkinchi yarmigacha eski yozuvli yapon tili yoki *bungo* (mazkur termin golland tilidan kalkalangan boʻlib “adabiy til” maʼnosini anglatadi – Sh.Usmanova) yagona adabiy til sifatida mavjud edi. Bungo bilan bir qatorda XIX asrgacha rasmiy hujjatlar va Konfutsiy taʼlimotida yaponlashtirilgan xitoy tilidan (*kambun*, deb nomlangan) foydalanilgan. Bungo Xeyan (IX–XII) davrida oʻsha paytdagi Yaponiyaning poytaxti Kioto dialekti asosida shakllangan. Dastlab bungo poytaxtning oliy ijtimoiy tabaqalari tilidan juda oz farq qilgan, biroq vaqʼt oʻtishi bilan asta-sekin ogʻzaki nutq va yozuv tili orasidagi farq sezila

¹ Аппатов В. М. Япония: язык и общество. –М.: “Муравей”, 2003 (электрон вариант).

boshlagan. Ogʻzaki nutq kodlashmagan, uning asosidagi til esa doimo oʻzgarib turgan.

Bungo tili butun Yaponiyada qoʻllanilgan, unda badiiy asarlar, keyinchalik ayrim ilmiy asarlar yaratilgan. Mashhur yapon yozuvchilari Ixara Saykaku, Tikamatsu Mondzaemon, Dzippensya Ikku va h.k. oʻsha davr soʻzlashuv tili unsurlarini oʻz asarlariga kiritgan boʻlsalar-da, asarlarining tili bungo boʻlgan¹. 1867-1868-yillardagi burjuaziya inqilobigacha yapon tilining bungodan boshqa barcha shakllari hududiy chegaralangan edi. Bu mamlakatning katta qismida, xususan, qishloq joylarida dialektlararo muloqotga ehtiyoj boʻlmaganidan dalolat beradi.

XVII–XIX asrlargacha Yaponiyada dehqonlarning yer bilan band boʻlishi hamda aholining aksariyat qismi uchun bir joydan boshqa joyga koʻchishning taʼqiqlanganligi dialektlar tarqalishining toʻxtashiga olib keldi. Oʻsha davrda Yaponiyada faqat uchta tilgina (bungo bundan mustasno – Sh.Usmanova) oddiy dialekt sifatida qoʻllanish doirasidan chiqqan edi.

Birinchisi, anchayin istiqbolli boʻlgan Kioto dialekti edi. Bu xususiyatni XVI–XVII asrlarda Yaponiyaga dastlab kelgan xorijliklar ham qayd qilgan edilar. Ushbu dialekt Kioto tashqarisida ham tanilib, XVI asrning oxirlari va XVII asrning boshlarida undan badiiy asarlar yaratishda foydalanishga urinishlar boʻlgan. Biroq Edoning Yaponiyaning iqtisodiy va siyosiy markazi sifatiga maydonga chiqishi, adabiy tilning Kioto dialekti asosida shakllanishini toʻxtatib qoʻydi.

Ikkinchisi, Syuri (hozirgi Okinava – Sh.Usmanova) dialekti boʻlib, u Ryukyu orollarida dialaktlararo muloqot vositasi sifatida qoʻllanilgan. Orollarning mustaqillik (1429–1609) va undan keyingi yarim mustaqillik davrlarida (1609–1872) Syuri dialekti asosida muayyan til standarti shakllandi. Okinavacha yozilgan adabiy matnlar paydo boʻldi. Biroq mazkur standartning shakllanishi XIX asrning oxirida Yaponiyaning yagona adabiy tiliga qaratilgan umumdavlat til siyosati tufayli toʻxtab qoldi.

Uchinchisi, Edo (hozirgi Tokio – Sh.Usmanova) dialekti edi. Bu anʼanaviy atalishda noaniqlik mavjud. Chunonchi, bir tomondan, mazkur til shakli butun Edo (1868- yildan Tokio)da emas, balki uning ijtimoiy jihatdan oʻziga toʻq boʻlgan gʻarbiy, togʻlik qismidagina (Yamanote) qoʻllangan. Sitamati shahrining bir qismidagi sharqiy sheva bugungi kungacha saqlanib qolgan oʻziga xos xususiyatlarga egadir. Ikkinchi tomondan, Edo dialekti, koʻproq kelib chiqishiga koʻra turli unsurlarni oʻz

¹ Сыромятников Н. А. Развитие новояпонского языка. -М., 1978. -С. 14-30.

ichiga olgan qurama dialekt edi¹. Edo qurama dialekti edolik samuraylarning tili bo'lgan. Shuningdek, Tokio yuqori qismining tili; yapon standart tili sanalgan.

Kapitalizmga ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi, jumladan, yagona bozorning shakllanishi, aholi ko'chishlarining o'sishi, kishilar o'rtasidagi aloqaning kengayishi, madaniyat, fan va texnikaning rivojlanishi Yaponiyaning barcha aholisi muloqot qila oladigan tilni vujudga keltirishni shart qilib qo'ydi. Bunday tilni shakllantirish masalasida turlicha fikrlar o'rtaga tashlandi. Ayrimlar, hatto, yapon tilidan voz kechib, uning o'rniga ingliz tilini qo'llashni, boshqalar esa bungo tilini saqlab qolishni taklif qilishdi.

Xullas, yagona yo'l – so'zlashuv tili asosidagi adabiy tilni shakllantirish bo'ldi. Yangi adabiy til boshlang'ich davrida Tokio qurama shevasi asosida shakllandi. Unga bungo tilining ham ta'siri sezilarli bo'ldi. Yangi adabiy til "kogo" ("so'zlashuv tili"), deb nomlandi. Ushbu til Ikkinchi jahon urushigacha faol qo'llanildi. Hozirda u kam uchraydi. Umuman, "kogo-bungo" hozirda dolzarbligini yo'qotgan. Adabiy til boshqa dialektlardan va kodlashmagan shakllardan farqli o'laroq, "xyodzyungo" ("standart til") yoki (keyingi paytda ko'proq) "kyotsugo" ("umumiy til") nomi ni olgan.

Yaponiyada yarim asr davomida ikkita adabiy til - bungo va kogo qo'llanib kelindi. Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda tilni me'yorlashtirish vazifasi bilan darsliklar va grammatika kitoblarini tasdiqlash vakolotiga ega bo'lgan Ta'lim vazirligi shug'ullandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyada tilni me'yorlashtirish muammosi keskinlashdi. Bu masalaga umumdavlat vazifasi sifatida qaraldi va uni hal qilish uchun yetakchi tilshunos olimlar jalb qilindi. 1948-yilda Ta'lim vazirligi qoshida me'yorlashtirish faoliyatining markazi hisoblangan Yapon tili instituti tashkil qilindi. Urushdan keyin 10-15 yil ichida birinchi marta adabiy til me'yorlari ishlab chiqildi.

8.1.2. Adabiy tilning tarqalishi

1945-yildan e'tiboran hozirgi yapon adabiy tili Yaponiyaning yagona rasmiy tili maqomini oldi. Adabiy til tizimi, birinchidan, yapon tilining kodlashmagan shakllari bo'lgan hududiy va ijtimoiy dialektlariga; ikkinchidan, qo'llanishi chegaralangan bungo tiliga; uchinchidan, ozchilik tiliga, ya'ni koreys va yo'qolib borayotgan ayn tiliga; to'rtinchidan, ingliz tiliga qarshi qo'yildi.

Umuman, hozirgi Yaponiya aholisining deyarli barchasi u yoki bu darajada adabiy tilni biladi. Adabiy til tarqalishining asosiy manbalari maktab va ommaviy axborot vositalari hisoblanadi.

¹ Алпатов В. М. Япония: язык и общество. – М.: "Муравей", 2003 (электрон вариант).

Bugungi kunda Yaponiya o'rtta ma'lumotning tarqalishi jihatidan rivojlangan kapitalistik davlatlar orasida oldingi o'rinda tiradi (mamlakat aholisining deyarli barchasi savodli)¹. Hozirda to'liqsiz o'rtta ma'lumotni (to'qqiz yillik) aholining deyarli barchasi, to'liq o'rtta ma'lumotni (o'n ikki yillik) esa, erkaklarning – 93,2%, ayollarning – 94% egallashiga erishilgan.

Ommaviy axborot vositalari aholiga adabiy til ta'irini o'tkazishda ikkinchi yetakchi manba sanaladi. Ma'lumotlarga ko'ra, anketa-so'rovnoma qatnashchilarining faqat 3,6% gina umuman gazeta o'qimaydi, zamonaviy yapon millati vakili gazeta o'qishga o'rtacha 44,1 daqiqa, kitob o'qishga 24,8 daqiqa, jurnal o'qishga 16,8 daqiqa sarflaydi (Simbun. 1984. № 1. -B. 59).

Yaponlarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi (ayniqsa, transportda – Sh.Usmanova) xorijlik, xususan, amerikalik kuzatuvchilar tomonidan ham qayd qilingan. Jurnallar, xususan, ayol jurnallarining soni va tiraji juda katta adadni tashkil qiladi. Yapon oilasi bir oyda o'rtacha 5,7 jurnal oladi.

Ayni chog'da yaponlar ko'p vaqtini televideniya dasturlarini ko'rish bilan o'tkazishadi. 1983-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, so'rovnomada ishtirok etganlarning 2,8% gina, umuman, teleko'rsatuvlarni tamosha qilmaydi. Teleko'rsatuvlarni ko'rish uchun kuniga o'rtacha 144,9 daqiqa (60 yoshdan kattalar 172,1 daqiqa) sarflanadi (Simbun 1984. № 1. -B. 60).

8.1.3. Adabiy til va dialektlar

Adabiy tilning keng tarqalishi dialektlarning yo'qib ketishiga olib kelmadi. Yapon dialektologi V. A. Grotersning qayd qilishicha, Yaponiyada hududiy dialektlar ilgorigidek "oilaviy alqqa vositasi" bo'lib xizmat qilmoqda. Oilada yapon bolalari maktabgacha faqat dialektlarda gaplashishadi². O'rtta yoshdagi yapon bir-biridan keskin arq qiladigan ikki, hatto, uch til tizimida (chet tilini hisobga olmaganida) so'lashadi.

Yaponiyaning sharqidagi Okinava va Kyusyu dialektlari adabiy tildan keskin farq qiladi. Xonsyu sharqiy dialekti ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tokio, Osaka va Kioto, shuningdek, Xokkaydo atrofidagi tumanlarning dialektlari va shevalari adabiy tildan oz farqlanadi³.

Bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish ijtimoiylikka bog'liq. Yapon dialektlarining turg'unligini ko'proq yapon an'anaviy madaniyatining

¹ Березина Ю. И. Особенности и социальные последствия научно-технического прогресса в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. - М., 1985. - С. 11.

² Grootaers W. A. (with T. Shibata). Dialectology and Sociolinguistics: a General Survey // *lingua*. Vol. 57. No 2-4. 1982. - P. 329, 338.

³ Экота Милути. То:кё:ситамати-кисицу то соно котаба-си-рич. 3 (Характер токийского Ситамати и описание его словарного состава. Ч. 3) // То:кё:сейтоку-танки-дайгаку-кю: (Записки колледжа Сейтоку в Токио). - № 17, 1984.

o'ziga xos xususiyatlari, yapon jamiyatining "o'ziniki-begona" qaramaqarshiligining roli kattaligi bilan izohlash mumkin.

Y.M. Dyakonovanning yozishicha, Yaponiyadagi "individum-guruh" munosabatlari, aksariyat tadqiqotchilar qayd qilganidek, g'arbnikidan farq qiladi. Yapon uchun guruhning qarashlari, qiziqishlari nihoyatda muhim, u "hammadek bo'lishga" intiladi. Guruh yaponlarning xulqiga va dunyoqarashiga katta ta'sir ko'ratadi. Yaponlar "guruh" tushunchasini ko'pincha keng ma'noda talqin qilishadi: guruh - oila, kollej, firma, marllakat bo'lishi mumkin¹.

Yaponiyada dialekt muayyan ma'noda hududiy, ba'zan ijtimoiy guruhlarining birlashish vositasi sanaladi. Dialekt "o'zinikilar" bilan tabiiy muloqot qilish shaklidir. Suhbatdoshga "o'ziniki", deb qarash qanchalik kuchli bo'lsa, unga shunchalik ko'p dialektda murojaat qilinadi. Biroq notanishlar, ayniqsa, chet elliklar bilan adabiy tilda muloqot qilinadi².

Mashhur rus tilshunosi Y.D. Põivanov Nagasaki dialektini o'rganish jarayonida uni shunchalik yaxshi o'zlashtirib olgan ediki, hatto, unda bemalol gapira olgan. Biroq mazkur holat mahalliy aholida salbiy munosabat uyg'otgan³. Yapon jamiyatida har qanday vaziyatda ham xorijlikni "o'ziniki" hisoblash mumkin emas.

Yapon tilidagi dialektning eng tug'un xususiyati - aksentuatsiya (urg'u) sanaladi. Odatda, bu tilning egalar bir umrga bolalikdan ko'nikkan urg'uni saqlab qoladilar. Informantlarni ommaviy tadqiq qilish natijalari, hatto, yashash joyi o'zgarganda ham ona urg'usi turg'unligining saqlab qolingani ko'rsatgan⁴. Shuningdek, urg'u kishning qayerdanligini, kelib chiqishini ifodalovchi ko'rsatgich hisoblandi.

Ilgari dialektlarning istiqboli yo'q saralgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularga katta ahamiyat berilmoqda. Dialektlar yaponlarning milliy g'ururi va iftixori sanaladi. Shuning uchun ularni saqlash zarurligi uqtiriladi. Maktab dasturlariga mahalliy dialekt kurslari kiritilgan. O'quvchilarga dialektni to'g'ri qo'llash va uning adabiy til bilan farqlari tushuntiriladi. Teleko'rsatuvlarda ham bu masalalar muhokama qilinadi. Hatto, ayrim radioeshittirishlarni ham dialektlarda olib borish keng tarqalib bormoqda.

¹ Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. - М., 1985. - С. 97, 99.

² Алпатов В. М. Япония: язык и общество. - М.: "Муравей", 2003 (электрон вариант).

³ Сугито Миско. Нагасакискэн-мизмура-ни окэру Норива: по-фу (Поливанов в деревне Миз префектуры Нагасаки) // Осака-сэ: ин-дзеси-дайгаку-ронсю: (Труды женского колледжа Осака-сэин). - № 20. - Осака, 1983. - С. 199.

⁴ Сугито Миско, Оку мурэ Аяко. Оя-но хо-тэн-акү-сэито-га кодомо-но акүсэнтюката-но хацува-ни атару ойкэ: (Влияние, оказываемое диалектной акцентуацией родителей на акцентное произношение детей) // Осака-сэ ин-дзеси-дайгаку-ронсю: - № 21, 1984.

8.2. Yapon alifbosi (iyerogliflar va kana)

Yaponiyada xitoy iyerogliflari va belgining ma'nosiga bog'liq bo'lmagan tovushni ifodalaydigan yapon alifbolari – *xiragana* va *katakana* (bu alifbolarning umumiy nomi *kana* – Sh.Usmanova) aralash yozuvi qo'llaniladi. Tabiiyki, yapon yozuvida iyerogliflar muhim rol o'ynaydi. Yapon tilidagi har qanday matn iyerogliflar, *xiragana* va *katakana* belgilaridan iborat bo'ladi. Yozuvning faqat bir turi bilan bitilgan matnlar juda kam uchraydi: sof *katakanada* an'anaviy tarzda telegrammalar jo'natiladi; sof *xiragana* eng kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan kitoblarda ko'zga tashlanishi mumkin, biroq unda ham oddiy iyerogliflar uchraydi; sof iyeroglifka ko'cha reklamalari, peshtoq yozuvlari, plakatlarda uchrashi mumkin, lekin bu yerda ham har ikki alifbodan birining ishlatilishi ehtimoldan xoli emas.

Bunday murakkab yozuv tizimining shakllanishi tarixiy bo'lgan. Yaponlar VI-VIII asrlargacha xitoy tilidan o'zlashtirilgan iyerogliflardan foydalanganlar va ularning bu davrlargacha o'z yozuvlari bo'lmagan. Ammo sof iyeroglif yozuvi boy grammatik ko'rsatkichlari bilan, xitoy tilidan farq qiladigan yapon tili uchun noqulay bo'lgan. Shuning uchun ham VIII asrdan e'tiboran fonetik yozuv tizimi vujudga kela boshladi. Dastlab bu maqsadda ba'zi iyerogliflardan foydalanildi, keyin ularning asta-sekin kana belgilariga o'tkazilgan, qisqargan variantlari qo'llanildi. IX asrda vujudga kelgan *xiragana* va *katakana* sekin-asta boshqa alifbolarni siqib chiqara boshladi.

O'rta asrlargacha sof iyeroglifikadan tortib sof kana (iyeroglifikani o'rganmagan ayollar tomonidan qo'llanilgan yozuv)gacha bo'lgan turli yozuv tizimlaridan foydalanildi. Biroq aralash yozuv ustun kela boshladi va XIX asrdan boshlab amaldagi yagona yozuv maqomini oldi.

Odatda, yapon yozuvi (xitoy yozuvi singari) yuqoridan pastga yoziladi, ustunlar o'ngdan chapga qarab o'qiladi. Keyingi yillarda ayniqsa, sarlavhalar qator yo'nalishida, shuningdek, o'ngdan chapga yozila boshladi. Hozirgi kunda G'arbning ta'sirida chapdan o'ngga yo'nalishdagi qator yozuvlar ham paydo bo'lib, u o'ngda chapga yo'nalgan gorizontal yozuvni qo'llanishdan deyarli siqib chiqardi.

Yapon yozuvinin yana bir o'ziga xos xususiyati furiganadir. U iyeroglifdan yoki bir nechta iyerogliflardan o'ng (gorizontal yozuvda - yuqori)da kana belgilari (o'zlashmalar uchun *katakana*, boshqa holatlar uchun *xiragana*)ning yozilishi bilan tavsiflanadi.

Furigana matnga tushunilishi qiyin bo'lgan so'z (odatda, chet tilidagi)larni kiritish uchun xizmat qilishi mumkin. Bu o'rinda kana emas, aksincha, iyeroglif tushuntirish xususiyatiga ega bo'ladi. Shuningdek,

furigana badiiy ifodani kuchaytirish va soʻz oʻyini uchun qoʻllaniladi. Umuman, Yaponiyada sof grafik soʻz oʻyini juda keng tarqalgan.

8. 3. Yapon tilining hurmat shakllari

Yapon tilining oʻziga xos xususiyatlaridan biri *keygo*, deb nomlanadigan hurmat shakllaridir. Hurmat shakllari soʻzlashuvchi va uning suhbatdoshi oʻrtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarning tildagi ifoda vositasini anglatadi. Hurmat shakllari tilning boshqa unsurlariga nisbatan koʻproq jamiyatdagi vaziyatlarga bogʻliq boʻlib, undagi oʻzgarishlar toʻgʻridan-toʻgʻri til oʻzgarishlarida aks etadi.

Hurmat shakllarining grammatik tizimi avvalo, feʼlda, shuningdek, kesimlik (predikativlik) aloqasida kuzatiladi. Ushbu grammatik kategoriyalaridan biri adressiv – suhbatdoshga munosabat bilan bogʻliq. Hurmat shakllari *-ma* qoʻshimchasi bilan ifodalanadi va “oʻta hurmat” shakllari chegaralangan boʻladi. Oddiy shakllar (hurmat ifodalanmagan) suhbatdosh mavjud boʻlmagan yoki u nomaʼlum (ilmiy adabiyot, badiiy adabiyotdagi muallif matni, gazeta xabarlarining asosiy qismi) boʻlgan hollarda qoʻllaniladi. Ayniqsa, buyruq mayli shakllari tizimi oʻzining boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, “oʻqi!” maʼnosi *yome yome* (juda qoʻpol, shiorlar va buyruqlarga xos), *yonde kure* (biroz qoʻpol, odatda, quyi tabaqadagilarga nisbatan), *yonde o-kure* (quyi tabaqadagilarga nisbatan qoʻpollik ozroq yumshatilgan), *yonde yare* (qoʻpol, “oʻqi uchinchi shaxsga” qoʻshimcha komponent bilan), *yonde* (qoʻpol yoki betakalluf), *o-yomi*, *yonde today*, *yomi-nasay*, *yomitamae* (betakalluf), *o-yominasay* (qisman hurmat), *yonde kudasay* (standart hurmat shakli), *o-yomi kudasay* (qoʻshimcha ohangli xushmuomala taklif), *o-yomi kudasaimasi*, *o-yomi kudasaimase* (oʻta hurmat), *o-yomi asobase* (oʻta sermulozamat, hozir eskirgan) singari shakllar bilan ifodalanishi mumkin¹.

Ikkinchi kategoriya gonorativ – subyekt yoki feʼl bilan ifodalangan harakat va holat obyektiga munosabat bilan bogʻliq. U hurmat-subyekt (ehtrom), hurmat-obyekt (oddiy) va neytral (maxsus koʻrsatkichlari boʻlmagan, asosan, predmetlarga nisbatan qoʻllaniladi) shakllar bilan ifodalanadi. Hurmat-obyekt shakllari harakat subyektini soʻzlovchining oʻzi yoki u bilan juda yaqin munosabatdagi kishilar, masalan, oila aʼzolari boʻlgandagina ishlatiladi.

Xullas, yapon tilidagi hurmat shakllarining grammatik va leksik tizimi yaxshi rivojlangan boʻlib, u yapon jamiyatidagi mavjud turli ijtimoiy munosabatlar differentsiatsiyasini batafsil yoritib berishga xizmat qiladi. Yapon tilida lisoniy vositalarning miqdori behisob boʻlib, ular ijtimoiy farqliliklarni koʻrsatadi.

¹ Ohso M. Invitation, Polite Order, Personal Request and Begging // P.J.L. Vol. 9. 1983.

Yapon tilida maxsus sotsiolingvistik qoidalar mavjud. Yapon jamiyatida mulqot shakllari ikki ijtimoiy qarama-qarshilik: “yuqori-quyi” va “o‘ziniki-begona” asosida tanlanadi¹.

Birinchi qarama-qarshilik yapon jamiyatidagi u yoki bu turdagi iyerarxik munosabatlar bilan bog‘liq. Yapon tadqiqotchisi Ide Satiko uchta asosiy ijtimoiy qoidani ajratadi: hurmat shakllari ijtimoiy mavqeyi yuqori bo‘lgan shaxslar (boshliqlar, obro‘li kasb egalari, jamiyatning yuqori tabaqali kishilari)ga, yoshi kattalar va yuqori mansabdagilar (hukumat boshliqlari, vrachlar, kreditorlar, xizmat sohasidagi mijozlar va h.k.)ga nisbatan qo‘llaniladi. Birinchi va ikkinchi qoidalar doimiy ravishda, uchinchi qoida esa o‘zgaruvchan bo‘ladi, ya‘ni unda vaziyatga ko‘ra rollar almashinishi mumkin².

“O‘ziniki - begona” belgisi u yoki bu so‘zlashuvchining ba’zi guruhlar tarkibiga kirishi yoki kirmasligi bilan bog‘liq. So‘zlashuvchi sharoitdan kelib chiqqan holda, o‘zini oiladan tortib to davlat doirasidagi guruhlarining vakili sifatida his qilishi mumkin. Bundan shunday umumiy qoida kelib chiqadi: hurmat shakllari begonalarga nisbatan, oddiy shakllar o‘zini kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Biroq shunday istisno holatlar ham uchraydiki, unda ijtimoiy rollarga mos muayyan an’anaviy qoidalarga rioya qilinadi. Ide Satikoning ta’kidlashicha, kerakli murojaat shakllarini tanlashda yuqorida qayd qilingan uch qoidadan oxirgisi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, politsiyachi yoki vrachga murojaat qiluvchining yoshi ulardan katta bo‘lganda ham hurmat shaklida murojaat qilinadi³. Maishiy xizmat sohasidagi yapon sotuvchilari, chiptachilar, bank xodimlari, temir yo‘l xizmatchilari va h.k.ning mijozlarga nisbatan (bolalardan tashqari) “o‘ta takallufli hurmat shakllari”ni qo‘llanishi ham mazkur fikrni quvvatlaydi. Holbuki, xizmat doirasidan tashqarida bu xodimlar aynan shu kishilarga betakalluf murojaat shakllarini qo‘llashlari mumkin. Buni yapon jamiyatidagi an’anaviy xarid qilish, bankka pul qo‘yish, transportda yurish va h.k. mijozning iltifotiga, ya‘ni uning pul to‘lash yoki to‘lamaslik xohishiga qaralishi bilan izohlash mumkin. Shuni ham ta’kidlash joizki, oziq-ovqat tanqis bo‘lgan urush yillarida xarid qilishga iltifot sifatida qaralmagan, sotuvchining xushmuomalalik darajasi tushib ketgan⁴.

Birinchi qoidaga muvofiq, boshliqqa uning yoshi kichik bo‘lganda ham hurmat shaklida murojaat qilinadi. Bu o‘rinda yosh omili ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Ammo Yaponiyadagi ichki ijtimoiy guruhlar

¹ Алнатов В.М. Япония: язык и общество. –М.: “Муравей”, 2003.

² Ide S. Japanese Sociolinguistics’ Politeness and Women’s Language //Lingua. Vol.57.-№ 2-4. 1982.-P.366-368.

³ Ko‘rsatilgan asar, 369-bet.

⁴ Цудзимура Тосики. Гэндай-но кэйго (Современные формы вежливости). –Токио, 1967. – С. 211.

o'ziga xos xususiyatlari, yapon jamiyatining "o'ziniki-begona" qarama-qarshiligining roli kattaligi bilan izohlash mumkin.

Y.M.Dyakonovanning yozishicha, Yaponiyadagi "individum-guruh" munosabatlari, aksariyat tadqiqotchilar qayd qilganidek, g'arbnikidan farq qiladi. Yapon uchun guruhning qarashlari, qiziqishlari nihoyatda muhim, u "hammadek bo'lishga" intiladi. Guruh yaponlarning xulqiga va dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaponlar "guruh" tushunchasini ko'pincha keng ma'noda talqin qilishadi: guruh - oila, kollej, firma, manilakat bo'lishi mumkin¹.

Yaponiyada dialekt muayyan ma'noda hududiy, ba'zan ijtimoiy guruhlarning birlashish vositasi sanaladi. Dialekt "o'zinikilar" bilan tabiiy muloqot qilish shaklidir. Suhbatdoshga "o'ziniki", deb qarash qanchalik kuchli bo'lsa, unga shunchalik ko'p dialektida murojaat qilinadi. Biroq notanishlar, ayniqsa, chet elliklar bilan adabiy tilda muloqot qilinadi².

Mashhur rus tilshunosi Y.D. Po'ivanov Nagasaki dialektini o'rganish jarayonida uni shunchalik yaxshi o'zlashtirib olgan ediki, hatto, unda bemalol gapira olgan. Biroq mazkur holat mahalliy aholida salbiy munosabat uyg'otgan³. Yapon jamiyatida har qanday vaziyatda ham xorijlikni "o'ziniki" hisoblash mumkin emas.

Yapon tilidagi dialektning eng tung'un xususiyati - aksentuatsiya (urg'u) sanaladi. Odatda, bu tilning egalar bir umrga bolalikdan ko'nikkan urg'uni saqlab qoladilar. Informantlarni ommaviy tadqiq qilish natijalari, hatto, yashash joyi o'zgarganda ham ona urg'usi turg'unligining saqlab qolingani ko'rsatgan⁴. Shuningdek, urg'u kishining qayerdanligini, kelib chiqishini ifodalovchi ko'rsatgich hisoblandi.

Ilgari dialektlarning istiqboli yo'q saralgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularga katta ahamiyat berilmoqda. Dialektlar yaponlarning milliy g'ururi va iftixori sanaladi. Shuning uchun ularni saqlash zarurligi uqtiliradi. Maktab dasturlariga mahalliy dialekt kurslari kiritilgan. O'quvchilarga dialektni to'g'ri qo'llash va uning adabiy til bilan farqlari tushuntiriladi. Teleko'rsatuvlarda ham bu masalalar muhokama qilinadi. Hatto, ayrim radioeshittirishlarni ham dialektlarda olib borish keng tarqalib bormoqda.

¹ Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. -М., 1985. -С. 97, 99.

² Аллитов В.М. Япония: язык и общество. -М.: "Муравей", 2003 (электронный вариант).

³ Сугито Миеко. Нагасакискэн-мизура-ни окурэ Порива: по-фу (Поливьяков в деревне Миз префектуры Нагасаки) // Осака-сё-ин-дзесидайгаку-ронсю: (Труды женского колледжа Осака-сё-ин). - № 20. -Осака, 1983. -С. 199.

⁴ Сугито Миеко, Оку муро Аяко. Оя-но хо-тэн-аку-сёто-га кодомо-но акусэнтोकата-но хацува-ни атазру айкэ: (Влияние, оказываемое диалектной акцентуацией родителей на акцентное произношение детей) // Осака-сё-ин-дзеси-дайгаку-ронсю: - № 21, 1984.

8.2. Yapon alifbosi (iyerogliflar va kana)

Yaponiyada xitoy iyerogliflari va belgining ma'nosiga bog'liq bo'lmagan tovushni ifodalaydigan yapon alifbolari – *xiragana* va *katakana* (bu alifbolarning umumiy nomi *kana* – Sh.Usmanova) aralash yozuvi qo'llaniladi. Tabiiyki, yapon yozuvida iyerogliflar muhim rol o'ynaydi. Yapon tilidagi har qanday matn iyerogliflar, xiragana va katakana belgilaridan iborat bo'ladi. Yozuvning faqat bir turi bilan bitilgan matnlar juda kam uchraydi: sof katanada an'anaviy tarzda telegrammalar jo'natiladi; sof xiragana eng kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan kitoblarda ko'zga tashlanishi mumkin, biroq unda ham oddiy iyerogliflar uchraydi; sof iyeroglifika ko'cha reklamalari, peshtoq yozuvlari, plakatlarda uchrashi mumkin, lekin bu yerda ham har ikki alifbodan birining ishlatilishi ehtimoldan xoli emas.

Bunday murakkab yozuv tizimining shakllanishi tarixiy bo'lgan. Yaponlar VI-VIII asrlargacha xitoy tilidan o'zlashtirilgan iyerogliflardan foydalanganlar va ularning bu davrlargacha o'z yozuvlari bo'lmagan. Ammo sof iyeroglif yozuvi boy grammatik ko'rsatkichlari bilan xitoy tilidan farq qiladigan yapon tili uchun noqulay bo'lgan. Shuning uchun ham VIII asrdan e'tiboran fonetik yozuv tizimi vujudga kela boshladi. Dastlab bu maqsadda ba'zi iyerogliflardan foydalanildi, keyin ularning asta-sekin kana belgilariga o'tkazilgan, qisqargan variantlari qo'llanildi. IX asrda vujudga kelgan xiragana va katakana sekin-asta boshqa alifbolarni siqib chiqara boshladi.

O'rta asrlargacha sof iyeroglifikadan tortib sof kana (iyeroglifikani o'rganmagan ayollar tomonidan qo'llanilgan yozuv)gacha bo'lgan turli yozuv tizimlaridan foydalanildi. Biroq aralash yozuv ustun kela boshladi va XIX asrdan boshlab amaldagi yagona yozuv maqomini oldi.

Odatda, yapon yozuvi (xitoy yozuvi singari) yuqoridan pastga yoziladi, ustunlar o'ngdan chapga qarab o'qiladi. Keyingi yillarda ayniqsa, sarlavhalar qator yo'nalishida, shuningdek, o'ngdan chapga yozila boshladi. Hozirgi kunda G'arbning ta'sirida chapdan o'ngga yo'nalishdagi qator yozuvlar ham paydo bo'lib, u o'ngda chapga yo'nalgan gorizontaal yozuvni qo'llanishdan deyarli siqib chiqardi.

Yapon yozuvining yana bir o'ziga xos xususiyati furiganadir. U iyeroglifdan yoki bir nechta iyerogliflardan o'ng (gorizontaal yozuvda - yuqori)da kana belgilari (o'zlashmalar uchun katakana, boshqa holatlar uchun xiragana)ning yozilishi bilan tavsiflanadi.

Furigana matnga tushunilishi qiyin bo'lgan so'z (odatda, chet tilidagi)larni kiritish uchun xizmat qilishi mumkin. Bu o'rinda kana emas, aksincha, iyeroglif tushuntirish xususiyatiga ega bo'ladi. Shuningdek,

furigana badiiy ifodani kuchaytirish va so'z o'yini uchun qo'llaniladi. Umuman, Yaponiyada sof grafik so'z o'yini juda keng tarqalgan.

8. 3. Yapon tilining hurmat shakllari

Yapon tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri *keygo*, deb nomlanadigan hurmat shakllaridir. Hurmat shakllari so'zlashuvchi va uning suhbatdoshi o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarning tildagi ifoda vositasini anglatadi. Hurmat shakllari tilning boshqa unsurlariga nisbatan ko'proq jamiyatdagi vaziyatlarga bog'liq bo'lib, undagi o'zgarishlar to'g'ridan-to'g'ri til o'zgarishlarida aks etadi.

Hurmat shakllarining grammatik tizimi avvalo, fe'lda, shuningdek, kesimlik (predikativlik) aloqasida kuzatiladi. Ushbu grammatik kategoriyalaridan biri adressiv – suhbatdoshga munosabat bilan bog'liq. Hurmat shakllari *-ma* qo'shimchasi bilan ifodalanadi va "o'ta hurmat" shakllari chegaralangan bo'ladi. Oddiy shakllar (hurmat ifodalanmagan) suhbatdosh mavjud bo'lmagan yoki u noma'lum (ilmiy adabiyot, badiiy adabiyotdagi muallif matni, gazeta xabarlarining asosiy qismi) bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Ayniqsa, buyruq mayli shakllari tizimi o'zining boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, "o'qi!" ma'nosi *yome yome* (juda qo'pol, shiorlar va buyruqlarga xos), *yonde kure* (biroz qo'pol, odatda, quyi tabaqadagilarga nisbatan), *yonde o-kure* (quyi tabaqadagilarga nisbatan qo'pollik ozroq yumshatilgan), *yonde yare* (qo'pol, "o'qi uchinchi shaxsga" qo'shimcha komponent bilan), *yonde* (qo'pol yoki betakalluf), *o-yomi*, *yonde today*, *yomi-nasay*, *yomitamae* (betakalluf), *o-yominasay* (qisman hurmat), *yonde kudasay* (standart hurmat shakli), *o-yomi kudasay* (qo'shimcha ohangli xushmuomala taklif), *o-yomi kudasaimasi*, *o-yomi kudasaimase* (o'ta hurmat), *o-yomi asobase* (o'ta sermulozamat, hozir eskirgan) singari shakllar bilan ifodalanishi mumkin¹.

Ikkinchi kategoriya gonorativ – subyekt yoki fe'i bilan ifodalangan harakat va holat obyektiga munosabat bilan bog'liq. U hurmat-subyekt (ehtiromlar), hurmat-obyekt (oddiy) va neytral (maxsus ko'rsatkichlari bo'lmagan, asosan, predmetlarga nisbatan qo'llaniladi) shakllar bilan ifodalanadi. Hurmat-obyekt shakllari harakat subyektini so'zlovchining o'zi yoki u bilan juda yaqin munosabatdagi kishilar, masalan, oila a'zolari bo'lgandagina ishlatiladi.

Xullas, yapon tilidagi hurmat shakllarining grammatik va leksik tizimi yaxshi rivojlangan bo'lib, u yapon jamiyatidagi mavjud turli ijtimoiy munosabatlar differentsiatsiyasini batafsil yoritib berishga xizmat qiladi. Yapon tilida lisoniy vositalarning miqdori behisob bo'lib, ular ijtimoiy farqliliklarni ko'rsatadi.

¹ Ohso M. Invitation, Polite Order, Personal Request and Begging // PJL. Vol. 9. 1983.

Yapon tilida maxsus sotsiolingvistik qoidalar mavjud. Yapon jamiyatida muloqot shakllari ikki ijtimoiy qarama-qarshilik: "yuqori-quyi" va "o'ziniki-begona" asosida tanlanadi¹.

Birinchi qarama-qarshilik yapon jamiyatidagi u yoki bu turdagi iyerarxik munosabatlar bilan bog'liq. Yapon tadqiqotchisi Ide Satiko uchta asosiy ijtimoiy qoidani ajratadi: hurmat shakllari ijtimoiy mavqeyi yuqori bo'lgan shaxslar (boshliqlar, obro'li kasb egalari, jamiyatning yuqori tabaqali kishilari)ga, yoshi kattalar va yuqori mansabdagilar (hukumat boshliqlari, vrachlar, kreditorlar, xizmat sohasidagi mijozlar va h.k.)ga nisbatan qo'llaniladi. Birinchi va ikkinchi qoidalar doimiy ravishda, uchinchi qoida esa o'zgaruvchan bo'ladi, ya'ni unda vaziyatga ko'ra rollar almashinishi mumkin².

"O'ziniki - begona" belgisi u yoki bu so'zlashuvchining ba'zi guruhlar tarkibiga kirishi yoki kirmasligi bilan bog'liq. So'zlashuvchi sharoitdan kelib chiqqan holda, o'zini oiladan tortib to davlat doirasidagi guruhlarining vakili sifatida his qilishi mumkin. Bundan shunday umumiy qoida kelib chiqadi: hurmat shakllari begonalarga nisbatan, oddiy shakllar o'zinkilarga nisbatan ishlatiladi.

Biroq shunday istisno holatlar ham uchraydiki, unda ijtimoiy rollarga mos muayyan an'anaviy qoidalarga rioya qilinadi. Ide Satkoning ta'kidlashicha, kerakli murojaat shakllarini tanlashda yuqorida qayd qilingan uch qoidadan oxirgisi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, politsiyachi yoki vrachga murojaat qiluvchining yoshi ulardan katta bo'lganda ham hurmat shaklida murojaat qilinadi³. Maishiy xizmat sohasidagi yapon sotuvchilari, chiptachilar, bank xodimlari, temir yo'l xizmatchilari va h.k.ning mijozlarga nisbatan (bolalardan tashqari) "o'ta takalluflif hurmat shakllari"ni qo'llanishi ham mazkur fikrni quvvatlaydi. Holbuki, xizmat doirasidan tashqarida bu xodimlar aynan shu kishilarga betakalluf murojaat shakllarini qo'llashlari mumkin. Buni yapon jamiyatidagi an'anaviy xarid qilish, bankka pul qo'yish, transportda yurish va h.k. mijozning iltifotiga, ya'ni uning pul to'lash yoki to'lmaslik xohishiga qaralishi bilan izohlash mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, oziq-ovqat tanqis bo'lgan urush yillarida xarid qilishga iltifot sifatida qaralmagan, sotuvchining xushmuomalalik darajasi tushib ketgan⁴.

Birinchi qoidaga muvofiq, boshliqqa uning yoshi kichik bo'lganda ham hurmat shaklida murojaat qilinadi. Bu o'rinda yosh omili ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Ammo Yaponiyadagi ichki ijtimoiy guruhlar

¹ Алпатов В.М. Япония: язык и общество. –М.: "Муравей", 2003.

² Ide S. Japanese Sociolinguistics' Politeness and Women's Language //Lingua. Vol.57.-№ 2-4. 1982.-P.366-368.

³ Ko'rsatilgan asar, 369-bet.

⁴ Цудзимура Тосики. Гэндай-но кэйго (Современные формы вежливости). –Токио, 1967. – С. 211.

iyerarxiyasi, odatda, yoshga bog'liq bo'ladi. Masalan, lavozim ko'pincha belgili xizmat muddatining ado etilishiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar va talabalar o'rtasida ham iyerarxiya kuzatiladi. Yuqori sinf yoki yuqori kursdagilarga takallufli, quyi sinf yoki quyi kursdagilarga betakalluf muoamala qilinadi va bunday munosabat ana shu o'quv yurti bitiruvchilari orasida umrbod saqlanadi¹.

Xullas, hurmat shakllarining qo'llanishida qat'iy iyerarxiya o'z aksini topadi. Shuningdek, ularda yosh, guruh, kasb munosabatlari e'tiborga olinadi.

8.4. Yapon tilining gender xususiyatlari

8.4.1. Erkak va ayollar nutqining farqlari

Yapon tili nafaqat hududiy va ijtimoiy variantlardan, balki erkak va ayolga xos variantlardan tarkib topganligi bilan ham o'ziga xosdir. Yapon tilida erkak va ayollarning nutqiy muomalasi bir-biridan keskin farq qiladi. Erkakning "ayolcha" gapirishi yoki, aksincha, ayolning "erkakcha" gapirishi kulgili holatlarni keltirib chiqaradi.

Yapon adabiy tilidagi erkak va ayol variantlarining farqi til tizimining barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Fonemalar va ularning moslashuvidagina bir xillik mavjud bo'lib, ularning urg'usida farqlanish ko'zga tashlana boshlaydi. Ayniqsa, grammatika va leksika sathida ikki variantning bir-biridan ajralishi ko'proq kuzatiladi. Masalan, 1-shaxs va 2-shaxs kishilik olmoshlari misolida (3-shaxsda alohida farq kuzatilmaydi), faqat 1-shaxsning eng takallufli *vatakusi* shakli erkak va ayollar tomonidan birday qo'llaniladi. Erkaklar, asosan, *boku* (odatda), *ore* (betakalluf) va *vasi* (betakalluf, hozir eskirgan); ayollar - *atasi* (betakalluf) va *atakusi* (takallufli, eskirib borayotgan) kishilik olmoshlarini ishlatishadi. *Vatasi* olmoshi erkaklar tomonidan ham, ayollar tomonidan ham qo'llaniladi, biroq ayollar uchun standart, erkaklar uchun takallufli (*vatakusi* ga nisbatan), shuningdek, katta yoshdagilarga xos olmosh sanaladi.

Grammatik farqliliklar orasida gap oxirida keladigan modal-ekspressiv yuklamalar ko'proq ajralib turadi. Yapon tiliga iltimos, murojaat, tasdiq va h.k. ma'nolarni hamda so'zlovchining u yoki bu turdagi hissiyotlarini ifodalagan yuklamalarga boylik xosdir. Bunday yuklamalarni boshqa tilga tarjima qilish o'ta qiyinchilik tug'diradi. Erkaklar nutqiga: *dzo*, *dze*, *na*., *ya*., ayollar nutqiga: *va*, *no*, *ma*., *kasira*, *ara* yuklamalari xosdir. Har ikkala variantdagi yuklamalar chekka hududlarga ko'ra ham farqlanishi mumkin. Ayrim yuklamalar ma'nosiga ko'ra farqlanadi: *yo* yuklamasi erkaklarda betakalluf, ayollarda esa takallufli qo'llaniladi. Bunday turdagi farqlar kichik yoshdan boshlab

¹ Suzuki T. Internationalization and Language // Japan Times. 09.02.1987. - C. 110.

shakllanadi. Ikki yoshli qizcha boshqa grammatik ko'rsatkichlarga nisbatan avvalo, *no* ekspressiv yuklamasidan foydalana oladi¹.

Boshqa grammatik farqliliklar hurmat shakllarini qo'lishda namoyon bo'ladi. Adabiy til me'yorlariga ko'ra, atqli otlardagi *-kun* betakalluf qo'shimchasini faqat erkaklarga qo'llay olishlari mumkin; ayollar bunday vaziyatlarda *-san* (hurmat darajasiga ko'ra erkak variantda takalluf, ayol variantda neytrallik ifodalaydi) qo'shimchasidan foydalanadilar.

Ayollar o'ta betakalluf, erkaklar esa o'ta takallufli shakllarni qo'llashdan qochishadi. Ayollar buyruq maylining qo'pol shakllaridan deyarli foydalanishmaydi². "O'ta takallufli" shakllar ayollar tomonidan erkin, erkaklar tomonidan esa faqat xizmat doirasidagina qo'llaniladi. Ayni holat leksikada ham kuzatiladi: *xara* "qorin" so'zi erkaklar nutqida, takallufli *o-naka* so'zi ayollar nutqida uchraydi. *Ogus*: ("soch"), *oxiya* ("sovuq suv"), *omiya* ("sovg'a") ayollar nutqiga xos bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Ayollar nutqining aksariyatida grammatik ko'rsatkichlar, xususan, kelishik qo'shimchalari va bog'lovchilar mavjud bo'lmaydi; erkaklar nutqida bu holat deyarli kuzatilmaydi.

Qayd qilingan barcha farqlar so'zlashuv tiliga tegishli bo'lib, yozuvda, shuningdek, og'zaki-kitobiy matnlar (teleyangiliklar yoki ma'ruzalar)da yozuvchining yoki so'zlovchining jinsi u qadar aniq namoyon bo'lmaydi. Semantik nuqtayi nazardan yondashilganda, Yaponiyada erkaklarning nutqi denotativ, ayollarning nutqi esa konnotativ xususiyatga egaligi bilan ajraladi.

8.4.2. Yapon ayollarining maqomi va til

Yaponiyadagi usoniy vaziyatda ayollarning tengsizligi bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlar u yoki bu shaklda aks etadi. Ma'lumki, o'rta asrlarning boshlarida yapon ayoli jamiyatda muhim rol o'ynagan. Ayollar nutqining erkaklar nutqidan unchalik katta farq qilmaganini o'sha davrdagi yozma yodgorliklar ham tasdiqlaydi. Mazkur farqlar o'rta asrlarning oxirlarida, xususan, samuraylar tabaqasining maydonga kelishi bilan shakllana boshlagan. Bu davrda ayollarning mavqeyi yomon tomonga keskin o'zgargan³.

1947-yildagi Yaponiya Konstitutsiyasiga muvofiq, ayollar erkaklar bilan rasmiy jihatdan teng huquqli bo'lishiga qaramay, ijtimoiy tengsizlik hali ham davom etib kelmoqda. I.A. Latishevning qayd qilishicha, "Yaponiyada ayollar davlat tashkilotlari, xususiy firmalar va ishlab

¹ Танака Акио. Буммацу, куматцу-но кэгэн то гохо: (Выражение и форма конца предложения) // Нихонго-нихон-бунка (Японский язык и японская культура). - № 6. -Осака, 1977. -С. 57.

² Сибата Такэси. Котоба-но сякайгу (Социология языка). NHK-буккусу.-№ 22. -Токио, 1965. - С. 51.

³ Kindaichi H. The Japanese Language. -Токио, 1978. -Р. 75.

chiqarish korxonalarida jamiyat iyerarxiyasining eng quyi pog'onasida qolib ketmoqda... Bugun jinslarning huquqiy jihatdan tengligiga qaramay, mamlakatda siyosiy, ijtimoiy sohalarda, shuningdek, maosh jihatdan ayollar diskriminatsiyasi (kamsitilishi) saqlanib qolingan"¹.

Mazkur fikrni Yaponiyada o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, 1984-yili so'rovnoma ishtirokchilarining 73,9% mamlakatda ayollar bilan erkaklar o'rtasida tenglikning yo'qligini e'tirof etgan (teleko'rsatuv NTV, 23-sentabr 1984). Hukumat tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ma'lumotiga ko'ra, yapon ayollarining 71,1% jinslar o'rtasidagi rollarni taqsimlanishi: "erkaklarning o'mi - ishda, ayollarning o'mi - uyda" g'oyasini qo'llab-quvvatlagan (bunga o'xshash so'rovnomada mazkur g'oyani amerikalik ayollarning 35% va shved ayollarning 14% qo'llab-quvvatlagan). Ayni ma'lumotlarga ko'ra, yapon ayollarining 72% to'ydan keyin o'z qiziqishlarini turmush o'rtog'i va bolalariga bo'ysundirish lozim, deb hisoblashgan (amerikalik ayollarning 17,6% va shved ayollarning 6,1% shunday javob bergan). Yaponiyadagi har ikkala jins vakillarining faqat 36% gina erkaklar va ayollar o'rtasidagi qobiliyatda farq yo'q, deb javob berishgan (XB. 1983. № 1, B. 97).

Bunday sharoitda Yaponiyada nutqiy va lisoniy jins farqlarining juda barqaror bo'lishi ajablanarli hol emas. Feodalizm davrida shakllangan bu farqlar bugungi kunda ham yo'qolib ketmagan, ular har bir yaponida o'z-o'zidan paydo bo'laveradi. Erkak va ayol nutqidagi farqlar qanchalik katta bo'lsa, jinslarning ijtimoiy rolidagi tafovut ham shunchalik katta bo'ladi. Bu farqlar boshlang'ich maktabni tamomlagunga qadar sezilmaydi. Biroq o'rta maktabdan boshlab ular sezila boshlanadi. Ta'lim jarayoni tugagandan keyin hammasi o'z o'miga tushadi, ya'ni nutqiy farqlar yapon jamiyatining erkaklar va ayollarga qo'yilgan talablariga moslashadi. Yoshning ulg'ayib borishi bilan mazkur farqlar yanada aniqlashadi, erkaklar asta-sekin ijtimoiy pog'onalarda yuksalib boradi, ayollar esa soyada qolib ketadi.

Ijtimoiy tadqiqotlarga ko'ra, ayollar va erkaklar nutqidagi farqning maksimum keskinlashuvi 50dan 60gacha bo'lgan yosh orasida, ya'ni yapon erkaklari ijtimoiy pog'onalarning eng cho'qqisiga chiqqan davrda voqelanadi. Erkaklar mehnat faoliyatini to'xtatganda nutqiy farqlar ham birmuncha silliqlashadi².

Qator tadqiqotchilarning fikricha, hurmat shakllarining qo'llanilishida yapon jamiyatidagi ayollarning itoatkorlik mavqeyi ham aks

¹ Латышев И. А. Семейная жизнь японцев. - М., 1985. - С. 45.

² Огино Цунэо. Яманотэ то ситамати-ни окэру кэйго-сисэ-но тигаи (Различие в употреблении форм вежливости в Яманотэ и Сита-мати) // ГК. 1983. - № 84. - С. 89.

etadi. N.I. Konrad: "Er xotiniga murojaat qilganida xo'jayin-xizmatkor munosabatidagi nutqiy ibora va konstruksiya (qurulma)larni qo'llaydi; aksincha, xotin erga murojaat qilganda "quyi"ning "yuqori"ga munosabatidek taassurot qoldiradi"¹, deb yozadi. Bu holat er-xotin o'rtasidagi murojaat shakllarida ham kuzatiladi. Jumladan, odatda, xotin oiladan tashqarida eri haqida *syudzin* ("xo'jayin") yoki *otto* ("yaxshi odam"), o'z ota-onasi, qaynona yoki qaynotasi bilan suhbatda erining ismiga *-san* qo'shib gapiradi. Er esa xotininining ismiga *-san* qo'shmasdan chaqiradi².

Jinslar orasidagi tengsizlik til o'rganish va o'qitishda ham kuzatiladi. Maktablarda yapon tilining erkak varianti o'rganiladi, chet elliklar uchun yozilgan darsliklarda rasmiy me'yor sifatida aks etadi. Hatto, izohli va tasvirli lug'atlarda ham dunyoni "erkak" nuqtayi nazaridan ko'rish talqin qilinadi.

8.5. Yaponiyada sotsiolingvistika

Yuqorida qayd etilganidek, bugungi Yaponiyadagi lisoniy vaziyat ijtimoiy hayotning muhim tomonlari bilan bog'liq, u yoki bu darajada siyosiy ahamiyat kasb etgan qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Til muammolarini oqilona hal qilmasdan turib, to'laqonli ta'limga, ommaviy axborot vositalarining samarali ta'siriga va xorijliklar bilan muloqotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun davlat siyosati til siyosatini ham qamrab oladi. Ta'kidlash joizki, hech qaysi rivojlangan kapitalistik davlatlarning hukumati til masalalariga Yaponiya hukumatichalik katta e'tibor qaratmaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin til me'yori masalasini hal qilish, ona tili va chet tillarni o'qitishning samaradorligini oshirish, matbuot, radio va televideniya matnlarini talab darajasiga keltirish maqsadida davlat muassasalari tashkil qilindi. Tokiodagi Yapon tili davlat instituti (KKK) hamda Madaniyat, radio va teleko'rsatuvlar instituti (XBK) shular jumlasidandir. Har ikkala institut ham til me'yorlarini ishlab chiquvchi markaz bo'lib, til me'yorlari (xususan, o'quv adabiyotlari va teleko'rsatuvlari) yuzasidan qonun chiqarish huquqiga ega.

KKKning vazifalari turli-tuman bo'lib, ulardan asosiysi amaliy yo'nalish hisoblanadi: bu yapon adabiy tili va dialektlari bo'yicha materiallar to'plash, yapon tili egalari bilan ommaviy so'rovnomalar o'tkazish, matnlardagi muayyan leksik birliklar, grammatik ko'rsatkichlar va konstruksiyalarning qo'llanishini kuzatish, yozuv belgilarini statistik

¹ Конрад К. И. Синтаксис японского национального литературного языка. - М., 1937. - С. 22.

² Раздорский А. И. Национально-культурные особенности коммуникации в японском устном диалоге. Канд. дис. - М., 1981. - С. 170-171.

tahlil qilish, yapon tilini yaponlarga va chet elliklarga o'qitish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish, baholashning qat'iy mezonlarini begilash va h.k.

Ikkinchi jahon urushidan oldin Yaponiyada nazariy tilshunoslik hukmronlik qilgan bo'lsa, urushdan keyingi dastlabki yillardanoq amaliy tilshunoslik masalalarini hal etishga qaratilgan tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Albatta, "sof ilm" mavjud edi, biroq u ikkinchi darajali bo'lib, unga ko'proq ilmiy-tadqiqot institutlari va xususiy universitetlar homiylik qildi. Birinchi navbatda amaliy tadqiqotlar, xususan, sotsiolingvistik xususiyatdagi izlanishlar (mashina tilshunosligi – axborotlarning avtomatik tahlili, ularni EHMga hamda mashina tarjimasiga kiritish va h.k. katta o'rin egalladi) keng miqyosda amalga oshirildi¹.

Mazkur ishlarning nazariy asosini "lisoniy mavjudlik" (gengo-seykatsu) maktabi g'oyasi tashkil qilgan edi. Bu maktabning vazifasi tilning fonetik tizimi, grammatik qurilishi yoki so'z semantikasini emas, balki ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan kishilarning nutqiy xususiyatlarini tasvirlash edi². Shunga ko'ra, sotuvchi, xizmatchi, uy bekasi va h.k.larning "lisoniy mavjudlik" qolipi tuzilib, ularning til amallari bilan ishlashga qancha vaqt sarflashi, nutqidagi gaplarning o'rtacha uzunligi qanday. bu gaplarda ega va kesimning foizi qancha, eskirgan leksika, *kango* bilan *gayraygoning* o'zaro nisbati va shunga o'xshash og'zaki nutqning o'rganilishi qiyin bo'lgan jihatlari yoritildi.

Yapon tilidagi gaplarning kundalik so'zlashuvda o'rtacha 3,81%, oldindan tayyorlanmagan rasmiy suhbatda 5,49%, ma'ruzalarda 9,31%, teleyangiliklarda 16,48% mustaqil ma'noli so'zlardan tarkib topgani aniqlandi (N. 1978. № 23. B. 174). Umumyapon, mahalliy va xalqaro teleyangiliklarda qo'llanilgan jummalarda ishtirok etgan tovushlarning o'rtacha miqdori belgilandi (N. 1978. № 23. S. 178).

Yapon tilshunosligining amaliy yo'nalishi yaponlarning kundalik hayotida muhim rol o'ynashi bilan tavsiflanadi. Mazkur rol chet ellik, amerikalik kuzatuvchilarni hayratga soladi. Aksariyat mamlakatlarda tilshunoslik hayotdan uzoq bo'lgan mavhum fan sifatida qabul qilinadi. Bu ayniqsa, keyingi yillarda o'zining murakkab tushunchaviy terminolik apparati bilan boshqa soha mutaxassislarini qo'rqitib yuborgan struktur va generativ tilshunoslikka tegishlidir. Yaponiyada esa mutlaqo boshqa vaziyat hukm suradi. Amerikalik tilshunos E. Jorden qayd qilganidek,

¹ Алпатов В. М. Япония: язык и общество. – М.: "Муравей", 2003.

² Shibata T. On Some Problems in Japanese Sociolinguistics: Reflection and Project // Language in Japanese Society. –Tokyo, 1975. –P. 163.

amerikaliklar uchrashganda ko'proq ob-havo va siyosat haqida, yaponlar esa ob-havo va til haqida gaplashishadi¹.

Amerikalik yaponshunos olim R. E. Millerning afsus va nadomat bilan yozishicha, tilshunoslar keng ommaga taniqli bo'lmagan uning mamlakatidan farqli o'laroq, Yaponiyada lingvistik tadqiqotlarga ommaviy ravishda qiziqish kuzatiladi, tilshunoslar, ayniqsa, professor unvoniga ega bo'lgan yoki nufuzli tashkilotlarda ishlovchi olimlar omma orasida mashhurligi bilan nom chiqargan. Yaponiyada mutaxassis bo'lmaganlar ham tilshunoslikka oid kitoblarni tushunilishi qiyin bo'lishiga qaramay, bajonidil sotib olishadi. Tilshunoslar tez-tez televideniya chiqishlar qilishadi, xohlagan masalalar yuzasidan o'zlarining fikrlarini bildirishadi².

Til amaliyotining masalalari yapon ommaviy axborot vositalarida muhim o'rin egallaydi. Til va yozuv me'yori muammosi keng miqyosda ommaviy muhokama qilinadi. 1978-yilning sentabr oyidan 1979-yilning avgust oyigacha bo'lgan davrda birgina "Asaxi-simbun" gazetasining "Ovoz" rukni ostida til me'yori masalasiga bag'ishlangan 28 ta maqola e'lon qilingan³.

Shunday qilib, bugungi kunda Yaponiyada tilshunoslik faniga birinchi navbatda til amaliyotining asosi, yaponlarga tildan to'g'ri foydalanishda yordam beradigan vosita sifatida qaraladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Yaponiyada XIX asrning ikkinchi yarmigacha qaysi adabiy til mavjud bo'lgan?
2. Yaponiyada XVII–XIX asrlargacha qaysi til ko'rinishlari oddiy dialekt sifatida qo'llanish doirasidan chiqqan edi?
3. Kogo tili qaysi sheva asosida shakllandi?
4. Yapon tili instituti qachon tashkil qilindi?
5. Hozirgi yapon adabiy tili qachon rasmiy tilga aylangan?
6. Adabiy til tizimi qaysi dialektlar va tillarga qarshi qo'yildi?
7. Adabiy tilning tarqalish manbalari nimalar hisoblanadi?
8. Yapon oilasi bir oyda o'rtacha nechta jurnal oladi?
9. O'rta yoshdagi yapon nechta til tizimida gaplasha oladi?
10. Yapon dialektlarining eng turg'un xususiyati nima hisoblanadi?
11. Yaponiyada dialekt qanday vosita sanaladi?
12. Yaponlar "guruh" tushunchasini qanday ma'nalarda talqin qilishadi?
13. Yaponiyada qaysi yozuv turlari qo'llaniladi?

¹ Сибата Такэси. "Нихонго-сайхакуэн"-сайсюниацу (Возобновление [передачи] "Новое открытие японского языка") // Г. 1984. - № 2. - С. 2.

² Miller R. A. Japan's Modern Myth. The Language and Beyond. - New York-Tokyo, 1982. - P. 12-19.

³ Имай Тадаси. Кокуго-ни окуру кандзи-но уммэй (Судьба иероглифов в японском языке) // Убэ-ганки-дайгаку-гакудзюцу-хо-ко-ку (Научные доклады колледжа г Убэ). - № 16. - Убэ, 1980. - С. 24.

14. VI -VIII asrlargacha yaponlar qaysi yozuvdan foydalanganlar?
15. Yapon yozuvi qaysi yo'nalishda yoziladi?
16. Furiganadan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
17. Hurmat shakllari qanday vazifalarni bajaradi?
18. Muloqot shakllari yapon jamiyatida qanday qarama-qarshiliklar asosida tanlanadi?
19. Yapon ayollarining tengsizligi qaysi davrda shakllana boshlagan?
20. Qaysi sohalarda ayollar diskriminatsiyasi saqlanib qolingan?
21. Erkak va ayol nutqidagi farqlar nimalarda ko'rinadi?
22. Maktablarda yapon tilining qaysi jins varianti o'rgatiladi?
23. Yapon tili davlat instituti hamda Madaniyat, radio va teleko'rsatuvlar instituti qaysi maqsadlarda tashkil qilingan?
24. Yapon tili davlat institutining vazifalari nimalardan iborat?
25. Amaliy tilshunoslikning nazariy asosini qanday g'oya tashkil qiladi?

Adabiyotlar

1. Алпатов В. М. Япония: язык и общество. – М.: “Муравей”, 2003.
2. Березина Ю. И. Особенности и социальные последствия научно-технического прогресса в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. –М., 1985.
3. Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. –М., 1985.
4. Екота Мицуги. То:кё:ситамати-кисицу то соно котоба-си-рон. 3 (Характер токийского Ситамати и описание его словарного состава. Ч. 3) // То:кё: - сэйтоку-танки-дайгаку-киё:(Записки колледжа Сэйтоку в Токио).-№17, 1984.
5. Имаи Тадаси. Кокуго-ни окэру кандзи-но уммэй (Судьба иероглифов в японском языке)// Убэ-танки-дайгаку-гакудзюцу-хо:ко-ку (Научные доклады колледжа г. Убэ). - № 16. –Убэ, 1980.
6. Сибата Такэси. “Нихонго-сайхаккэн”-сайсюниацу (Возобновление [передачи] “Новое открытие японского языка”) // -Г. 1984, - №2.
7. Сугито Миэко. Нагасакикэн-мизмура-ни окэру Порива: но-фу (Поливнов в деревне Миэ префектуры Нагасаки) // О:сака-сё:ин-дзесидайгаку-ронсю: (Труды женского колледжа Осака-сёин). - № 20. –Осака, 1983.
8. Сыромятников Н. А. Развитие новояпонского языка. –М., 1978.
9. Сугито Миёко, Оку мурэ Аяко. Оя-но хо.тэн-аку-сэнто-га кодомо-но акусэнтोकата-но хацува-ни этаэру эйкё: (Влияние, оказываемое диалектной акцентуацией родителей на акцентное произношение детей) // О:сака-сё:ин-дзеси-дайгаку-ронсю: . - № 21, 1984.
10. Grootaers W. A. (with T. Shibata). Dialectology and Sociolinguistics: a General Survey // Lingua. Vol. 57. - No 2-4. 1982.
11. Shibata T. On Some Problems in Japanese Sociolinguistics: Reflection and Project // Language in Japanese Society. –Tokyo, 1975.
12. Miller R. A. Japan's Modern Myth. The Language and Beyond. –New York-Tokyo, 1982.

9-MA'RUZA

KOREYA SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Koreyadagi til siyosati
2. Koreys alifbosi
3. Koreys tilining hurmat shakllari
4. Koreys tilining gender xususiyatlari
5. Koreys tilining noverbal vositalari

Tayanch soʻzlar: puyo tili, xan tili, Shimoliy Koreya, Janubiy Koreya, ijtimoiy-siyosiy leksika, neologizm, oltoy tillari, xangil, xanja, xanmun, xunmin-chong-um, chosongil, liberallashuv, demokratlashuv, pogʻonali munosabatlar, hurmat shakllari, yejol, xaera, banmal, xage, xao, xaeyo, xapshio, ota-ona juftligi, sheriklik, noverbal muloqot, xatti-harakat, imo-ishora, somatik yaqinlik.

9. 1. Koreyadagi til siyosati

9. 1.1. Koreys tilining shakllanishi

Qadimgi koreys tilini ikki guruhga ajratish mumkin: shimoliy – puyo va janubiy – xan. Puyo tilida Manjuriya, Shimoliy Koreyadagi Puyo, Koguryo, Okcho davlatlarida yashovchi qabilalar soʻzlashgan. Mazkur qabilalar orasida koguryo qabilasi yetakchi oʻrinni egallagan. Xan tilida Chxin-xan, Maxan va Pxyoxan davlatlarini tashkil qilgan janubiy-koreys qabilalari soʻzlashgan. Ular orasida Chxin-xan Silla qirolligi eng kuchli hisoblangan. Silla yagona davlatchiligining tashkil topishi Koreya tarixida muhim voqea boʻlgan.

VII-VIII asrlarda qirollik juda kuchli markazlashgan davlatga aylangan va uni van (qirol) boshqargan. Sillada xoʻjalikning asosiy tizimini tashkil qilgan dehqonchilik, shuningdek, hunarmandchilik va saydo yaxshi rivojlangan. Fan, taʼlim, madaniyat ham gurkirab taraqqiy etgan. Xalq ogʻzaki ijodi, mumtoz adabiyot, sheʼriyatga katta ahamiyat berilgan. Natijada silla tilining asosida butun mamlakatda til birligiga erishilgan.

VII asrning oxiri - IX asrning boshlariga kelib, Silla davlati asta-sekin tanazzulga yuz tuta boshlagan. Mamlakatda dehqonlar qoʻzgʻoloni avjiga chiqadi. 918-yilda mashhur lashkarboshi Van Gon mamlakatni yangidan birlashtirib, Koryo davlati (hozirda Koreya)ni quradi va oʻzini qirol, deb eʼlon qiladi. Yangi davlatning siyosiy va madaniy markazi yarim orolning oʻrtasida joylashgan Keson shahriga koʻchiriladi. Shunday qilib, Keson dialekti mamlakat milliy tilining meʼyoriga aylanadi.

1392-yilda mashhur lashkarboshi va siyosatchi Li Songe Koryo davlatining oxirgi qirolini ag'darib, Koreyada 1910-yilgacha hukm surgan yangi sulolani quradi va o'zini qirol, deb e'lon qiladi. Mamlakat poytaxti Choson kichik shahar Xansonga ko'chiriladi va u keyinchalik Seul, deb nomlanadi. Yangi poytaxt joylashuvi jihatidan Kesondan uzoq bo'lmagani uchun koreys tili shakllanishda davom etadi¹.

Ikkinchi jahon urushidan keyin 1945-yilda Koreya turli tizimdagi ikki davlat: Shimoliy Koreya va Janubiy Koreyaga ajralib ketadi. Har ikkala davlatning tili ham o'z taraqqiyot yo'lini tutadi. Tilning lug'at tarkibida o'zgarishlar, farqliliklar vujudga keladi. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy leksikada turli neologizmlar va terminlar paydo bo'ladi. Janubiy Koreyaning matbuot va adabiyot tiliga, keyinroq so'zlashuv tiliga juda ko'p inglizcha o'zlashmalar kirib kelgan bo'lsa, Shimoliy Koreyaning tiliga ko'plab ruscha so'zlar o'zlashtiriladi.

Koreys tili genetik jihatdan oltoy tillari oilasiga, morfologik jihatdan esa agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. Oltoy tillarining muhim xususiyatlaridan sanalgan singarmonizm hodisasi koreys tili uchun ham xosdir. Koreyscha so'zlaming boshida "r", "l" undoshlari kelmaydi, koreyscha so'zlar diftonglar bilan boshlanmaydi. Koreys tilida ko'makchi fe'llar keng qo'llaniladi. Gap qurilishi E+IDB+K ko'rinishida bo'ladi.

Bugungi kunda Janubiy Koreyada 70 million, Shimoliy Koreyada 26 millionga yaqin kishi koreys tilida so'zlashadi. Amerikada 1.660.000, Yaponiyada 690.000, Xitoyda 1.940.000 kishi koreys tilida gaplashadi. MDH hududlarida qariyb 500.000 koreys yashaydi. Bularning ko'pchiligi o'z ona tilida so'zlashishadi. Koreys tili dunyo tillari orasida o'zining keng tarqalishi jihatidan 15-o'rinda turadi.

9.1.2. Shimoliy Koreyada 1945 yildan keyingi til siyosati

1945-yildan boshlab kommunistik rejimga asoslangan Shimoliy Koreya o'zining taraqqiyotida ihotalanish siyosati yo'lini tutdi. Pxenyan shahring "standart tili" adabiy tilga asos qilinib, "ishchi va dehqonlar tili", "madaniyat tili", yangi til siyosati esa "til inqilobi", deb ataldi. Biroq Shimoliy koreys adabiy tilidagi qator unsurlar Seul standart tilidan olingan bo'lib, ikkala til o'rtasida katta farq sezilmaydi.

Shimoliy Koreyaning til siyosatini uch davrga ajratish mumkin:

1. Demokratlashuv davri (1945-1948). Bu davrga savodsizlikning tugatilishi xosdir.

¹ Ким Г. Рассказы о родном языке. Откуда произошел и как развивался корейский язык. http://world.lib.ru/k/kim_o_i/wef33rtf.shtml.

2. Me'yorlashuv davri (1949-1963). Mazkur davrda Til tadqiqoti instituti tomonidan yangi imlo qoidalari ishlab chiqiladi. Yangi imlo qoidalari 1933-yilda qabul qilingan Janubiy koreys tilining imlo qoidalariidan qisman farq qiladi. 1949-yilda xitoy yozuvi tamoman bekor qilindi.

3. Madaniylashuv davri (1964). 1964-yilda siyosiy tus olgan til islohoti boshlandi. Koreys tilini yot so'zlardan tozalash masalasi ko'tarildi. 1964-yilda o'tkazilgan Til qurultoyida mamlakat rahbari Kim Il Sung nutq so'zladi. U o'zining nutqida koreys tilidan o'zlashmalarni siqib chiqarish, ayniqsa, qiyinchilik tug'dirayotgan xitoy yozuvidagi so'zlarni xalqqa tushunarli bo'lgan koreyscha muqobillar bilan almashtirish masalasini o'rtaga tashladi. Muammoni hal qilish uchun quyidagilarni taklif qildi:

- o'zlashma so'z tilga o'z so'zdek singib ketgan bo'lsa, uni almashtirishga hojat bo'lmaydi;

- xitoycha so'z koreyscha sinonimiga ega bo'lsa, uni almashtirish lozim;

- xitoycha so'z va uning koreyscha sinonimi ma'no farqlariga ega bo'lsa, unda so'zlarni o'z holicha qoldirish kerak;

- agar xitoycha (yoki boshqa o'zlashma) so'zui tushunish qiyin bo'lsa, shuningdek, u koreyscha sinonimiga ega bo'lmasa, u holda, yangi so'z topish lozim.

Xullas, Shimoliy Koreyadagi til islohoti siyosiy mohiyatga ega bo'lib, u tilning so'z boyligiga katta ta'sir o'tkazdi.

9.2. Koreys alifbosi

Koreys yozuvi "xangil" jahon tarixida til rejalashtirilishining eng qadimgi namunasi hisoblanadi. Koreys alifbosi 1443-1444-yillarda joriy qilingan bo'lib, bu davrgacha koreyslar faqat xitoy yozuvi "xanmun"dan foydalanishgan. Xitoy tili monosillabik (bir bo'g'inli), koreys tili esa polisillabik (ko'p bo'g'inli) til bo'lganligi uchun xitoy yozuvi "xanmun"ning qo'llanilishi talaygina muammolarni yuzaga chiqargan edi. "Xanmun"da yozilgan mumtoz xitoy tili koreyslarning rasmiy tiliga aylangan edi.

1443-yilda qirol Sejongning tashabbusi bilan bir necha saroy olimlar tomonidan 28 ta harfdan tashkil topgan koreys yozuvi "xunmin-chong-um" (xalqqa o'rgatiladigan to'g'ri tovush – Sh.Usmanova) shakllantirildi. Biroq mazkur alifboni joriy qilishdan kutilgan maqsad – koreys tilining xitoy tilidan ustunligini isbotlash emas, balki xalqning xitoy yozuvini yaxshi bilmasligi bois yangi alifboga bo'lgan ehtiyoj edi.

Koreys alifbosi 1913-yilda "xangil", deb nomlandi. Shuni ta'kidlash joizki, koreys alifbosi Janubiy Koreyada "xangil", Shimoliy Koreyada esa "chosongil" tarzida nomlandi.

Ko'pchilik koreys va xorijlik tilshunoslarning fikricha, "xangil" dunyodagi eng sodda va ilmiy yozuv tizimi sanaladi. Lekin Xitoy madaniyatining kuchli ta'siri bois bu yozuv faqat XX asrdan e'tiboran mustaqillik ramzi sifatida keng iste'molga kirdi va koreys madaniyati tarixida katta burilish yasagan hodisa tarzida e'tirof etildi.

"Xangil" alifbosidagi undosh harflar tovushlarning artikulyasion o'miga ko'ra shakllantirildi. Undosh harflar tovushlarga ko'ra besh guruhga ajratildi. Masalan, /k/ - velyar, /n/ - alveolar, /m/ - bilabial, /s/ - dental, /ng/ - glottal. Yozuvda ana shu besh unli markaziy o'rinni egalladi. Unli harflar Sharq falsafasiga ko'ra, tabiatning uch unsuri: yumaloq nuqta (.) "osmon", gorizontal chiziq (-) "yer" va vertikal chiziq (|) "odam" ramzlari asosida shakllantirildi.

"Xangil" zamonaviy koreys adabiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. 1906-yilda Li In Jik qalamiga mansub birinchi koreys romani "Xyol ui nu" (Qonli ko'z yoshlar) "xangil"da yozildi.

Afsuski, 1940-yilgacha original koreys yozuvining shakli atrofida turli qarashlar va tortishuvlar davom etdi. Hukumat qarorlari va ilmiy asarlarning aksariyati eski xitoycha xanmun yozuvida qolaverdi.

1948-yilga kelib Janubiy Koreyada xitoy yozuvining qo'llanilishi taqiqlangan bo'lsa-da, undan uzoq davom etgan o'tish davrida foydalanib kelindi. Hatto, bugungi kunda ham qator gazetalarda xitoy yozuvini uchratish mumkin. Ayrim adabiyotlar, xususan, ilmiy asarlar, lug'atlarda "xangil" va xitoycha belgilar (xanja) birgalikda qo'llaniladi. Buning birinchi sababi, koreys tilida xitoycha o'zlashmalarning ko'pligi bo'lsa (60%), ikkinchi sababi, xitoycha belgilar asosida so'zning asl (o'z) ma'nosini aniq ifodalashdir.

Xitoycha so'zlarni xitoy belgilari asosida saqlab qolish tarafdorlari (masalan, Pak Chung Xi) baynalmilal (kukchexva), globalizm (segexva) shiori ostida faoliyat olib borib, boshlang'ich maktablarda xitoy yozuvini o'qitishni targ'ib qiladilar. Ularning fikricha, xitoy yozuvidan foydalanish koreys firmalarining Shimoli-sharqiy Osiyo iqtisodiy uyushmasidagi o'rmini belgilaydi. Shuningdek, xitoy yozuvidan istifoda etish qadimgi so'zlarning teran ma'nolarini anglab olishga yordam beradi, talabalarning ilmiy salohiyatini oshiradi, ma'naviyatini boyitadi.

"Xangil" va xitoy yozuvi (xanja) qorishmasining muxoliflari, aksincha, baynalmilalchilik yaponlashtirishga (ilbonxva) olib kelishi mumkinligini, chunki Yaponiya mustamlakachiligi davrida (1945-yilgacha) koreys tiliga

yapon tilidan qator o'zlashmalar kirib kelganini aytishadi. Shu bilan birga, ona tilini chuqur bilish va chet tillarni o'rganishning muhimligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, eski koreys tilidagi asarlarni hozirgi zamon koreys tiliga "xangil" yozuvi bilan o'girish lozimligi qayd qilinadi.

Umuman, 1945-yildagi Koreyadagi liberallashtirish va demokratlashuv hayotning barcha jabhalarida o'z aksini topdi. Hozirgi zamon koreys adabiy tiliga Seul shahrining "standart tili" asos qilib olindi. 9-oktabr "Koreys alifbosi kuni", deb e'lon qilindi. Bu kunda turli tadbirlar, ko'rik tanlovlari uyushtiriladi. Koreys tilini o'rganayotgan chet ellik talabalar o'rtasida insho bo'yicha tanlov o'tkazish an'ana tusini olgan.

9. 3. Koreys tilining hurmat shakllari

9.3.1. Koreys tili hurmat shakllarining turlari

Koreys jamiyati va oilasi pog'onali (iyerarxik) munosabatlar asosiga qurilgan bo'lib, ular "oliy - yuqoriroq - yuqori - me'yorda - quyi - quyiroq - eng quyi" singari darajalarni o'z ichiga oladi. Kishining yoshi, jinsi, ma'lumoti va mansabi iyerarxik munosabatlarning bosh omilidir. Kishining yoshi qanchalik katta yoki mansabi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik hurmatga sazovor bo'ladi. Oliy ma'lumotlilar va mansabdor shaxslar ko'proq imtiyoz va obro'ga egadirlar. Iyerarxik munosabat koreys tilining nazokat va hurmat shakllariga favqulodda boy ekanligi bilan ham yaqqol namoyon bo'ladi¹.

Koreys tilining *yejol*, deb nomlangan hurmat shakllari tinglovchiga hurmat ko'rsatish darajasiga ko'ra 6 turga ajraladi:

- 1) "xaera" so'zlashuv shakli;
- 2) "banmal" so'zlashuv shakli;
- 3) "xage" so'zlashuv shakli;
- 4) "xao" so'zlashuv shakli;
- 5) "xaeyo" so'zlashuv shakli;
- 6) "xapshio" so'zlashuv shakli².

1) *Rasmiy doiraning quyi darajasida qo'llaniladigan "xaera" so'zlashuv shakli* samimiy do'stlar orasida, ota-onaning bolalari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga nisbatan ishlatiladi. Mazkur shakl nazokat darajasiga ko'ra juda past bo'lganligi uchun o'rtoqlar, do'stlar orasida ham kam qo'llaniladi. Bu shaklning ishlatilishida eng muhim omil tinglovchi yoshining kichikligidir:

a. *Haniril bo'ra - Osmonga qara.*

b. *Vaso nae so'nil jabara - Kelib qo'limni tut.*

¹ Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. -Seoul, 2004. -P. 50-51.

² Suh J.S. Gugo munbop. -Seoul: Bburigipinamu, 1994. -P. 909.

2) *Sanimiy doiraning quyi darajasida qo'llaniladigan "banmal"* so'zlashuv shakli. "Banmal" va "xaera" so'zlashuv shakllari aksariyat hollarda bir-birining o'rniga ishlatilishi mumkin (Girohji? Shunaqa emasmi? -ni>-ji). Lekin har doim ham bunday qilib bo'lmaydi. Masalan, universitetni bitirgan talaba boshqa talabalar bilan dastlabki tanishuvda qo'llagan qolipni ishlata olmaydi (a). Dastlabki tanishuvda oldin (b) yoki (d) qoliplarda suhbat boshlab, sanimiyatning ortib borishi bilan asta-sekin "xaera" so'zlashuv shakliga o'tiladi:

- a. *Gohyang i odi ni?* ("xaera" *Qaerliksan?*)
- b. *Gohyang i odi ya?* ("banmal" *Qaerliksan?*)
- d. *Gohyang i odi ji?* ("banmal" *Qaerliksan?*)

Ushbu holat biror o'qituvchi ancha yil ilgari dars bergan o'quvchisini bola-chaqali bo'lganidan keyin uchratib qolganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchisiga nisbatan ilgari ishlatgan "xaera" so'zlashuv shaklining o'rniga "banmal" so'zlashuv shaklini qo'llaydi. Bu ikki shaklning farqini er-xotin orasidagi so'zlashuvda ham kuzatish mumkin. Er xotinig "banmal" so'zlashuv shaklida murojaat qiladi (a). Lekin bolasiga nisbatan ishlatadigan "xaera" qolipini xotinig nisbatan ishlata olmaydi (b).

- a. *Dangsin in an gagess o?* ("banmal" *Sen ketmaysanmi?*)
- b. *Dangsin in an gagess ni?* ("xaera" *Sen ketmaysanmi?*)

Aytilganlar bilan birga, "banmal" so'zlashuv shakli kitobxonga xitob qilgan adabiy tilda ishlatilmaydi.

3) *Rasmiy doiraning betaraf (neytral) darajasida qo'llaniladigan "xage"* so'zlashuv shaklidan tinglovchining so'zlovchiga nisbatan yoshi kichik, shuningdek, jamiyatdagi mavqeyi past bo'lgan holatlarda foydalaniladi. "Xage" so'zlashuv shaklining maqsadi so'zlovchiga nisbatan mavqeyi past bo'lgan tinglovchini muayyan darajada hurmatlashdir. Masalan, bu darajani *jane* olmoshini qo'llash bilan amalga oshirish mumkin:

Irin jane ga matge (Bu ishni senga beryapman).

Bu so'zlashuv shaklida eng muhim omil yoshdir. Maktab va litsey o'quvchilariga nisbatan bu qolipni ishlatib bo'lmaydi. "Xage" so'zlashuv shaklini qo'llash uchun tinglovchi eng kamida universitet talabasi bo'lishi kerak. Shu bilan birga, "xage" so'zlashuv shaklini qo'llayotgan so'zlovchining o'zi ham 30 yoshdan katta bo'lishi lozim. Hozirgi kunda "xage" so'zlashuv shaklining qo'llanilishi pasayib bormoqda. Koreys jamiyati o'zaro muloqot jarayonida asta-sekin erkin va takallufsiz muomalaga o'tmoqda.

4) *Rasmiy doiraning yuksak darajasida qo'llaniladigan "xao"* so'zlashuv shakli "xage" so'zlashuv shakli singari o'zidan yosh va mavqeyi jihatidan past kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Biroq bu qolipda hurmatning darajasi "xage" so'zlashuv shaklidan yuqoriroqdir. "Xao" erming xotiniga, yoshi katta va mavqeyi yuqori kishining mavqeyi quyi kishiga, ish joyidagi boshliqning xodimiga nisbatan qo'llay oladigan so'zlashuv shaklidir. Shuningdek, "xao" begona kishilarga nisbatan ularning mavqeyi taxmin qilinganda ishlatiladigan so'zlashuv qolipidir. Ushbu shakl xatlarda o'rtoqlarni hurmatlash uchun ham qo'llaniladi:

Agga chonhvahan sarami nugu yo?

(Boya telefon qilgan kim edi?)

Bugungi kunga kelib "xao" so'zlashuv shaklida gapiruvchilarning soni juda kamayib ketgan. Ayniqsa, yoshlar bu shakldan foydalanmay qo'yishgan. Uning o'rniga "xaeyo" so'zlashuv shakli afzal ko'rilmogda.

5) *Samimiy doiraning yuksak darajasida qo'llaniladigan "xaeyo"* hozirgi kunda eng keng tarqalgan so'zlashuv shakli bo'lib, u tinglovchining ijtimoiy mavqeyi o'zidan yuqori yoki hurmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan kishiga nisbatan qo'llaniladi. Bu qolipdan ko'pincha yuqori mavqedagi kishi bilan rasmiy doiradan tashqarida gaplashilganda foydalaniladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga umumiy tarzda murojaat qilganda "xaeyo" shaklidan foydalanadi. Lekin muayyan o'quvchiga individual tarzda murojaat qilganda "baural" qolipini qo'llaydi. "Xaeyo" ish joylaridagi xodimlar va mijozlar orasida, bolalarning ota-onalari va oila kattalariga, shuningdek, o'quvchilarning o'qituvchilariga nisbatan ishlatadigan so'zlashuv shaklidir. "Xaeyo" so'zlashuv shaklining ko'rsatkichi -yo qo'shimchasidir:

I jjokiro kotjang kase yo (Bu tarafga qarab to'g'ri keting.)

6) *Rasmiy doiraning o'ta yuksak darajasida qo'llaniladigan "xapshio"* so'zlashuv shakli koreys tilidagi hurmat shakllari orasida tinglovchiga eng ko'p hurmat ko'rsatiladigan o'ta rasmiy darajadagi so'zlashuv shaklidir. "Xapshio" so'zlashuv shaklida hurmat darajasi shunchalik yuqori bo'lganidan uni quyi va teng maqomdagi kishilarga nisbatan qo'llash to'g'ri bo'lmaydi. Mazkur shakl faqat o'zidan yuqori darajadagi kishilarga nisbatan ishlatiladi. "Xapshio" so'zlashuv shakli "xaeyo" so'zlashuv shaklidan hurmat va rasmiyat darajasiga ko'ra farq qiladi. Ba'zan ular o'rin almashishi mumkin:

a. *Danyo ogress sipnida* ("xapshio" Borib kelaman)

b. *Danyo ogress o yo* ("xaeyo" Borib kelaman).

9.3.2. Hurmat darajasining murojaat shakllarida aks etishi

Hurmat darajalari murojaat shakllarida ham o'z aksini topgan bo'lib, ular qariyb 14 ta pog'onani o'z ichiga oladi. Oilada, ish joylarida, ko'chakuyda, bozorlarda, xullas, kundalik hayotning turli jabhalarida qo'llaniladigan murojaat shakllari "Uri maliy yejo!" (Tilimizning nazokat qoidalari) nomli katta bir kitobga jamlanganligiga qaramay, koreys tilidagi murojaat shakllari tizimi qorishliqligicha qolmoqda¹. Hatto, koreyslarning o'zlari ham ba'zan suhbatdoshlariga qaysi pog'onadagi murojaat shaklini ishlatish kerakligini bilmay qiyin ahvolga tushib qolishadi.

Koreys oilasidagi munosabatlar g'oyatda murakkab bo'lib, "mendan katta // mendan kichik" shartiga qat'iy amal qilinadi. Kattalarga har doim "sizlab" murojaat qilinadi. Otaga *aboji*, onaga *omoni*, deb murojaat qilinadi. *Aboji* va *omoni* "yuqori" daraja hisoblanadi. Yaqin o'rtoqning ota-onasiga ham *aboji*, *omoni*, deb xitob qilish mumkin: *Aboji, jo Cholsu cingu Yoqncibnida*. "Ota, men Cholsuning o'rtog'i Yongxo'man".

Koreys tilida "yuqoriroq" darajadagi murojaatni ifodalash uchun murojaat shakllariga "-nim" hurmat qo'shimchasi qo'shiladi: *abonim*, *omonim*. Turmushga chiqqan qiz qaynotasiga *abonim*, qaynonasiga *omonim*, deb murojaat qiladi².

Koreys tilidagi hurmat darajalari ayniqsa, rasmiy murojaat shakllarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Rasmiy murojaat shakllarida boshqalardan farqli o'laroq, hurmat belgisi kuchli bo'lib, shaxsning mavqeyi, mansabi, lavozimi, vazifasi, kasb-kori, unvoni va yoshiga ko'ra quyidagicha darajalanadi:

- 1) eng oliy darajadagi hurmat shakli;
- 2) oliy darajadagi hurmat shakli;
- 3) oddiy hurmat shakli;
- 4) orttirilgan darajadagi hurmat shakli.

1) Eng oliy darajadagi hurmat shakli o'ta rasmiy doiraga xoslangan bo'lib, hukumat rahbarlari, xususan, prezidentga murojaat etilganda qo'llaniladi. Mazkur darajada nutq yo'naltirilgan shaxsга nisbatan "Zoti oliylari", "Janobi oliylari" singari oliy darajadagi hurmat ifodalari va *muhtaram so'zi* ni istifoda etiladi. Koreys tilida "Zoti oliylari", "Janobi oliylari" ma'nosida *zakha* so'zi ishlatiladi: *Kakha Detongryong* (Prezident Janobi oliylari).

2) Oliy darajadagi hurmat shakli hukumat rahbarlari, elchilar va mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llanib, *-nim* hurmat ko'rsatkichi

¹ Lee I.S., Lee S.O. and Choi V. Kore Dili. Çeviren Akpınar S.F. -Ankara: Aydogdu Ofset Matbaacılık, 2003. - S. 334.

² Усменова Ш. Корей ва турки тилларда ундълмалар //Тилшуносликнинг долзарб масалалари. - Тошкент: Унйверситет, 2004. - Б. 75.

yordamida hosil qilinadi: *Jangwan-nim* – Muhtaram vazir, *Desa-nim* – Hurmatli elchi janoblari, *Sijang-nim* – Hurmatli shahar hokimi, (*Sòn-nim*) yorobun – Xonimlar va janoblar.

3) Oddiy hurmat belgisi rasmiy murojaat shaklining eng keng tarqalgan turi bo‘lib, unda “kasb + -nim”, “unvon + -nim” qoliplari faol qo‘llaniladi: (*sil*)*jang-nim* – hurmatli rais, *gwajang-nim* – hurmatli mudir, *hakjang-nim* – hurmatli dekan, *sonseng-nim* – hurmatli ustoz, *kyosu-nim* – hurmatli domla, *hurmatli professor* va h.k. Koreys nutqida *sonseng* (o‘qituvchi, ustoz), *kyosu* (domla) va boshqa shunga o‘xshash so‘zlarni *-nim* hurmat ko‘rsatkichisiz qo‘llash mumkin emas.

Rasmiy muloqotda adresatga “unvon + -nim” va “familiya + unvon + -nim” qoliplarida murojaat qilish ham kuzatiladi: *Kyosu-nim* (*Professor*); *Kim kyosu-nim* (*Professor Kim*). Bu o‘rinda “familiya + unvon + -nim” qolipli murojaatdagi hurmat darajasining “unvon + -nim”ga nisbatan bir pog‘ona pasiligini qayd etish lozim. Chunonchi, *Kim kyosu-nim* (*Professor Kim*) yoki *Lee sonseng-nim* (*Li ustoz*) kabi xitoblar bir joyda ishlaydigan hamkasblar va kundalik turmushdagi tanishlar orasidagi muomalada ishlatilishi mumkin. Shuningdek, “familiya + unvon + -nim” qolipi qo‘llanganda adresatning shaxsi aniqlashib, “unvon + -nim” dagi mavhumlik, chalkashlik bartaraf etiladi.

4) Koreys rasmiy muloqotida orttirilgan darajadagi hurmat shakli *-si* ko‘rsatkichi orqali ifodalanadi. Qadimda bu qo‘shimcha yuqori tabaqadagi kishilarning quyi tabaqadagi kishilarga murojaatida qo‘llangan bo‘lsa, bugungi kundalik rasmiy muomalada eng faol ishlatiladigan neytral hurmat shakli hisoblanadi va “familiya + ism + -si” hamda “ism + -si” qoliplarida aks etadi. Masalan, *Kim Minhó-si* (“familiya + ism + -si”) singari murojaat shakli bir joyda ishlaydigan va tengdosh (yoki orada ozgina yosh farqi bo‘lgan) hamkasblar orasida hamda muayyan rasmiy munosabatlarda ishlatiladi. *Kim Minhó-si* xitobi *Kim kyosu-nim*chalik yuqori hurmatni aks ettirmaydi. Shu bilan birga, “ism + -si” qolipidagi *Minhó-si* murojaatida ham hurmatning darajasi *Kim kyosu-nim*dek yuqori bo‘lmaydi.

Minhó-si shakli bir joyda ishlaydigan va oralerida samimiylik bo‘lgan hamkasblar, yaqin o‘rtoqlarning murojaatini bildiradi. *Minhó-si* dagi *-si* ko‘rsatkichining qo‘llanish imkoniyatlari *-nim* hurmat ko‘rsatkichiga nisbatan cheklangan bo‘lib, u faqat ismlargagina birika oladi. *-nim* hurmat ko‘rsatkichi ayni paytda ham ismlarga, ham kasb va unvon ifodalovchi so‘zlarga birika oladi. Agar *-si* ko‘rsatkichi faqat familiyaga birikib,

masalan: *Kim-si* tarzida qo'llansa, adresant adresatga nisbatan hurmatsizlik qilgan bo'ladi¹.

Koreys muloqotida yoshdagi bir daqiqalik farq ham e'tibordan chetda qolmaydi. Masalan, egizaklar dastlabki davrlarda bir-birini ismini aytib chaqirishadi. Ammo ma'lum vaqt o'tgandan so'ng egizaklarning kichigi kattasiga *aka* yoki *opa*, deb xitob qiladi.

Shaxsga uning ismi bilan xitob qilish tarzi me'yordagi munosabatning "eng quyi" pog'onasi bo'lib, hech qanday hurmatni o'z ichiga olmaydi. Zotan, katta va o'rta yoshdagilar orasida mazkur xitob deyarli ishlatilmaydi. Bolalikdan birga o'sgan do'stlar ham bir-birlariga "familiya+unvon" xitobi vositasida murojaat qilishni afzal ko'rishadi. Faqat ota-onalar farzandlarini, o'qituvchilar o'quvchi va talabalarini ularning ismi bilan chaqira oladi. Biroq bu ham ma'lum vaqtgacha amal qiladi. Ota-onalar nabira ko'rgach, farzandlarini ularning ismi bilan chaqirishni tashlab, ularga nisbatan hurmat ifodalagan *abi*, *aebi* yoki *abom* (otam) murojaat shakllarini qo'llay boshlashadi.

9. 4. Koreys tilining gender xususiyatlari

Koreys tilining gender xususiyatlari ayol va erkaklar nutqiga xos bo'lgan murojaat shakllarida, xususan, qarindoshlikni ifodalovchi murojaat shakllarida yaqqol namoyon bo'ladi. Koreys oilasida *aka* va *opalar*ni ismi bilan chaqirish qat'iy man qilingan. Qizlarning akasiga *obba*, opasiga *onni*, o'g'il bolalarning esa akasiga *hyõn*, opasiga *nuna* tarzida murojaat qilishlari axloqiy me'yor hisoblanadi. Qizlarning nutqida o'ta faol bo'lgan qarindoshlik oti *obba*, turli holatlarda xitob vazifasini o'taydi. Jumladan, ular o'zidan katta yigitlarni, unashtirilgan yigitlarini hamda o'zidan yuqori sinfda yoki kursda o'qiydigan bolalarni *obba*, deb chaqirishadi. Hatto, turmushga chiqqan qiz bolalik bo'lgungacha eriga *obba* yoki *obba* shaklini uning ismiga qo'shib (ism + *obba*), masalan, *Minho obba* (Minxo' aka) deb xitob qiladi².

Pog'onali munosabatlarda samimiyatni ifodalaydigan va "aka" ma'nosini beradigan murojaat shakllaridan yana biri erkaklarning nutqiga xos bo'lgan *hyõn* so'zidir. *Hyõn* akaga, qaynog'aga, o'zidan kattalarga, yuqori sinfda yoki kursda o'qiydiganlarga nisbatan ishlatiladi: *Hyõn, han gaji butagi issninde dirojugessso?* "Aka, bir iltimosim bor edi, aytaveraymi?"³.

¹ Усманова Ш., Калониова Д. Ўзбек ва корейс тилларида расмий муружаат шакллари //Лингвист. III. – Тошкент: "Академнаслр", 2012. – Б. 162-165.

² Усманова Ш. Корейс ва туркий тилларда ундаймалар //Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Университет, 2004. – Б. 76.

³ Phyojungugodesajon (Стандарт корейс тилининг катта изохла лугати). III. – Seoul : Tusantonga, 1999. –P. 6903.

Oiladagi aka-opalar 30-40 yoshga kirganda yuqorida qayd qilingan *hyōŋ* (aka), *nuna* (opa)ning oʻrniga “-nim” hurmat qoʻshimchasini olgan *hyōŋ-nim*, *nu-nim* singari xitob shakllarini qoʻllash maʼqul koʻriladi. Ammo qarindoshlik otlarida “-nim” hurmat koʻrsatkichining qoʻllanilish doirasi cheklangandir. Binobarin, qizlar opasiga nisbatan qoʻllaydigan *onni* xitobi “-nim” hurmat koʻrsatkichini olmaydi.

Koreys tilida qarindoshlik otlari ism (ism + *hyōŋ*) yoki familiya (familiya + *hyōŋ*) bilan birga kelganda, kasb va unvon xususiyatlarini koʻrsatishi mumkin. Masalan, *Minho-hyōŋ* (Minxoʻ aka), *Kim-hyōŋ* (Kim aka) kabi. “*Minho-hyōŋ*” shakli “*Kim-hyōŋ*”chalik keng ishlatilmaydi. Lekin pogʻonali munosabatlarda “*Kim-hyōŋ*”ga qaraganda koʻproq hurmatni ifodalaydi. “*Minho-hyōŋ*”dan farqli oʻlaroq, “*Kim-hyōŋ*” xitobi qarindoshlarga nisbatan qoʻllanilmaydi. Shuningdek, “*Minho-hyō*” va “*Kim-hyōŋ*” murojaat shakllari faqat erkaklarning nutqida qoʻllaniladi.

Aka va opa ukasi yoki singlisini ismi bilan chaqiradi. Ammo ukasi va singlisi katta boʻlib turmush qurganda, ularga ismi bilan xitob qilish odob doirasiga kirmaydi. Shuning uchun ularga *doŋsaen* (uka yoki singil) yoxud ularning bolalaridan birining ismi bilan, yaʼni “falonchining otasi-onasi” shaklida xitob qilinadi.

Er-xotin munosabatlarida murojaat shakllarining xilma-xilligi jihatidan koreys tili dunyoda eng boy til hisoblanadi. Er-xotinlar (40%) koʻpincha bir-biriga *yobo* (azizim) yoki *čagi*, deb murojaat qilishadi: *Yobo, ne mal jom diro boyo* “Azizim, gapimga quloq soling”. Xotin erini *tangsin*, deb chaqirganida, ishqiy va yaqin munosabat koʻrsatilgan boʻladi. Shuning uchun ham bu murojaat shakli yosh er-xotinlarning nutqida ishlatilmaydi¹.

Yangi tushgan kelin erining ismiga *obba* (aka) soʻzini qoʻshib (ism + *obba*), masalan, *Sonho-obba* (Sonho aka), deb chaqirganida, oʻzbek ayollaridek erini hurmatlagan boʻladi. Yoki erining ismiga “-ssi” hurmat koʻrsatkichini qoʻshib, masalan, (ism+*ssi*) *Sonho-ssi*, deb xitob qiladi. Biroq erning xotining nisbatan “-ssi” hurmat koʻrsatkichini qoʻllashi noyob hodisadir. “-ssi” hurmat qoʻshimchasini oʻzbek tilida ifodalash qiyin. Uni baʼzi holatlarda oʻrniga koʻra “-jon” yoxud “-xon”, deb berish mumkin.

Qadimgi anʼanalarni saqlagan koreys oilalarida er oilaning boshligʻi sifatida xotiniga uning ismini aytib xitob qiladi. Faqat er xotiniga *no*, yaʼni “sen” deya olish huquqiga ega. Maʼlum vaqt oʻtgandan keyin u “no”ning oʻrniga betaraf shakl “*jagi*”ni ishlay boshlaydi.

Oilada farzand tugʻilgandan keyin er-xotinning munosabatlari oʻzgacha tus oladi. Ularning bir-biriga boʻlgan hurmati ortadi. Bu hurmat katta

¹ Ким Г. О категории обращения и речевом этикете в корейском языке// www.koryosaram.freenet.kz/articles/ks-address-forms.doc.

farzandning ismini qo'shib xitob qilish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, koreys tilida er xotiniga (farzandning ismi+omma) *Arim-omma* "Arimning onasi", xotin esa eriga (farzandning ismi+abba) *Arim-abba* "Arimning otasi", yoki *egi abba* "bolamning otasi", deb murojaat qiladi. Mazkur xitob shakllari ibtidoiy davrlardan qolgan tabu qoldig'i bo'lib, u oilada er-xotindan ko'ra ko'proq bolalarning ota-ona juftligini, sherikligini, ya'ni bolalarning qadrini, ahamiyatini namoyon qiladi.

9. 5. Koreys tilining noverbal vositalari

Kishilar o'rtasidagi muomala jarayonida nafaqat verbal (so'zli), balki noverbal (so'zsiz) muloqot vositalari bo'lgan turli xatti-harakatlar va imo-ishoralarning ham ahamiyati kattadir. A.Piz kishilar orasidagi aloqalarning 60-80% xatti-harakatlar va imo-ishoralar, 20-40% esa so'zlashuv vositasida amalga oshirilishini qayd qilgan¹. Koreys muomala madaniyatida so'zli muloqotga nisbatan so'zsiz muloqot markaziy o'rinni egallaydi. Ma'lumki, qadimgi Koreyada notiqlik an'analarining rivojlanishiga unchalik e'tibor berilmagan. Konfutsiy ta'limoti bo'yicha olim-amaldorlar, odatda, o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalashgan. Hukmron konfutsiy aslzodalarning qiyofasi loqayd, yuzi toshdek, hech qanday ifoda kasb etmagan. Mazkur an'analar bugungi koreys jamiyatida ham o'z ta'sirini yo'qotmagan bo'lib, koreyslar iloji boricha kamroq gapirishga, o'z fikrlarini ochiq ifodalamaslikka va his-tuyg'ularini boshqarishga alohida e'tibor qaratishadi. Bu, o'z navbatida, koreys muloqotida o'ziga xos noverbal vositalarning faollashuviga olib kelgan. Masalan, "*Bu kitob sizniki emasmi?*" yoki "*Ertaga band emasizmi?*" savoliga deyarli barcha madaniyatlarda "*Yo'q, meniki emas*", "*Yo'q, band emasman*", deb inkor ma'nosida *bosh chayqab* javob beriladi. Koreyslar (yaponlar ham) "*Ne, ne cheki animnida*" ("Ha, mening kitobim emas") va "*Ne, babiji ansimnida*" ("Ha, band emasman"), deb tasdiq ma'nosida *bosh irg'ab* javob beradi. Chunki koreys muloqotida asosiy e'tibor suhbatdoshga qaratilgan bo'lib, uni hurmatlash birinchi o'rinda turadi.

Koreys so'zsiz muloqotida *bosh barmoqni ko'tarish* holati boshqa madaniyatlardagi "juda yaxshi", "juda zo'r" ma'nolaridan tashqari "boshliq", "erkak" va "muhr" ma'nolarini ham anglatadi. Kaftlarni bir-biriga *ishqalash harakati* o'zbeklarda "umidvor bo'lmoq" ma'nosini bildirsa, koreyslarda "o'tinib so'ramoq, yalinib-yolvormoq" ma'nolarini ifodalab, aksariyat hollarda aybdorlar tomonidan kechirim so'rash maqsadida amalga oshiriladi. *Jimjiloq barmoqni ilgak qilish* harakatini arazlashib qolgan o'zbek bolalari yarashish maqsadida qo'llashsa, koreyslar undan "ahdlashish", "va'da berish"ni ifodalashda foydalanishadi.

¹ Пиз А. Язык телодвижений: Как читать мысли других по их жестам. - Пижний Новгород, 1992. - С. 3.

Muayyan noverbal vositalar jamiyatdagi turli iyerarxik darajalardan kelib chiqqan holda qo'llaniladi. Jumladan, koreyslar o'zidan yoshi kichkina**l**arga *boshi bilan* "anja" ("o'tir"), tengdoshlariga va hamkasblariga *o'ng kaftini yozib* "anjeseyo" ("o'tiring"), yoshi kattalarga va mansab jihatidan o'zidan yuqorilarga *ikkala kaftilarini ham yozib, yengil ta'zim bilan* "anjishipshiyo" ("marhamat, o'tiring"), deb mulozamat ko'rsatadi. Koreys millati vakili kundalik muomala madaniyatida o'zidan kattalarga biron narsani *chap qo'lini o'ng qo'lining tirsagiga, ko'ksiga qo'yib yoki qo'sh-qo'llab* uzatish, shuningdek, kattalardan biron narsa olganda *qo'sh-qo'llab* olish eng ko'p tarqalgan odatlardan biri sanaladi. Hatto, mijozlar tomonidan uzatilgan pul xizmat sohasidagi xodimlar tarafidan *ikki qo'llab* olinadi, qaytim ham *ikki qo'llab* qaytariladi¹.

Madaniyatlar o'zaro suhbat chog'ida kishilar orasidagi masofaning uzoq-yaqinligiga ko'ra muloqotli va muloqotsiz madaniyat turlariga ajraladi². Koreys madaniyati o'zaro muloqotda oradagi masofaning yaqin bo'lishi jihatidan muloqotli madaniyatlar qatoriga kirsada, unda somatik yaqinlik (qo'l tegizish, quchoqlash, silash, o'pish va h.k.) darajasining pastligi kuzatiladi. Chunonchi, koreys jamiyatidagi iyerarxik munosabatlar, hatto, oila a'zolari va yaqin qarindosh-urug'lar bilan ham quchoqlashib, yelka qoqishib yoki o'pishib ko'rishishga yo'l qo'ymaydi. Koreyscha salomlashish tarzi ham butun munosabatlarni qamragan konfutsiylik ta'limotiga asoslanadi. Koreyslar salomlashganda bosh hamda gavdaning butun yuqori qismini egib, belni bukib ta'zim qilishadi. Ta'zim qilish chog'ida nazokat va ehtiromning darajasi, qarshisidagi kishining yoshiga, jinsiga, mansabiga, mavqeyiga qarab ortib boradi. Erkaklar qo'llari yonda, erkin holda, ayollar bo'lsa, erkaklarga nisbatan ko'proq egilgan holda, qo'llarini tizzalarining ustiga qo'yib so'rashishadi. Shuningdek, *ta'zim qilish* harakati koreys kundalik muomalasida "tabriklash", "iltimos qilish", "kechirim so'rash" va "minnatdorlik bildirish" kabi qator ma'nolarni ham anglatadi.

Koreys madaniyatida ichkilik ichish ham o'ziga xos mulozamatni talab qiladi. Ichkiliklarning shishasi *ikki qo'llab ushlab* quyiladi; bunga javoban qarshidagi kishi ham qadahini *ikki qo'llab* tutib turadi. Odob yuzasidan ayni shaklda ichkilik quyib bergan kishining qadahini to'ldirib berish kerak bo'ladi. Yana ichmoqchi bo'lgan odam bo'shagan qadahini albatta, qo'lga olishi lozim. Bunday qilmasa, "bo'ldi, boshqa ichmayman," degan ma'noni bildirgan bo'ladi. Shuning uchun ham stoldagi bo'sh qadah to'ldirilmaydi.

¹ Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. -Seoul, 2004. -P. 50-52.

² <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008258/1008258a1.htm> 03-06-16

Stoldagi bo'sh qadah faqat ma'rakada marhumning xotirasi uchun to'ldiriladi¹.

Umuman, koreys muloqotida noverbal vositalar jamiyatdagi "oliy – yuqoriroq – yuqori – me'yorda – quyi – quyiroq – eng quyi" singari pog'onali munosabatlardan kelib chiqqan holda qo'llaniladi. Ularda asosiy e'tibor va hurmat subyektda qaratilgan bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi koreys tili qaysi guruhlarga ajraladi?
2. Koreya qachon turli tizimdagi ikki davlatga ajralib ketdi?
3. Genetik jihatdan koreys tili qaysi tillar oilasiga kiradi?
4. Koreys tili so'zlashuvchilari soniga ko'ra dunyo tillari orasida nechanchi o'rinda turadi?
5. Shimoliy Koreyada qaysi shaharning tili adabiy tilga asos qilib olindi?
6. Shimoliy Koreyaning til siyosati nechta davrga ajraladi?
7. 1964-yilda o'tkazilgan Til qurultoyida Kim Il Sung koreys tilini tozalash masalasida qanday takliflarni ilgari surdi?
8. Xitoy yozuvi "xanmun"ning qo'llanilishida muammolarni keltirib chiqargan asosiy sabab nima edi?
9. Koreys yozuvi "xunmin-chong-um" qachon va kimning tashabbusi bilan shakllantirildi?
10. Janubiy va Shimoliy Koreyadagi koreys yozuvlari qanday nomlar bilan yuritiladi?
11. "Xangil" alifbosidagi unli harflar Sharq falsafasining qaysi ramzlari asosida shakllantirildi?
12. Hozirgi zamon koreys adabiy tiliga qaysi shaharning "standart tili" asos qilib olingan?
13. Janubiy Koreyada davlat tili bayrami qachon o'tadi?
14. Koreys tilining hurmat shakllari qanday nomlanadi?
15. Koreys tilining hurmat shakllari hurmat ko'rsatish darajasiga ko'ra qanday turlarga ajraladi?
16. Koreys tilining hurmat shakllari qaysi grammatik ko'rsatkichlar vositasida ifodalanadi?
17. Rasmiy murojaat shakllarida hurmat qanday darajalanadi?
18. Koreys tilining gender xususiyatlari qaysi murojaat shakllarida yaqqol namoyon bo'ladi?

¹ Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. – Seoul, 2004. –P. 54-55, 57.

19. Koreys muloqotida o'ziga xos noverbal vositalarning faollashuviga nimalar sabab bo'lgan?

20. Koreys muloqotida asosiy e'tibor kimga qaratiladi?

Adabiyotlar

1. Ким Г. Рассказы о родном языке. Откуда произошел и как развивался корейский язык. http://world.lib.ru/k/kim_o_i/wef33rtf.shtml.

2. Ким Г. О категории обращения и речевом этикете в корейском языке // www.koryosaram.freenet.kz/articles/ks-address-forms.doc.

3. Ким О.А. Грамматические особенности падежных частиц корейского языка. Автореф. дисс.канд.филол.наук. -Ташкент, 2010.

4. Пиз А. Язык телодвижений: Как читать мысли других по их жестам. -Нижний Новгород, 1992.

5. Усманова Ш. Корейс ва туркий тилларда ундалмалар //Тилшуносликнинг долзарб масалалари. -Тошкент: Университет, 2004. - Б. 74-77.

6. Усманова Ш., Калонова Д. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари //Лингвист. III. -Тошкент: "Akademnashr", 2012. - Б. 162-166.

7. Byon A. Language socialization and Korean as heritage language: A study of Hawaiian classrooms // *Language, Culture and Curriculum*. 2003. Vol. 16 (3) -P. 269-283.

8. Byon A. Language socialization in Korean as a foreign language classrooms // *Bilingual Research Journal*. 2006. Vol. 30 (2) -P. 265-291.

9. Hong Yun-sook. A Sociolinguistic Study of Seoul Korean: with a special section on language divergence between North and South Korea. - Seoul: Research Center for Peace and Unification of Korea, 1991.

10. Lee I.S., Lee S.O. and Choi V. *Kore Dili*. Çeviren Akpınar S.F. - Ankara: Aydoğdu Ofset Matbaacılık, 2003.

11. *Phyojungugodesajon* (Стандарт корейс тилининг катта изоҳли луғати). III. - Seoul : Tusantonga, 1999.

12. Suh J.S. *Studies of politeness*. -Seoul: Hanshin, 1984.

13. Suh J.S. *Gugo munbop*. -Seoul: Bburigipinamu, 1994.

14. Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // *International Journal of Central Asian Studies*. Vol.9. -Seoul, 2004. -P. 48-60.

15. http://altaica.ru/bibliograf/e_korean.htm#socio!inguistics.

16. <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008258/1008258a1.htm> 03-06-16.

10-MA'RUZA

XITOIY SOTSIOLINGVISTIKASI

Reja:

1. Xitoydagi tillar
2. Xitoy tilining dialektlari va ularga munosabatlar
3. Xitoy yozuvi
4. Xitoydagi lisoniy vaziyat va til siyosati
5. Xitoyning Shinjondagi til siyosati
6. Xitoyda chet tillarning o'rganilishi

Tayanch so'zlar: sino-tibet, "putunxua", xan, "venyan", "fan yan", mandarin dialekti, etnik mansublik, iyeroglif, "yuysu", "islohotlar va ochilish" davri, konfutsiylik ta'limoti, "nafis til", "keszyuy", "imtihonlar yuani", mahalliy tillar, uyg'ur separatizmi, maoizm, madaniy inqilob.

10.1. Xitoydagi tillar

Xitoydagi tillarning aksariyati sino-tibet (xitoy-tibet) tillari oilasiga kiradi. Mazkur oila 100dan ortiq tillarni (qabila tillaridan tortib millat tillarigacha) o'z ichiga oladi.

Dungan tili xitoy-tibet tillarining Xitoy tarmog'iga kiradi. Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)da, Qirg'iziston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasida tarqalgan. Hozirgi kunda bu tilni egalari xitoy dialektlaridan birida yoki xitoy adabiy tilida so'zlashadi. XXRda 7 milliondan ortiq, xorijda esa 50 mingga yaqin dungan yashaydi.

Tibet-birma tillari xitoy-tibet tillari oilasiga mansub bo'lib, Xitoy (asosan Tibet), Myanme, Hindiston, Nepalda tarqalgan. Unda 60 million kishi gaplashadi.

Myao-yao tillari kam o'rganilgan bo'lib, ularning geneologik tasnifi ma'lum emas. Yaqin kungacha bu til xitoy-tibet tillari oilasiga kiritilgan. Myao-yao tillarida 8 milliondan ortiq kishi so'zlashadi (Xitoy, Vetnam, Laos, Tailand va Myanme).

Taylar Hindi-xitoy orolida va Xitoyning janubiy hududlarida yashaydi. 20 ga yaqin tay tilining mavjudligi qayd qilingan. Tay tili bir tomondan, xitoy-tibet, ikkinchi tomondan, esa avstro-osiyo tillari oilasiga kiritiladi¹.

Xitoy tili – "putunxua" Xitoy Xalq Respublikasi, Tailand va Singapurning rasmiy tili hisoblanadi. Tarixan mazkur til *xan* xalqining tilidir. "Putunxua" fonetik va leksik jihatdan shimoliy dialektlar, xususan, Pekin dialektining talaffuziga asoslangan adabiy tildir. "Putunxua"ning grammatikasi zamonaviy xitoy tili (bayxua)ning me'yoriga mos keladi.

¹ <http://ru.wikipedia.org>.

Xitoy tili grammatik vositalarga o'ta tejamkorligi bilan xarakterlanadi. Xitoy tilida ko'p hollarda qo'shma so'z bilan so'z birikmasini farqlab bo'lmaydi. Bir qo'shimcha bir guruhning shakllanishi uchun, ya'ni bir necha so'z uchun ishlatilishi mumkin. Zero, qo'shimchalar ko'p emas. Kelishik qo'shimchalarining yo'qligi old qo'shimchalar va so'z tartibining grammatik rolini kuchaytiradi, bu vositalar yordamida (ya'ni analitik usul bilan) boshqaruv munosabati amalga oshiriladi. Moslashuv munosabati kuzatilmaydi. So'z turkumlari tizimida sifatning xususiyati otga qaraganda ko'proq fe'lga yaqin turadi. Fe'l shakllari tizimida shaxs va sonda tuslanish mavjud bo'lmaydi, biroq modal fe'llar keng qo'llaniladi. Xitoy tilida modal yuklamalari ham keng tarqalgan bo'lib, gaplarning aniq ma'nosini tushunish uchun maxsus bilim talab qilinadi. Xitoy tili boshqa tillardan to'g'ridan-to'g'ri so'z o'zlashtirmaydi, lekin so'zlarni kalkalash vositasi yordamida semantik jihatdan o'zlashtiradi. Til qurilishida ihotalanishning ustivorligi seziladi. So'zlar "yuysu" (ma'noli bo'g'in)lardan tarkib topgan bo'ladi. Yevropa tilshunosligida markaziy o'rinni "so'z", xitoy tilshunosligida esa "yuysu" egallaydi. Xitoy tilida har bir matn avval "yuysu"larga bo'linib, keyin so'zlarga ajratiladi.

Xitoy tili alohida ohang tizimiga ega. Boshqa tillarda bo'lganidek, xitoy tilida ham gap urg'usi mavjud. Bundan tashqari, har bir urg'u olgan "yuysu" u yoki bu ohangda talaffuz qilinadi. "Putunxua"da "yuysu"ning to'rt ohanggi ajratilib, bu ohanglar muayyan o'qish qoidalari asosida talaffuz etiladi. Zotan, ohang ma'noni farqlashda muhim omil sanaladi.

2004-yilda o'tkazilgan birinchi umumxitoy tadqiqotlarining ma'lumotlariga ko'ra, XXR aholisining 70% "putunxua"da gapira oladi. Umuman, xitoy tilida 1 milliarddan ortiq kishi so'zlashadi. Shundan 130 million kishi uchun u ona tilidir¹. Bundan tashqari, 10 milliondan ortiq xitoylik Janubi-sharqiy Osiyo (Indoneziya, Kambodja, Laos, Vetnam, Myanma, Malayziya, Tailand, Singapur)da yashaydi. Xitoy tili BMT ish yuritadigan olti rasmiy tildan biri hisoblanadi².

Bugungi kunda XXR hukumati xitoy tilining dunyoda yoyilishiga alohida e'tibor qaratmoqda. 1984-yilda XXR Ta'lim vazirligi qoshida Chet ellarda xitoy tilini ommalashtirish ishlarini yuritish idorasi ("Xanban") tashkil qilindi. Unda xuddi TOEFL singari xitoy tilidan rasmiy imtihon joriy etildi.

¹ http://russian.news.cn/economic/2009-11/03/c_1378126.htm.

² <http://ru.wikipedia.org>.

2009-yil ma'lumotlariga ko'ra, XXR tashqarisida 40 million chet ellik xitoy tilini o'rganmoqda. Muhojirlar orasida xitoy tili va madaniyatini ommalashtirish davlat miqyosidagi muhim vazifalardan biriga aylangan¹.

10.2. Xitoy tilining dialektlari va ularga munosabatlar

Xitoy dialektlari ko'p asrlar davomida shakllangan. Xitoyning turli hududlarida leksik tarkibiga ko'ra farqlanadigan tilning o'ziga xos hududiy shakllari G'arbiy Chjou sulolasi hukmronligi davrida vujudga kela boshlagan. Qadimiy Xitoy tarixida dialektlarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ajralib ketgan xonliklarning bir-biri bilan hech qanday madaniy aloqalari bo'lmagan "jang qilayotgan xonliklar davri"da yuz bergan. Xitoy imperatori Sin Shixuan xitoy tilini Sin dialekti asosida standartlashtirishga harakat qiladi, biroq mazkur islohot faqat yozuvga tegishli edi. O'rta asrlarning boshida qadimgi xitoy tilining tamoman inqirozga yuz tutishi natijasida mahalliy dialektlar shakllanadi. Ular Uch xonlik hamda Shimoliy va Janubiy sulolalar davrida bir-biridan mustaqil ravishda rivojlandi. Bundan tashqari, ularning barchasi tarqalgan hududiga ko'ra Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan turli xalqlar tillarining ta'siriga uchradi. Tan sulolasi davrida mamlakatning shimoliy va janubiy hududlaridagi mahalliy shevalar so'zlashuv tilida deyarli bir-birini tushunib bo'lmaydigan darajaga keldi. Bu davrda qadimiy xitoy tilining leksik-grammatik me'yoriga asoslangan "venyan" adabiy tilining ishlab chiqilishi, hech bo'lmaganda tilning yozuv shaklidagi dialekt farqlaridagi to'siqlarni bartaraf qilishga urinish edi.

O'rta asrlarning oxirlarida mo'g'ullar istilosidan keyin mamlakatning shimoliy va janubiy qismlaridagi mahalliy variantlar orasidagi farq yana-da kuchayadi. Bu jihat Yuan sulolasi hukmronligi davrida xitoy tili rasmiy maqomining yo'qolgani bilan ham bog'liq edi.

Hokimiyat organlari o'z faoliyatlarini mo'g'ul tilida olib borishdi. Sin - manjur sulolasining hukmronligi davrida ham vaziyat deyarli o'zgarmadi. Faqat XX asrdagini mamlakat rahbariyati xitoy tili doirasida dialekt farqlari muammosi bilan jiddiy shug'ullandi. 1956-yilda XXR Davlat kengashining "Umumtilni yoyish haqidagi" qarori qabul qilinishi bilan mahalliy dialektlarga nisbatan assimilyasiya siyosati batamom mustahkamlanib, xitoy tili rivojlanishining rejalashtirish dasturi amalga oshirila boshlandi².

Biroq Xitoy hukumati shu kungacha butun mamlakatni yoppasiga "putunxua"ni qo'llashga o'tkazishni amalga oshirolmadi. 80-yillarning

¹ Завьялова О.И. Язык - это мягкая сила // Независимая газета. 16.12.2009 - http://www.ng.ru/science/2009-12-16/9_language.html.

² Клиновский В. А. Идеиные основы политики кин в отношении диалектов китайского языка // Известия. Электронный журнал Иркутской государственной экономической академии - № 2. 2012 <http://eizvestia.isea.ru>.

oxirida yangi ta'lim dasturlarining qabul qilinishi bilan "putunxua" dialektlarni an'anaviy qo'llash sohasiga asta-sekin singdirila boshlandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy dialekt (fan yan) so'zi xitoy tilida eramizdan avval ham mavjud bo'lgan. Uning so'zma-so'z tarjimasini "ajnabiy nutqi" ma'nosini anglatib, lotincha "dialekt" so'zining etimologiyasi bilan to'liq mos kelmaydi.

Xitoy tili ko'p dialektli til bo'lib, unda 1 milliard 200 milliondan ortiq kishi gaplashadi. Shulardan 800 millioni Shimoliy guruhda so'zlashadi. Xitoy adabiy tili Shimoliy dialektlarga asoslangan. Pekin talaffuzi fonetik me'yor hisoblanadi. Xitoy, sobiq Ittifoq va Rossiya tadqiqotchilari tomonidan hozirgi XXRning hududida yettita yirik dialekt guruhining mavjudligi qayd qilingan. Ular quyidagilardan iborat:

- Guanxua dialektlari yoki mandarin (Xitoyda inqilobdan oldin: katta amaldorlar) dialekti;

- Szyansu va Chjeszyan viloyatlarining U dialektlari;

- Szyansining Gan dialekti guruhi;

- Xunan viloyatida tarqalgan Syan dialekti;

- Futszyan va Guandun janubiy viloyatlarida tarqalgan Xakka dialektlari;

- Futszyan viloyati va Osiyoning janubi-sharqiy qismidagi xitoyliklarning Min yoki Xokkien dialektlari guruhi;

- Guandun viloyati, Makao va Gonkongning ayrim ma'muriy tumanlari, shuningdek, Yangi dunyo (Amerika) mamlakatlaridagi aksariyat xitoylik muhojirlarning Yue yoki Kanton dialekti¹.

Yevropalik va amerikalik tadqiqotchilarning fikrlaricha, yuqorida qayd qilingan dialekt guruhleri mustaqil tillar hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi adabiyotlarda ularning tavsifi uchun *dialect* - dialekt emas, balki *language* - til so'zi qo'llaniladi.

Xitoy tilining birligi nazariyasi ko'pincha dialektlarning maxsus yozuvi yo'qligiga tayanadi. Odatda, iyeroglif yozuvi hozirgi xitoy tili hududiy shakllarini birlashtiruvchi asosiy omil bo'lib, turli dialektlarning egalari undan foydalangan holda, bir-birlari bilan har doim erkin muloqotda bo'lishlari mumkin, deb hisoblanadi. Aslida bunday emas. XXRning janubiy viloyatlarida yashovchilarning mandarin dialekti yozuv variantini tushunish qobiliyati so'nggi 15-20 yil ichida, ya'ni mamlakat hukumati Xitoyning butun hududlarida "putunxua"ni yoppasiga o'rganishga asoslangan ta'lim standartlarini qattiq nazorat qila boshlagandan keyin

¹ Завьялова О.И. Китайские диалекты и современное языкознание в КНР // Вопросы языкознания. 2009, - № 6. - С. 102-108.

shakllangan¹. Haqiqatda dialektlarning yozuv tizimida katta farqlar mavjud. Misol tariqasida kanton tilining gonkong varianti (Yue guruhi)ni keltirish mumkin. Mandarin dialekti egalarining aksariyati uning yozuv variantini tushuna olmaydi. Vaziyat Gonkong kabi hududlarda yana ham chuqurlashadi. Gonkongda 60-yillarda Xitoy qit'asida iyerogliflarni soddalashtirish yuzasidan o'tkazilgan islohotlar qabul qilinmadi va shimoliy viloyatlarda yashovchilarning ko'pchiligi tushunmaydigan iyerogliflarning klassik yozilishi hozir ham qo'llanishda davom etmoqda. Mandarin dialektida so'zlashuvchilar orasida mamlakatning boshqa hududlaridagi dialektlarni tushunuvchilar juda ozchilikni tashkil qiladi. O'z navbatida, Xitoyning janubida yashovchilar tuzumning tazyiqi ostida bir vaqtning o'zida ham ona tilida, ham "putunxua" tilida ta'lim olishga majbur.

XXR hukumati har doim ham sino-tibet tillari oilasining xitoy tillari tarmog'ini maxsus ishlab chiqilgan qandaydir siyosiy dastur asosida bir til sifatida atayin talqin qilgan, deb aytish mumkin emas. Bunday holat tabiiy ravishda yuzaga kelgan. Mazkur tillarning mustaqillik huquqi ular shakllangan paytdan boshlab o'rta asrlarda ham, yangi davrlarda ham tan olinmagan. Xan etnosining ongida xitoy tilini bo'lish g'oyasi oddiy ravishda paydo bo'lmagan. Xitoy til mafkurasi modelining asosida aynan milliy birlik konsepsiyasi yotadi. Boshqacha aytganda, xanlar uchun til birinchi navbatda ularning etnik mansubligini ifodalaydi.

Xitoy Kommunistik partiyasi til siyosatining asosiy vazifalaridan biri til standartlarini unifikatsiya qilish va millatlararo muloqot tilini yoyish orqali mamlakat hududida yagona madaniy makonni tashkil qilish hisoblanadi. Biroq xitoy tili hududiy shakllarining yuqorida keltirilgan tavsifidan ko'rinadiki, mamlakatning turli viloyatlarida istiqomat qiladigan xan etnosi vakillari orasida bir-birini tushunishni ta'minlash vazifasi milliy ozchilik orasida "putunxua"ni yoyishdan ham murakkabroq bo'lishi mumkin. Bu o'rinda nafaqat milliy muxtoriyatlarda, balki xitoy tili dialektlari tarqalgan hududlarda ham lisoniy vaziyatni tartibga keltirish tadbirlari rejasini ishlab chiqish zarurati tug'iladi.

Shunisi qiziqarlilik, XXRning dialektlarga nisbatan tilni rejalashtirishining mafkuraviy asosi xitoy tilining birligi g'oyasi, ya'ni mazkur dialektlarni mustaqil tillar sifatida tan olmaslik hisoblanadi. Ushbu g'oya xanlarning milliy birligi tamoyiliga asoslanadi. Xan etnosi doirasida mamlakat shimoliy hududlari aholisi siyosiy jihatdan yetakchi, deb tan olinadi. Chunonchi, qadimda va o'rta asrlarda bu hududlar davlat siyosiy hayotining o'chog'i bo'lgan.

¹ Zhou Minglang. The spread of Putonghua and language attitude changes in Shanghai and Guangzhou, China // Journal of Asian Pacific Communication. 2001, № 11. - P. 227-249.

10.3. Xitoy yozuvi

Xitoy tillari iyeroglif yozuvga asoslangani holda, chjuan, tibet, uyg'ur va mo'g'ul tillari o'zining mustaqil alifbosiga ega. Xitoy yozuvidagi har bir iyeroglif alohida "yuysu" va alohida morfemani anglatadi. Iyerogliflarning umumiy soni 80 mingdan oshadi. Iyerogliflarning katta qismini faqat xitoy yozma yodgorliklaridagina uchratish mumkin. 1500 iyeroglifni bilgan kishi boshlang'ich bosqichdagi savodxon hisoblanadi. 3000 iyeroglifni egallagan shaxs gazeta va omnaviy jurnallarni bemalol o'qiy oladi.

Hozirgi kunda xitoy iyerogliflarining 2 varianti mavjud:

- 1) Xitoyda qo'llaniladigan soddalashtirilgan iyeroglif;
- 2) Tayvan, Gonkong va boshqa dialektlarda qo'llaniladigan an'anaviy iyeroglif.

Qadimgi Xitoy yozuvi yuqoridan pastga qarab yozilgan. Hozirgi Xitoy yozuvi gorizantal, ya'ni chapdan o'ngga qarab yoziladi. Tayvanda esa ham vertikal, ham gorizantal yozuvdan foydalaniladi. Biroq Xitoyda hozir ham tarixiy va madaniy asarlar uchun vertikal yozuv ishlatiladi.

1958-yilning 11-fevralida xitoy tiliga moslashtirilgan lotin alifbosi rasmiy tasdiqlandi. Hozirgi bosqichda lotin alifbosi iyeroglifning o'rmini bosa olgani yo'q, undan faqat yozuvning yordamchi vositasi sifatida foydalanilmoqda.

10.4. Xitoydagi lisoniy vaziyat va til siyosati

Mamlakatda "islohotlar va ochilish" (gayge kayfan) davridan beri olib borilgan til siyosati Xitoyning xalqaro miqyosdagi obro'sining oshishiga olib keldi. Xitoyda til ma'naviy qadriyatlar tizimida eng yuksak mavqega ega bo'lib, u qadimiy iyeroglif yozuvi bilan birga, xitoy sivilizatsiyasining tashuvchisi va globalashuv davrida milliy o'zlikni saqlovchi kafolat hisoblanadi. Konfutsiylik ta'limotining tilga va bilimdonlikka bo'lgan an'anaviy hurmati milliy tiklanishning zaruriy shartiga aylandi¹.

2007-yildan boshlab "klassik matnlar har bir kishining hayotiga kirishi lozim" degan shior ostida "nafis til (ya yan)"da yozilgan kanonlashgan (qat'iylashgan – Sh.Usmanova) matnlarni ifodali o'qish odati qayta tiklandi. Kanton dialektida ijro etiladigan *yueszyuy* operasi va janubiy futszyan dialektidagi *nanin* musiqali chiqishi nafaqat XXRning umumdavlat milliy madaniy merosi, balki YUNESKOning madaniy meroslar ro'yxatiga ham kiritildi².

¹ Ван Дэнфэн. Чунши чжунхуа цзиндянь, фусян чжунхуа вэньхуа (Приведем в порядок китайские классические памятники, возродим китайскую культуру) // Юйвэнь цзяньшэ. 2008, № 7-8; О.И. Завьялова. Китайский язык в период реформ и открытости // Китай: поиск гармонии. К 75-летию академика М.Л. Титаренко. - М., 2009. - С. 492-499.

² www.unesco.org/culture/ich/index.php?RL=00203; www.unesco.org/culture/ich/index.php?RL=00199.

Xitoy davlatining til muammolariga bo'lgan e'tibori tarixiy davrlarga borib taqaladi. Iyeroglif yozuvining birinchi islohoti eramizdan oldingi 213-yilda Xitoy imperatori Sin Shixuan tomonidan o'tkazilgan. U umumxitoy va istilo qilingan xonliklarda foydalanilgan mahalliy iyerogliflarni batamom tugatib, ularning o'miga yangi iyerogliflar majmuasini tuzishga farmon bergan¹.

Hozirgi Xitoyda til masalalari bilan qator davlat muassasalari, xususan, XXR Ta'lim vazirligining bo'limlari hamda Davlat tili va yozuv qo'mitasi shug'ullanadi. 2006-yildan boshlab XXR va xitoy tilida so'zlashuvchi boshqa hududlardagi lisoniy vaziyat hamda til siyosati haqida yillik to'plam nashr qilinadi².

"Islohotlar va ochilish" davrida til me'yorlarini belgilashga va axborot texnologiyalarga bog'liq bo'lgan iyeroglif standartlariga doir o'nlab rasmiy hujjatlar e'lon qilindi. 2001-yilning 1-yanvarida mamlakat tarixida birinchi marta "XXRning umumdavlat tili va yozuvi haqida"gi Qonun qabul qilindi.

Xitoyning kadrlar tayyorlash siyosatidagi an'anaviy vosita – ijtimoiy rasmiy imtihonlar (*keszuy*) bo'lgan. Bu imtihonlarni davlat xizmatida ishlashni xohlovchilar topshirishgan. Xitoy davlati, madaniyati va mentaliteti uchun muhim hisoblangan *keszuy* instituti Xan sulolasining hukmronlik davrida (e.o. 206 - e. 220) vujudga kelib, 605-yilda, ya'ni Suy sulolasining hukmronlik davrida (581-618) batamom shakllangan. Har bir imtihon topshiruvchining muvaffaqiyatidan qat'iy nazar, unga muayyan darajadagi davlat lavozimida ishlash huquqi berilgan. *Keszuy* o'n uch asr mobaynida amalda mavjud bo'lgan.

1905-yilda Sin (1644-1911) sulolasi hukmronligining oxirlarida *keszuy* o'zining arxaik-ijtimoiy mazmuni bilan mamlakatni modernizatsiya qilish vazifalariga mos kelmaydigan vosita sifatida rasman bekor qilindi. 1928-yilga kelib, Xitoy Respublikasining hukumati davlat xizmatchilarining imtihon topshirishini boshqaradigan maxsus Imtihonlar kengashi (*Kaoshi yuan*) tashkilotini tuzishga urindi. 1947-yilda yapon bosqinchiligi tugatilgandan keyin bu tashkilot qayta tashkil qilindi va hozirgacha Tayvanda faoliyat yuritmoqda³.

1995-yilda davlat siyosatining "islohotlar va ochilish" davrida davlat xizmatiga kirishni xohlovchilar uchun rasmiy imtihon joriy qilindi. Mazkur imtihon mutaxassislik jihatlari bilan birga, lisoniy salohiyatni ham o'z

¹ Usmanova Sh. Xitoydagi til siyosati // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. –Toshkent: TDSHI, 2013. – B. 165.

² Чжунго юйянь шэнхо чжуанкунан баогао (2005) (Доклад о языковой ситуации в Китае в 2005 г.). – Пекин, 2006. Т. 1–2.

³ Usmanova Sh. Xitoydagi til siyosati // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. –Toshkent: TDSHI, 2013. –B. 166.

ichiga oladi. Tadqiqotchilar nafaqat standart iyeroglif yozuvini (oliy ma'lumotlilar uchun majburiy), balki standart Pekin talaffuzini ham bilishlari lozim.

1994-yilda XXRda "putunxua"ni ommalashtirish davlat dasturi doirasida "Putunxuani bilish darajasi testi" (*Putunxua shuypin seshi*), deb nomlangan maxsus imtihon ham joriy qilindi. "Putunxua"ni bilishning uch darajasi belgilandi. Til va yozuv haqidagi qonunga ko'ra, "Putunxuani bilish darajasi testi" XXRning davlat xodimlari uchun majburiy bo'lishi kerak. 2001-yilda oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, radio va televideniya diktorlari bilan birga, 5 million kishi test topshirdi. 2005-yilga kelib, test topshiruvchilarning soni 18 millionga chiqdi. 2008-yildan boshlab "putunxua"ni bilish testiga qo'shimcha ravishda iyeroglif yozuvni egallash darajasini tekshiradigan imtihon ham kiritildi¹.

Ommaviy axborot vositalari tilini monitoring qilish XXR til siyosatining muhim yo'nalishini tashkil qiladi. 2004-yilda Ta'lim vazirligi Til axborotlari boshqarmasining qator oliy o'quv yurtlari bilan hamkorligida Lisoniy manbalarni o'rganish va monitoring qilish davlat markazi tashkil qilindi. Mazkur markazdagi besh bo'limdan uchasi OAV tili, qolgan ikkitasi esa o'quv materiallari va xorijdagi xitoyliklar tilini nazorat qilish bilan shug'ullanadi. Markazdagi birinchi bo'lim OAVning matbuot, ya'ni iyeroglif nashrlarini nazorat qiladi. Radio va televideniya OAVning "og'zaki" guruhiga kirib, kino va teatrlarni ham o'z ichiga oladi. Internetdagi OAV va internet tili bilan maxsus bo'lim shug'ullanadi².

Keyingi o'ttiz yil mobaynidagi islohotlar XXRda davlatning nafaqat faol til siyosati davri, shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning qo'llab-quvvatlanish davri ekanligi bilan ham tavsiflanadi. XXRda tilshunoslikka oid o'nlab jurnallar, xususan, "Qadimgi xitoy tili", "Lug'at tadqiqotlari", "Dialektlar", "Xitoy tilida informatsiyalarni ishlab chiqish", "Xitoy iyerogliflari madaniyati", "Zamonaviy tilshunoslik" va h.k. nashrlar davlat budjeti tomonidan ta'minlanadi. XX asr mashhur tilshunoslarining xitoy lingvistikasining turli masalalariga bag'ishlangan ishlari qayta nashr qilinmoqda³.

10. 5. Xitoyning Sinjondagi til siyosati

XXRning tarkib topishi bilan Xitoyning shimoli-g'arbidagi Ichki Mo'g'uliston, Shinjon-Uyg'ur (SUAR) va Tibet muxtor hududlarida milliy

¹ Чжунго юйянь шэнжо чжуанкуан баогао (2005) (Доклад о языковой ситуации в Китае в 2005 г.). - Пекин, 2006. Т. 1-2.

² Ли Юймин. Чжунго юйянь гуйхуа лунь (О языковом планировании в Китае). - Чанчунь, 2005. - С. 219-225.

³ Завьялова О.И. Современное языкознание (1970-е - начало XXI в.) // Духовная культура Китая. Т. 5. 2009. - С. 520-528; Завьялова О.И. Китайское лингвистическое чудо // Независимая газета. 28.01.2009 - http://www.ng.ru/science/2009-01-28/11_china.html.

masala o'ta keskinlashdi. Mazkur hududlarda tarixda xanlar bilan zaif aloqada bo'lgan, etnik kelib chiqishi, dini va tili farq qiladigan milliy ozchilik yashaydi. Bugungi kunda ko'p millatli davlatlar doirasida, binobarin, Xitoyda ham har qanday etnik guruhlariga o'z tarixi va madaniyatiga egalik, diniy erkinlik va h.k.da teng huquq berilgan.

XX asming 50-yillarida Tibet va Sharqiy Turkiston (hozirgi Shinjon) Xitoy hududiga qo'shib olindi. Shinjondagi turkiy xalqlar, asosan, uyg'urlar o'zining qadimiy tarixi va boy madaniy an'anlariga ega. Uyg'urlar mazkur hududlarda 2000 yil oldin yashagan to'xtar sivilizatsiyasining vorislaridir¹.

XXRning dastlabki yillarida industrialashtirish darajasining pastligidan g'arbiy hududlar bilan aloqalar rivojlanmagan edi. Natijada, bu hududlarda yashovchilar xan etnosining madaniy bosimini uzoq yillar davomida sezmadilar. Biroq g'arbiy hududlarda iqtisodning rivojlanishi bilan vaziyat o'zgardi. O'tgan asrning 80-yillarida bu yerga sharqiy hududlardagi xitoyliklar ommaviy ravishda ko'chib kela boshladi². Bu paytdan boshlab mamlakat g'arbidagi milliy muxtoriyat xalqlari asta-sekin xitoy madaniyatining bosimi ostida qolganlarini sezdilar. Mahalliy tillar xitoy tilining ta'sirida iste'moldan siqib chiqarila boshladi.

XXR tadqiqotchilarining hisoblashlaricha, hozir mamlakatda 130 dan ortiq til yo'qolish arafasida turibdi³. Ayrim g'arbiy mutaxassislar bu ko'rsatkichning 200ga yaqinligini qayd qilishgan⁴.

G'arbiy Xitoydagi etno-siyosiy to'qnashuvlarning asosida, avvalo, bu hududlarning mustaqilligi masalasi yotadi. Mustaqillik g'oyasi ayniqsa, XX asrning birinchi yarmida Xitoyga zo'rlab qo'shib olingan Shinjon-Uyg'ur muxtor hududida o'zining keskinligi bilan ajralib turadi. Bu hududda bir necha marta isyonlar ko'tarilgan, mustaqillik g'oyasi Xitoy va xorij (asosan, islom davlatlari)dagi alohida guruhlar, shaxslar va siyosiy arboblardan tomonidan faol tashviqot qilinadi⁵.

Uyg'urlar va xitoyliklar o'rtasidagi to'qnashuv 90-yillarda ochiq tus oldi, o'n yillik tanaffusdan keyin XXI asrning birinchi o'n yilligida bu qarama-qarshilik yana-da zo'raydi. Mahalliy aholining norozilik namoyishlari bir necha bor fuqarolarning bo'ysunmaslik va qo'poruvchilik harakatlariga aylanib ketdi. Pirovardida uyg'ur separatizmini sinchiklab

¹ Клиновский В.А. Языковая политика КНР в Синьцзяне и ее роль в китайско-уйгурском конфликте // Вестник Томского государственного университета. 2012. - №2(18). - С. 140.

² Бондаренко А.В. Синьцзян-Уйгурский автономный район Китая в начале XXI века. - М., 2010.

³ Hongkai Sun. Research on the endangered languages of China // New developments in Chinese linguistics. - Hong Kong, 1999. - P. 3-17.

⁴ Bradley David. Language policy and language endangerment in China // International Journal of the Sociology of Language. 173 (2005). - P. 1-21.

⁵ Сыроежкин К.Л. Мифы и реальность этнического сепаратизма в Китае и безопасность Центральной Азии. - Алматы, 2003.

o'rganish zarurati tug'ildi va xorijda bu masalaga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi¹.

Albatta, XXRning rahbariyati bunday tahdidni tushunib yetdi va uning oldini olish maqsadida turli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqdi. Birinchi navbatda, ushbu hududlar iqtisodini rivojlantirishga katta ahamiyat berildi, chunki yaxshi sharoitning yaratilishi aholi beqarorligining oldini olishga xizmat qiladi. XXR rahbariyati bu ishlarni qisqa muddatda amalga oshirish maqsadida mahalliy malakali mutaxassislar tayyorlashga vaqt ketkazib o'tirmadi va Shinjonga boshqa viloyatlardan mutaxassislar yubordi. Bu harakatni ko'pchilik mahalliy aholini etnik assimilyasiya qilishga bo'lgan urinish, deb tushundi.

Biroq assimilyasiya uchun har doim xalqlar orasida madaniy jihatdan bir-birini tushunish lozim bo'ladi. Amalda esa uyg'urlar bilan etnik xitoyliklar bir-biridan mutlaqo ihotalangan holda yashaydi. Bundan tashqari, uyg'urlar va xan etnosi vakillarining o'zaro muloqotga kirishishi juda qiyin. Tabiiyki, bu hududga kelgan sharqiy xitoyliklar uyg'ur tilida gapirmaydi, o'z navbatida, mahalliy uyg'urlarning aksariyati faqat Xitoyning shimoli-g'arbigagina xos bo'lgan xitoy tilining dialektini biladi. Bu dialektni sharqiy xitoyliklar tushunmaydi. Natijada, rasmiy til sifatida "putunxua"dan foydalanishga to'g'ri keladi va uyg'urlar xitoy tilini qaytadan o'rganishga majbur bo'ladi. Bu xitoy tilini uyg'urlar tomonidan qabul qilmaslikka imkon tug'diradi².

Keyinchalik Xitoy hukumati mamlakatning oz sonli millatlar yashaydigan hududlarida ta'lim islohoti o'tkazish rejasini ishlab chiqdi. Buning natijasi o'laroq, Shinjonda turli tillarda so'zlashuvchilar uchun alohida boshlang'ich ta'lim tizimi amalga oshirildi. Ya'ni oz sonli xalqlarning vakillari boshlang'ich ta'limni o'z ona tillarida olish imkoniyatiga ega bo'lib, so'ngra millatlararo muloqot vositasi hisoblanmish xitoy tilini chuqur o'rganishni boshlaydilar³.

Ammo bu islohotda jiddiy kamchiliklar mavjud bo'lib, unda turli yozuv tizimidagi ikkita tilni o'rganish o'rta maktab o'quvchilari uchun katta qiyinchilik tug'dirishi e'tiborga olinmagan edi. Oliy ta'limga kelganda, oliy o'quv yurtlarining barchasida ta'lim faqat xitoy tilida olib boriladi. Bu holat Shinjon universitetlarida ta'lim oladigan mahalliy talabalar sonining birdan qisqarib ketishiga olib keldi (2004-yilgacha darslar ikki tilda olib borilgan bo'lsa, hozirda, hatto, uyg'ur adabiyoti ham ba'zan xitoy tilida o'tiladigan

¹ Millward James. *Violent Separatism in Xinjiang: A Critical Assessment*. - Washington, 2004.

² Клиновский В.А. Языковая политика КНР в Синьцзяне и ее роль в китайско-уйгурском конфликте // Вестник Томского государственного университета. 2012. - №2(18). -С. 141.

³ Rong Ma. *Bilingual Education for China's Ethnic Minorities* // Chinese Education and Society. 2007. Vol. 40, - №. 2. - P. 9-25.

bo'lgan). Mazkur omil tub aholi orasida norozilikni keltirib chiqarmoqda. Uyg'ur tilining oliy ta'lim va ilmiy sohalardan chiqarib yuborilishi, ushbu til rivojlanishining sekinlashishiga olib kelmoqda. Turmushning barcha jabhalarida davlat tilini qo'llash borgan sari qulay bo'lgani bois, ushbu tillar neologizmlar va yangi grammatik konstruksiyalarni ishlab chiqish inkoniyatidan mahrum bo'lib qolmoqda.

G'arb tadqiqotchilarining aksariyati Shinjondagi madaniy to'qnashuvlarni tahlil qilish jarayonida aynan til omiliga e'tibor qaratishmoqda. Keyingi yillarda xitoyliklar va uyg'ur orasidagi madaniy qarama-qarshiliklarning chuqurlashuviga olib kelgan XXRning til siyosatini yoritadigan qator tadqiqotlar amalga oshirildi¹.

Mamlakat rahbariyati davlatning butunligini ta'minlash va oz sonli xalqlar madaniyatini saqlab qolish o'rtasida murosaga kelish yo'llarini qidirmoqda. Bu hal qilib bo'lmaydigan muammo emas va yaqin kelajakda, aibatta, yechimini topilishiga ishonish mumkin.

10. 6. Xitoyda chet tillarning o'rganilishi

Xitoyda hamma sohada bo'lgani kabi chet tillarni o'rganish ham siyosiy hodisalarga, tashqi aloqalarga bog'liq. Global hamjamiyatlar siyosiy va iqtisodiy jihatdan Xitoy bilan hisoblashganda xorijiy tillarni o'rganishni qo'llab-quvvatlash ham yuqori bo'ladi. Aksincha, tashqi munosabatlar XXR ichki siyosati va madaniy birligiga tahdid solyapti, deb hisoblanganda, bu ko'rsatkich past bo'ladi. Xususan, ingliz tilining ahamiyati siyosiy vaziyatga ko'ra o'zgarib turgan. Masalan, ma'lum davrlarda ingliz tili bosqinchilar, barbarlar va aksilkomunistlar uyushmasining tili hisoblangan. Shu bilan birga, ingliz tili hamkorlar, texnik ekspertlar, ziyolilar, turistlar tili tarzida e'tirof etilgan.

Xitoyliklarning inglizlar bilan ilk aloqalari 1637-yilda 4 ingliz kemasining Masao va Guanjou portlariga kirishi bilan boshlangan. Xitoy boshqa davlatlar va madaniyatlarga past nazar bilan qaragani uchun ham ularning tili va madaniyatiga qiziqishini hech qachon ko'rsatmagan. Chet tili bilan bog'liq tarjimalar kerak bo'lib qolganda, hukumat ajnabiylarning xizmatidan foydalangan. Inglizlar bilan munosabatlar o'rnatilgan bo'lishiga qaramay, na xitoyliklar, na inglizlar til o'rganishni xohlamadi. Xitoyliklar ingliz tilini o'rganishsa, inglizlarning foydasini o'ylagan, bu bilan ulardan o'zlarini past olgan sanalardi. O'z navbatida, inglizlar xitoy tiliga juda murakkab, o'rganib bo'lmaydigan til sifatida qarashdi. Bunday sharoit xitoy-ingliz pinyin tilini yuzaga keltirdi.

¹ Dwyer Arienne M. The Xinjiang Conflict: Uyghur Identity, Language Policy and Political Discourse. - Washington, 2005.

Ta'lim ingliz tilida olib boriladigan dastlabki maktablar missionerlar tarafidan tashkil etildi. Ular nasroniylikni targ'ib qilishda ingliz tilini o'rgatishni asosiy vosita deb bilishdi.

Xitoyda Respublika davrida (1911-1949), xususan. 1912-1923-yillarda maktablarda chet tili o'qitishga boshqa fanlarga nisbatan ko'proq soat ajratildi. Ayniqsa, ingliz tiliga e'tibor kuchaytirildi. Missionerlarning maktablari ham miqdoran ko'paya boshladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Xitoyda millatchilar va kommunistlar orasida ziddiyat kuchayib ketdi. Buning natijasida 1946-yilda Xitoyda fuqarolar urushi boshlandi va u 1949-yilda kommunistlarning g'alabasi bilan tugadi. 1949-yilning 1-oktabrida Pekinda Mao Szedun Xitoy Xalq Respublikasi qurilganligini e'lon qildi. 50-yillardan boshlab rus tili keng miqyosda o'qitila boshlandi. Ingliz tiliga esa dushman (AQSh) tili sifatida qaralib, maktab dasturlaridan chiqarib tashlandi. 1957-yilda Xitoy-Sovet munosabatlari "cho'ka" boshladi. Rus tilini o'qitish o'z ahamiyatini yo'qotib, o'rmini ingliz tiliga bo'shatib berdi.

Mao Szedun 1966-yilda madaniy inqilobni e'lon qildi. Madaniy inqilobning vazifasi eski madaniyatni yo'q qilish orqali odamlarni o'zgartirish va yangi jamiyatni barpo qilish edi. Bu davrda an'anaviy madaniyatga, dinga qarshi kurash ochilgan edi. Partiyada "tozalash ishlari" keng quloch yoydi, ya'ni "g'arb taraqqiyoti yo'li"ga moyil bo'lganlar bilan kurash olib borildi. Xitoy tashqi aloqalarini uzib, o'z qobig'iga o'ralib qoldi. U G'arb bilan ham, sobiq Sovet Ittifoqi bilan ham hech qanday aloqa qilishni istamadi. Chet tillarni o'rgatishga qarshi siyosat olib borildi. Hatto, chet el filmlari, kassetalari, kitoblari ham taqiqlab qo'yildi. Chet tilida so'zlashgan shaxs josusga chiqarildi. "Men xitoylikman. Nega chet tilini o'rganishim kerak" yoki "ABCni o'rganma. Inqilob qil!" singari aksilxorijiy shiorlar keng tarqaldi. Ko'pchilik xorijlik o'qituvchilar mamlakatdan chiqarib yuborildi, qator maktab va universitetlar yopildi.

1976-yilning 9-sentabrida Mao Szedun vafot etdi. Xitoy madaniy inqilob g'oyalariidan voz kechib, uning o'miga to'rt soha (agrosanoat, industriya, milliy mudofaa va fan-texnika)da modernizatsiya qilish rejasini tuzdi. Xalqaro aloqalarda ham "ochiq eshik" siyosati yo'lga qo'yildi. Chet tillar, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga katta ahamiyat berila boshlandi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Xitoy tili qaysi tillar oilasiga kiradi?
2. "Putunxua" qaysi davlatlarning rasmiy tili hisoblanadi?
3. "Putunxua" qaysi dialektlarga asoslanadi?
4. Xitoy tili qanday jihatlar bilan tavsiflanadi?
5. Xitoy tilida "yuysu" nimani anglatadi?

6. XXR aholisining qancha foizi "putunxua"da gapira oladi?
7. Xitoy tilida qancha kishi so'zlashadi?
8. Xitoy tilining hududiy shakllari qaysi sulola hukmronlik qilgan davrda vujudga kela boshlagan?
9. Mahalliy dialektlar qaysi davrlardan boshlab bir-biridan mustaqil ravishda rivojlandi?
10. "Venyan" adabiy tili qaysi davrda ishlab chiqildi?
11. Qaysi davrda hokimiyat organlari o'z faoliyatlarini mo'g'ul tilida olib borishgan?
12. XXRning hududida nechta dialekt guruhi mavjud?
13. Xitoyliklarga qadimda qanday nom berilgan?
14. Xitoyda qaysi hudud aholisi siyosiy jihatdan yetakchi, deb tan olinadi?
15. Xitoy yozuvida nechta iyeroglif mavjud?
16. Savodli hisoblanish uchun nechta iyeroglifni bilish lozim?
17. Hozirgi kunda xitoy iyerogliflarining qanday variantlari mavjud?
18. Xitoyda lotin alifbosi qachon muomalaga kiritilgan?
19. Iyeroglif yozuvining birinchi islohoti qachon va kim tomonidan o'tkazilgan?
20. XXRning til va yozuv haqidagi qonuni qachon qabul qilindi?
21. Xitoyning kadrlar siyosatidagi an'anaviy vosita nima hisoblanadi?
22. XXRda 1995-yilda joriy qilingan imtihon qaysi jihatlarni o'z ichiga oladi?
23. "Putunxuani bilish darajasi testi" qachon joriy qilindi?
24. Keyingi o'ttiz yil mobaynida XXRda qanday islohotlar o'tkazildi?
25. Uyg'urlar va xitoyliklar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning asosiy sabablari nima?
26. Xitoy hukumati mamlakatning ozchilik millatlar yashaydigan hududlarida ta'lim islohoti o'tkazishning qanday rejasini ishlab chiqdi?
27. Xitoyda chet tillarni o'rganishga bo'lgan munosabat qanday?
28. Madaniy inqilobning vazifasi nimadan iborat edi?

Adabiyotlar

1. Бондаренко А.В. Синьцзян-Уйгурский автономный район Китая в начале XXI века. –М., 2010.
2. Ван Дэнфэн. Чунши чжунхуа цзиндянь, фусин чжунхуа вэньхуа (Приведем в порядок китайские классические памятники, возродим китайскую культуру) // Юйвэнь цзяньшэ. 2008, -№ 7–8.
3. Завьялова О.И. Китайский язык в период реформ и открытости // Китай: поиск гармонии. К 75-летию академика М.Л. Титаренко. –М., 2009. - С. 492–499.
4. Завьялова О.И. Китайские диалекты и современное языкознание в КНР // Вопросы языкознания. 2009, - № 6. - С. 102–108.

5. Завьялова О.И. Язык – это мягкая сила // Независимая газета. 16.12.2009 – http://www.ng.ru/science/2009-12-16/9_language.html.
6. Завьялова О.И. Современное языкознание (1970-е – начало XXI в.) // Духовная культура Китая. Т. 5. 2009. - С. 520–528.
7. Завьялова О.И. Китайское лингвистическое чудо // Независимая газета. 28.01.2009 – http://www.ng.ru/science/2009-01-28/11_china.html.
8. Завьялова О.И. Языковая ситуация и языковая политика в КНР - http://www.ifes-ras.ru/attaches/books_texts/Zavyalova.
9. Клиновский В.А. Идеиные основы политики кир в отношении диалектов китайского языка // Известия. Электронный журнал Иркутской государственной экономической академии.- № 2. 2012 / <http://eizvestia.isca.ru>.
10. Клиновский В.А. Языковая политика КНР в Синуцзяне и ее роль в китайско-уйгурском конфликте // Вестник Томского государственного университета. 2012. - №2 (18). -С. 140 -143.
11. Ли Юймин. Чжунго юйянь гуйхуа лунь (О языковом планировании в Китае). –Чанчунь, 2005. - С. 219–225.
12. Ли Ямей. Хитой тилидаги иерархик муносабатни ифодаловчи фразеологизмлар (лексик-семантик, структур ва функционал-стилистик тахлил). Филол.фан.номз.дисс.автореф. –Тошкент, 2011.
13. Сыроежкин К.Л. Мифы и реальность этнического сепаратизма в Китае и безопасность Центральной Азии. –Алматы, 2003
14. Чжунго юйянь шэнхо чжуанкуан баогао (2005) (Доклад о языковой ситуации в Китае в 2005 г.). –Пекин, 2006. Т. 1–2.
15. Bradley David. Language policy and language endangerment in China // International Journal of the Sociology of Language. 173 (2005). - P. 1–21.
16. Dwyer Arianne M. The Xinjiang Conflict: Uyghur Identity, Language Policy and Political Discourse. –Washington, 2005.
17. Hongkai Sun. Research on the endangered languages of China // New developments in Chinese linguistics. –Hong Kong, 1999. - P. 3–17.
18. Millward James. Violent Separatism in Xinjiang: A Critical Assessment. - Washington, 2004.
19. Rong Ma. Bilingual Education for China's Ethnic Minorities // Chinese Education and Society. 2007. Vol. 40, №. 2. - P. 9–25.
20. Usmanova Sh. Xitoydagi til siyosati // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. –Toshkent: TDSHI, 2013. –В. 165- 167.
21. Zhou Minglang. The spread of Putonghua and language attitude changes in Shanghai and Guangzhou, China // Journal of Asian Pacific Communication. 2001, -№ 11. - P. 227-249.
22. <http://ru.wikipedia.org>.
23. www.unesco.org/culture/ich/index.php?RL=00203.
24. http://russian.news.cn/economic/2009-11/03/c_1378126.htm.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-ma’ruza. AQSh sotsiologvistikasi	5
1.1. AQSh sotsiologvistikasining vujudga kelishi.....	5
1.2. AQSh sotsiologvistlarining qarashlari.....	6
1.3. Arealning sotsiologvistik tarixi.....	12
1.4. AQSh tillari.....	12
1.5. Til variantlari va ularga munosabatlar.....	15
1.6. Siyosiy, ijtimoiy va etnik muammolar.....	21
2-ma’ruza. Germaniya sotsiologvistikasi	26
2.1. Germaniya sotsiologvistikasining vujudga kelishi.....	26
2.2. Sotsiologvistikaning umumiy nazariyasi.....	30
2.3. Tilning ijtimoiy variantlari.....	32
2.4. Til va siyosat.....	36
3-ma’ruza. Ispaniya sotsiologvistikasi	41
3.1. Ispaniya sotsiologvistikasining vujudga kelishidagi ijtimoiy va ilmiy shart-sharoitlar.....	41
3.2. Ispaniya tillari.....	44
3.3. Ispan tilining bugungi kundagi ahamiyati.....	46
4-ma’ruza. Buyuk Britaniya sotsiologvistikasi	48
4.1. Buyuk Britaniya sotsiologvistikasining vujudga kelishi.....	48
4.2. Lisoniy vaziyat.....	50
4.3. Buyuk Britaniya tillari.....	51
5-ma’ruza. Fransiya sotsiologvistikasi	54
5.1. Fransiya sotsiologvistikasining shakllanishi.....	54
5.2. Fransiya tillari.....	57
5.3. Fransiyadagi til siyosati.....	60
6-ma’ruza. Rossiya sotsiologvistikasi	61
6.1. Rossiyadagi sotsiologvistikaga oid tadqiqotlar.....	61
6.2. Til siyosati.....	71
6.3. Rossiya Federatsiyasining til islohoti.....	72
6.4. Rossiyada ingliz tilining o’rni.....	72
6.5. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning chegaralangan leksikaga ta’siri... ..	74
7-ma’ruza. Turkiya sotsiologvistikasi	77
7.1. Turkiyadagi til islohotlari.....	77
7.2. Turkiyadagi sotsiologvistik tadqiqotlar.....	81
7.3. Turk tili va uning dunyo tillari orasidagi o’rni.....	83
7.4. Chet tillarining ta’siri.....	85
8-ma’ruza. Yaponiya sotsiologvistikasi	89
8.1. Yaponiyadagi til siyosati.....	89
8.2. Yapon alifbosi (iyerogliflar va kana).....	94
8.3. Yapon tilining hurmat shakllari.....	95
8.4. Yapon tilining gender xususiyatlari.....	97

8.5. Yaponiyada sotsiolingvistika.....	100
9-ma'ruza. Koreya sotsiolingvistikasi.....	104
9.1. Koreyadagi til siyosati.....	104
9.2. Koreys alifbosi.....	106
9.3. Koreys tilining hurmat shakllari.....	108
9.4. Koreys tilining gender xususiyatlari.....	113
9.5. Koreys tilining noverbal vositalari.....	115
10-ma'ruza. Xitoy sotsiolingvistikasi.....	119
10.1. Xitoydagi tillar.....	119
10.2. Xitoy tilining dialektlari va ularga munosabatlar	121
10.3. Xitoy yozuvi.....	124
10.4. Xitoydagi lisoniy vaziyat va til siyosati.....	124
10.5. Xitoyning Shinjondagi til siyosati.....	126
10.6. Xitoyda chet tillarning o'rganilishi.....	129

HAMIDULLA DADABOYEV, SHOIRA USMANOVA

XORIJY SOTSIOLINGVISTIKA

(O'quv qo'llanma)

Muharrirlar: D.S.Akmalova, S.Sh.Qurbonov

Bosishga ruxsat etildi 18.02. 2014 y. Bichimi 60x84 1/16
Tezkor "rizograf"da bosildi. Nashriyot bosma tabog'i 9,6.
Sartli bosma tabog'i 14.2. Bahosi shartnoma asosida. Adadi 100 nusxa.
Buyurtma № 22.

"Universitet" nashriyoti. Toshkent-100174.
Talabalar shaharchasi. M.Ulug'bek nomidagi O'zMU

O'zMU bosmaxonasida bosildi.